

G'IYOSIDDIN
XONDAMIR

**MAKORIM
UL-AXLOQ**



Yoshlar nashriyot uyi
Toshkent
2018

UO‘K 821.512.133(092)
KBK 84g(50‘)
X 74

«Makorim ul-axloq»ning to‘liq nashrini 1981 yilda
Abdug‘affor Bayoniy amalga oshirgan

Fors tilidan **Komiljon Rahimov** tarjimasi

Nashr uchun mas‘ul:
Suyima G‘anieva, professor

Taqrizchi:
Alimulla Habibullaev, dotsent

Xondamir, G‘iyosiddin

Makorim ul-axloq: tarixiy asar /Xondamir. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 232 b.

G‘iyosiddin Xondamirning «Makorim ul-axloq» («Olijanob xulqlar») asari buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning hayoti, adabiy, ilmiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati to‘g‘risidagi qimmatli manba hisoblanadi. Asarning qo‘lingizdagi tarjimasi afg‘onistonlik navoiyshunos Abdulg‘affor Bayoniy tomonidan 1981-yili Kobulda bosmadan chiqqan nashri asosida amalga oshirilgan.

Ushbu asar Alisher Navoiyning sermahsul adabiy va ilmiy faoliyati bilan birgalikda, uning mamlakatning siyosiy barqarorligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san‘atning taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan hissasi, olijanob xulqlari, yuksak insoniy fazilatlarini to‘g‘risida ma‘lumotlar beradi.

UO‘K 821.512.133(092)
KBK 84g(50‘)

ISBN 978-9943-5219-6-4

© **Yoshlar nashriyot uyi, 2018**

«MAKORIM UL-AXLOQ» ASARINING TO‘LIQ NASHRI

1981-yilda afg‘onistonlik adabiyotshunos, shoir Abdulg‘affor Bayoniy «Makorim ul-axloq»ning to‘liq matnini Kobulda Axborot va madaniyat vaziri Majid Sarbalandiyning qisqacha so‘zboshisi bilan nashr qildi. Kitob 241 sahifadan iborat. Unda Xondamir asari to‘liq bosilgan bo‘lib, Bayoniy Xondamirning tarjimai holi, asarlari to‘g‘risida alohida boblar tarzida maqolalar bergan.

Xondamirning otasi Xoja Humomiddin ibn Burhoniddin Hiraviy, onasi mashhur tarixchi Mirxondning qizi bo‘lgan. Xondamir Mirxond tarbiyasida ulg‘aygan. Keyin Navoiy huzurida bo‘lib, uning katta kutubxonasida xizmat qilgan. Badiuzzamonning vaziri ham bo‘lgan. U olimni «Habib us-siyar» nomli asar yozishga undagan.

Mamlakatda boshlangan taloto‘plar tufayli Xondamir 1528-yilda Hindistonga ketadi. Yetti oy yo‘l azobini chekib, Agraga yetishadi. «Hasht behisht» bog‘ida Bobur bilan uchrashadi. Bobur vafotidan keyin Humoyunning mulozimi bo‘ladi. «Qonuni Humoyuniy» asarini yozib, «Amir ul-muarrixin» («Tarixchilar amiri») darajasiga erishadi.

Xondamir 942-(1535-1536)yilda Dehlida vafot etadi. Uning vasiyatiga ko‘ra, Dehli yaqinidagi Nizomiddin Avliyo va Xusrav Dehlaviy qabrlari yoniga dafn qiladilar. (Kamina uch marta ularning qabrini ziyorat qilganman.)

Xondamirning o‘g‘illari haqida Britaniya muzeyi qo‘lyozmalari katalogi muallifi sharqshunos Charlz Re yozgan edi: «Xondamirning o‘g‘li Akbarning zamondoshi bo‘lib, uning saroyida xizmat qilgan. Akbar unga «Xoniy» ta-xallusini bergan. U Sayyid Abdullohxon nomi bilan mashhur bo‘lgan va 996/1588-yili Kashmir viloyatida vafot etgan».

Eron olimi Said Nafisiy «Dastur ul-vuzaro» soʻzboshisida yozishicha, Xondamirning Mirmahmud degan oʻgʻli otasi vafotidan soʻng Hindistondan Hirotga qaytib kelgan yoki otasi bilan Hindistonga bormagan. U Shoh Ismoil va Shoh Tahmosblar haqida asar yozgani maʼlum boʻladiki, u otasi vafotidan 15 yil keyin ham hayot boʻlgan.

Ikki ogʻiz Abdulgʻaffor Bayoniy toʻgʻrisida. U 1952-yili Mullo Abdurahmon oilasida tugʻilgan. 1972-yili Kobul universitetining adabiyot fakultetiga oʻqishga kirgan. Keyin radio, televidenie, matbuot, madaniyat vazirligida xizmat qilgan, hatto Saripul shahri hokimi ham boʻlgan. 1998-yili Bayoniy Tojikistonga ketishga majbur boʻladi. U yerda litsey tashkil qilib, turmush oʻrtogʻi Oyxon bilan dars beradi. 2000-yilning yozida Bayoniy Dushanbe shahrida vafot etadi.

«Makorim ul-axloq»ning toʻliq matni va asardagi mulohazalar, izohlar va talqinlar Bayoniydan bizga qolgan ajib bir yodgorlikdir.

Mazkur kitobning fors tilidan oʻzbek tiliga toʻliq tarjimasini Komiljon Rahimov amalga oshirdi.

Xondamir oʻz asarini «Makorim ul-axloq» deb ataganda, bu ibora Paygʻambarimiz taʼrifida aytilganini nazarda tutgan deyish mumkin. Zero, Xondamir Alisher Navoiy siymosida, hayoti, faoliyati, ijodida poklikni his qilgan, eʼtiqodini eʼzozlagan.

Suyima Gʻaniyeva,
*Toshkent davlat
sharqshunoslik
instituti professori*



**MAKORIM
UL-AXLOQ**

(Olijanob xulqlar)



Mehribon va Rahmli Alloh nomi bilan [boshlayman]

Oʻzingga tavakkal qilgayman

[DEBOCHA]

(1^b) «Makorim ul-axloq» debochasining ziynati boʻlgan hamdu sano hamda eng goʻzal vasflar majmuasi varaqlarini bezab turuvchi shukr va minnatdorhilik faqatgina qudrat va yaratuvchilik qalami hamda fitrat va ixtiro xomasining uchi bilan oliy va past maxluqotlar sahifalariga mavjudlik belgisini chizgan va «Men yashirin xazina edim» xazinasini eshigini «Bilinmoq istadim va mavjudotni bor etdim» (*Hadis*) kaliti bilan ochgan va oʻz maʼrifati vositalarining shakl va mazmunini maʼlum qilgan Yaratguvchigagina tegishlidir.

Masnaviy:

*Agar uning maʼrifati yoʻl koʻrsatmaganida edi,
Na oʻzimdanda ogoh boʻlgan boʻlardim, na Xudodan.*

*Agar nuqul oʻylayverib jigarni qon qilaversak,
Bu marhamat shukrini qachon qilamiz?*

[Ul zot] insoniyat mavjudligi gʻunchasi uning inoyat gulistonida va «[Loydan yasalgan insonga] oʻz ruhimdan puflab kirgizdim»¹ shabbodasi esishlarida eng yaxshi bir tarzda ochilgan hamda ulardan bir toifasining iqboli niholi uning saxovat boʻstonida va «[Bir-birlarini boʻysundirishlari uchun] baʼzilaridan baʼzilarining darajalarini koʻtarib qoʻyganmiz»²

¹ Qurʼoni karim, «Hijr» surasi, 29-oyat va «Sod» surasi, 72-oyat. (Asarda keltirilgan oyatlarning oʻzbekcha tarjimalari Shayx Abdulaziz Mansur tomonidan amalga oshirilgan tarjima va tafsir asosida berildi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2012).

² Qurʼoni karim, «Zuxruf» surasi, 32-oyat.

[oyati]ga muvofiq ravishda haqiqatlarni anglaganligi va bilimlarni egallaganligi tufayli yuqoriga qarab o'sa boshlagan saxiy va oliyhimmat bir zotdir.

Bayt:

*Xalqning tolein birinchi safda
Qo'ydi u inoyat taqvimi (2^a) ichra.
Azaldan to abad ne qilsa qilur,
Har neki qilsa ham, kim «qilma» deyur?*

«Ogoh bo'lingki, yaratish va buyurish Unga xosdir. Olamlarning rabbi [bo'lmish] Alloh barakotlidir»¹, shuningdek, jannat bog'ining xushbo'y hidlarini ruhlar va jinlarning dimog'iga yetkazuvchi salavotlar shabbodasi, uning nurlari yog'dusi haqiqat va irfon arboblarining pok botinlarini yorituvchi tahiyyot (salomlar) sharofatlari, hazrati Xayr ul-bashar va mahshar kuni shafatchisining muattar turbati va munavvar ravzasi tuhfası, yuqori olam ko'zlari inoyat bulutlaridan marhamat nigohi bilan qaraganlaricha uning fazli fayzidan bir ozgina bo'lsa-da, saodat izlaydigan baland martaba, yer yuzidagi mamlakatlar podshohlari uning farmoniga bo'yin egib, uning hurmati dargohi atrofida xizmat qilish maqsadida yuguradigan oliy manzilat.

Bayt:

*Borgohi chodirida ba'zi payti
Iso dasturxonchiyu Xizr choy suzuvchi bo'ladi.*

[Ul zot] yoqimli «Albatta, siz buyuk xulq uzradirsiz»² xitobini eshitishga musharraf bo'lgan, mehribon Rabbim tomonidan unga aziz Kitob tushirilishi tufayli aziz bo'lgan, tanlangan, ulug'langan, saylangan, pokdomon, to'g'ri

¹ Qur'oni karim, «A'rof» surasi, 54-oyat.

² Qur'oni karim, «Qalam» surasi, 4-oyat.

yo'lga hidoyat etilgan va boshqalarni ham to'g'ri yo'lga hidoyat etuvchi hoshimiy va qurayshiy bir zotdir.

Bayt:

*Muhammad lojuvard taxtdagi shohdir,
Uning sharofati ila dunyo obod bo'ldi.*

Shuningdek, sanoqsiz salomlaru cheksiz g'ufroplar islom arkonlari uning sa'y-harakatlari bilan mustahkamlangan (2^b) hamda shariat qasri qonunlari uning sa'y-harakati sharofati-la so'z bilan ta'rif qilib bo'lmaydigan darajadagi barqarorlik va turg'unlikka erishgan Ul zotning avlodlari, sahobalari, qarindosh-urug'lari va do'stlari ruhlariga nisor bo'lsin.

She'r:

*O'ta saxovatli Zot tomonidan
Ruhlariga durudu salomlar bo'lsin.*

Shunday qilib, o'tkir ko'z egalariga maxfiy va yashirin qolmasinki, sharaf va ulug'lik osmonining oftobi, olam rahnamosining xizmatkori, eng yaxshi xulqlarni o'zida mujassam etuvchi, Rahmonning rahmat oyatlari tajassumi, janobi Subhon inoyatlari nurlari jilvagohi, ilm va irfon ahli yo'l boshchisi, haqiqat va e'tiqod ahli qiblassi, xoqon davlatining ishongani, hazrati sultonning yaqin kishisi, «faqr(lik)da boyu saxovatda botir bo'lib chiqdi», degan gapga muvofiq keluvchi oliy hazrat Nizom ul-haq va-l-haqiqat va-d-dunyo va-d-din Amir Alisherning (Alloh taolo uning ruhini shod qilsin va siddiqlar orasida uning fayzu futuhini ko'paytirsin) inoyat nuri va mehr-muhabbat quyoshi faqir banda va kichik zarra bo'lmish Xondamir taxallusi bilan mashhur bo'lgan kamina G'iyosiddin ibn Humomiddin (Alloh taolo uning ahvolini yaxshilasin va uning ezgu

maqсад va ishlariga najot bersin) boshida toblandi. [Bu faqir bandaning] mavjudlik niholi bolalik chog‘laridan yigitlik davrining oxirlariga qadar ul Hazratning lutfu ehson arig‘i yoqasida unib-o‘sdi. «Ne‘mat berguvchiga shukr qilmoq vojibdir» naqlidan kelib chiqqan holda, uning bergan cheksiz ne‘matlaridan ayrimlarining shukrini ado qilishning uddasidan chiqish uchun qanday xizmatga (3^a) bel bog‘lasam ekan, degan fikr hamisha ko‘ngildan o‘tar va xayolda charx urardi. Axiyri aql murshidi ruh qulog‘iga aytdiki, ezgu ishlarni qiluvchi bu Amirning katta ishlari va qahramonliklari shuhrati, xizmatlari va sharafli ishlari ovozi butun dunyoga tarqalgan, barcha yurtlar va go‘shalargacha borib yetgan, turli xalqlar orasida tildan tilga ko‘chib, og‘izdan og‘izga o‘tib yurgan, «Ularning yuzlarida ne‘matlarning tarovatini tanirsiz (ko‘rursiz)»¹ [oyati]ga ko‘ra Oliy Maxdum nurlari nuroniy peshanasida jilvalanib turgan hamda «Ularning yuzlarida sajda asoratidan qolgan izlar bordir»² [oyati]ga ko‘ra buyuklik va ulug‘lik belgilari saodatli chehrasida namoyon bo‘lib turgan bo‘lsa-da,

Qit‘a:

*Sening madhingda so‘z aytishdan maqsad shuki,
San‘at ahli orasida biz ham muvaffaqiyatga erishaylik.*

*Yo‘qsa, [shusiz ham] quyoshning fazilatleri barchaga ma‘lum,
Go‘zal chehraga pardozi nima hojati bor?*

bu omadli va saodatli Amirning fazilatleri, olijanob xulqlari va chiroyli odoblaridan bir qisminigina hikoya qiladigan bir necha bob yozilsa va unda uning ajoyib siyratleri, maqtovga sazovor xulq-atvorleri, boshqalarda

¹ Qur‘oni karim, «Mutaffifun» surasi, 24-oyat.

² Qur‘oni karim, «Fath» surasi, 29-oyat.

kam uchraydigan holatlari va kayfiyatlari, qiziq va gʻaroyib ishlari, sehrli isteʼdodi xususiyatlari va nozik iboralarni qogʻozga tushiradigan qalami hosilalari sharhlansa, [qilingan] yaxshiliklarni bilish, qadrlash va uning haqqini ado etish kabi vojib amalning bir daqiqasini boʻlsa-da, bajara olgan hamda toʻgʻri yoʻl koʻrsatuvchi oliy hazrat tomonidan berilgan neʼmatlarga shukr qilishning ozgina boʻlsa-da, uddasidan chiqa olgan boʻlarding. (3^b) Zero, bu ish qiyomatga qadar boʻlgan davrda va qiyomat chogʻida ham ul hazratning maqtovga sazovor amallari va maʼqul ishlari toʻgʻrisida eslatmalar zamona kitoblari hamda davron varaqlarida mangu qolishiga sabab boʻladi.

Misra:

Yaxshi nomni ikkinchi umr demish ulugʻlar.

Shundan kelib chiqqan holda, sanʼat ulugʻligi osmoni quyoshiga sano oʻqishdan boshqa hunarim boʻlmagan men banda

Bayt:

*Maqtashdan boshqa biror hunarim yoʻq,
Duodan boshqa biror yaxshi narsa topolmadim.*

Koʻnglimdagilarni yozishga kirishdim va yozganlarimni muqaddima, oʻn maqsad va xotima shaklida tartib berib, uni «Makorim ul-axloq» deb nomladim.

Ammo bu qoramalar oqqa koʻchirilmasidan va idrok ahlining fayzli nazarlariga tushmasidan oldinroq «Ey, xotirjam [sokin] jon! [Ato etilgan neʼmatlardan] rozi boʻlgan [va Alloh tomonidan] ham rozi boʻlingan holingda, Rabbing [huzuri]ga qaytgin!»¹ nidosi ushbu oliymaqom

¹ Qurʼoni karim, «Fajr» surasi, 27-oyat.

Amirning aql qulog'iga yetib bordi va [ul hazrat] Haqning chaqirig'iga «labbayka» javobini berib, uning aziz ruhi qushi nomoddiy olamdan makon topdi.

Ruboiy:

*Evoikim, dunyoning halol va pok kishisi dunyodan o'tdi,
Qanday pok kelgan bo'lsa, shundayin ketdi.*

Kishini og'ir ahvolga solib qo'yadigan bu voqea qay-g'usi bu notavonning joniga iztirob selini yo'lladi, chidab bo'lmaydigan bu hodisaning dahshati hayrat vodiysida sargardon bo'lgan bu g'aribning ko'rar ko'zlarini xira qildi.

Ruboiy:

*Yo Rab, ne qilay, kim bilan bo'lishay bu g'amni,
Dildan nima bilan chiqaray bu motamni?*
(4^a) *Hayratda qolganman, bilganim shuki,
Butun olam boshiga og'ir musibat tushdi.*

Qo'l ishdan, til esa so'zlashdan to'xtadi. O'zini yo'qotgan ko'ngil sabru oromini yo'qotib toqatsizlana boshladi.

Nazm:

*G'amlaring qiyinchiligidan faryod, ey dil,
Bo'ldi barcha urinishlaring barbod, ey dil.
Sening hosilsiz umidingni istab
Ko'z jiggar qonidan boshqa narsa to'kmadi, ey dil.*

Qog'ozga tushirilgan qoralamalarimni oqqa ko'chirib, o'zidan barakatlar sochguvchi ul zotning qanday kasal bo'lganliklari va qay holatda vafot etganliklarini bayon lavhiga bitishni o'yimga keltirgan chog'im qog'oz yumshab, siyoh quyuqlasha boshladi va qora kiygan qalam quyidagi so'zlarni bayon qilish uchun tilga kirib, shunday

dedi: «Birmuncha muddat oʻy-xayoling hosilalarini mushku anbar bilan pardozlab paxtadek oppoq yuz kabi qogʻozda jilvalantirdim».

Shundan soʻng orzu-umidlar daraxti hasrat mevasini tugib, biratoʻla oʻy-xayolni oʻsha oʻy-fikr xavotiridan xoli qildim. Chunki shunga ishonchim komilki, shundan soʻng koʻnglining yashirin xonasida goʻzallar bilan koʻngilga yoqib tushadigan soʻzlarni soʻzlash orqali yaqin munosabat oʻrnatadigan, buning natijasida esa soʻzamollik chamanining toʻtilari bulbul kabi joʻr boʻlib kuylay boshlaydigan maʼnolarga bezak berguvchi har bir oqil zamona dushmanlarining koʻpligidan va birodarlar yordamining kamligidan qimmatbaho umrlarini ana shu mashhur baytlarni oʻqishga sarf qiladilar.

Sheʼr:

*Koʻnglim dunyo ishlarining poydevoridek buzilgan,
Yor zulfidek toʻzgʻigan, baxtim [qaddi] kabi bukilgan.*

(4^b) *Bu taqdirning nihoyasiz ofatiga asir bir koʻngildir,
Bu zamona mahrumliklari oʻtida kabob
boʻlgan bir koʻngildir.*

*Bu shunday bir koʻngilki, agar bazmni tusab qolsa,
Goh yigʻi bilan rubobu goh koʻz yosh toʻkish
bilan sharob boʻladi.*

[Oʻzidagi] turli fazilatlarni mukammallashtirishga kirishadigan va oʻzini insoniyat fozillari yoʻlidan ogʻishmay yuradigan kishiga aylantiradigan har bir fozil uzlatga chekinishga, eng yaxshi ilmlar ixtiyori hamda nodir aqliy va maʼnoviy bilimlar jilovini jafokor zamon qoʻliga topshirishga majbur boʻladi.

Bayt:

*Biror bir iroda jilovi [o'z] qo'limizda emas ekan
Uning karami nima qilar ekan,
deya [uning o'ziga] tashlab qo'ydik.*

Kimki tong kabi sirlarni ochib tashlashni o'ziga kasb qilib olsa, xuddi quyosh singari boshiga oltin qadalgan toj kiyadi, kimki tun singari xatolarni yashiruvchi bo'lsa, xuddi uchar yulduz kabi ko'ngli mashaqqatning jigarni kuydiruvchi olovida yonadi. Bemehr zamona aql va bilim ahlini jinnilar jumlasidan hisoblaydi, pastkash dunyo va buqalamun kabi o'zgarib turuvchi falak esa johil va razil kishilarning ishiga rivoj beradi.

She'r:

*Falak nodon kishilarga istak jilovini beradi,
Sen fazl va bilim ahlisan, gunohing shudir, xolos.*

Qalam yig'layotgan boladek qayg'u va alamga to'la bu qissani o'ta ravon bayon etib, o'tkir til bilan shikoyatomiz hikoyatlarni yerning qoq tubidan ko'kning eng yuqori nuqtasiga yetkazganida savdoyi ko'ngil ushbu qissa sharhida unutilish qalamini yurgizishni, bayon jilovini yozish yo'lidan burishni istardi. Biroq [bu qalam] «bu nafs shunday narsaki, nimani chaqirsang, o'shani olib keladi» naqliga muvofiq harakatga keldi va aql dargohidan panoh topib, ehtiyoj yuzasidan shunday (5^a) so'z boshladi: «Hunarsizlar hunar qadrini bilmasalar ham», Allohning berganiga shukrki, cheksiz kuch-qudrat egasi bo'lgan Sohibqiron, zamona sultonlarining sultoni, ulug'vorlik va saodat to'nini kiyishga loyiq, adolat va baxtiyorlik qalamini yurgizuvchi,

Bayt:

*Xusrav bayrogʻini baland koʻtaruvchi,
Kayxusrav tojiga munosib zot,*

ilohiy sirlar jilvagohi va podshohlik nurlarini taratadigan manba, marhamat osmoni quyoshi hamda saltanat, dunyo va dinni aziz qilgan zotning ehsoni Abulgʻoziy Sulton Husayn Bahodirxonning (davlat boshqaruvida mustahkam qoziqday doim barqaror boʻlsin va saltanatining ulugʻligi xaloyiq uzra bardavom boʻlsin) soʻz sanʼatiga oshno tabʼi va donishmandlik koʻzgusi boʻlgan zehni fazl va sanʼat nurlarining nozik jihatlarini bilguvchi hamda turli bilimlar haqiqatlarini idrok qila olguvchidir.

Sheʼr:

*Pok tabʼining oldida suv ham muzlab qoladi,
Oʻtkir zehni oldida olov ham oʻchib qoladi.*

Fozil kishilarning orzu-umid nihollari uning tarbiya arigʻi yoqasida unib-oʻsib, olimlarning iqbol daraxti uning inoyat quyoshi nurlari ostida koʻkarib yashnagandir.

Bayt:

*Uning sharofati bilan ilm ommalashdi,
Uning zamonida bilimsizlikni uchratmaydilar.*

Uzoqni oʻylaydigan aql oʻzini yoʻqotib qoʻygan koʻngilni chuqur qaygʻu va iztirobda koʻrgach va uning hol tilidan chuqur oʻylab aytilgan shunday oqilona soʻzlarni eshitgach, oʻy-xayol va qalamni bu malomatli dunyoda nasihat berish ishiga qaratishni istadi hamda bu mashhur kitobni tuzishga va ushbu qimmatli asarni yozishga ragʻbatlantirdi (5^b) va undadi. Oʻy-fikr mehru vafo va samimiyluk yoʻlining yoʻlovchisiga, oʻzboshimchalik

va beparvolik xayoli esa xushmuomalalik va ko'ngil olishga aylandi. Qalam ham buni ma'qullagan holda istak boshini qimirlatdi va dovot (siyohdon) bulog'ining tiriklik ko'zidan ushbu so'zlarni chiqarib, mazkur sahifalarga bitdi.

Bayt:

*Ko'ngil, o'y-xayol va qalam samimiyatga yor
bo'lganlaridan so'ng
Barcha so'z san'ati borasidagi sirlardan voqif bo'ldi.*

Biz mehr va shafqat egalaridan kutadigan iltifot shuki, ushbu qisqacha asarga [unda uchraydigan kamchiliklarni] tuzatish nazari bilan qarasar va tirnoq ostidan kir qidirish hamda noxolis baholash yo'lini tutmasalar...

Bayt:

*Qalamim xatosini kechirim etagi bilan yashirgin,
Chunki azal kotibi mening yozmishimga shu yozuvni yozmish.*

MUQADDIMA

OLIJANOB XULQLAR FAZILATI VA DUNYO ULUGʻLARI PUSHTI PANOHINING SAODATLI TUGʻILISHI HAQIDA

Oʻtkir aql egalarining olamni bezovchi qarashlari hamda idrok va sezgirlik sohiblarining mushkullarni oson qiluvchi koʻngillariga shu narsa maʼlum va ravshan boʻladiki, «kimga Alloh yaxshilikni istasa, unga yaxshi xulq beradi» soʻziga muvofiq qachonki xohlagan narsasini yaratishga qodir boʻlgan, oʻxshashi yoʻq Yaratguvchining irodasi bandalaridan birini diniy va dunyoviy davlatga yetishishga hamda moddiy va maʼnaviy saodatga erishishga muvaffaq va sazovor etishni istaydigan boʻlsa, bunday banda oʻzining goʻzal sifatleri va maʼqul jihatlari bilan yagona zot boʻlgan Xudoning dargohida maqbul deb topilishi hamda cheksiz inoyat va mehribonlikdan bahramand boʻlishi uchun avval uning maʼnaviy chehrasini eng yaxshi sifatlar va eng goʻzal xulqlar bilan bezaydi hamda uning fayzli qalbi koʻzgidagi turli illatlar va yomon odatlarni lutf va ehson sayqallagichi bilan tozalab tashlaydi.

Hech qanday shubha yoʻqki, (6^a) agar olijanob xulqlar Xudoning suygan narsasi boʻlmaganida edi, maqtovga loyiq maqom egasini u bilan maqtamagan boʻlardi. Alloh oʻzining ulugʻ Kitobida «Albatta, Siz buyuk xulq uzradirsiz»¹ deb aytgan. Xolis fikrlaydigan va tafakkur shartlarini kerakli darajada bajaradigan har bir donishmand shunga aminki, bir necha ming paygʻambarni yuborish hamda shariat qonunlarini oʻrnatishdan koʻzda tutilgan

¹ Qurʼoni karim, «Qalam» surasi, 4-oyat.

maqсад ham xulqlarni bezash va siyratlarni yaxshilashdan boshqa narsa emasdi. Zero Sayyid ul-mursalin va Xotam un-nabiyyin (u zotga va ahli baytlarining barchalariga Allohning salomi bo'lsin) shunday marhamat qiladi: «Men olijanob xulqlarni mukammal qilish uchun yuborilganman» (*Hadis*). Buning mazmuni quyidagicha: «Mening risolatim va nubuvvatimdagi hikmat nabiylar va rasullar olijanob xulqlar va maqtovgga sazovor odoblar borasida asos solgan qoidalarni so'ngiga va takomiliga yetkazish hamda xulq-atvor bog'iga ekilgan maqbul xislatlar va yaxshi amallar niholini parvarishlab, hosilga kirgizishdan iboratdir».

To'g'riso'zlik bilan aytilgan ushbu gapning mazmuni shu narsa ma'lum va ravshan bo'ladiki, olijanob xulqlarning fazilati va go'zal odoblarning manzilati ikki uchli qalam uni bayon etishning uddasidan chiqqan oladigan va bayon barmog'i uning zarracha bir qismini bo'lsa-da yozishga qurbi yetadigan bir darajada emasdir.

Ruboiy:

*Hali yana umr bersa gapiradigan gap ko'pdir,
So'z san'ati yurtida past-balandliklardan o'tib boraman.
Ulardan birining vasfida ma'lum bosqichni bosib o'tib,
Axiyri yana o'zlik qarorgohiga qaytib kelaman.*

Barhaq bo'lmish Yaratguvchi va olamdagi barcha podshohliklar ustidan mutlaq hokim bo'lmish qamrovi keng bo'lgan Quدراتning to'la-to'kis hikmati shuni taqozo qiladiki, har necha zamonda bir marta tug'ilish ufqidan go'zal xulqi yaraqlashidan taralgan nurdan (6^b) olam sathi yorishib, keng iltifoti nurlari yog'dusidan insoniyatning turli toifalari ko'kragi kengligi munavvar bo'ladigan bir quyosh chiqib keladi.

Bayt:

*Yorqin yulduzning sharaf burjidan tole boʻlmish
Quyosh fikru Zuhra yuzu Mushtariy koʻngil.*

Bunday holatning dalili va ushbu soʻzning tasdigʻi shuki, dunyoning barcha tomonlari va goʻshalari janat bogʻi kabi adolat va ezgulik fayzidan gullab-yashnagan martabasi ulugʻ xoqon, dunyo va dinning tayan-chi Shohrux sulton (Alloh unga muruvvat qilsin va magʻfiratiga erishtirsin) saltanati zamoni va xalifaligi davronida izzat va iqbol gulshanida orzu-umid va omonlik mevalari beradigan bir nihol unib chiqdi hamda martaba va buyuklik osmonida davlat va saodat koʻzining nuri boʻlgan bir yulduz porladi.

Bayt:

*Koʻngil bogʻida bir nihol koʻkardi,
Jon osmoniga yangi bir oy chiqdi.*

Yaʼni boshqalarni toʻgʻri yoʻlga boshlash qobiliyatiga ega boʻlgan, sifat va pok niyatli, saltanatning ustuni va mamlakat tayan-chi, xoqonlik davlati suyanchigʻi va Hazrati sultonning yaqin kishisi boʻlgan ul oliy Hazrat tovuq yiliga toʻgʻri keluvchi [hijriy-qamariy] sakkiz yuz qirq toʻrtinchi yil ramazon oyining oʻn yettinchi kuni yoʻqlik dunyosidan borlik olamiga qadam qoʻyib, oʻzining goʻzal va porloq chehrasi ulugʻligi bilan yer yuziga zeb-ziynat bagʻishladi.

Sheʼr:

*Birgina oy bilan olamni yoritadigan
Osmonni boshdan-oxir kezib chiqish kerak.
Olamning oʻzi hech qachon va hech bir holda
Kamolga erishgan kishidan xoli boʻlmaydi.*

Lutfu karam belgilari baxtiyor chehrasida namoyon boʻlib, goʻzal xulq-atvor alomatlari yarqiroq peshonasidan

aniq-ravshan ko‘zga tashlanib turardi. Uning qutlug‘ sulolasi bilan bog‘liq belgilar (7^a) hol tili bilan shundan xabar berdiki, yaqin orada «Unga go‘daklik chog‘idayoq hikmat [va ilm] ato etdik»¹ oyatining haqiqatini odamlarga ma‘lum qiladi va uning muborak chehrasi nurlari barchaning aql qulog‘iga shuni yetkazdiki, tez orada fazl va kamol masnadini qutlug‘ qadami bilan bezaydi.

Bayt:

*Kimdaki oliy toifaga mansublikning belgisi bo‘lsa,
Bu narsa uning chehrasida nur kabi namoyon bo‘lib turadi.*

Endigina dunyoga kelgan oliy martabali zotning ota-onasi [bandalariga] hadyalar ato qilguvchi Zotga shukr qilish hamda [el-yurtga] nazr va sadaqa berish maqsadida ziyofat va to‘y marosimini o‘tkazishga va [shu orqali odamlarga] quvonch va shodlik bag‘ishlashga kirishishdi. Tarixnavislar va rivoyatchilarning nurli ko‘ngillariga noma‘lum qolmasinki, ul hazrat tavalludi quyoshining chiqish vaqti bo‘lgan ramazon oyining o‘n yettinchi kuni cheksiz sharaf va manzilatga egadir. Chunki ko‘pchilik tafsirchilarning fikricha, Mannon mulkidan so‘nggi payg‘ambar alayhi salavotga vahiy va Qur‘onning tushirilishi ham ana shu kuni yuz bergan bo‘lib, payg‘ambar alayhissalom hayoti haqida qissa yozguvchi barcha kishilarining aytishlariga qaraganda, «Badr [jangi]da [harbiy] kuchingiz oz bo‘lsa-da, Alloh sizlarni g‘olib qildi-ku!»² oyati uning yuksak sha‘nidan hikoyat qiladigan Badr jangi ham ana shu kuni yuz bergan. Bir guruh tarixchilarning taxminlaricha, Shohimardonning³

¹ Qur‘oni karim, «Maryam» surasi, 12-oyat.

² Qur‘oni karim, «Oli Imron» surasi, 123-oyat.

³ Shohimardon [mardlar shohi] – O‘rta Osiyo oddiy xalq ommasi orasida Hazrati Aliga (k.v.) berilgan nom.

(ul zotga salavotlarning eng yaxshisi bo'lsin) muborak boshiga ham xuddi ana shu kuni qilich solinib, ul zotning shahodatga yetishishiga sabab bo'lgan. Shuningdek, ayrim ulamolarning fikrlaricha, qadr kechasi ham ramazon oyining o'n yettinchi kechasiga to'g'ri keladi.

Bayt:

*O'sha qadr kechasini xilvat ahli bugun kechasiga to'g'ri
keladi, deb aytadilar;
Yo rab, bu davlat qay bir yulduzning ta'siri mahsulidir?*

Qisqacha qilib aytganda, hazrati sultonning yaqin kishisining qomat niholi (7^b) ulug'lik va baxtiyorlik arig'i yoqasida o'sa borib, kundan-kunga uning qilgan ishlari va aytgan gaplarida fazilat va kamolot belgilari ko'proq namoyon bo'lib, lahza sayin yurish-turishlarida amirlik va iqbol alomatlarini yaqqolroq ko'zga tashlanib borardi.

She'r:

*Olamni yorituvchi tong otganda
Kunduz nuri lahza sayin orta boradi.*

Bolalikchog'laridayoqul Hazratning muboraktillaridan o'ta ajoyib va kutilmagan so'zlar chiqar va [bu so'zlarni] eshitganlar hayrat dengiziga g'arq bo'lardilar. Sohibqironning¹ dong'i taralgan ulug' otasi Sulton G'iyosiddin Mansur (Alloh uning qabrini xursandchilik qandillari [nurlari] bilan munavvar etsin), saodatli podshoh Mirzo Sulton Muhammad Boyqaro hamda uning boshqa qarindoshlari va yaqinlari hamisha ushbu buyuklik gulbutasi g'unchasiga mehribonlik va g'amxo'rlik ko'zi bilan qarashar, uning

¹ Bu yerda Sohibqiron deganda Sulton Husayn Mirzo ko'zda tutilmoqda.

ilhom nishonalariga ega boʻlgan soʻzlarida uning saodatli kelajagi alomatlarini koʻrib, ul hazratga nisbatan oʻta iltifot va marhamat hissi bilan yashashardi.

Misra:

Koʻngil ahli uning chehrasida rahmat maʼnosini koʻrmishlar.

Fazilat va kamolot ahli yigʻinlarining toʻrida oʻtiruvchi bu zotning sharaffi umridan toʻrt yili oʻtib, taqdirni belgilovchi Zot mahkamasidan unga taʼlim va tarbiya berish ishi falak maktabi oʻqituvchisi boʻlgan koʻngli yorugʻ bir kishiga ishonib topshirilganda va ul zot ulugʻ martabali Sohibqironga mulozim va hamroh boʻlib (yaʼni, u bilan birgalikda) maktabga borib, taʼlim olishni boshlaganida hamda Xudoning madadi bilan qisqa vaqt ichida taʼlim olishda oʻz tengdoshlari va guruhdoshlaridan oʻzib ketganida uning nozik tabʼining sogʻlomligi va toʻlatoʻkisligi ovozi dunyoning barcha tomonlariga yoyildi va uning muborak zehning oʻtkirliqi qissasi (8^a) xalq orasida tildan tilga oʻtib, ogʻizdan ogʻizga koʻchdi. [Uning] asarlari durlari falak varaqlarini bezadi va sheʼrlari javohirlari dunyo sadafini qimmatbaho dur bilan toʻldirdi.

Bayt:

*Jahon limmo-lim toʻladir lolayuzlarning ogʻzi singari
Muborak soʻzlari fayziyu sochilgan durdan.*

Chuqur iltifotning xushboʻy hidlari davlat arboblari va iqbol egalari ruh dimogʻlarini toʻldirdi hamda goʻzal xulqi shabbodalaridan ilm va kamolot ahlining orzu-umid nihollari koʻm-koʻk falakka boʻy choʻzdi.

Sheʼr:

*Uning saodatli hayoti misolida oʻz aksini topdi
«Maʼkorim ul-axloq» iborasining maʼnosi.*

Birinchi maqsad

AQL VA IDROKNING ULUGʻLIGI HAMDA YUKSAK DARAJASI HAQIDA

Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: «Kimning aqli boʻlmasa, uning dini ham yoʻqdir». Toʻgʻrisoʻzlik bilan aytilgan ushbu soʻzlardan taralgan nur yogʻdusida insoniyat fozillari uchun shu narsa aniq va ravshan boʻladiki, aql va fahm nuridan bebahra boʻlgan har qanday kishining koʻngil uyida din va islom chirogʻi yonmaydi, tushunuvchan aql chirogʻi esa har bir kishining jismiga nur taratib, Xayr ul-anom shariati quyoshining nurlaridan uning ruhining koʻzi yorishadi.

Ruboiy:

*Butun olamning poydevori aql asosiga qurilgandir,
Davlat va dinning ishlari aql tufayli mustahkamdir.
Muqaddas Zot huzurida va insoniyat jam boʻlgan supada,
Sen koʻrgan har yuksalishu ulugʻvorlik ham aql tufaylidir.*

Shubhasiz, aql yordamida Hazrati Iloh maʼrifati saodatiga erishish hamda aql vositasida (8^b) janobi Parvardigorga boʻlgan bandalik dargohi makonini kezib chiqish mumkin. Rasululloh (s.a.v.)dan shunday rivoyat qilinadi: «Alloh birinchi boʻlib yaratgan narsasi aqldir. U: «Qabul qil», dedi. Shunda u qabul qildi. Soʻngra unga: «Qaytgin», dedi. U qaytdi. U (Alloh) dedi: Men yaratgan barcha narsa menga sendan koʻra suyukli. Albatta men senga ibodat qilaman, seni taniyman, sen uchun olaman va sen uchun beraman».

Ruboiy:

*Bu dunyoning ishlari aql bilan tartibga solinadi,
Shuningdek, dinning asosi ham u bilan kuchga egadir.
Qayerdagi aql hukmron bo'lmasa,
To'g'risi, unday joyda adolat mavjud bo'lmaydi.*

Aqlning to'g'ri yo'l ko'rsatishi orqali yaxshi bilan yomonni, foyda bilan ziyonni, savob bilan xatoni farqlash, shuningdek, aqlning ko'rsatmasi va bergan yo'l-yo'rig'i yordamida kunlarning almashinuvi hamda oylar va yillarning aylanib kelishi to'g'risidagi bilimlarni egallash mumkin bo'ladi.

Masnaviy:

*Aql yo'lboshchidir, aql og'irni yengil qiluvchi,
Aql [kishini] har ikki dunyoda qo'llaguvchidir.*

*Aql podshohlarning toji hisoblanadi,
Aql mashhur kishilarning ziynati hisoblanadi.*

*Aqli bo'lmagan har qanday kishini
Aqlli kishi aqllilar jumlasidan hisoblamaydi.*

*Bu dunyoda aql ne'matini qo'lga kiritsang,
Har ikki dunyoda shodmon qolarsan¹.*

Haqiqatan ham, bu nafis gavhar kimning miya qo'rg'oniga kirsa, uning ko'ziga va ko'ngliga mingta ma'no xazinasini ko'rsatadi, shuningdek, kimning baxtli qalbidan panoh topsa, bilimsizlik qo'shini qarorgohini u yerdan chiqarib tashlaydi.

¹ Firdavsiy. "Shohnoma". Muhammad Dabir Siyohiy nashri. 1-jild.

Ruboiy:

*Bu qimmatbaho laʼl boshqa bir kondandir,
Va bu yagona durning belgisi boshqachadir.
Hech qachon notoʻgʻri oʻylarni xayolingga keltirmagin,
Chunki aql afsonasining tili boshqachadir.*

Alloh taolaga hamdlar boʻlsinki, (9^a) ilm va kamolot ahlining oʻtkir koʻzi barcha narsani kuzatib turguvchi oliy Zot tanlagan kishining turli holatlari hamda aytgan nozik va goʻzal soʻzlarida oqilligu donishmandlik nurlari hamda donoligu zukkolik belgilarini shunday [mukammal] bir holatda koʻrardiki, ushbu xislatlarga [mazkur xislatlardan yana] biror narsa qoʻshishning ham iloji yoʻq edi yoki bu narsani (*yaʼni oʻta mukammal boʻlgan ushbu yaxshi xislatlarni yana nima bilandir mukammallashtirishni*) tasavvur ham qilib boʻlmasdi. Uning uzoqni koʻra biluvchi aqlining matonati bilan din va davlat ishlari bir tizimga solinib, aqlga tayanib ish tutuvchi fikrining qatʼiyati bilan mamlakat va xalqqa oid eng muhim ishlar tartibga keltirildi.

Bayt:

*Koʻngil lavhasiga nimaiki yozib qoʻygan boʻlsa,
Taqdirda shundan boshqasi yuz bermadi.*

Yorqin tafakkuri yogʻdusida chigal muammolarga oydinlik kiritilib, toʻgʻri chora-tadbirlari sharofati bilan barcha muhim ishlar yoʻlga qoʻyildi.

Bayt:

*Donoligi qogʻozga tushirgan narsalarning barchasi
Haq belgilagan taqdir yozilgan qogʻozga muvofiq keldi.*

Bu da'voning to'g'riligini isbotlash hamda bu gapning haqiqatga muvofiq kelishini ko'rsatib berish uchun ikki odil guvoh sifatida [quyidagi] ikki hikoyat keltiriladi. Shundan so'ng bayon jilovi boshqa tomonga buriladi. Yordam va muvaffaqiyat faqat Alloh dandir.

Birinchi hikoyat

[Hijriy-qamariy] 874-yilning boshlarida (mil. 1470-yil, iyul) Mirzo Yodgor Muhammad Hasanbek Turkmon yordami bilan Xurosonni o'z tasarrufiga olishga chog'langanida Sohibqiron Sulton [avval] barcha amirlari va lashkarlarini dushmanga qarshi otlantirdi, so'ngra esa ul muborak zotning o'zi ham ularning ortidan jo'nadi.

[Sohibqironning] g'alabadan darak beruvchi bayroqlari [ostidagi qo'shin] muqaddas Mashhad shahridan o'tganidan so'ng dushmanning yaqinlashib qolganligi to'g'risidagi xabar birin-ketin oldingi qismlar amirlariga yetib keldi. Shu sababli zafar bayroqli podshoh tezlik bilan dushman tomon harakat qilish niyati borligini bildirdi. Ammo uning muborak tilidan [dushmanga qarshi hujum boshlash] vaqtini aniq belgilash uchun munajjim chaqiringlar, degan ko'rsatma jarangladi.

(9^b) Shunda «Hazrati Sultonning yaqin kishisi» degan maqom va darajaga ega bo'lgan ul oliy Hazrat darhol shunday arz qildi: «Hozir munajjim chaqirishdan hamda [hozirgi] vaqtning [dushmanga qarshi hujum boshlayotgan qo'shinlarimiz uchun] omadli yoki omadsiz ekanligini tekshirib o'tirishdan hech qanday foyda yo'q. Chunki [hozirgi] vaqt [qo'shinlarimizning dushmanga qarshi hujum boshlashlari uchun] munosib bo'ladimi yoki munosib bo'lmaydimi, [bundan qat'i nazar,] ushbu ishdagi har qanday imillash yoki to'xtalish [qo'shinlarimizning

g'alabaga erishishlariga] to'sqinlik qiladi. Shu sababli ham [dushmanga qarshi harakat qilishda] shoshilish oldimizda turgan zarur masalalardan hisoblanadi».

Qit'a:

*Taqdiringda avval boshdan Xudoning lutfi bitilgan bo'lsa,
Yulduzlaru osmonlarni ishga solib o'tirma.*

*Kavsar bulog'idan sug'oriladigan Tubo daraxtining
Bahor yomg'iri bilan parvarishlanishga hojati bo'lmaydi.*

Hazrati Sohibqiron ilohiy ilhomlar tushadigan makon bo'lgan ul zotning olamni bezaguvchi fikrini ma'qullab, dushman tomon yurish boshladi. Ma'lum bir masofa bosib o'tilganidan keyin [Hazrati Sohibqiron shu qarorga kelib, dushmanga qarshi hujum boshlashga] otlangan vaqti ko'ngilga tugilgan ishni boshlash uchun g'oyatda munosib bo'lgan ma'lum bo'ldi.

Qit'a:

*G'ayb pardasi ortidagi barcha narsani,
Uzoqni ko'ra olguvchi fikrining ko'zi ko'rdi.
Ko'ngliga kelgan barcha narsani, beshak,
Taqdir kamaytirmadi ham, ko'paytirmadi ham.*

Shundan so'ng Chinoron degan joyda ikki qo'shin o'rtasida to'qnashuv yuz berib, fath va g'alaba shabbodasi oliy nasabli Sohibqiron bayrog'i uzra esdi, Mirzo Muhammad Yodgor turkmanlar bilan birgalikda sharmandalarcha mag'lubiyatga uchradi. Bu voqeaning tafsilotlari «Xulosat ul-axbor»da keltirilgan.

Ikkinchi hikoyat

Mirzo Yodgor Muhammad saltanat poytaxti Hirotni egallab olgan, Sohibqiron Sulton esa zamon taqozosiga ko‘ra Maymana va Foryob tomonga yo‘l olgan chog‘larda, kunlardan bir kuni o‘sha viloyatda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsata oluvchi Amir [Alisher Navoiy]ni yashirin bir joyga chaqirib, u bilan maslahatlashish maqsadida shunday dedi:

– Eshitishimizcha, turkmanlar saltanat poytaxti Hirotda jabr-zulm bayrog‘ini tikibdilar. (10^a) Mirzo Yodgor Muhammad esa o‘ta rohat-farog‘at va g‘aflatda ayshishrat chirog‘ini yoqqanmish. Shunga ko‘ra ko‘nglimdan shu narsa o‘tmoqdaki, agar sizning fikringiz shuni taqozo qilsa, u tomonga yurish qilsak. Shoyad ishimiz o‘ngidan kelib, Yaratguvchi Tangrining omonatlari bo‘lgan xalq zulm va mashaqqat changalidan qutulsalar.

Ul Hazrat mumkin qadar bu fikrni ma‘qullab, ushbu rejaning yashirin tutilishi lozimligini uqtirdi va Xudo ko‘ngliga solgan narsalarni so‘zlovchi tili bilan shunday dedi:

– Bu gap menga ham aytilmaganida yaxshiroq bo‘lgan bo‘lardi.

Shunda Sohibqiron Sulton:

– Bu masalada haddan ortiq ehtiyotkorlik qilinishining va bunchalik qattiq turib so‘rashning sababi nimada? – deb so‘radi.

Ulug‘ martabali Amir shunday javob berdi:

– Bu gapni sir saqlash o‘ta zarurdir. Chunki har kuni bizning odamlarimizdan bir guruhi Mirzo Yodgor Muhammadning oldiga qochib o‘tmoqdalar. Bunday kishilar [Mirzo Yodgor Muhammadga] ushbu xabarni yetkazishdan ko‘ra qimmatliroq sovg‘a topolmaydilar. Shu sababli uning [*Mirzo Yodgor Muhammadning*]

aql yogʻdusi ushbu yurish [toʻgʻrisidagi yashirin reja] ga tushib qolsa (*yaʼni u ushbu yurish toʻgʻrisidagi yashirin rejadan xabar topib qolsa*), bundan keyin ehtiyotkorlik bilan ish tutishi, hatto bu tomonga lashkar joʻnatib qolishi ham ehtimoldan uzoq emas.

Bir soʻz bilan aytganda, ushbu suhbatdan soʻng tengsiz Sohirqiron zudlik bilan Hirot tomon yoʻl oldi va oliy martabali Amirning maslahati bilan Langari Boʻkan degan joyga yetgunga qadar muborak koʻnglida sir saqlab kelayotgan bu rejasini hech kimga aytmadi. Shu joyga yetgandan keyingina boshqa amirlar va davlat arkonlari bilan ushbu yurish toʻgʻrisida maslahatlashdi. Ularning barchasi [ushbu rejani] maʼqulladilar.

Biroq ularning koʻpchiligi, [saroy va hukumat binolari joylashgan] Bogʻi Zogʻon bogʻiga aynan saroy boʻsh qoladigan tush payti kirib borish kerak, chunki shundagina dushmanlarning ishini dushmanlar istaganidek biryoqli etish mumkin, degan fikrda edilar.

Biroq dono Amir bu fikrni maʼqullamadi va shunday dedi (10^b):

– Kechasi boqqa kirishimiz uchun eng qulay fursatdir. Chunki kunduz kuni Mirzo Yodgor Muhammadning odamlari bizning hujumimizdan xabar topib, tezlik bilan kuch yigʻishlari, natijada esa bizning bu ishimiz muvaffaqiyatsizlikka uchrashi ehtimoldan xoli emas. Ammo kechasi [hujum qilinadigan boʻlsa] dushman bizning nimalar qilayotganimizdan xabardor boʻlganda ham, oʻz kuchlarini yigʻishi ehtimoldan uzoqdir. Bundan tashqari, agar biz oʻz koʻzlagan maqsadimizga erisha olmagan taqdirda ham, odamlar koʻzi oldiga qorongʻulik pardasi tutilgan tun chogʻida biror tomonga chekinishimiz mumkin boʻladi. Holbuki kunduz kuni buning iloji boʻlmaydi.

Sohibqiron Sulton bu soʻzlarni maʼqulladi va kechasi Bogʻi Zogʻonga kirib bordi. Koʻngli pok Amirning ushbu chora-tadbirlari taqdirda yozilganlarga muvofiq keldi.

«Xulosat ul-axbor»da keltirilishicha, [ushbu jangda] Mirzo Yodgor Muhammad qoʻlga tushdi va oxirat olamiga yoʻl oldi. Shunga koʻra, zamona boshqalarni toʻgʻri yoʻlga boshlovchi Amirga qarata quyidagi mazmunga ega boʻlgan soʻzlarni kuyladi:

Qitʼa:

*Mushtariy uzoqni koʻra bilguvchi aqlingni
Yaxshi va yomon vaziyatlarda yoʻl koʻrsatguvchi, deb biladi.*

*Olamni kezuvchi oy qorongʻu tunda
Sening fikringni umid sharqi, deb biladi.*

Ikkinchi maqsad

ILMNING FAZILATI VA OLIMLARNING MARTABASI HAQIDA

Fazilat va sanʼat egalari koʻngillari hoshiyasiga qazo va qadar qalami bilan shunday sharh bitilganki, yaratilish dengizlaridagi sadaflar ichida ilm asarining muborak gavharidan qimmatliroq dur yoʻqdir. Chunki Hazrati Haq subhonahu va taolo oliy darajali bu xususiyatni oʻzining muborak zotiga nisbat berib, Oliy va Aziz Zot: «Biz unga Oʻz huzurimizdan ilm bergan edik»¹, deya marhamat qiladi hamda Hazrati Xotam ul-anbiyoga (ul zotga salavotlarning mukammali va buyugi boʻlsin) [ilm deb

¹ Qurʼoni karim, «Kahf» surasi, 65-oyat.

atalmish] ana shu buyuk sovgʻani berganligi uchun unga oʻz minnatini bildirib (11^a) shunday deydi: «Alloh Sizga Kitob va Hikmatni nozil qildi va bilmaganingizni bildirdi. Allohning Sizga [nisbatan] fazli buyukdir»¹.

Shuningdek, [Haq subhonahu va taolo] ul hazratga ilm olishni amr etib: «Ayting: «Ey, Rabbim! Menga ilmni ziyoda et!»², deya marhamat qiladi hamda olimlarni Xudoga shohidlik berishda [Xudoga] yaqinlashtirilgan farishtalarga yaqin qiladi. [Xudo] yaqinlashtirilgan farishtalarni oʻziga yaqin qilgan paytida shunday marhamat qiladi: «Alloh adolatda [barqaror] turib, shunday guvohlik berdi: «Allohdan oʻzga iloh yoʻqdir», farishtalar va ilm egalari ham»³.

Shirin soʻzli toʻtining kishiga rohat bagʻishlovchi soʻzlaridan hamda «[Muhammad Qurʼonni] xomxayoldan olib soʻzlayotgani yoʻq!»⁴ [oyati]dan maʼlum boʻladiki, ummat olimlari qiyomat kuni gunohkorlarni shafokat qilishda paygʻambarlar bilan bir qatorda turishadi.

Salavotlarning mukammali va salomlarning afzali ul zotga (yaʼni, Muhammad paygʻambarga) boʻlsin, shunday deganlar: «Qiyomat kuni uch toifa kishilar shafokat qilinadi: paygʻambarlar, olimlar, shahidlar» (*Hadis*). Boshqa bir hadisda [keltirilishicha, paygʻambar alayhissalom] olimlarni ularning xulq-atvorlari va siyratlariga koʻra paygʻambarlarga oʻxshatib, shunday marhamat qiladi: «Ummatimning ulamolari goʻyo Bani Isroil paygʻambarlari kabidirlar» (*Hadis*).

Shuningdek, [paygʻambar alayhissalom yana bir joyda olimlar toʻgʻrisida] shunday deydi: «Kim olimning

¹ Qurʼoni karim, «Niso» surasi, 113-oyat.

² Qurʼoni karim, «Toho» surasi, 114-oyat.

³ Qurʼoni karim, «Oli Imron» surasi, 18-oyat.

⁴ Qurʼoni karim, «Hijr» surasi, 3-oyat.

orqasida namoz o'qisa, go'yo payg'ambarning orqasida namoz o'qigandek bo'ladi» (*Hadis*). [Payg'ambar alayhissalom] boshqa bir joyda ushbu sara toifaga mansub kishilarni payg'ambarlarning vorislari, deb atab, shunday marhamat qiladi: «Albatta olimlar payg'ambarlarning merosxo'rlaridir» (*Hadis*).

Shuningdek, [ul Hazrat] olimning obiddan afzalligi to'g'risida shunday deydi: «Olimning obiddan ustunligi xuddi Oyning boshqa yulduzlardan ustunligiga o'xshaydi» (*Hadis*). [Payg'ambar alayhissalom bu to'g'rida] yana shunday marhamat qiladi: «Olimning obiddan fazli xuddi mening sizlarning eng pastlaringizga nisbatan bo'lgan ustunligimga o'xshaydi» (*Hadis*).

Bundan tashqari Hazrati amir al-mo'minin va imom ul-muslimin asadulloh ul-g'olib (mo'minlarning amiri va musulmonlarning imomi, Xudoning g'olib arsloni) Ali ibn Abu Tolibning (*unga salom va maqtov bo'lsin*) o'zidan durlar sochuvchi so'zlari tizilgan tizmalari hamda o'zidan gavhar sochuvchi she'rlari orasidan quyidagi ikki bayt ham o'rin olish sharafiga muyassar bo'libdi.

She'r:

*Jaborning bizga yuborgan qismatiga rozi bo'ldik,
Bizda ilm bordir, dushmanlarda esa mol-dunyo.*

(11^b) *Bas, albatta mol-dunyo tezda yo'qolguvchidir,
Ilm esa albatta abadiy va boqiy qolajak.*

Aytilgan ushbu so'zlarning bayon uslubidan hamda [ushbu bobning boshida keltirilgan] mazkur muqaddimadan shu narsa osmonning qoq o'rtasidagi quyosh kabi aniq-ravshan ko'zga tashlanib turibdiki, ilm va bilimning darajasi va martabasi bunday daraja va

martabalardan yuqoriroq boʻlib, olimlarni qolgan barcha kishilardan afzal bilish zarur. «Ilm oʻrganish barcha musulmon erkaklar va musulmon ayollar uchun farzdir», degan sahih hadisga muvofiq, barcha insonlar bilim chirogʻi yorugʻida hidoyat manzili tomon yoʻl olishlari va «Aynan oʻshalarga Parvardigorlari tomonidan salavot [magʻfirat] va rahmat bordir»¹ jumlasidan boʻlishlari uchun oʻzlarining kuchlari va chidamlari yetguniga qadar ilm oʻrganishga harakat qilishlari lozim.

Bayt:

*Bilim orttir va bilim olishga intil,
Chunki bilim kishiga yoʻl koʻrsatguvchi boʻladi.*

Shunga koʻra, hidoyatga erishgan Amir bolalik chogʻlaridan umrining oxirlarigacha oʻzining barakali vaqtining koʻp qismini ilm egallash va kamolotga erishish ishiga sarflab, bir lahza boʻlsa-da, turli bilimlarni oʻrganish va har xil koʻnikmalarni egallashdan tinmadi. Umrining eng yaxshi fasli boʻlgan yoshlik yillari va yigitlik davrida mashhur olimlar yigʻilgan va hurmatga sazovor fozillarning nufuzli markazi hisoblangan shavkatli Hirot shahrida katta saʼy-harakat va soʻz ila taʼriflab boʻlmaydigan gʻayrat bilan [oʻsha zamondagi] mashhur kitoblarni mutolaa qilishga mashgʻul boʻldi.

Ulugʻ sulton Mirzo Sulton Abusaʼid podshohligi davrida Samarqandga – fiqh va boshqa sohalaridagi katta bilimi tufayli ikkinchi Abu Ali [ibn] Sino laqabini olgan, foydali ilmlar xazinasi boʻlmish janobi Xoja Fazlulloh Abullaysiy (*Alloh uni rahmatiga olgan boʻlsin*) huzuriga borib, ul janobning xonaqohidagi hujralardan biriga joylashdi va maʼlum bir muddat davomida munosib

¹ Qurʼoni karim, «Baqara» surasi, 157-oyat.

tarzda ilm olish bilan shugʻullandi. Janobi Xoja doimo ul Hazratning tabiatidagi oliyhimmatlikni maqtar va [uni] boshqa talabalardan ustun koʻrardi (12^a).

Ulugʻ Sulton gʻam-qaygʻuga toʻla bu manzildan (*yaʼni, bu dunyodan*) oʻtganidan soʻng maqtovgʻa sazovor xislatlarga ega boʻlgan Sohibqiron (Sulton Husayn Mirzo) saltanat poytaxti Hirotda podshohlik va iqbol bayrogʻini tikib, fazilat va kamolot ahli yigʻinlarining toʻrida oʻtiruvchi ul hazrat (*Alisher Navoiy*) dovrugʻi taralgan ushbu shaharga qutlugʻ qadamini qoʻyganidan keyin ham, [ul Hazrat davlat ishidagi] yuqori mansablar va darajalarga yetishgan, shavkatli podshohning noibligi maqomiga erishgan, aholining turli qatlamlariga oid eng muhim ishlar bilan shugʻullanish, yuqori va quyi tabaqalar vakillarining xohish-istaklarini roʻyobga chiqarish, davlat va xalq ishlarini yoʻlga qoʻyish, din va davlat ishlarini tartibga solish majburiyatini oʻz zimmasiga olgan boʻlsa-da, oʻz odatiga koʻra, oʻzining butun saodatli umrini turli soʻz va iboralarni tuzatish, turli maʼno va mavzularni tadqiq etish, [tadqiq qilinayotgan mavzularga] dalillar keltirish, turli masalalarni oʻrganish, ogʻizdan ogʻizga oʻtib kelgan va rivoyatlarga asoslangan fanlarning sirlarini ochib berish hamda aql va mantiqqa asoslangan fanlarning nozik jihatlarini aniqlashtirishga sarfladi.

U doimo, xoh safarda boʻlsin, xoh shaharda, oliy martabali janob hamda millat va dinning soʻzga chechan notigʻi boʻlgan Mavlono Fasihiddin Muhammad Nizomiyning huzurida uning ilmidan foydalanish maqsadida xizmatda turar va yurardi.

Bayt:

*Kamdan-kam kishi mansab va martaba taxtida
Senchalik fazilat va kamolotga erishmish.*

Shu sababli ham, «Biror narsani yaxshilab qidirgan kishi uni topadi», degan naqlga asosan, fayzli koʻnglining lavhi [borliqdagi] narsalar [va hodisalar] toʻgʻrisidagi haqiqatlar tasvirlangan joyga, foydali bilimlar joy olgan qalbining sahifasi esa Yuqori olamning nozik jihatlarini isbotlash makoniga aylandi.

Qitʼa:

*Soʻzinda bayonning nozik jihatleri ifodalangandir,
Qilgan ishlarida Qurʼon mohiyati sharhlangandir.*

*Aqliy va naqliy ilmlarning turli sohalaridan
Sifatlarining mulki mohiyati behad lazzatlanadi.*

Ilgari zamonlarda yashab oʻtganlar tomonidan bildirilgan fikrlarning eng saralari uning toʻgʻri fikrlari hosilalaridan bir namuna, zamondoshlar tomonidan bildirilgan nuqtai nazarlarning eng yaxshilari esa uning yorqin qarashlaridan bir nishona boʻla oladi.

Masnaviy:

*Falsafaning muammolari soʻzinda yechimini topmish,
Mantiq ilming har bir noaniq tushuncha izohini bermish.*

*Mashshoiylar¹ yoʻli aniqdir sen tufayli,
Ishroqiylar² yoʻli yorugʻdir sen tufayli.*

¹ Mashshoiylar – qadimgi falsafada borliqdagi narsalar, hodisalar va tushunchalarni aql va dalil yordamidagina oʻrganish mumkin, degan qarashga ega boʻlgan mashshoiylik yoki aristotelizm taʼlimotiga ergashganlar, Arastu izdoshlari (*tarj.*).

² Ishroqiylar – qadimgi falsafada borliqdagi narsalar, hodisalar va tushunchalarni mushohada va ichki sezgi yoʻli yordamidagina oʻrganish mumkin, degan qarashga ega boʻlgan ishroqiylar yoki platonizm taʼlimotiga ergashganlar, Aflotun izdoshlari (*tarj.*).

(12^b) *O'tdek chaqnagan pokiza tab'ing uchun
Falsafani anglash oddiy bir ishdir.*

*Qalbingga ilohiy bilim nur sochmish,
Qalbing vaqtichog'lik zulmatidan yuz o'girmish.*

Fikring riyoziyot borasida ham so'z aytmish,
Riyoziyot jannatni bezovchi bog' bo'lmish.

Olimlarning ulug'lari qachonki uning oliy darajadagi yig'inlarida qatnashish imkoniyatini qo'lga kiritishsa, uning samimiy qalbi sirlari sahifalaridan foydali marvaridlar yig'ishar, fozillarning mashhurlari qachonki ul hazrat o'tirgan muborak gilamning bir chetida o'tirish sharafiga ega bo'lishsa, nozik fikrlar va nafis so'zlar gavharlarini terishardi.

Qit'a:

*Aql sening kaftingni saxovat koni deb biladi,
Lekin ilm konida sendek gavhar topilmadi.*

*Fikring aqli fayzidan yuzta sham yonmish,
Natijada tab'ing nuridan ilm dunyosi yorishmish.*

Shuningdek, tasavvuf va iymon ahlining qiblasi bo'lmish ushbu zot unga zafar yo'ldosh bo'lgan Sohirqironning podshohlik zamonida mashhur olimlar va hurmatga sazovor fozillarning obro'-e'tiborini oshirish va martabalarini yuksaltirishga qo'ldan kelgancha g'ayrat va himmat ko'rsatdi hamda talabalarning [moddiy qiyinchilik ko'rmasdan] xotirjam va bemalol ta'lim olishlari uchun ularga nafaqalar tayinlab, quyida sanab o'tiladigan madrasalar va xonaqohlarni qurdi.

«Ixlosiya» madrasasi

Injil arigʻi boʻyida gʻoyatda chiroyli bezaklar berilgan holda qurilgan. Hijriy 906-yil (mil. 1500/1501) boʻlmish hozirgi paytda yuksak bilimga ega olimlardan toʻrt nafari ushbu tabarruk maskanda dars berish sharafiga muyassar boʻlib, unga tegishli vaqf mulklaridan katta daromad olib, oʻz ehtiyojlarini toʻliq qondirmoqdalar. Ularning nomlari quyidagicha: Amir Burhoniddin Atoulloh Nishopuriy, Qozi Ixtiyoriddin Hasan Turbatiy, (13^a) Amir Murtoz, Mavlono fasih ul-millat va-d-din (*millat va dinning soʻzga usta notigʻi*) Muhammad Nizomiy.

«Xalosiya» xonaqohi

Eslatib oʻtilgan madrasaning qarshisida chiroyli bezaklar berilgan va oʻta chiroyli bir tarzda qurilgan. Ushbu maskanda ham ulugʻ olimlardan uch nafari dars berish va ilm foydalarini ulashishga bel bogʻlagan boʻlib, ularning nomlari quyidagicha: Amir Jamoliddin Atoulloh Asiliy, Amir Sadridin Ibrohim Mashhadiy, Xoja Imodiddin Abdulaziz Abhariy.

«Shifoia» [madrasasi]

Ushbu madrasaning gʻarbiy tomonida oʻta toza va sarishta bir tarzda qurilgan boʻlib, hozirgi kunda Mavlono Gʻiyosiddin Muhammad ibn Mavlono Jaloliddin ushbu maskanda tibbiy ilmlardan taʼlim berish bilan mashgʻul.

«Nizomiya» madrasasi

Hirotd shahrining ichkari qismida joylashgan. Hozirgi kunda Amir Sayyid Asilning toʻngʻich farzandi Amir Burhoniddin hamda Mavlono Karimiddin Dashtbayoziy ushbu maskanda taʼlim berish bilan shugʻullanmoqdalar.

«Xusraviya» madrasasi

Shavkatli Marv shahrida bino etilgan. Madrasaning bunday nomlanishining sababi shuki, Sohibqiron xusrav¹ opasining o'g'li, Kichik Mirzo nomi bilan mashhur bo'lgan marhum shahzoda Mirzo Muhammad Sulton uning ilk g'ishtini qo'yib bergan. Shuning bilan birgalikda, «xusraviya» so'zining o'zi abjad hisobida ushbu madrasaning qurilgan yilini bildiradi.

Bundan tashqari, shu ham chuqur bilim egalarining ko'ngillari uchun noma'lum va yashirin bo'lib qolmasinki, yuqorida eslatib o'tilgan maskanlarning benazir xususiyatlari va ulardan hosil bo'ladigan fayz-baraka butun dunyo ahliga shunchalik ma'lum va mashhurki, bu haqda biror bir qo'shimcha gap aytishning hojati yo'q. Ayniqsa yigirma yil oldin bino etilgan «Ixlosiya» madrasasi va «Xalosiya» xonaqohi qurilganidan buyon to shu kunga qadar ushbu ikki tabarruk maskanga dunyoning turli mamlakatlari va burchaklaridan bir necha ming talaba kelib, qisqa vaqt (13^b) ichida o'z bilimlarini takomillashtirishga muvaffaq bo'ldilar hamda [ushbu ilm maskanlari haqqiga] duolar qilib va olqishlar aytib, o'z yurtlariga qaytib ketdilar. Ushbu jamoatga mansub bo'lgan kishilardan ko'pchiligi hozirgi kunda shavkatli Hirot shahrida mudarrislik lavozimida faoliyat ko'rsatish sharafiga muvassardirlar. Ulardan ayrimlarining nomlari «Xulosat ul-axbor»ning xotima qismida keltirilgan.

Endi esa, mavzu taqozosiga ko'ra, zamona olimlarining (ularning ilmlaridan hosil bo'ladigan foydalari qiyomatga qadar soya tashlab tursin) oliy martabali ul Amirning mashhur nomiga atab yozgan kitoblarning nomlarini aytib o'tsak, so'ngra esa qalamning chiroyli yurishlar qilib

¹ xusrav – podshoh (*tarj.*).

borayotgan nasldor otining jilovini boshqa maqsadlar sari bursak.

«**Sharhi Faroyiz**»¹ («Farz amallar sharhi») kitobi – insonlarning pushtipanohi, pok Parvardigor inoyatiga sazovor zot, millat va dinning qilichi boʻlgan oliy hazrat shayxulislom Ahmad at-Taftazoniy (Alloh taolo uning barakatlaridan tushadigan soyani qiyomatga qadar abadiy qilsin) tomonidan yozilgan.

«**Ravzat ul-ahbob fi siyrat an-nabiy va-l-ol va-l-ashob**» («Paygʻambar, uning oilasi va sahobalari toʻgʻrisidagi «Doʻstlar bogʻi») kitobi, ikki jilddan iborat – maqtovgʻa loyiq kishilarning sarasi, millat va dinning chehrasi boʻlgan Amir Atulloh al-Asiliy (Alloh taolo uning barakatlaridan tushadigan soyani qiyomatga qadar abadiy qilsin) tomonidan tuzilgan.

«**Tafsiri forsiy**» («Forscha tafsir») kitobi – oʻzidan fayz-baraka sochuvchi oliy janob Mavlono Kamoliddin Husayn al-Voiz al-Koshifiy tomonidan yozilgan.

«**Sharhi «Arbaʼin**» («Qirq hadis sharhi») kitobi – Imom Navvaviy tomonidan yozilgan.

«**Hoshiyai «Muxtasar**» («Muxtasar» asariga izohlar), «**Hoshiyai Chagʻminiy**» («Chagʻminiy izohlari»), «**Hoshiyayi sharhi «Hidoyai hikmat**» («Hikmat hidoyati» asari sharhiga yozilgan izohlar), «**Hoshiyai sharhi «Ashkol**» («Shakllar» asari sharhiga yozilgan izohlar), «**Taʼsisi sharhi bist bobi «Usturlob**» («Usturlob» sharhining yigirma bobiga yozilgan izohlar), «**Hoshiyai «Mavoqif**» («Toʻxtalishlar» asariga yozilgan izohlar), «**Sharhi «Miʼatu omil**» («Yuz omil» asariga yozilgan sharh)» kitoblari – foydali ilmlar xazinasi boʻlgan hazrati maxdum, millat va dinning soʻzga chechan notigʻi

¹ Bu erda fiqhga (islom huquqshunosligiga) oid «Sharh «Faroyiz as-Sijovandiy» kitobi nazarda tutilmoqda (*tarj.*).

Muhammad an-Nizomiy (Alloh uning fazilatlarini soyasini boshimizda abadiy qilsin) tomonidan tuzilgan.

«**Sharhi «Mishkot»** («Mishkot» asariga sharh») kitobi – fazilat nasabli janob Xoja Imodiddin Abdulaziz Abhariy (Alloh undan yetadigan foydalar soyasini boshimizda abadiy qilsin) tomonidan (14^a) yozilgan.

«**Hoshiyai sharhi «Hikmat ul-ayn»** («Donishmandlik bulogʻi» asari sharhiga yozilgan izohlar») kitobi – marhum janob Mavlono Kamoliddin Masʼud Shirvoniy tomonidan yozilgan.

«**Risolae dar ilmi farosat»** («Farosat ilmi toʻgʻrisida bir risola») kitobi – Mavlono Abdurrazzoq Kirmoniy qalamiga mansub.

«**Sharhi «Hoshiyai Mujaz»i Mavlono Nafis»** («Mavlono Nafisning «Ixcham bayon» asariga yozilgan izohlarga berilgan sharh») kitobi – donishmandlik bulogʻi Mavlono Gʻiyosiddin Muhammad (Alloh uning muborak nafasining esishini toʻxtatib qoʻymasini) tomonidan tuzilgan.

«**Tarjimai arabiyoti «Nafahot»** («Nafahot» asari arabcha qismining tarjimasini) kitobi – Mavlono Nizomiddin Ahmad Pir Shams qalamiga mansub.

«**Tazkirat un-nufus»** («Kishilar yodi») kitobi – Mavlono Darveshali Tabib tomonidan yozilgan.

«**Hoshiyai «Mutavval»** («Batafsil» asariga yozilgan izohlar») kitobi – Xoja Abulqosim Abullaysiy qalamiga mansub.

«**Hoshiyai «Miftoh»** («Kalit» asariga yozilgan izohlar») va «**Hoshiyai «Talvih»** («Ishora bilan tushuntirish» asariga yozilgan izohlar») kitobi – Xoja Xovand Abullaysiy tomonidan yozilgan.

«**Sharhi «Mujaz»** («Ixcham bayon» asariga yozilgan sharh») kitobi – Sabzavor qozisi Mavlono Gʻiyosiddin tomonidan tuzilgan.

Uchinchi maqsad

SHE'R FAZILATI VA SHOIRLARNING YUKSAK MARTABALARI HAQIDA

Chiroyli soʻz durlarini ipga terib, nazmga soluvchi va she'rga aylantiruvchi shoirlarning olamni bezaguvchi fikrlari hamda yetuk soʻz javohirlarini sotuvchilarning muborak koʻngillari uchun noma'lum va yashirin emaski, vazn va qofiyaga solib aytilgan soʻz eng yuqori tiniqlik va shaffoflikka ega boʻlgan bir gavhar, soʻz san'atining go'zal namunalari sirasiga kiruvchi she'rning yuqori darajasi va martabasi esa o'ta aniq va ravshan bir narsa bo'lib, ko'p narsani ko'rgan tajribali aql uchun undan-da qimmatliroq tanga topilmaydi va fazilatga oshno tab' uchun esa undan-da go'zalroq chehra yuz ko'rsatmaydi.

Masnaviy:

*Biror narsa soʻzdek ohangdor emas,
Yaxshilikning siri undan boshqa narsa emas.*

*Unga chidash qiyin, u bilan ovunish mushkul,
Ayniqsa tushunib yetganda ko'ngil.*

*Vazndan egniga chiroyli to'n kiyadi,
Qofiyadan etagiga bezak beradi.*

*Oyog'ida qator taqinchoq tizadi,
Peshonaga xayolning xolin chizadi.*

(14^b) *Yuz oy kabi tashbihdan jilvalanadi,
Yuzlab oshiqlarning aqlin oladi.*

*Qilni tajnis bilan qirqqa yoradi,
Ikki gesuning farqidan xol to 'qiydi.*

*Tarse' ila labdan gavhar sochadi,
Tim qora zulfga gavhar osadi.*

*Ko'zni iyhom tufayli qisiladigan qilib qo'yadi,
Tasavvur anjumanidan fitna solmagin.*

*Chehra boshi uzra majoz xolin qo'yadi,
Parda ortidan haqiqatni so'ylovchi bo'ladi.*

Shuning bilan birgalikda, she'r va shoirlar martabasi-ning ulug'ligi hamda so'zni bezaguvchi sehrgarlar mavqeining buyukligi sabablaridan biri shuki, kofirlarning so'z ustalari Sayyidi Abrorning¹ (*ul zotga to dunyo tugaguncha salavot bo'lsin*) payg'ambarliklarini inkor etish chog'ida mo'jizaviy tarzda nazm etilgan Qur'onni she'rga nisbat berib, ul hazratning o'zini ham shoirlar jumlasidan sanagan edilar. Xudovand mulki haqiqatlari to'g'risidagi bilimlar xazinasi bo'lmish oliyjanob shayxulislom, haq, haqiqat va din nuri Abdurahmon Jomiy quyidagi ma'noni bayon tizimiga solibdi.

Qit'a:

*She'r asosin ko'rkim, payg'ambarga
Maqtovlar yo'llashni inkor qildilar.*

*Qur'onning kelib chiqishini o'zgartirib ko'rsatish
maqsadida Uni shoirlikda aybladilar.*

¹ Sayyidi Abror [*arabcha, forsha izofiy birikmada Yaxshi kishilarning eng ulug'i*] – Muhammad (s.a.v.) nazarda tutilmoqda (*tarj.*).

Hazrati Haq subhonahu va taoloning: «[Muhammadga] sheʼrni taʼlim bermadik va unga [shoirlik] mumkin ham emas»¹ deb marhamat qilish orqali Xotam ul-anbiyoning gunohsizlik etagini ushbu ayblov iflosligidan pok aylaganligining sababi vaznga solib aytiladigan soʻzning (*yaʼni, sheʼrning*) haqiqatdan ham malomatli ish ekanligida emas, balki [bu oyat] shundan xabar beradiki, maqtalishga loyiq Furqonning dushmanlarini sheʼrga daxldor deb bilmasinlar hamda maqtovga loyiq maqom sohibini shoirlar qatoriga qoʻysinlar. Bunday boʻlmaganida edi, ul hazratning (15^a) Xudo koʻngliga solgan narsalarni soʻzlovchi tilidan bayt aytilmagan boʻlardi. Vaholanki [ul Hazratning] Hunayn jangi kuni quyidagi baytni aytganlari oʻz isbotini topgan.

Sheʼr:

*Men paygʻambarman, bu yolgʻon emas,
Men Abdulmutallibning oʻgʻliman.*

Shuningdek, ulugʻ sahobalar va oliy maqom valiylardan ham koʻplab sheʼrlar qolgan. Xususan, Allohning gʻolib arsloni Ali ibn Abu Tolibning (*unga salavot va salom boʻlsin*) chiroyli soʻz aytish sanʼati namunalaridan iborat boʻlgan devoni mashhur boʻlib, uning oliy soʻz sanʼati namunalaridan boʻlgan baytlari tildan-tilga oʻtib, ogʻizdan-ogʻizga koʻchib yuradi.

Sheʼrning oʻzi qasida, gʻazal, qitʼa, ruboiy va masnaviy singari bir necha turga boʻlinadi. Shoirlardan bir guruhi kuchli qobiliyatga ega boʻlganliklari sababidan ushbu sheʼr turlarining barchasida sheʼr yozishgan, ulardan boshqa bir guruhi esa tabʼlarining oʻtmasligi sababli bu turlarning ayrimlaridagina sheʼr aytishga harakat qilish bilan cheklanganlar.

¹ Qurʼoni karim, «Yosin» surasi, 69-oyat.

Allohga hamd va shukrlar bo‘lsinki, «Hazrati Sultonning yaqin kishisi» degan daraja va martabaga ega bo‘lgan ul oliy Hazratning ushbu she‘r turlarining barchasidagi mahorati shu darajaga yetgandiki, agar ilgari davrlarda yashab o‘tgan shoirlar ul Hazratning muborak zamonlarigacha yetib kelishganida [va ushbu saodatli zamoni ko‘rishganida] edi, she‘r yozadigan daftarlarini yopib (ya‘ni, she‘r yozishni yig‘ishtirib), dunyoning turli tomonlaridan uning fazilat makoni bo‘lgan ostonasi tomon shoshilgan bo‘lardilar.

Masnaviy:

*Tasannoki, tab‘ing so‘z ustasidir,
Qalaming kaliti so‘zning muammolarini yechguvchidir.*

*Bu so‘zning bozori kasod bo‘lgandi,
Xorlik burchagini makon qilgandi.*

*Bu obro‘ni berding sen yana unga,
Uni tortding she‘r maydoniga.*

*Fikringdan quvonchu lazzatga to‘ldi,
Navoiyning lutfidan bo‘ldi navoiy.*

Ul Hazrat iste‘dodining kuchliligi va qobiliyatining yuksakligi tufayli har ikkala tilda – turkiy va forsiy tillarda she‘r yozish sharafiga muyassar bo‘lgan bo‘lsa-da, biroq uning o‘tkir tab‘i forsiydan ko‘ra (15^b) turkiyga ko‘proq mayl ko‘rsatgan edi.

So‘z san‘atida dunyoda yagona bo‘lgan hamda ungacha hech kim turkiy tilda undan ko‘proq va undan yaxshiroq she‘r yozmagan Mavlono Lutfiy ul hazratning endigina o‘nib-o‘sib borayotgan va yaxshi-yomonni ajratib boshlayotgan [o‘spirinlik] chog‘larida kunlardan bir kuni uning huzuriga borib, undan:

– Biror g'azal o'qib berish orqali o'z tafakkuringiz mahsullarining yangi namunalaridan meni bahramand eting, – deb iltimos qildi.

Ul Hazrat matla'i quyidagicha bo'lgan bir g'azalni o'qib berdi.

She'r:

*Orazin yopqoch ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh.*

Janobi Mavlaviy bu ajoyib g'azalni eshitib, hayrat dengiziga g'arq bo'ldi va uning tiliga shunday so'zlar keldi:

– Xudoga qasam ichib aytamanki, agar iloji bo'lganida edi, o'zimning o'n-o'n ikki ming baytdan iborat bo'lgan turkiy va forsiy g'azallarimni birgina ushbu g'azalga almashtirgan va ushbu ayriboshlash natijasini katta muvaffaqiyat, deb hisoblagan bo'lardim.

Shohlik belgilariga ega bo'lgan ushbu Amir Sohibqiron Sulton xizmatida Marvda bo'lib turgan bir qish faslida ul Hazratning muattar ko'ngliga «Bahr ul-abror» qasidasiga tatabbu' bog'lash fikri keldi va quyidagi matla'ni bayon lavhiga bitdi.

Bayt:

*Podshohlar tojiga bezak bo'lgan o'sha o'tli la'l
Miyadagi xom xayollarni pishiruvchi bir cho'g'dir.*

Shundan so'ng bir chopar tayinlab, [ushbu baytga] tuzatishlar kirgizish uchun [uni] haqiqatlar panohi bo'lgan Hazrati Maxdumiy Nuran (*Alloh uning qabrini nurga to'ldirsin*) huzuriga jo'natdilar. Ul hazrat [bunga javoban

yozgan] maktubda ushbu matla' ta'rifida quyidagilarni yozib jo'natdi:

Qit'a:

*Tasannokim, tab'ing lochini shavqida
Muqaddas humolar qirg'ovul bo'lishni orzu qilibdi.
Marvimdan yaxshi bir matla'yo'llabsan,
So'z ustalari [aytgan so'zlar] ichida bunga o'xshashi topilmaydi.*

Haqiqatan ham bu shunday bir matla'ki, uning ma'nolaridan (16^a) lutf va zakovat nurlari taralib, undagi iboralardan chiroyli bayon belgilari yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Agar uni tugallash niyatlari bo'lsa va fikr nurini uni takomillashtirish ishiga sochsalar, shubha yo'qki, u kunlarning shohbayti hamda oylar va yillar ichra marjondagi eng yirik gavhar bo'la oladi. Pok Parvardigor bo'lmasligi kerak bo'lgan har qanday narsadan omon saqlasin va nomunosib bo'lgan har qanday narsadan uzoq qilsin.

Haqiqatlar panohi bo'lgan Hazrati Maxdumiy (Alloh uning qabrini nurga to'ldirsin) muborak Hijoz safaridan Shom orqali qaytib kelayotganida o'zidan fazilat tarqatguvchi Amirning munavvar ko'ngliga quyidagi ruboiy kelib, uni ul Hazratning huzuriga yubordilar.

Ruboiy:

*Insof bilan aytgin, ey moviy falak,
Bu ikkisidan qay biri yaxshiroq xironi etdi:
Tong tomondan sening olamni yorituvchi quyoshingmi,
Yoki Shom tomondan mening jahongashta oyimmi?*

Ul Hazrat bunga javob tariqasida quyidagi maktubni yozdilar.

Ruboiy:

*Sening qalamingga xat dedi: «Ey, xirom chogʻi Shomdan
Runga yuzta yaxshi sovgʻa keltirdi. Agar oʻrtada sen boʻlmasang,
Hijronda qolganlarga sevgilidan maktub yetib kelmaydi.*

Chiroyli yozuv va goʻzal iboralar bilan yozilgan hamda ruboiy va nazm bilan bezatilgan, chiroyli fard bilan taʼriflaydigan boʻlsak,

Misra:

Bundan yaxshirogʻini tasavvur qilib boʻlmaydigan,

ushbu muborak maktub bu oʻjiz bandaning qoʻliga yetib kelib, oʻqib chiqildi va uning har misrasidan gʻamgin koʻngil va yarador qalbgʻa uzilish va ayriliq eshigi yopilib, yetishish va visol eshigi ochildi. Visol shavqining oʻti alanga olib, uchrashish baxtiga sabab boʻladigan safarni amalga oshirishga qatʼiy ahd qilindi. Koʻngil yaqin orada ushbu niyatning amalga oshirilishi va ushbu orzuning roʻyobga chiqishini judayam istardi. Biroq roʻza kunlarining uzayib ketishi va kundan-kunga tanadagi kuchsizlikning ortib borishi sababli ushbu maqsadga yetishish vaqtining kelishi choʻzilib ketdi. (16^b) Pok va ulugʻ Parvardigor barchani diniy va dunyoviy ezgu ishlarga yoʻldosh qilsin, vassalom».

Goʻzal xislatlarga ega boʻlgan ushbu Amirning sheʼriy asarlaridan biri Shayx Nizomiyning «Panj ganj» («Besh xazina») dostoniga muqobil tarzda yozilish sharafiga muayassar boʻlgan yigirma yetti ming baytdan tashkil topgan turkiy «Xamsa» boʻlib, bu kitobda koʻpgina nozik maʼnolar va goʻzal fikrlar bayon etilgan. Haqiqatlar panohi Hazrati Maxdumiy ushbu asar taʼrifida shunday deganlar.

Masnaviy:

*Turkiy tilning qo'liga ajib bir yutuq qog'ozi tushdi,
Bu narsa sehrli nafasga egalarning og'zini yopib qo'yadi.*

*Osmonni yaratguvchilardan unga qalam keldi,
Ushbu yoqimli asar o'sha qalamdan tug'ildi.*

*Sovg'a etdi forsiyga gavharlarni,
Dariy nazmida go'zal nazm durini.*

*Agar u ham dariy tilda bo'lganida edi,
So'z aytishga imkon qolmagan bo'lardi.*

*Mo'jizali tarzda tuzilgan nazm o'lchovida
Nizomiy kim ediyu Xusrav kim edi.*

*U boshqa tilda so'z aytgani sababli
Aql ularni bir-biridan farqlashga ojiz qoldi.*

Shuningdek, [ul zot] turkiy g'azallardan yigirma besh ming baytni o'z ichiga olgan to'rt devon tuzganlar. Bolalik shabadalari esib turgan chog'larda tuzishga kirishgan birinchi devonga «G'aroyib us-sig'ar» («Bolalik g'aroyibotlari») deb nom berganlar. Yoshlik chog'larida nazm ipiga tizgan ikkinchi devonni «Navodir ush-shabob» («Yoshlikning nodir hodisalari») deb ataganlar. Barcha narsaga aqli yetadigan o'rta yoshlik chog'larida o'zlari-ning ayrim vaqtlarini uni takomillashtirishga sarflagan uchinchi devonni «Badoe' ul-vasat» («O'rta yoshlikning ajib hodisalari») deb ataganlar. Keksalik chog'larida ul hazrat tafakkuri nuri uni nazmga solish ishiga sochilgan to'rtinchi devon esa «Favoyid ul-kibar» («Keksalikning foydali maslahatlari») deb nom olgan.

Ne'matlar (17^a) ato etuvchi Zotning (bandalari orasidan) tanlagani (bo'lmish ul hazrat)ning asarlardan yana biri «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o'lchovi») bo'lib,

turkiy tilda aruz ilmi borasida yozilgandir. Haqiqatdan ham ul Hazratning sheʼriyatning nozik jihatlari borasidagi katta mahorati va tajribasi ana shu risoladan maʼlum boʻladi. Chunki [ul Hazrat ushbu asarda] ilgari yashab oʻtgan shoirlarning aql yogʻdusi unga tushmagan bir necha goʻzal bahrni aruz bahrlari qatoriga qoʻshganlar. Mazkur qimmatli qoʻlyozma asarni oʻrganib chiqqan kishi shu xulosaga keladi.

Goʻzal xislatlarga ega boʻlgan bu Amirning sheʼriy asarlaridan yana biri «Chihil hadis» («Qirq hadis»)ning sheʼriy tarjimai boʻlmish «Chihil ruboiy» («Qirq ruboiy») dir.

Shuningdek, har toʻrt misrasi qofiyalangan va radiflangan ikki yuzu oltmish ruboiy «Nasr ul-laoliy» («Qimmatbaho toshlar sochmasi») asaridagi soʻz sanʼati durdonalari hisoblanmish hikmatli gaplarning turkiy tilga qilingan tarjimasini nazm ipiga terib chiqishdan (*yaʼni, ularning turkiy tilga qilingan sheʼriy tarjimasidan*) vujudga kelgan bir asardir. Ul Hazratga qadar hech kim turkiy tilda ruboiy yozmagan koʻrinadi. [Bu tilda] har toʻrt misrasi qofiyalangan va radiflangan ruboiylar yozishni esa qoʻyavering (*yaʼni ul Hazratga qadar hech kim turkiy tilda har toʻrt misrasi qofiyalangan va radiflangan ruboiylar u yoqda tursin, balki umuman ruboiy yozmagan koʻrinadi*).

Soʻz bobidagi yetuklik maydonining ushbu chavandozining forsiy qasidalar va gʻazallardan iborat devoni esa oʻta silliq va ravon tarzda, oʻziga xos maʼnolar va koʻplab chiroyli iboralar bilan bezatilgan holda, soxtalik va maqtanchoqlik belgilaridan xoli holda yozilgan olti ming bayt sheʼrni oʻz ichiga olgan.

Qisqa bir muddat ichida chuqur badiiyat bilan bezatilgan ushbu baytlarning hamda zeb-ziyatga toʻla ushbu sheʼriy asarlarning goʻzalligi va nafosatining shuhrati shu darajaga

yetdiki, dunyoning eng uzoq mamlakatlaridagi qudratli podshohlar ham o'zlarining so'zga chechan elchilarini saltanat poytaxti Hirotga yuborib, [ul Hazratning] so'z san'atining yetuk namunasi bo'lgan kulliyotini izlashadi, arab va ajam yurtlaridagi go'shanishin darveshlar esa (17^b) ul Hazratning zavq-shavq uyg'otuvchi she'rlari ishqida kun kechirib, bor kuch-g'ayratlari bilan talab yo'lidan borishadi. Shu sababli ham Xito va Xo'tan yurtlarining u boshidan tortib, Rum va Mag'rib o'lkalarining narigi chekkalarigacha bo'lgan yurtlarda [ul Hazratning] go'zal va nafis she'rlari shohu gado, keksayu yosh, musulmonu kofir, baxtliyu baxtsizlarning tillarida doston, [ul Hazratning] ulug'vor she'rlari esa insonlarning barcha tabaqa va guruhlariga mansub bo'lgan vakillari ko'ngillari lavhlari va qalblari sahifalariga naqshlangan va bitilgandir.

Qit'a:

*Butun er yuzida seni yaxshi so'zlar bilan eslashadi
Minbardagi xatibning maqtovi bo'lmasa ham.*

*Sening noming tangada naqshlanmagan bo'lsa-da,
Barchaning ko'ngil lavhida oltinga o'yilgan naqsh kabidir.*

Oliy tabiatli Amirning qalamiga mansub asarlardan yana biri sharaflı muammo she'riy san'ati to'g'risida fors tilida yozilgan «Mufradot» («Alohida baytlar») risolasi bo'lib, [ul Hazrat] ushbu qimmatli asarni yozib, kitob holiga keltirish orqali o'ta muhim bir ixtironi amalga oshirgan. Chunki dalil sifatida keltirilgan muammo ko'rinishidagi amallardan har birida shunday holat kuzatiladiki, [muammo bo'lib kelayotgan] ushbu amalni yechish undan keyin eslatiladigan amallarni bilishga bog'liq bo'lmaydi. Shunday qilib, chuqur badiiyatga

asoslangan ushbu risolani haqiqatlar panohi boʻlgan Hazrati Maxdumiy (Alloh uning qabrini nurga toʻldirsin) huzuriga yuborishganda, ul Hazrat [ushbu risola] taʼrifida quyidagi parchani bayon lavhiga bitdilar:

«Bayt:

*Doʻstning elchisi qoʻlimga bir risola topshirdi.
Bu risola koʻngildagi koʻp yillik qaygʻuni yoʻq qildi.*

Haqiqatan ham, goʻyoki risola emas, balki endigina umrining birinchi yilini bosib oʻtayotgan bir goʻdak chidam bilan orzumand gʻariblarni izlab topdi va koʻngil ahllari peshqadamlari ustiga gʻayb kiyimxonasidan chiroyli liboslar kiygizdi.

Ruboiy:

(18^a) *Nasridagi har bir qatorning maʼnosini anglab yetsang,
Uning butun borligʻining asosini bilib olasan.
Sheʼriyatini koʻngil lavhiga bitadigan boʻlsang,
Undan har bir baytdan bir nom chiqarasan.*

Pok va ulugʻ Parvardigor ushbu fayz bulogʻini makrhiyla iflosligidan pok hamda fitna va qutqu aralashishidan omon saqlasin. Va-s-salom va-l-ikrom» (Tinchlik va ulugʻlik boʻlsin).

Haqiqatan ham hidoyat nishonli Amirning fayzli qalbining eʼtibori tufayli muammo sanʼatining negizidan tortib turli qatlamlarigacha boʻlgan qismlaridagi goʻzallik va nafosat qalam uni taʼriflashga ojiz boʻlgan bir darajaga yetdi va undan yuqorirogʻini tasavvur qilib boʻlmaydigan darajada taraqqiy topdi. [Ul Hazratning] muammolarini yechishdan yurak gʻunchasi gʻunchaning yuragi (*qoq oʻrtasi*) kabi tong shabadasida ochila boshlaydi, [uning]

o'y-xayollaridagi nozik fikrlarni anglab yetishdan esa dimog' gulshani gulshan ahlining dimog'i kabi yangi gullarning xushbo'y hididan muattarlik kasb etadi.

«Safiyu badru iyob» («Tanlangan, to'lin oy, qaytish») nomli quyidagi muammo saodatli Amir tomonidan yozilgan muammolar jumlasiga kiradi.

Bayt:

*Tong shabbodasidan neki unga tekkan bo'lsa,
Isoning nafasidek jon bag'ishlovchi bo'ldi.*

Shuningdek, «Shahriyor» («Hukmdor») nomli quyidagi muammo ham dong'i ketgan Amirning o'tkir aqli mahsuli hisoblanadi.

Bayt:

*Mening dilozorim bo'lgan shahriyor
menga shohdir, hamda oydin, hamda yor.*

Shuningdek, «Xon» deb nomlanuvchi quyidagi muammo ham baland martabali Amirning muammolari sirasida tizilgandir.

Bayt:

*Labining la'li kishiga jon bag'ishlaydigan mening jononim
gora xolini labining ostidan ko'rsatganda mening jonim bo'ladi.*

Shuningdek, «Shopur» nomli quyidagi muammo ham omadli va g'olib Amirning she'riy asarlari qatoridan joy olgan.

Bayt:

*Mening tinimsiz oqib turgan ko'zyoshimdan ma'lum
bo'ldiki, umidimning avji [eng yuqori nuqtasi] burji yulduzlarni yerga sochdi.*

Shuningdek, «Homid» («Hamd etuvchi») deb nomlangan quyidagi muammo ham ul hazratning sogʻlom tabʻi mahsulidir.

Bayt:

*Mening oydek yorim qadahni ogʻziga olib borganida,
labigaingan bir tomchini artib tashlaydi.*

(18^b) Shuningdek, «Hamza» nomli quyidagi muammo ham goʻzal xislatli Amirning sheʻriy asarlari jumlasiga kiradi.

Bayt:

*Ey may quyguvchi soqiy yigitcha, yoʻl mening koʻz
yoshlarimdan loy boʻlib ketdi. [May solingan] xunning ogʻziga
bostirib qoʻyilgan gʻishtni (olgin-da) mayxona yoʻliga otib
yuborgin (yaʻni xunning ogʻzini ochib, may quygin).*

Shuningdek, «Farrux» («Baxtiyor») nomli quyidagi muammo ham qutlugʻ xislatlarga ega boʻlgan Amirning muammolaridan biri hisoblanadi.

Bayt:

*Kuz chogʻi bogʻni koʻrgin, hashamatu sarvsiz boshqacha
koʻrinish olibdi. Bulbuli ham tumshugʻini yopganicha kuylash-
dan toʻxtabdi.*

Shuningdek, «Baho» deb nom olgan quyidagi muammo ham hidoyat nishonli Amirning sheʻriy asarlari sirasiga kiradi.

Bayt:

*Ey falak, bizning quvonch niholimizning ildizini qoʻpor-
ding, yaprogʻini zulm izgʻirini bilan yerga toʻkding.*

Shuningdek, «Hisom» («O‘tkir qilich») nomli quyidagi muammo ham ulug‘ martabali Amirning muammolaridan biri hisoblanadi.

Bayt:

*Ey ovchi go‘zal, ko‘zdan urding.
Katta bir o‘q o‘z ishini ko‘rsatdi.*

Barcha voqealarning yuz bergan sanalarini qayd qilib qo‘yish uchun munosib so‘zlar topish ham muammo san‘atiga yaqin bo‘lib, bu borada ham ul Hazratning xotirlariga ko‘plab yaxshi so‘zlar va maqbul iboralar kelibdi. Jumladan, [ul Hazrat] shoir Mavlono To‘tiyning vafoti sanasi to‘g‘risida shunday deganlar.

She‘r:

*Zamona so‘z ustasi bo‘lgan o‘sha shoir To‘tiy
Ma‘nolarning bokira qizidan qilingan kelin edi.
To‘tiy [oramizdan] ketdi-yu, shunisi qiziq bo‘ldiki,
Uning vafoti sanasi «xuro‘s» (xo‘roz) bo‘ldi.*

Shuningdek, [ul Hazrat] har ikkalasi ham uzluksiz ravishda mast qiluvchi ichimlik ichish natijasida olamdan o‘tgan Amir Sulton Hasan va uning o‘g‘li Mirzobeklarning vafot etgan yili to‘g‘risida quyidagi git‘ani nazm ipiga tizganlar.

Nazm:

*(19^a) Mir Sulton Hasan bir soat ham may ichishdan
to‘xtamas, uning ko‘rar ko‘zining nuri Mirzobek esa uzum
sharobini ichib mast bo‘lardi. Biroq ichkilik balosi tufayli
mastlik va bemorlik chog‘ida ularning umrlari nihoyasiga*

yetdi. Ularning oʻlgan yillari orasida oʻn yil farq boʻlib, bu narsa toʻgʻri va mashhurdir. Uning vafot qilgan yili «maxmur» (mast) boʻlsa, ikkinchisining oʻlgan yili «maxmuriy» (mastlik) dan maʼlum boʻladi.

Shuningdek, navbat Xoja Faxriddin Bitikchi rabotiga ham yetib, (ul Hazrat) ushbu binoning qurilishi sanasi toʻgʻrisida quyidagi ikki baytni yozgan.

Qitʼa:

Bu makon pokizalik nuri bilan yorugʻ boʻlib, uning yogʻdulari shaksiz porlab turadi. Uni qurgan kishi faxr (faxrlanish manbasi), uning oʻzi esa foxira (qimmatli va oliy) boʻlganligidan uning qurilish sanasi ham «foxira» boʻldi.

Shuningdek, [ul Hazrat] Amir Sayyid Hasanning vafot etgan yili toʻgʻrisida quyidagi soʻzlarni aytgan.

Qitʼa:

Fano ahlining rahnamosi boʻlgan Sayyid Hasan olamdan oʻtdi. Uning joyi abadiy jannatda boʻlsin. Oʻsha pokdomon oramizda yoʻq boʻlgan bir paytda [uning vafoti] sanasini soʻrashganida, «[Qodir Egamning] pok jannati uning makoni boʻlsin», deb aytdim.

Shuningdek, [ul Hazrat] bedorlik va uygʻoqlik ahlining rahnamosi Xoja Nosiriddin Ubaydullohning vafoti sanasi borasida quyidagi qitʼani nazm ipiga teribdilar.

Qitʼa:

Xojalarning xojasi Ubaydulloh soliklar murshidi va ahli yaqin edi. U shu jihatlari tufayli jannatiy boʻldi va vafot etgan yili ham «xuldi barin» (jannatning eng yuqori qavati)ga toʻgʻri keldi.

Shuningdek, [ul Hazrat] haqiqatlar panohi bo'lgan Hazrati Maxdumiy vafoti sanasi to'g'risida shunday deganlar.

Qit'a:

Ma'rifat dengizidagi haqiqat konining gavhari bo'lgan u Haqqa yetishdi-yu ko'ngildan ayro bo'lmadi. U ilohiy sirlarni ochguvchi edi. Shubha yo'qki, shu sababdan ham vafoti sanasi «kashfi asrori iloh» («Iloh sirlarini ochish») bo'ldi.

Shuningdek, [ul Hazrat] Pahlavon Muhammad Abu Sa'idning vafot etgan yili to'g'risida quyidagilarni aytganlar.

Qit'a:

(19^b) Muhammad yetti mamlakatning pahlavoni bo'lib, o'z davrida unga teng keladigani yo'q edi. Tariqat ahlining boshlig'i va yo'lboshchisi bo'lgan bu zot bu dunyo hibsonasidan ozod bo'lganicha ketdi. U taqdir taqozosi bilan zamona maxdumi bo'lgan Olam qutbi va jomlik orif vafotidan bir yildan keyin turlanib turuvchi bu eski dunyodan asta-sekin qadam tashlaganicha jannat tomon yo'l oldi. Agar biror kishi uning vafoti sanasini so'raydigan bo'lsa, unga «ba'di Maxdumiy ba yak sol» («Maxdumiy vafotidan bir yildan keyin»), deb aytgin.

Shuningdek, [ul Hazrat] Qozi Nizomiddinning Alloh taoloning huzuriga, jannatning eng yuqori qavatiga yo'l olgan yili to'g'risida quyidagilarni aytganlar.

She'r:

Falak o'zining yovuzligidan kelib chiqqan holda Mavlono Nizomiddin Qoziga jafo tig'ini tortdi. U qozilik ishida halol bo'lganligi sababidan charx uni halol kishilarning joyiga

oʻtirgʻizdi. Uning vafot etgan sanasini qidirganimda falak «qazo» («qozilik») ishi bir halol kishidan ayrildi, deb aytdi.

Shuningdek, [ul Hazrat] oʻzining zolimligi bilan mashhur boʻlgan Amir Muhammad Amin Abbosiyning qatl etilishi va uning [tanasidan judo qilingan] kallasining Hirotga olib kelinishi sanasi toʻgʻrisida quyidagi qitʻani yozganlar.

Qitʻa:

Hijratdan toʻqqiz yuz yil oʻtganda (yaʼni hijriy-qamariy 900-yilda) taqdir taqozosi bilan ajib bir voqea yuz berdi. Mozandaron tomondan bir zolimni qatl etib, uning kallasini shaharga olib kelishdi. Oʻsha olib kelishgan narsalari uning qatl etilgan kunini bildiradi.

Ul Hazratning moʻjizali tabʻining mahsullari ushbu qisqagina asarda ularni batafsil bayon etish mumkin boʻlgan darajadan anchagina koʻp boʻlganligi sababli ikki uchli qalam bayon jilovini u tomondan boshqa yoqqa burib, shuni maʼlum qiladiki, pok niyatli ushbu Amirning fayzli qalbining eʼtibori hamda uning saʼy-harakatlari sharofati bilan dunyo taxtiga ega boʻlgan Sohibqironning podshohlik davrida shoirlar va olimlarning qadr-qimmatlari va martabalari yuksalib, [ular] oʻzlarining barcha maqsadlari va orzulariga yetdilar hamda imkonlari boricha chiroyli va yetuk soʻz aytish borasida gʻayrat koʻrsatib, ul hazratning madhida sheʼriy asarlar yozdilar.

Hatto haqiqatlar panohi Hazrati Maxdumiy ham oʻzining koʻpgina sheʼriy asarlarida ezgu niyatli ushbu Amirni maqtovlarga koʻmib, bu bilan oʻzlarining nafosatga esh boʻlgan sheʼrlarining ziynatini oshirganlar. Quyida oʻsha qimmatli asarlardan ayrimlarining nomlari

keltiriladi: «Tuhfat ul-ahror» («Hur kishilar tuhfasi»), «Subhat ul-abror» («Yaxshi kishilar duosi»), «Layli va Majnun», «Yusuf va Zulayho», «Xiradnomai Iskandariy» («Iskandar donishmandligi to'g'risida kitob»).

Shuningdek, ushbu maqsadda (ya'ni ushbu bobda) ul Hazratning mashhur shaxsiga (20^a) bag'ishlanish sharafiga muayassar bo'lgan boshqa kitoblarning nomlarini keltirib o'tish ham munosib ish bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

«Risola dar sanoe' va badoe'i she'riy» («She'r badiiyati va san'atlari to'g'risida risola») va «Risolai qofiya» («Qofiya to'g'risida risola») – ulug'likning panohi oliyjanob Amir Burhoniddin Atoullah (Alloh uni sog'salomat va boqiy saqlasin) tomonidan yozilgan.

«Layli va Majnun» va «Xusrav va Shirin» kitoblari – Mavlono Shahobiddin Abdurahmon al-Jomiyning sehrli qalami mahsullaridan.

«Masnaviyot» («Masnaviylar») – Mavlono Alouddin Kirmoniy qalamiga mansub.

«Qasidai masnu'» («Badiiy san'atlar bilan bezatilgan qasida») – Mavlono Ahliy Sheroziy asari.

«Yusuf va Zulayxo» – Xoja Mas'ud Gulistoniy tomonidan yozilgan.

«Sehri hilol» («Yarim oy sehri») – Mavlono G'iyosiddin Muhammad Mavlono Jalol qalamiga mansub.

«Risolai muammo» («Muammo to'g'risida risola») – Mavlono Shamsiddin Muhammad Badaxshiy tomonidan yozilgan.

«Risolai muammo» («Muammo to'g'risida risola») – Mavlono Kamoliddin Mir Husayn asari.

Bulardan tashqari Amir Nizomiddin Shayx Ahmad Suhayliy, Amir Kamoliddin Husayn Ali Jaloyir, Mavlono Nizomiddin Astrobodiy, Mavlono Fasihiddin Sohibdoro hamda boshqa olimlar va fozillar hidoyatga

yetishgan va davlatga erishgan ushbu Amir madhida koʻpgina goʻzal va otashin qasidalar bitishgan boʻlib, ularning barchasi toʻgʻrisida soʻz yuritish gapning choʻzilib ketishiga sabab boʻladi. Shu sababli ham tezyurar qalam navbatdagi maqsadni (*yaʼni, bobni*) yozishga bel bogʻladi.

Va huval-Hodiy ila sabiyi ar-rashod (U toʻgʻri yoʻlga hidoyat qiluvchi Zot).

Toʻrtinchi maqsad

YOZUVCHILIKNING FAZILATI VA SOʻZGA ZEB BERUVCHI FOZILLARNING DARAJALARI HAQIDA

Ilm va sanʼat oʻrganish uchun turli yoʻllar tomon shoshiladigan bilimdon yozuvchilar oʻzidan nur taratib turuvchi soʻz gavharini ikki koʻrinishda namoyon etganlar. Ulardan birinchisi nazm boʻlib, sheʼriy tabʼ mahsuli, ikkinchisi esa nasr boʻlib, yozuvchilik sanʼati egalari tafakkurlarining samarasi hisoblanadi.

Fozillarning taʼbirlaricha, «insho» («yozuvchilik») soʻzining maʼnosi maʼnolar bokira qizining quloq va boʻyinlariga soʻz durlaridan boʻlgan taqinchoqlar va iboralardan terilgan nodir marjonlarni taqish, shuningdek, soʻz sanʼati asarlarini (20^b) yorugʻ koʻngillarning qorongʻulashishiga sabab boʻladigan soʻzlardan tozalash hamda ularni tilda aytish tiriklik suvining ogʻizga quyilishiga sabab boʻladigan mohir soʻz ustalarining hikoyatlariga ziynat bagʻishlashdan iboratdir.

Bu ulugʻ soha insonning kamolot toʻnining bezagi, bu goʻzal sanʼat esa «Nun. Qalam va [u bilan] yozadigan

narsalar [bitiklar] bilan qasamyod etaman»¹ oyatida eslatilgan abadiy saodatning eng yuqori darajalariga yetishga sabab bo'ladigan narsa, yozuvchilik va kitob yozish ishi esa Xudo inoyati to'g'risida tarqatilgan farmondan bir belgi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Shuningdek, «U insonga qalam bilan [yozishni ham] o'rgatdi. U insonga bilmagan narsalarini bildirdi»² oyatlari shundan xabar beradiki, maqtovgva loyiq bo'lgan yozuvchilik ishi cheksiz olijanoblik namunasidir. Shu sababli ham zamona bilimdonlari boshqa bilimdonlardan ustunlikka ega bo'lish maqsadida tinimsiz ravishda yozuvchilik maydonida ot surishardi. Shuningdek, har doim chiroyli so'z aytish san'atini egallagan yozuvchilar sha'ni va shavkati yuqori bo'lgan sultonlar hamda mavqe va martabasi yuqori bo'lgan xoqonlar oldida aziz va muhtaram hisoblanardilar.

Ulug' Parvardigorga shukrlar va undan bizga minnatlar bo'lsinki, hidoyat nasabli ul oliy hazrat ushbu sharaffi sohada ham yetuklikning eng yuqori cho'qqisiga va buyuklikning eng yuqori darajasiga yetgan bo'lib, ikki til qalamining aytganlaridan oqillik va zakovat ahli qulog'i sirlar durlari bilan to'ldi, bayon barmog'ining yozganlaridan esa (yozuvchilar homiysi bo'lgan) Atorud hayrat barmog'ini tafakkur tishi bilan tishlab qoldi.

Qit'a:

*So'z dunyosini til tig'i bilan ishg'ol etibsan, ajab,
Ta'bing so'zning sirlariga voqif bo'libdi.
Atorud labiga jimlik mixini qoqadi
Ikki til qalamining so'zni bayon etishga tushganda.*

¹ Qur'oni karim, «Qalam» surasi, 1-oyat.

² Qur'oni karim, «Alaqq» surasi, 4–5-oyatlar.

Oʻzidan gavhar sochuvchi qalami gʻavvosi qalb dengizi qaʼridan yozuv sohiliga yetkazadigan har bir tomchi qimmatbaho durdir.

Sheʼr:

*Quvonch dengizida yetishtirilgan har qanday istak gavhari
Ushbu dengizda mavjuddir ularning bari.*

Xuddi goʻzallik kabi koʻzlardan oʻt chaqnatadi,

Xuddi visol kabi har bir koʻngilga quvonch bagʻishlaydi.

(21^a) Shuningdek, [ul Hazratning] bilimdon koʻngli kotibi qalb sahifasidan qogʻoz sahifasiga koʻchirgan har bir satr foydali bir kitobdir.

Nazm:

Bu kitobmas, adashdim, bu bir dengizdir,

Aql uning atrofidan gavhar teradi.

Maʼno nozikliklari harflar kiyimida

Tun qorongʻusida Parvin yogʻdusi kabi boʻladi.

Ushbu qimmatbaho dur goʻzalligini taʼriflash va foydalar bagʻishlovchi ushbu kitob nafosatini tavsiflash har qanday bilimsiz ham qilsa boʻladigan ish yoki har qanday hunarsiz ham qilsa boʻladigan hunar boʻlmaganligi sababli, qora qalam ushbu bilim va ezgulik bulogʻi tomonidan yozilgan nasriy asarlarning ayrimlarini sanab oʻtishga bel bogʻlaydi va quyidagilarni yozadi.

Ul Hazrat qalamiga mansub nasriy asarlardan biri bayon qalami bilan turkiy tilda bitilgan «Majolis un-nafois» kitobi boʻlib, ushbu ulugʻ risola u dunyoda baxtlilardan va gunohlari kechirilganlardan boʻlgur hazrati xoqon Shohruh Mirzo hukmronligi zamonidan tortib shu kunlargacha yer yuzi vujudlarining shukuhidan bezangan va hozirda ham bezanib turgan koʻpgina

fozillar va shoirlarning xislatlari hamda hayot yo'llari to'g'risidagi ayrim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari [ul Hazrat] o'sha tilda tarix to'g'risida ikkita qisqacha asar ham bitgan bo'lib, ulardan biri payg'ambarlar to'g'risida bo'lsa, ikkinchisi Ajam podshohlari tarixi haqida yozilgandir. [Ul Hazrat] ushbu ikki qimmatli asarda g'aroyib hikoyatlar va ajoyib rivoyatlar keltirganlar.

Ma'rifat va yaqin ahli qiblasiga bo'lgan bu zot tomonidan yozilgan nasriy asarlardan yana biri «Xamsat ul-mutahayyirin» nomli kitob bo'lib, falak devoni kotibi ushbu asardagi nasr tilining ravonligi va unda keltirilgan she'rlarning go'zalligidan ajablanish barmog'ini hayrat tishi bilan tishlabdi. Ushbu risolada haqiqatlar panohi bo'lgan oliyjanob Hazrati Maxdumiy bilan ul hazrat o'rtasida yuz bergan munosabatlar to'g'risida hikoya qilinadi.

[Ul Hazratning] turkiy tilda yozilgan nasriy asarlaridan (21^b) yana biri ul zotning turli kishilarga yozgan maktublari to'plami bo'lib, agar falak kotibi bo'lgan Atorud uzoq muddat davomida osmon sahifasiga ul hazratning qalb sirlarining bayoni bo'lgan ushbu maktublardan birining tavsifini yozishga kirishsa, yozib oxiriga yetkazolmaydi.

[Ul Hazrat bulardan tashqari] ushbu tilda ikki risola ham yozgan bo'lib, ulardan biri Amir Sayyid Hasanning hayoti va faoliyati to'g'risida, ikkinchisi esa Pahlavon Muhammad Abu Saidning qilgan ishlari haqidadir.

Shuningdek, [ul Hazrat] hayotining so'nggi yillarida xalqning turli ijtimoiy guruhlariga vakillarining fe'l-atvorlari hamda yuqori va quyi tabaqalarga mansub kishilarning xulq-atvorlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan «Mahbub ul-qulub» nomli yana bir kitobni ham ijod ipiga tizdilar. To'g'risini aytganda, qalam tili ushbu

kitobni taʼriflashdan va til qalami ushbu qimmatli asarni tavsiflashdan oʻzidir.

Shuningdek, ul Hazratning forsiy nasrdagi yuksak isteʼdodi va oʻtkir didi amirlar pushti panohi hisoblangan va donishmandlik sifati boʻlgan janob Xoja Fazliddin Muhammad hamda fazilatni oʻziga shior va olijanoblikni oʻziga libos qilib olgan saroy amirlarining eng sarasi janobi Xoja Shahobiddin Abdullohga (ularning boshimizga tushib turgan soylari abadiy boʻlsin) nasihat tariqasida yozgan quyidagi maktubidan maʼlum boʻladi:

«Hurmatli birodar va suyuqli farzandga sogʻinchli salom yoʻllagandan soʻng shu narsani maʼlum qilamizki, inson mansab va boshliqlikni sevish ruhi bilan yaratilgan boʻlib, nafs kishining ixtiyori va shuurisiz oʻz istagiga erishishga intiladi. Mansab gʻaflatni oshiruvchi xususiyatga ega. Podshohning iltifoti esa mast qiluvchi boʻlib, uning ishi kishining es-hushini oʻgʻirlashdan iboratdir.

Xaloyiqning bunday kishiga ishi koʻp tushadi, bunday kishining aqli boʻlishi esa qiyin. Bordi-yu u baʼzida aql yordamida oʻziga kelsa-da, oʻsha mayning mastligi uni hushyor boʻlib olishiga yoʻl qoʻymaydi. Bunday mastlik chogʻida falakning oʻch oluvchi va gʻaddor, falakni yaratguvchining esa adolatli hokim ekanligi, [u qoʻlga kiritgan] kuch-qudrat (22^a) va mansab oʻtkinchi, umri esa bevafo ekanligi qayoqdan ham xotiriga kelsin.

Dushmanlar uning qilgan jirkanch ishlaridan kuladilar, doʻstlar esa uning qilgan rasvoliklaridan sharmanda boʻladilar. Yaqinlar bu koʻngilsizliklardan qaygʻursalar, begonalar bu devonaliklardan taajjub va hayratga tushadilar.

Demak bu mastliklarda oʻzidan ketib, es-hushidan ayrilib qolmaslik, oʻzboshimchalik va xudbinlik koʻchasiga kirib ketmaslik hamda zulm ostida ezilgan bechoralarning

holidan xabar olib, ularning og'irini yengil qilish uchun sog'lom tana va o'tkir aql kerak bo'ladi.

Bunday holatlar bu bechora nodonning ham boshidan o'tgan, biroq u o'sha chog'larda bularning birortasidan ham xabardor va bahramand emas edi. Hozir esa o'zining o'sha kamchilik va xatolarini anglab etganining hech qanday foydasi yo'q. Chunki falak u varaqlarni allaqachon yopib, o'rab qo'ygan. Nadomat ohini tortishdan ham hech qanday foyda bo'lmaydi, hasrat ko'zyoshlarini to'kishdan ham biror natija chiqmaydi.

Bayt:

*Kuchim borida foyda nimada ekanligini bilmadim,
Bilgan paytim esa kuchim qolmagan edi.*

Pok va ulug' Parvardigor ularga bu davlat va mansabni bergan hamda podshohga yaqinlik saodatini ato etgan kishilardan shuni so'raymizki, manmanlikka berilib, g'afolat ko'chasiga kirib ketmasinlar. Bu dunyo va u dunyoda o'zlariga zarar yetkazadigan ishlarni qilmasinlar.

Ojizlar va qo'l ostilaridagi kishilarni rahmdillik va mehribonlik bilan erkalatsinlar. Xokisorlar va kamtarlarga marhamat va yumshoqko'ngillik bilan munosabatda bo'lib, ularning hojatlarini chiqarsinlar. Qo'pol so'zlar bilan darveshlarning ko'ngillarini og'ritmasinlar, balki muloyim gaplar bilan ularning dillaridagi jarohatlarga malham bo'lsinlar.

O'zlarini nafs va shayton aldovidan omonlikda, deb bilmasinlar va o'zlarini o'lim farishtasidan xoli deb bilmasinlar. Barcha ishda xolislik va halollikni o'zlariga kasb qilib olsinlar hamda qiyomat kuni qilgan yomon amallari uchun jazo olib sharmanda bo'lishni o'ylasinlar.

Hech qachon Haqdan qoʻrqishdan va Haq soyasiga bandalik va xizmat qilishdan toʻxtamasinlar.

Shohning davlati, xalq va qoʻshinning manfaati yoʻlida toʻgʻri soʻzni aytishdan qoʻrqmasinlar va [bunday toʻgʻri soʻzni albatta] aytsinlar. Agar uning (22^b) ajru mukofoti bu dunyoda yetmasa, [uni] jazo kuni Haq huzuridan izlasinlar.

Yomon ishlar qilgan kishilarning boshlariga nimalar tushganligini esdan chiqarmasinlar. Oʻzlarini, Xudo koʻrsatmasin, manmanlik sharobidan mast va behush qilmasinlar. Bu dunyoning manfaatlari uchun bir-birlari bilan yovlashmasinlar. Boshlariga biror qiyinchilik tushsa, sabr va chidam panohiga qochsinlar.

Oʻzlarining manfaatlarini podshohning manfaatidan, podshohning zohiriy manfaatini esa ilohiy amr manfaatidan ustun qoʻymasinlar. Buni yumshoqlik va odob bilan maʼlum qilsinlar hamda Xudoning madadi bilan oʻsha bosqichdan oʻtkazsinlar.

Yoshi kichiklarga mehribonlik bilan, tengdoshlarga murosayu oʻrtoqlik bilan, yoshi kattalarga esa hurmat va ulugʻlash bilan munosabatda boʻlsinlar. «Hidoyatga ergashganlarga salom [omonlik] boʻlur»¹.

Shuningdek, zakiy kishilarga yashirin va nomaʼlum qolmasinki, bugungi ulugʻvor zamon va goʻzal davronda yozuvchilik bilan shugʻullanadigan qalam ahlining bozori kasod boʻlgan matolari fazilatli Amirning diqqat-eʼtibori tufayli [qaytadan] oʻzining munosib bahosini oldi. Ul Hazratga bagʻishlangan chiroyli va yetuk soʻz sanʼati asarlari oʻy-fikrdagi gʻoya shaklidan qogʻozga tushirilgan asar koʻrinishiga aylandi. [Quyida] ulardan ayrimlarini sanab oʻtamiz:

«Shavohid un-nubuvvat» («Paygʻambarlikka dalillar») va «Risola dar ilmi musiqiy» («Musiqqa ilmi toʻgʻrisida riso-

¹ Qurʼoni karim, «Toho» surasi, 47-oyat.

la») – haqiqatlar panohi bo‘lgan Hazrati Maxdumiyning (Alloh uning qabrini nurga to‘ldirsin) nozik iboralarni qog‘ozga tushiradigan va badiiyat belgilari unda namoyon bo‘lgan qalami mahsuli.

«Iqtibosot» («Iqtiboslar») – shariat homiysi janobi Amir Ixtiyoriddin Hasan Turbatiy tomonidan yozilgan.

«Holoti Hazrati Maxdumiy» («Hazrati Maxdumiyning hayoti») – Mavlono Kamoliddin Abdulvose’ qalamiga mansub.

«Ravzat us-safo fi siyar al-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafa» («Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalar tarjimai hollarining yam-yashil bog‘i»), yetti jilddan iborat – otamiz janob maxdumiy Amir Xond Muhammad (Alloh taolo uni abadiy jannatga kirgizsin) tomonidan yozilgan.

«Maosir ul-muluk» («Podshohlarning ulug‘ ishlari») va «Xulosat ul-axbor» («Xabarlarining xulosasi») – ushbu faqir (23^a) tomonidan yozilgan.

Beshinchi maqsad

OXIRAT UCHUN ZAXIRA TO‘PLASH HAMDA BU DUNYO VA UNDAGI NARSALARDAN YUZ O‘GIRISH HAQIDA

Hidoyat va tavfiq ahlining ko‘ngillari hamda bilim va haqiqat egalarining qalblari uchun yashirin va noma’lum emaski, «Men yashirin xazina edim. Bilinmoq istadim va mavjudotni bor etdim» hadisiga muvofiq olam uyi ishining yo‘lga qo‘yilishi va insoniyatning turli guruh va toifalarining yaratilishidan ko‘zda tutilgan maqsad Xudoning muqaddas zotini tanish hamda [uning] cheksiz

saltanati sifatlarini bilib olishdan iboratdir. Ammo nafsoniy shahvatlardan va jismoniy istaklardan uzilmasdan hamda bu dunyoning narsalaridan yuz oʻgirmasdan va oxirat saodatiga erishtiradigan narsalarga yuzlanmasdan turib bu ishni amalga oshirib boʻlmaydi. Shu sababdan ham tariqat suluklarining soliklari hamisha boʻysunmas va oʻjar shahvatning boʻyniga riyozat jilovini solib, «Innamad-dunya va ma fiyha abas» (Albatta dunyo va undagi narsalar behuda) naqliga muvofiq bu dunyoning oʻtkinchi narsalariga qaramaganlar.

Bayt:

*Tariqat kurashchilari nafslarini oʻldirdilar
Taqvo bilagingin kuchi bilan va mardlarcha kurashib.
«Tun qorongʻusi va kunduz yorugʻida»¹ unga tasbeh aytadilar;
«Ertalablari va kechqurunlari»² uni yod etadilar.*

Balki Xayr ul-anom alayhis-salavot va-s-salomning: «Dunyo – oxirat ahliga harom, oxirat esa – dunyo ahliga harom, bu ikkalasi esa – Alloh ahli (Allohning oshiq bandalari)ga haromdir» (*Hadis*), deb aytganiga muvofiq jannatning yuqori qavatidagi hurlar, qasrlar, rohat-farogʻat va yoqimli shabbodalarga mutlaqo eʼtibor bermaganlar hamda quyidagi ikki baytning mazmunini tillarida doston qilganlar.

Qitʼa:

*Jannat bogʻin bezatmagin, chunki biz rindlarda
Hurning boʻyniga osilish maqsad emasdir.
(23^b) Bizga sevgili gʻami tuzogʻiga tushish orzusining oʻzi yetarli,
Shodlik qadahiga ham osilish niyatimiz yoʻq.*

¹ Qurʼoni karim, «Sod» surasi, 18-oyat.

² Qurʼoni karim, «Aʼrof» surasi, 205-oyat.

Shunga ko'ra [ul Hazrat] qabo kiygan valiylar qatoridan joy oldilar va «[Ular uchun oxiratda] xavf yo'q va ular tashvish ham chekmaydilar»¹ deya xabar berilgan martabaga yetdilar.

Ulug' Tangriga hamdlar bo'lsinki, hidoyat va iqbol osmonining quyoshi bo'lgan ul zotning muborak xulq-atvorlari doimo mana shu tarzda bolalik yillaridan va endigina o'sib-ulg'aya boshlagan o'spirinlik chog'laridan boshlab bu dunyo va undagi narsalarga bo'lgan e'tiborsizlik etagini silkidi hamda hech qachon o'tkinchi mol-dunyoga bo'lgan muhabbat changini va bu dunyoning narsalariga bo'lgan qiziqish g'uborini o'zining himmat etagiga qo'ndirmadi. Doimo o'z istaklariga yetishishni istaydigan tanini mashaqqatli ishlar va chidash qiyin bo'lgan amallarni qilishga buyurar, o'zboshimcha tabiatining o'jar jilovini riyozat bilagi kuchi bilan istak va havas maydonidan qaytarardi.

[Ul Hazrat] tark va tajrid holatiga kirganlarida,

Misra:

Ikki dunyo uning himmati oldida hech narsa bo'lmay qoladi.

Shuningdek, [ul Hazrat] suluk yo'lidan yurganida shakl va mazmun olamining maydoni

Misra:

Uning muborak oyoqlari ostidan o'tib boradi.

Yozuvchilarning jimjimador so'zlari va kotiblarning maqtovlarisiz ham pok Parvardigor iltifotlari markazida bo'lgan ul zot yoshlik va yigitlik davrining gullab-yashnagan chog'larida har doim «Ular turib ham, o'tirib

¹ Qur'oni karim, «Moida» surasi, 69-oyat.

ham, yotib ham Allohni zikr etadilar»¹ oyati ular borasida tushirilgan darveshlar bilan muloqotda boʻlishga intilib yurar, qoʻlidan kelganicha va imkoniyati yetganicha irodat va ixlos bilan oliy martabali ushbu toifaga mansub kishilarning xizmatida boʻlardilar.

[Shundan soʻng ul Hazrat] bir necha vaqt davomida bu dunyoning barcha qiziqishlari va hoyu havaslaridan koʻngil uzib, tabarruk makon boʻlgan Raboti Suhayl degan joyda yashay boshladilar. Odamlar bilan (24^a) boʻladigan muloqot va munosabatdan etak yigʻishtirib, fayzu barakotlarga toʻla vaqtlarini turli riyozatlar chekish va ibodatlar qilish bilan oʻtkazishga kirishdilar.

Olam ahli ishlarini boshqarish Sohibqiron Sulton (ulugʻ Parvardigor uning podshohligi va saltanatini abadiy qilsin) davlati tasarrufiga oʻtganidan soʻng hidoyat va irshod nurlari tushib turadigan ul zotning ota-bobolari har doim dindor va adolatli ushbu podshohning ota-bobolariga yaqin kishilar jumlasidan boʻlganliklari sababli, ul hazratga cheksiz inoyat nazari bilan boqib, yuqori mansablarni qabul qilishlarini hamda davlat ishlari va moliyaviy masalalar bilan shugʻullanishlarini taklif qildilar. Hidoyat nishonli Amir ulugʻvor qalbining faqr va fano sulukidan yurishga moyil ekanligidan kelib chiqqan holda shu va shunga oʻxshash ishlar bilan shugʻullanishdan qanchalik bosh tortmasinlar, Sohibqiron Sulton yanada qattiqroq turib shu narsani iltimos qilaverdilar va [oʻz iltimoslarini] quyidagi ikki baytda bayon etdilar.

Qitʼa:

Olam ishini tartibga solish va davlat ishini boshqarishni sening tadbirli aqlingga topshirishdi. Bu toʻgʻrida Yaratguvchining amri berilgan boʻlib, tinchimas qalaming yordamida mamlakat tinch va barqaror boʻlsin.

¹ Qurʼoni karim, «Oli Imron» surasi, 191-oyat.

Natijada ulug‘lik osmonining ushbu quyoshi «Alloha itoat etingiz, Payg‘ambarga va o‘zlarinigizdan [bo‘lmish] boshliqlarga itoat etingiz!»¹ oyatiga muvofiq ish tutib hamda «Bir soat qilingan adolat oltmish yillik [kechalari bilan namoz o‘qib va kunduzlari bilan ro‘za tutib qilingan] ibodatdan afzaldir» hadisini mulohaza qilib, amirlik lavozimi va vazirlik mansabini o‘zining qutlug‘ qadami bilan ziynatladi. Jabr-zulm nishonalarini zamona sahifalaridan o‘chirib tashladi va insonlar uchun (24^b) adolat va insof eshiklarini ochib qo‘ydi. Zamonaning tana a’zolaridagi jarohatlarni vaqt malhami bilan tuzatib, dard-alamlarga to‘la dunyoning kasalliklariga adolat sharbati bilan shifo bag‘ishladi.

Bayt:

*Uning shukuhi olamga adolat qo‘lini ochdi,
Uning haybati zulmning oyog‘ini zanjirga soldi.*

Shuningdek, ...² yil davomida «Odamlar o‘rtasida hukm qilganingizda adolat bilan hukm qilishingizga buyurur»³ hukmiga amal qilib, quyidagi baytning mazmunini

Bayt:

*Mansabdan mansabsizlikka yuz tutgin,
Chunki har qanday mansabdan mansabsizlik yaxshidir.*

ko‘nglidan o‘tkazdi-da, amirlik lavozimidan iste’fo berdi. Sohirqiron Sulton ham har doim ul Hazratning roziligini o‘zining muborak istagidan ustun qo‘yganliklari sababli bu masalada ul zotning fikrlariga qo‘shildilar.

¹ Qur‘oni karim, «Niso» surasi, 59-oyat.

² Asar qo‘lyozmasining shu o‘rnidagi yozuv o‘chib ketgan bo‘lib, bu joy asarning Kobul nashrida uchta nuqta (...) bilan ko‘rsatib ketilgan (53-b.).

³ Qur‘oni karim, «Niso» surasi, 58-oyat.

Biroq (hijriy-qamariy) 892(mil. 1486/1487)-yilda qattiq turib Mozandaron viloyati hokimligini saodatli Amirning rahbarlik qoʻliga topshirdilar. Ul Hazrat ham yuqori martabali Sohibqironning roziligi uchun ushbu viloyatga bordi. Astrobod gulzori [ul zotning] qutlugʻ qadami sharofatidan ustunlari bor Eram gulistonining rashkini keltirdi.

Bayt:

*Bu bir muborak manzil boʻlib, u uyda shunday oy boʻladi,
Bu bir saodatli mamlakat boʻlib, unda shunday shoh boʻladi.*

Pok koʻngilli Amir ikki yilga yaqin vaqt davomida Qobus Vushmgir [davlatining] poytaxtida adolat gilamini yozish bilan shugʻullandi. Undan keyin esa himmat etagini masʼuliyatli davlat ishlaridan yigʻishtirib, (25^a) saltanat poytaxti Hirotga (Alloh uni yomon hodisalardan asrasin) qaytdi.

Bayt:

*Oʻsha oy shahrimizga kelib qoʻngan oʻsha qutlugʻ damda
Vaslidan shod boʻladi jon, iqbolidan nozlanar dil.*

[Bularni aytishdan koʻzda tutilgan] maqsad shuki, ul Hazrat shu kabi ishlar bilan band boʻlganligiga qaramasdan, bir lahza boʻlsa-da, koʻngil ahlining amallariga ergashishdan toʻxtamadilar. Doimo ixlos va eʼtiqod oyogʻi bilan ahli yaqin va ahli irfon xizmatida boʻldilar. Xususan, haqiqatlar panohi boʻlgan janobi oliy Maxdumiy Nuran (Alloh uning qabrini nurga toʻldirsin) xizmatida boʻlib, har doim ul zotning huzurida darveshlarning kitoblari va tasavvufga oid asarlarni

o‘qishga mashg‘ul bo‘ldilar. Ul janobi oliyning bu borada yozgan risolalarini ham o‘sha kishining huzurida mutolaa qildilar va ulardagi nozik jihatlarni fayzli xotiralari lavhiga yozib qo‘ydilar. [Aytib o‘tish lozimki,] ul janobi oliy ham o‘zidan fayz taratib turgan o‘sha asarlarini hidoyat nishonli ushbu Amirning qutlug‘ nomiga bag‘ishlab yozdi. «Nafahot ul-uns» va «Ashi’at ul-lama’ot» asarlarining debochalarini o‘qib chiqishdan shu narsa kundek ravshan bo‘ladi.

Ul Hazratning o‘zi ham mashoyixlar va avliyolarning hayoti va faoliyati, shuningdek, sayru suluk yo‘li to‘g‘risida bir necha kitob yozdi. Ulardan biri «Nasoyim ul-muhabbat» («Muhabbat shabadalari») bo‘lib, uni o‘qib chiqqan kishining jon dimog‘iga irfon ahlidan bo‘lgan kishilar hayoti hamda ularning hidoyatga chorlovchi so‘zlaridan taraladigan xushbo‘y hidlar kelib uriladi.

[Ul Hazratning bu borada yozgan asarlaridan] yana biri (Farididdin Attorning) «Mantiq ut-tayr» asariga muqobil tarzda turkiy tilda she‘riy yo‘l bilan bitilgan «Lison ut-tayr» («Qush tili») risolasidir. Ushbu qutlug‘ (25^b) asarda fano yo‘lidagi sayru suluk hamda Xudovand dargohiga yaqinlik maqomiga yetishish yo‘l-yo‘riqlari to‘g‘risida hikoya qilinadi.

Bulardan tashqari karomat egasi bo‘lgan bu Amir [davlat ishidagi] mansab va lavozimda ishlab yurgan chog‘lari qashshoqlar va darveshlarga moddiy yordam berish hamda [boshqa yurtlardan kelgan] yo‘lovchilar va musofirlar uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida Xuroson mamlakatining turli joylarida ko‘plab xonaqohlar, rabotlar, hovuzlar, ko‘priklar va hammomlar qurganlar. Quyida ulardan ayrimlari sanab o‘tiladi:

«**Xalosiya**» **xonaqohi**: «Ixlosiya» madrasasi qarshisida joylashgan. Har kuni ushbu fayzli makonda mingdan ortiq

qashshoq va miskinlarga ovqat ulashib, ularni lazzatli taomlar bilan siylaydilar. Bundan tashqari har yili ikki mingga yaqin poʻstin, chakmon, koʻylak, ishton, engil doʻppi va oyoq kiyim muhtoj kishilarga ulashiladi.

«**Jamoatxona**» **xonaqohi**: Hirot shahri xiyobonida, Xudo maʼrifatida orif boʻlgan Mavlono Shamsiddin Muhammad Tabodgoniy qabrining boshida joylashgan.

Haqiqatlar panohi boʻlgan Hazrati Maxdumiyning (Alloh uning qabrini nurga toʻldirsin) munavvar qabri boshida qurilgan imorat: Bu imorat oʻzining kengligi, balandligi va xushhavoligi bilan mashhurdir.

«**Fanoiya**» [imorati]: Ushbu qabr yaqinida joylashgan.

«**Havzi mohiyon**» («Baliqlar hovuzi») imorati: Xuroson xalqining sayr qiladigan sayrgohi hamda qashshoqlar va darveshlarning makon tutgan joyi.

Mujarrad pir Xoja Abulvalid Ahmadning (Alloh uning qabrini tabarruk qilsin) muborak qabri boshida qurilgan imorat: Bu imorat hovlisining kengligi hamda dabdabaliligi bilan mashhurdir.

Shayx Muhyi (Alloh uni rahmat qilsin) **qabri boshida qurilgan xonaqoh**: [Bu imorat ham] dabdabadan xoli (26^a) emas.

Xumchayi bod degan joyda Amir Abdulvohid ibn Muslim qabri boshida qurilgan imorat.

«**Ziyoratgoh**» **xonaqohi**: Bu joyda ham qashshoqlar va miskinlarga taom ulashadilar.

Xoja Yusuf Hamadoniy (Alloh uni oʻz rahmatiga olsin) qabri boshida qurilgan imorat.

Muqaddas Mashhad shahridagi Razaviya maqbarasi (uning sohibiga salomlar va tahiyatlar boʻlsin) hovlisida qurilgan «**Dor ul-huffoz**» [imorati]: Ushbu imorat lojuvard va oltin bilan islimiy va xitoycha naqshlar va tasvirlar vositasida gʻoyatda hashamat va dabdaba bilan

bezatilgan. Bundan tashqari o'sha tabarruk maqbara hududida o'ta hashamat va benihoya zeb-ziynat bilan bir ayvon bino qilingan. Shuningdek, u yerda bir musofirxona ham qurilgan bo'lib, har kuni unda qashshoqlar, muhtojlar va yetimlarga taom ulashiladi.

Shayx Fariduddin Attor qabri boshida qurilgan xonaqoh: Jannatmakon bir joy. (Hijriy-qamariy) 902(mil. 1496/1497)-yilda Nishopur shahri ul Hazratning muborak quyoshining yorqin nurlari bilan munavvar bo'lgan kunlarning birida [ul Hazrat] ushbu diyor mashoyixlari qabrlarini ziyorat qilishga bordilar. Ko'pchilik qabrlarning buzilib ketishiga yaqin qolganligini ko'rib, avliyolarning qabrlarini hozirgi kunda keng qo'llaniladigan usulda tuzatishni buyurdilar.

Mavlono Sirriy xonaqohi: Marv shahrida qurilgan.

Endi ezgulik binolari quruvchisi tomonidan qurilgan rabotlarning to'liq ro'yxatini keltiramiz:

Sarixiyobon raboti, To'g'uzrabot, Havzak raboti, Darai zangi raboti, Chihilduxtaron raboti, Tarnob raboti, Panjdeh raboti, Qutulmishi (26^b) Murg'ob raboti, Marvchoq raboti, Puli Ahmad Mushtoq raboti, Yabg'u raboti, Zohid raboti, Xoja Duka raboti, Chahorshanba raboti, Bobo Bo'ri raboti, Darai qo'rqush raboti, Kandagi raboti, Oqrabot, Muzduron raboti, Yonbuloq raboti, Dashti Shoraxt raboti, Adraskan raboti, Farmonshayx raboti, Abulvalid raboti, Pariyon raboti, Puli G'uriyon raboti, Poyobak raboti, Tirpul raboti, Shuturxoni tirpul raboti, Sahroi bog'and raboti, Jom raboti, Xargird raboti, [oldin qurilgan] Bikrobod raboti ta'mirlandi, Sa'dobod raboti, Hazira raboti, Sangbast raboti, Mashhadi muqaddasa raboti, Tepai Chavk raboti, Dizbod raboti, Kelidar raboti, Sanglidar raboti, Runiz

raboti, Isfaroyin raboti, Chinoron raboti, Ishq raboti, Dahanai Taxti Sulaymon raboti, Jurmjoʻy raboti, Ohuvon raboti, Alomat koʻchasidagi rabot, Puli nigor raboti, Puhra raboti, Dehlar raboti.

Endi quyida [ul Hazrat] qurdirgan hovuzlarning toʻliq roʻyxati keltiriladi:

Poyi daraxti merosiy mahallasidagi hovuz, Ixtiyoriddin qalʼasi oldidagi hovuz, Sholbofon mahallasidagi hovuz, Shoʻrpista hovuzi, Chihilgaziy mahallasidagi hovuz, Xoja Kalla hovuzi, Pir Qavom mahallasidagi hovuz, Qalandaron mahallasidagi hovuz, «Shifoia» [madrasasi] yonidagi hovuz, haqiqatlar panohi boʻlgan Hazrati Maxdumiy qabri yonidagi hovuz, Pariyon hovuzi, Fushanj masjidi hovuzi, Charxa hovuzi, Sahroi bogʻand hovuzi, Shohoni garmob hovuzi, Dizbod hovuzi, Ziyoratgoh hovuzi, Andxud hovuzi, Rohi Xorazm hovuzi.

[Ul Hazrat tomonidan qurdirilgan] koʻpriklarning toʻliq roʻyxati quyidagicha: (27^a)

Sepulak koʻprigi, Tulki koʻprigi, Soqislamon koʻprigi, Childuxtaron koʻprigi, Tarnob koʻprigi, Qalandaron koʻprigi, Qozbonon koʻprigi, Poyi xoja koʻprigi, Xayrobod koʻprigi va toʻgʻoni, Juzjonon koʻprigi, Nigor koʻprigi, Fushanj koʻprigi Tir koʻprigi, Nahri arab koʻprigi, Chaxcharon koʻprigi, Turuq koʻprigi va toʻgʻoni taʼmirlandi.

[Ul Hazrat qurgan] hammomlar esa quyidagilardan iborat:

«Shifoia» [madrasasi] yonida qurilgan hammom, Ziyoratgoh hammomi, Darai zangiy hammomi, Tuvuchi hammomi, Childuxtaron hammomi, Tarnob hammomi, Panjdeh hammomi, Fayzobod hammomi, Saʼdobod hammomi.

Bandalarning yaratuvchisi boʻlmish Allohning oʻzi omad bersin.

Oltinchi maqsad

HAZRATI RASUL ALAYHISSALOM VA-T-TAHIYYAT SHARIATI ARKONLARIGA RIOYA QILISH HAQIDA

Bilimdon kishilarning ko'ngillari lavhiga shu narsa naqsh kabi bitib qo'yilganki, yakkayu yagona bo'lgan Zot borgohiga tayanish hamda hech kimga ehtiyoji bo'lmagan, biroq barcha unga ehtiyojmand bo'lgan Zotning dargohiga yaqinlashish islom arkonlariga bo'ysunmasdan va rioya qilmasdan turib amalga oshmaydi. Ikki dunyo saodatiga erishish hamda dunyo va oxirat mohiyatini anglab yetish Hazrati Xayr ul-anom («Odamlarning yaxshisi») alayhis-salavot va-s-salomning aytganlariga ergashmasdan va bo'ysunmasdan turib yuz bermaydi. Zuhd va ibodat ahlining ko'rar ko'zlari aniq va tushunarli bo'lgan shariat nurlari yorug'idan ravshan, ilm va fazilat egalarining foyda ulashuvchi o'quv va ilmiy yig'inlari yorug'lik ummati yo'lidan taralayotgan yog'du bilan bezangan, tengi va naziri yo'q sultonlarning iqbol niholi fayz taratuvchi din bulutlaridan yog'adigan yomg'irlardan yashnagan, o'xshashi va misli yo'q xonlarning tinchlik, osoyishtalik va orzu-umid bayroqlari esa (27^b) qorong'u jihatlarni yorituvchi shariatning mustahkam va pishiq arqonidan mahkam tutib olganliklari tufayli yuksakliklarga ko'tarilgandir.

Nazm:

*Butun olam bo'ldi shariatga bo'ysunuvchi,
Ko'ngilu ko'z bilan shariatni himoya qiluvchi.
Tezda yetishibdi haq maqsadiga
Kimki shariat yo'lidan yurgan bo'lsa.*

Besh mahal namozni ado qilish baland martabali ummat uchun olti tomondan iqbol va saodat eshiklarini ochadi. Shu sababdan ham Xotam ul-anbiyoning (unga salavotlarning eng yaxshisi boʻlsin) moʻjizalar bayon etuvchi tilidan chiqqan oxirgi gap ham shunday boʻldi: «Namozda bardavom va qoʻl ostingizdagi xizmatkorlarga nisbatan [eʼtiborli] boʻlinglar».

Zakatning ado etilishi ulugʻ va saxovatli Xudoning inʼomiga hamda [zakot toʻlovchi bandaning] mol-dunyosining koʻpayishiga sabab boʻladi. Alloh taolo bu toʻgʻrida shunday buyuradi: «Kimki [bir] hasana (savobli ish) qilsa, unga oʻn barobar [koʻpaytirib yozilur]»¹.

Ramazon oyida tutiladigan roʻza oʻz bandalariga yordam beruvchi Zotning dargohiga yaqinlashish hamda pok Tangri bu toʻgʻrida: «Roʻza Men uchun [tutiladi] va uning mukofotini Men – Oʻzim beraman»², deb buyurganidek, bandalariga yaxshiliklar qiluvchi va neʼmatlar ato etuvchi barcha narsadan xabardor Zotning sovgʻalariga erishish vositasi hisoblanadi.

Islom hajini ado etish va Baytulloh ul-haromni tavof etish, [bandadagi] toʻgʻri din va eʼtiqodning mukammallashishiga hamda ikki dunyo egasining unga ato qiladigan neʼmatlarining yanada koʻpayishiga sabab boʻlib, ulugʻ Tangri: «Bugun, diningizni kamoliga yetkazdim, neʼmatimni tamomila berdim»³, deb buyurganidek, musulmonlarga yoʻl koʻrsatuvchi chiroq qilganlar.

Bandalar va ibodat qiluvchilarning pushti panohi boʻlgan bu zotning juma va jamoat namozlarini oʻqishni

¹ Qurʼoni karim, «Anʼom» surasi, 160-oyat.

² Hadisi qudsiy.

³ Bu yerda Qurʼoni karimning «Moida» surasi 3-oyatidan parcha keltirilmoqda.

tashkillashtirishdagi sa'y-harakatlari va g'ayratlari shu darajada ediki, Marg'aniy bog'i ichida o'ta chiroyli bezaklar bilan ziynatlangan bir masjid qurib, o'z zamonasi qorilarining sarasi bo'lgan Xoja Hofiz Muhammad Sultonshohni ushbu masjid imomligiga tayinlagandilar va o'zlari ham bu yerda besh mahal jamoat bilan o'qiladigan namozlarning barchasida qatnashardilar.

Shuningdek, [ul Hazrat] hidoyat oshyoni bo'lgan saroy xizmatchilarini namozni (28^a) o'tashga rag'batlantirish, bordi-yu ulardan birortasi shariat ahkomlariga zid ish qiladigan bo'lsa, uni shariat qonun-qoidalari asosida jazoga tortish uchun bir muhtasib ham tayinlagan edilar.

Bundan tashqari [ul Hazrat] Marg'aniy bog'i qarshisida o'ta chiroyli va hashamatli bir jome masjidi ham qurgan bo'lib, haqiqatda ushbu binoning ko'ngilni yayratuvchi muhiti uni qurgan kishi muborak qalbining musaffoligidan darak beradi hamda ushbu fayzli makonning bahri dilni ochadigan havosi abadiy jannatning yoqimli shabadalarini esga soladi.

Nazm:

*Uning masjidi ilohiy fayz makonidir,
Uning xutbasining ovozi oygacha yetadi.
Moviy osmondan unga tushgan
Fayz bir Qur'on o'qish bilan ko'paydi.
Gumbaz ostidagi tasbeh ovozi
To'qqiz baland gumbazdan ham balandga ketmiş.
Baland toqi falak bilan juftlashibdi,
Falak pinhona uni tutib turguvchi bo'libdi.
Saodat unga yo'l ko'rsatuvchi bo'lgan har bir kishi
Uning dargohi tomon yo'l oladi.*

Ezgulik binolarini quruvchi ushbu zot tomonidan qaytadan qurilgan masjidlardan yana biri Hirot jome

masjidi bo'lib, haqiqatan ham bu joy ilohiy fayzlarni o'zida to'plovchi va barcha nopokliklarni arituvchi bir makondir.

Ushbu qutlug' makonni Sulton Abulfath G'iyosiddin Muhammad ibn Som o'z hukmronlik davrining oxirlarida qura boshlagan, biroq muattar ko'ngli ushbu ulug'vor binoning qurib bitkazilishidan xotirjam bo'lmasidan oldinroq Yaratguvchining mag'firat dargohiga ravona bo'lgan edi. Shundan so'ng uning o'rniga hukumat tepasiga kelgan ukasi Sulton Shahobiddin masjidning qurilishini davom ettirdi. Uning o'g'li Sulton G'iyosiddin Mahmud podsholik taxtiga o'tirganidan keyin ushbu tabarruk makonning qurilishini oxiriga yetkazdi. Shu holatda bir qancha vaqt o'tgach (28^b), Chingizxon istilosi va [uning natijasida] Xuroson [mamlakati] viloyatlarining xarobaga aylanganidan so'ng oliy darajali ushbu makon ham vayronlikka yuz tutdi. [Ushbu masjidni] qaytadan qurish va ta'mirlash ishi ezgu niyatli podshoh Malik G'iyosiddin Kurtning hissasiga tushdi. Uning vafotidan so'ng o'g'li Malik Muizziddin Husayn masjid binosiga berilgan bezaklarni yanada ko'paytirdi. Hazrati xoqon Sa'id Mirzo zamonida Amir Jaloliddin Feruzshoh [ushbu masjidni] ta'mirladi.

Nazm:

*Kimki kelsa yangi imorat qurdi,
U ketdi-yu imorat boshqasiga tegdi.
Yana bir boshqasi shunday havasni qildi,
Ammo bu imoratni hech kim oxiriga yetkazmadi.*

Sohibqiron Sulton va Jahongir Xoqonning hukmronligi paytida va saltanati davrida [ushbu masjid] mehrobining ayvoni jiddiy shikastlanib, chiroyli qilib qurilgan

gumbazining shifti buzila boshladi. [Ushbu ayvonning] yuksak did bilan qurilgan devorlari rukuga borgan namozxonlarning belidek bukchayib, ulug'vor ustunlari sajdaga borgan namozxonlardek yerga yuz qo'ydi. Baland qilib qurilgan shiftidagi ganch qoplami ko'chib tushdi va muborak to'shamasi ostida qora nam tuproq to'planib qoldi.

Bu holat ilohiy ilhomlar tushadigan makon bo'lmish ul hazratning nurli nazariga tushgach, butun kuch-g'ayratini ushbu mehrob ayvoni poydevori va asoslarini qaytadan qurish va mustahkamlashga sarfladi. Islom podshohidan ijozat va ulug' mashoyixlar arvohtaridan madad so'rab, (hijriy-qamariy) 903-yilning sha'bon (mil. 1498-yil, mart-aprel) oyida gumbaz va mehrob ayvonining ko'chib tushgan toqini ochishga buyruq berdi. Shundan so'ng tajribali me'morlar (29^a) va mohir muhandislarning maslahati va tasdiqlashi bilan ushbu binoni undan-da mustahkam qilish mumkin bo'lmagan darajada qayta qurishga ko'rsatma berdi.

Mehrobning ikki tomonida ikkita hashamatli ayvon bunyod etib, shu orqali katta toqqa yuqori darajadagi pishqlik va mustahkamlik bag'ishladi. Ezgulik asoslarini qo'yguvchi ul zot ushbu qurilishni tugallashga qaratilgan sa'y-harakati va g'ayratining zo'rligidan har kuni muborak jismi bilan (*shaxsan, shaxsan o'zi*) o'sha qutlug' makonga tashrif buyurar, aksar hollarda etagini qayirib boshqa ishchilar qatorida ishlardi. Har necha kunda bir marta u yerda ishlayotgan me'morlar va ustalardan tortib hunarmandlargacha bo'lgan kishilarga qimmatbaho kiyimlar kiygizar, katta diqqat-e'tibor berish va ko'plab mukofotlar taqdim etish orqali ularning ko'ngillarini shod va dillarini obod qilardi.

Shunday qilib, Xudoning marhamati hamda podshohning cheksiz diqqat-e'tibori va yordami bilan uch-

toʻrt yil choʻzilishi mumkin boʻlgan bu ish olti-yetti oyda poyoniga yetdi. Mehrob ayvonining balandligi ezgulik va saxovat dengizi boʻlmish Amirning saʼy-harakatlari bilan oldingi holatidan olti-yetti zarʼga oshdi.

Asosiy ish poyoniga yetib, binoning poydevorlari va asoslari xuddi haramlar binolari kabi mustahkamlikka erishgach, [ul Hazratning] muattar koʻngliga [ushbu binoga] zeb-ziyatlar berish hamda unga muhtashamlik va tashqi koʻrkamlik bagʻishlash fikri keldi. Ul zotning koʻrsatmasiga binoan ishi barakali boʻlgan muhandislar, qoʻli gul koshinkorlar, naqqosh sanʼatkorlar va sangtarosh ustalar katta kuch-gʻayrat bilan oʻzidan fayz taratuvchi ushbu masjidni pardoqlash va zeb-ziyatlar bilan bezatishga kirishishdi va taxminlarga koʻra besh yilga yaqin (29^b) muddat davom etishi kerak boʻlgan bu ishni bir yil ichida bitkazishdi.

[Ushbu bino] toqlari va ravoqlarining yuzalari islamiy va xitoycha naqshlar bilan bezatildi. Yorugʻ va pokiza supalari gʻaroyib va dabdabali bezaklarining koʻpligi hamda ajoyib va yangicha ziynatlarining moʻlligi bilan boshqa ibodatxonalaridan ajralib turardi. Baland gumbazlarining shifti yaxshi amallar qilgan bandalarning nomai aʼmollari kabi oqlik va yorqinlik kasb etgan boʻlib, ulugʻvor ayvonlari devorlarining pastki qismi qizil toshlar bilan soʻz-la taʼriflab boʻlmas darajada goʻzallik va mustahkamlikka ega boʻldi.

Nazm:

*Yeridan shiftigacha naqshlarga toʻla,
Muhandisning oʻy-fikri unga qaratilgan.
Oliy darajadagi xonalarini yomon koʻzdan asrasin,
Yoysimon toqlari hurning qoshiga oʻxshaydi.*

Yong‘oq daraxti yog‘ochidan yasalgan eski minbar sinib ketganligi sababli sof niyatli Amirning cheksiz sa‘y-harakati va g‘ayrati marmartoshdan bir minbar qurishni taqozo etdi. Sha‘ni ulug‘ saroy mulozimlari [ushbu minbarni qurish uchun kerak bo‘lgan ashyoni] izlashga kirishishdi va Xavof viloyatidan bir marmartosh topib, uni egasidan to‘liq narxida sotib oldilar va ushbu muborak makonga olib keldilar. Shundan so‘ng sangtarosh usta Shamsiddin o‘sha minbarni qurishga kirishdi.

Natijada oliy nasabli Amirning sa‘y-harakatlari bilan shunday bir minbar qurildiki, olamni bezaguvchi quyosh har tongda xatib kabi moviy osmon minbariga chiqqanda uning boshqa o‘xshashi va tengini topolmaydi. Juma va jamoat namozini o‘tash kabi go‘zal an‘ana hazrati payg‘ambarning (30^a) ummati orasida joriy bo‘lgan zamondan buyon hech bir namozxonning qulog‘i unga o‘xshashini eshitmagan. Shariat homiysi va zamona fozillarining sarasi bo‘lgan Sayyid Ixtiyoriddin Hasan ushbu oliymaqom minbarning qurib bitkazilgan yili borasida quyidagi qit‘ani nazm rishtasiga teribdi.

Qit‘a:

Katta sa‘y-harakat tufayli mukammal bir minbar qurildi. O‘ta balandligidan arshga bo‘y cho‘zgan edi. Haligacha hech kim marmardan yasalgan minbarni ko‘rmagandi. Uning qurilgan yili ham haligacha hech kim ko‘rmagan o‘sha narsa bo‘ldi.

Shunday qilib, bu jannatmonand masjidni pardoqlash va zeb-ziynatlar bilan bezash ishlari nihoyasiga etganidan so‘ng (hijriy-qamariy) 905-yil sha‘bon oyining o‘n to‘rtinchisida, chorshanba kuni (mil. 1500-yil, 15-mart)

Yaratganning madadiga erishgan va oqillik bilan chora-tadbirlar koʻrish darajasiga yetishgan [ul Hazrat] katta bir ziyofat uyushtirib, osh berdi.

Bayt:

*Bir toʻy berdi oʻta dabdabali, soz,
Uni taʻriflasak, qissa choʻzilar.*

[Ul Hazrat ushbu masjidning] xatibi, imomi, voizlari, qorilari, mutavallisi, xodimlari hamda ushbu imoratni qurishda qatnashgan quruvchilarni mazkur ziyofat dasturxoniga chorlab, ziyofat shartlarini ado etdi. Shundan soʻng yuzga yaqin ziyofat mehmonlarining munosib qomatlarini qimmatbaho poʻstinlar, oliy navli jundan toʻqilgan chakmonlar, paxtalik toʻnlar va boshqa xil qimmatli kiyimlar bilan ziyatladi.

Shundan soʻng [masjid binosining] pishiqligi va mustahkamligini oshirish maqsadida ushbu tabarruk makonning tomini yopishni buyurdi. Imoratni qurishda ishlayotgan ishchilar qurilish ashyolarini tayyorlab, yetkazib berishga, quruvchi ustalar esa ularni ishga solishga kirishishdi. Qisqa muddat ichida ushbu muborak (30^b) binoning [umumiy maydoni] taxminan oʻn toʻrt jarib keladigan tomlarini ikki qatlam qilib yopib, uning ustini somonli loy bilan suvadilar va shu bilan bu ishdan koʻngilni xotirjam qildilar.

Shundan soʻng hidoyatga panoʻh boʻlgan Amir oldingidan-da kattaroq boʻlgan yana bir toʻy marosimi uchun kerakli narsalar tayyorlashni buyurdi. Xizmatchilar ushbu buyruqni bajarishga kirishib, ellik bosh qoʻy va toʻqqiz bosh otni ushbu mehmondorchilik marosimini oʻtkazishga sarfladilar. [Toʻyning] qolgan tafsilotlarini ana shuning oʻzidan bilib olaversa boʻladi.

Masnaviy:

*Jannatdek bir to'y dasturxonini yozibdi,
Unda ko'ngil istagan barcha narsa muhayyo.
Bunda bir dunyo dasturxonini yozib,
[Uni] behad shirinliklar bilan to'ldirgan.*

Shunday qilib, (hijriy-qamariy) 906-yil jumodi ul-avval oyining birinchisida, dushanba kuni (mil. 1500-yil, 23-noyabr) mashoyixlar, sayyidlar, qozilar, olimlar, fozillar, amirlar, vazirlar, zodagonlar hamda saltanat poytaxti Hirotdagi saroy a'yonlari, ayrimlari hidoyat nishonli Amirning taklifiga binoan, boshqa ba'zilari esa o'z qiziqish va muhabbatlariga ko'ra, o'zidan fayz-baraka sochuvchi ushbu masjidga to'planishdi va bu yerda g'oyatda katta bir yig'in barpo bo'ldi. Turli-tuman taomlar va shirinliklar tortilib bo'lgandan so'ng ulug' martabali Amirning dengizlarni baxshida eta oladigan darajadagi saxovatli qo'llari [ushbu masjid] binosining qurilishida ishlagan ishchilar va ustalarning ustlariga qimmatbaho kiyimlar kiydirdi. Shundan so'ng [ul Hazrat masjid binosini qurishda ishtirok etgan kishilarni] taqdirlash va [bu ish chog'ida ularga yetkazilgan ayrim zahmatlar uchun] kechirim so'rash marosimini o'tkazdi.

To'g'risini aytganda, agar ezgulik va saxovat dengizi bo'lgan bu Amirning binolar va imoratlar qurishga bo'lgan g'ayrati va himmati mahsuli sifatida bunyod etilgan masjidlarning barchasi to'g'risida batafsil so'z yuritadigan bo'lsak, ushbu qisqacha risolamiz cho'zilib ketadi. Shu sababdan qolgan masjidlarning (31^a) nomlarini yozib (sanab) o'tish bilan cheklanamiz:

Injil ko'prigi yonidagi masjid, Talli Qutiyon masjidi, Ulug' ota ko'chasidagi masjid, Amir Islom Barlos ko'chasidagi masjid, Mirzo Alouddavla chorrahasidagi

masjid, Koʻshki Jahonnamoy atroflarida qurilgan masjid, Qalandaron mahallasidagi masjid, «Bogʻi zogʻon» yaqinida qurilgan masjid, Tarxoniyon mahallasidagi masjid, Mirodil mahallasidagi masjid, Puli Kortah jome masjidi, Pulidarqaro jome masjidi, Ziyoratgoh [mahallasidagi] iydgoh, Puhra qishlogʻidagi masjid, Isfazor jome masjidi, Gʻurda qurilgan masjid, Fushanj qasbasidagi masjid, Jom iydgohi, Saraxs masjidi, Kuroti Turshiz jome masjidi, Astrobod jome masjidi.

[Ul Hazrat] bulardan tashqari oʻzlari qurgan barcha madrasalar, xonaqohlar va rabotlarda ham masjidlar bino etganlar. Alloh taolo uning qilgan bu xayrli ishlarini oʻz dargohida qabul qilsin.

Islom arkonlarini mustahkamlaguvchi boʻlgan bu zot [odamlar tomonidan] namozning ado etilishi [bilan bogʻliq ishlarni tashkillashtirish va buning uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish]ga saʼy-harakatlar qilish bilan birgalikda zakot va sadaqalar berish borasida ham katta gʻayrat koʻrsatdi. [Shu oʻrinda aytib oʻtish lozimki,] ushbu soʻzlarni yozuvchining fikricha, ul hazratning xazinasida biror yili ham zakot toʻlashga vojib boʻladigan darajadagi oltin yigʻilmas edi. Chunki [ul Hazratning] mulozimlari qoʻliga kelib tushgan har qanday daromad tez orada turli tabaqalar va guruhlar vakillari boʻlgan kishilarga inʼom sifatida sarflanardi yoki [masjid, madrasa, xonaqoh va shu kabi] maskanlar qurish ishiga xayriya qilinar edi.

Misra:

Taqvodorlar qoʻlida turmas mol-dunyo.

Har doim ezgulik va saxovat dengizi boʻlgan bu Amir bilan uchrashish sharafiga muyassar boʻlgan ulugʻlar [ul Hazratga] muhtoj kishilarning nomlarini aytardilar (31^b), ul

hazrat ham [o‘sha muhtoj kishilarning] ehtiyoji darajasidan kelib chiqqan holda o‘z in‘om dasturxonidan ularni bahramand etardilar.

Shuningdek, [ul Hazrat] otliq holda biror joyga borayotgan chog‘larida biror muhtoj kishiga ko‘zlari tushib qolganda unga ehson qilishlari uchun har doim o‘zlarining ishonchli mulozimlaridan biriga kattagina miqdordagi pulni berib qo‘yardilar.

Saxovat dengizi bo‘lgan ulug‘ martabali bu Amir, [Alloh taolo buyurganidek] «Ramazon oyi – Qur‘on nozil qilingan oydir»¹, ya‘ni Qur‘on nozil qilingan oy bo‘lmish muborak Ramazon oyida qiladigan sadaqalari va xayr-ehsonlarini ko‘paytirishga harakat qilardilar. [Bu oyda ul Hazratning] odatdagi ziyofat dasturxonlariga tortiladigan taomlar ro‘yxatiga bir necha bosh qo‘y va shunga yarasha mahsulot va masalliqlar qo‘shilardi. Har kechasi ulug‘ sayyidlar, zamona olimlari, oliy nasabli amirlar va yuqori martabali vazirlar ulug‘vor Amir huzurida iftorlik qilardilar. Ul hazratning shaxsan o‘zlari mehmonlarga mulozamat qilib, o‘z qo‘llari bilan ularga taom tortardilar va shundan so‘nggina o‘zlari yegulikka qo‘l cho‘zardilar. Shuningdek, [mulozimlaridan] bir necha kishini tashqarida turib, ushbu ziyofat dasturxonini atrofidan joy topa olmagan kishilarga ziyofat berishlarini buyurardilar, shuning bilan birgalikda o‘z oldilaridagi taomlardan bir qismini ham o‘sha kishilarning tanovul qilishlari uchun berib yuborardilar.

Shuningdek, [ul Hazrat] uzoq va yaqindagi fozillar, shoirlar, qashshoqlar, nogironlar va yetimlarni pul va kiyim-kechaklar in‘om qilish bilan siylardilar, yuqori va quyi tabaqalarga mansub kishilarni o‘zlarining bepoyon xayr-ehson dasturxonlaridan bahramand etardilar.

¹ Qur‘oni karim, «Baqara» surasi, 185-oyat.

Bayt:

*Agar uning ehsonidan bir tomchisini tuproqqa toʻksalar,
Har zarra tuproqdan lola oʻrniga Jomi jam unib chiqadi.*

Shuningdek, «Yoʻlga qodir boʻlgan odamlar zimmasida Alloh uchun Baytni haj qilish [farzi] bordir»¹ oyatiga muvofiq, yoshlik davrlarining boshlaridan to umrlarining oxirlarigacha boʻlgan davrda (32^a) ul hazratning koʻngillarida islom hajini ado etish va oʻy-fikrlarida Xayr ul-anom alayhis-salavot va-s-salomning muborak ravzalarini tavof etish niyati bor edi. Hamisha imkoniyatlari boricha ushbu orzularini amalga oshirishga urinardilar va har doim tilda va dilda quyidagi baytning mazmunini amalga oshirardilar.

Nazm:

*Yo Rab, Yasribu Bathoga qachon ham borarkinman,
Goh Makkada bir qoʻnib, goh Madinada turarkinman?
Zamzam bulogʻi boʻyida dildan qilib bir xirgoyi
Qon oqar ikki koʻzimdan ul buloqni dengiz qilarkinman?*

Bir necha bor ushbu safarni amalga oshirish uchun muborak oyoqlarini uzangiga qoʻyib, oʻsha muborak makon sari yoʻl olar, biroq har safar cheksiz kuch-qudrat egasi boʻlgan Sohibqironning iltimosi bilan orqalariga qaytib, ushbu orzuni amalga oshirishga boʻlgan urinishlarini toʻxtatardilar.

[Hijriy-qamariy] 904-yili Sohibqiron Sulton mamlakatning baʼzi manfaatlarini taqozosi bilan Marv shahri tashqarisida chodir tikib, qarorgoh barpo etgan va vaqtinchalik oʻsha qarorgohda istiqomat qilib turgan bir paytda ushbu muborak safarni amalga oshirish ishtiyoqi pok tabiatli Amirning qalbida gʻolib kelib, Mavlono

¹ Qurʼoni karim, «Oli Imron» surasi, 97-oyat.

Nizomiddin Abdulhay Tabibni [Haj safariga ketishga] ruxsat so‘rash uchun o‘sha muborak qarorgohga jo‘natdilar hamda shaxsan o‘zlari

Bayt:

*Yuz minglab kecha bu savdoda bugunga aylandi,
Endi esa bugunni ertaga aylantirishga toqatim yo‘q.*

bayti mazmunini tilga olib, saodat nishonli olimlar va fozillardan bir guruhi hamda ko‘plab mulozimlar bilan birgalikda muqaddas Mashhad shahri tomon yo‘lga tushdilar. Ul janobning o‘sha diyorga yetishiga yaqin qolganida Mavlono Abdulhay buyuk taxt etagidan (*Husayn Boyqaro qarorgohidan*) bu yerga yetib keldi (32^b) va zafar bayrog‘iga ega bo‘lgan Sohibqiron shu xususda olijanob Amirga yozgan maktubini [ul Hazratning qo‘llariga] yetkazdi. Mazkur maktubning matni quyidagicha:

«Saltanat ustuni, mamlakat tayanchi, din va davlat arboblarning sarasi, hukumat va xalq egalarining rahnamosi, xayrli ishlar asoschisi, ezgu ishlar boshlovchisi, xoqon hukumatining madadkori, hazrati sultonning yaqin kishisi, xalq, dunyo va din ishlarini tartibga soluvchi Amir Alisher [Alloh unga beradigan qutlug‘ madadlarini yanada ko‘paytirsin] janoblariga ko‘pdan-ko‘p lutf-iltifotga yo‘g‘rilgan duolar va shavqu ishtiyoq uyg‘otuvchi salomlar yo‘llagan holda, ma‘lum qilinadiki, [ul janob bilan] o‘zidan fayzu barakalar sochuvchi uchrashuv va diydorga yetishish orzusi qay darajada ekanligi bayon va izoh imkoniyatidan tashqari bir narsadir.

Endi esa munavvar ko‘ngilga ma‘lum va ravshan bo‘lsinki, rajab oyining o‘n birinchisida, juma kuni (mil. 1499-yil, 22-fevral) mavlonolar buyugi Mavlono Abdulhay kelib, [ul janobning] muborak ahvollari va sog‘liqlarining

yaxshiligi va mustahkamligi toʻgʻrisidagi xabarni yetkazdi. Bu xabar benihoya quvonchga sabab boʻldi. [Albatta] u kelmasidan oldin ham u munavvar koʻngildan joy olgan Hijoz yurtiga safar qilish niyati toʻgʻrisidagi xabar ogʻizdan-ogʻizga va tildan-tilga oʻtib [turli kishilar orqali] yetib kelgan edi. Ammo [bu toʻgʻrida] ishonchli kishilardan eshitilmagani sababli [shu choqqacha ularga] ishonchli xabar sifatida qaralmagan edi. Eslatib oʻtilgan oʻsha kishi bilan uchrashuvda saltanat va xalifalik asoslarini buyuk tartibga soluvchisi Xoja Afzaliddin Muhammadga yozilgan maktubdan maʼlum boʻldiki, shu kunlarda oʻsha istak qaytadan uygʻonib, qatʼiylashgan va oʻsha safarni amalga oshirish xayoli jazmga aylangan.

Aytmoqchi boʻlgan gapimiz shundan iboratki, ul janob bilan goʻdaklik chogʻlaridan to shu kungacha (33^a) boʻlgan birdamlik va hamjihatlik munosabati hamda birgalik va hamnafaslik aloqasini qay tarzda amalga oshirib kelganimiz va amalga oshirayotganimiz, har doim va har qanday holatda ul janobning muborak koʻngli roziligini olishni oʻzimizning barcha maqsadlarimiz va istaklarimizdan ustun qoʻyib, bu holatni [ul janobda] oʻxshashi va tengi yoʻq qobiliyat va iqtidorning mavjudligiga dalil sifatida baholab kelganimiz va baholayotganimiz barcha-barchaga, butun olam va olam ahliga maʼlum qilinadi. Toʻgʻrisini aytganda, bularning barchasiga javoban, ul janob tomonidan ham [bizga nisbatan faqatgina] yaxshilik tilash va xolis niyat bildirish, tarafdorlik va doʻstlik belgilari zohir boʻlib, [bularning barchasi] kunday ravshan ekanligi sababli bu toʻgʻrida batafsil soʻz yuritib oʻtirishning hojati yoʻq.

Oʻzlari biladilarki, hech qachon oʻrtada soxtalik yoki kelishmovchilik boʻlmagan. Har doim [oʻrtadagi] suhbat shunday oʻtardiki, ul saltanat ustuni xayrxohlik

va maslahat tariqasida nimaiki ko'ngillariga kelsa, o'sha gapni to'qqiz martagacha [takror va takror] aytishga ruxsat etilgan edilar. Biz ham hamisha ko'nglimizga nimaiki kelsa, mehribonlik bilan ma'lum qilar edik. Hozir esa [ul janob] shu chog'da amalga oshirishga jazm qilgan savob safari niyati bir jihatdan tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada ko'ngilga og'ir botganligiga qaramasdan, u kishining roziliklarini o'zimizning manfaatimizdan ustun qo'yanligimiz sababli har qanday holatda ham ruxsat va ijozat berishdan bosh tortmaymiz. Biroq ko'ngilga kelgan gapni ham aytish kerak.

[Sizga] ma'lum qilinadiki, bu safarni amalga oshirishda yo'lning xavfsizligi [ushbu safarni eson-omon amalga oshirishning muhim] shartlaridan biri hisoblanadi. Sizga ma'lum bo'lganidek, shu kunlarda [ushbu safarga borishda] o'tish yo'lida joylashgan Iroq va Bag'doddagi vaziyat anchagina notinch va beqaror bo'lib, Misr va Shom chegaralarida ham turli boshboshdoqliklar yuz berayotganligi to'g'risida xabarlar kelmoqda. (33^b) Bu gapdan xulosa shuki, agar [Haj safariga borish] yo'lidagi xavfsizlikning ahvoli bir kishi hech bir sababsiz boshqa bir kishiga xuruj qila oladigan darajada bo'lsa, [bu safarga] borib o'tirish shart emas. Shunday bir sharoitda yo'ldagi xavf-xatarlardan xavotir olmaslik to'g'ri ish bo'lmaydi. O'zlari aytganlaridek, yo'llardagi xavf-xatarlar sababli «filuriy» degan bir narsa joriy etilgan bo'lib, zarurat bo'lganida va xavf-xatar mavjud bo'lgan joyga yaqinlashilganda mulozimlardan har birida o'shandan bir oz bo'lmog'i lozim.

Bundan tashqari, ushbu safarning ancha vaqtga cho'zilishi ma'lum ekanligi, umrga esa ishonchning yo'qligidan kelib chiqqan holda, yana bir marta uchrashib, xayrlashish rusumi ado etilsa yaxshi bo'lar edi. Ammo bularning har ikkalasiga qaramasdan, mabodo yuqorida

aytilgan ushbu gaplardan [ul janobning] muborak koʻngliga xiralik yetib, ushbu gaplardan maqsad ul hazratning [Haj safariga] joʻnashlariga toʻsqinlik qilish ekan, degan bir oʻy kelmasmikim, degan xavotir ham bor.

Har doim xayrxohlik yuzasidan koʻngillariga nimaiki kelsa takallufsiz [toʻgʻridan-toʻgʻri] aytaverar edilar. Bu narsa bizni ham bu borada nimaiki koʻnglimizga kelsa maʼlum qilmoqligimizni lozim qilib qoʻydi. Bu yogʻiga [ul janobning] savob yoʻlini koʻrsatuvchi aqllarining ixtiyori oʻzida boʻlib, nimaniki ikki dunyo foydasiga muvofiq deb bilsalar, qilishlari mumkin. Ikki dunyo saodati yor boʻlsin. Vassalom».

Bu satrlardan [Sohibqiron Sultonning] ulugʻ va muborak koʻngli yana bir marta ikki tomon oʻrtasida uchrashuv amalga oshishini judayam istayotganligi aniq koʻrinib turganligi sababli, ul hazrat [Haj safariga] joʻnashni keyinga qoldirib, yoʻnalish bayrogʻini Marv tomon koʻtardilar. (34^a) Biroq Saraxs atroflarida qoʻngan paytlari saodatli [Sohibqiron Sulton va unga hamroh] mulozimlar va qoʻshinlar karvoni ham [Marvdan] oʻsha yerga yetib kelib, [ul Hazrat] shaʼni ulugʻ Sohibqironning xizmatiga etishdilar. Hech qanday mubolagʻasiz, bu saodatli podshoh hidoyat yoʻlidan yuruvchi ushbu Amir bilan uchrashish sharafiga muyassar boʻlganidan shu darajada quvonch va shodlik izhor etdiki, agar uning mingdan birini va koʻpidan bir ozginasini bayon etsak, lof-qof deb oʻylashlari mumkin.

Ulugʻ martabali Amir olamkezar bu oʻrdugohda uch kun turdi. Shu kunlari [ul Hazrat] tezyurar otlar, yukkoʻtarar tuyalar, nodir va kamyob buyumlar hamda katta miqdordagi pullardan iborat boʻlgan shohona sovgʻalar va podshohona hadyalarni Jamshiddek xusravga, baland martabali shahzodalarga va pokizalik chodirida koʻzdan yashirin turguvchilarga (*yaʼni, haram ahliga*)

tortiq qildi. Amirlar, vazirlar, sadrlar va ichkilardan tortib saltanat oshyoni bo'lgan saroy xizmatchilarigacha bo'lgan kishilardan ko'pchiligining orzu-umid bisotlarini o'z in'om va ehson xazinalari hisobidan to'ldirdilar.

[Ushbu uchrashuvda ul Hazrat] sulton hazrati oliylariga shunday arz qildilar:

– Bir safar sizning Xudo ko'nglingizga solgan narsalarni so'zlovchi tilingizdan: «Qachonki jahondorlik kabi o'ta mas'uliyatli bu ishdan zeriksam, avliyolarning sarasi bo'lgan Shayx Najmiddin Kubroning o'zidan nurlar taratuvchi maqbarasida istiqomat qiluvchi yoki ulug' Tangrining yaqini bo'lgan Xoja Abdulloh Ansoriyning (Alloh bularning qabrlarini tabarruk qilsin) tabarruk maqbarasi ostonasini supuruvchi bo'laman», degan gap chiqqan edi. Biroq endi sizning bu orzuingiz ushalmaydigan bo'ldi, menga esa to'la xohish va rag'bat bilan Hijoz safariga borishimga ruxsat bermaydilar. [Shunga ko'ra sizning] qutlug' shaxsingiz vakolati bilan (34^b) qolgan umrimni Ansoriyaning tabarruk maqbarasi ostonasini supuruvchilik bilan o'tkazishimga va [saroy] mulozimligi ishidan butunlay bo'shashimga ruxsat bersangiz. Chunki keksalik zaifligi vujudimga ta'sir ko'rsatib, quvvatim ketgan va tanamda kuch qolmagan.

Nazm:

*Qulni ozod qilguvchi xojalar
Odatda keksa qulni ozod qilarlar.*

Hazrati Sohibqiron benihoya lutf va mehribonlik bilan bu iltimosni inobatga olib, o'zidan gavharlar sochuvchi tili bilan shunday dedi:

– Siz Xurosonda istiqomat qilib turar ekansiz, nimaiki iltimos qilsangiz, [bunday iltimos] ijobat qilinish sharafiga

muyassar boʻlar. Chunki aniq bilamanki, bu mamlakat sizning muborak vujudingizdan xoli boʻlsa, yuqori va quyi tabaqalarga mansub boʻlgan kishilarning barcha toifalari va guruhlarining hayotida notinchlik va beqarorlik yuz beradi.

Shundan soʻng pok niyatli Amirning munosib qomatini oltin tugmalar qadalgan va avrasi zarbof qilib toʻqilgan qora qunduzi poʻstin va martabasiga munosib boʻlgan boshqa qimmatbaho kiyimlar bilan bezatdilar. Shundan soʻng saltanat poytaxti Hirotga qaytishga ruxsat berildi.

Ul Hazrat oʻsha yili shaʻbon oyining oʻrtalarida yana bir bor shavkatli shaharni qutlugʻ quyoshining yorqin nurlari bilan toʻldirdi. Shaharning mashoyixlar, sayyidlar, olimlardan tortib oddiy xalq va quyi tabaqalargacha boʻlgan qatlamlari va toifalari vakillaridan iborat boʻlgan aholisi ushbu tashrifdan bagʻoyat shod va xursand boʻlib, shukr sajdasi ado qilish va nazrlar berishga kirishishdi.

Shu asnoda hidoyat nishonli Amirning muattar koʻngli tabarruk Ansoriya maqbarasida katta bir ziyofat marosimi oʻtkazib, unga (35^a) shavkatli Hirot shahrining ulugʻlari va zodagonlarini chaqirish hamda ulardan fотиha olishni tusab qoldi. Shunga koʻra ushbu ziyofat marosimi uchun kerak boʻlgan narsalarni tayyorlashni buyurdi. Mulozimlar nihoyatda dabdabali boʻlgan bir ziyofat dasturxonini tayyorlashga kirishishdi. [Bu ziyofatda] yetmish bosh qoʻy va yigirma bosh ot [goʻshti] va oʻttiz man qand sarflandi. [Ziyofatning] qolgan tafsilotlarini ana shuning oʻzidan bilib olaversa boʻladi.

Shunday qilib, oʻsha yili shaʻbon oyining yigirma ikkinchisida, payshanba kuni (mil. 1499-yil, 4-aprel) sultonlardan Mirzo Sulton Ahmad, Mirzo Muhammad Qosim va Sayyid Abdulloh Mirzo, mashoyixlardan

Mavlono Shamsiddin Muhammad Ruhiy, Shayx Jaloliddin Abusaid Purniy, Xoja Abu Ahmad, millat va dinning baxti bo'lgan Mavlono Sa'diddin al-Koshg'ariyning o'g'li Xoja Kalon, Xoja Ziyouddin Yusuf va Mavlono Hamididdin Tabodgoniy, sayyidlar va naqiblardan Amir Jamoliddin Atoullah Asiliy, Amir Nizomiddin Abdulqodir, Amir Ibrohim Musha'sha', Amir Burhoniddin Atoullah, Amir Ibrohim Mashhadiy va Amir Sadridin Yunusiy, qozilar va olimlardan Qozi Qutbiddin Ahmad al-Imomiy, Mavlono Nizomiddin Abdulhay, Mavlono Kamoliddin Mas'ud Shirvoniy, Mavlono Karimiddin Dashtbayoziy, Xoja Ahmad, Qozi Xoja Kalonning avlodidan Xoja Abdurahmon hamda nomlarining to'liq ro'yxatini keltirish mavzuning cho'zilib ketishiga olib keladigan boshqa akobirlar va a'yonlar ushbu muborak maqbarada yig'ildilar. Dongdor amirlardan bo'lgan Amir Kamoliddin Shoh Husayn, Amir Junayd Sorbon, Amir Muhammad Ko'kaldosh, Amir Hoji Pir, (35^b) Amir Sayyid G'iyosiddin Muhammad Bog'bonning farzandlari ushbu marosimda oyoqda turib, [bu yerga yig'ilgan] ulug'larning xizmatida turishdi. Qisqacha qilib aytganda, shunday bir ziyofat marosimi uyushtirildiki, osmonni kezuvchi quyosh cheksiz koinotda aylanib yurar ekan, shu choqqacha bunaqangi yig'inga ko'z nurlari tushmagan, turg'un va sayyor jismlardan tashkil topgan ko'hna falak yuz ming ko'zi bilan olam va undagi narsalarga tikilib turgan ekan, shu choqqacha uning ko'zi bunday yig'inga tushmagan.

Nazm:

*Yig'in emas, shohona bir bazmdir,
Minglab noz-ne'matlar qo'yilgandir.
Rang-barang dasturxonlar yozilgan,
Turli ne'matlar-la bezatilgan.*

Taomlar tortilib, oʻta bilimdon boʻlgan Zot kalomidan qiroat qilinganidan soʻng insonlarning tayanchi va pushti panohi boʻlgan ul hazrat ulugʻ mashoyixlardan fayz-baraka bagʻishlovchi bir fотиha berishlarini iltimos qilib, shu orqali unga madad berishlarini soʻradi.

[Ulugʻ Amir] oʻsha yili aksariyat vaqt Gozurgohda istiqomat qilib, muborak Ansoriya maqbarasining sharqiy tomonida bir xonaqoh bino qildilar. Qoʻllaridan kelganicha ushbu muqaddas maqbaradagi ishlarning rivoji va ravnaqiga hissa qoʻshdilar.

Bularning barchasiga qaramasdan, hajga borish oʻyi va Xotam ul-anbiyo sallallohu alayhi vasallamning ravzalarini tavof qilish fikri ushbu saodatli Amir koʻnglini tark etmadi. Natijada (hijriy-qamariy) 905-yili (mil. 1500-yil) toʻgʻridan-toʻgʻri va boshqalar orqali oliy darajali Sohibqiron ruxsat soʻradilar. Ul zot har safar rozilik boshini qimirlatardilar, ammo keyin yana pushaymon boʻlib, pok koʻngilli Amirning uyiga tashrif buyurib, shoshmay turishlarini iltimos qilardilar.

Nihoyat (36^a) [ul Sohibqiron] oʻzlarining muborak koʻngillari istagidan voz kechib, [ulugʻ martabali Amirning hajga borishiga] sharaffi ruxsatlarini berdilar va [ul Hazratning mazkur safarlari toʻgʻrisida] bir yoʻl farmoni chiqardilar. Ushbu yoʻl farmonining matni quyidagicha:

«Yaxshilikka yoʻllovchi Zotning buyuk qudrati va baʼzi kimsalarni baʼzi kimsalar ustidan darajasini koʻtaruvchi Zotning buyuk, mukammal qudrati bilan. Abulgʻoziy Sulton Husayn Bahodir soʻzimiz.

Oʻtkir bilim va zakovat koʻzi egalarining koʻzlarga koʻrinmas narsalarni koʻringuvchi qiluvchi koʻngillari koʻzlari, shuningdek [yaratguvchi Zotga boʻlgan] ehtiyojmandlik maydonining rahnamolari hamda

haqiqat va majoz mulkining podsholari bo'lgan bilimdonlik va ishonch egalarning pok yuraklaridagi qora nuqtalariga yashirin va maxfiy qolmasinki, borliq olam hayrat vodiysidagi taviq (ilohiy madad) va tavid (yakkaxudolik) manzillariga eltuvchi karvon sarboni hidoyat yo'li va Allohning buyurganlarini ulug'lash yo'rig'ini boshlar hamda [Allohni] ulug'lash va maqtash ishiga yordam beruvchilar tomonidan amalga oshirilgan tahqiq (haqni izlash) va ta'yid (rag'batlantirish) bosqichlarining nurli o'tmishi bulutlar qorong'uligiga «Bas, qaysi tarafga yuzingizni qaratsangiz, o'sha tomonda Allohning «yuzi» mavjuddir»¹ [oyati] nurlari nishonalarini bag'ishlar ekan, bir baxtiyorning aql qulog'iga «Mendan so'rgan bormi? Mendan mag'firat so'rgan bormi?» (*Hadis*) nidosi eshitiladi. Bu esa [g'aybdan] abadiy turguvchi davlatning ko'ngliga kelgan o'y hamda [g'aybdan] ko'ngilga kelgan va bardavom bo'lguvchi inoyatdan xabar beradigan fikrga ko'ra, ruhlar va jinlar tomonidan «Labbay Senga, Allohim, labbay» deb til bilan aytishga javob bo'la oladi.

Bu so'zlarni aytishdan maqsad va bu gaplarni bayon etishdan ko'zda tutilgan narsa shuki, ushbu sulola hukmronligi yorug' zamonining quyoshi bosh ko'targan va ushbu qudratli va shavkatli xonadon xalifaligi daraxtining unib-o'sa boshlagan (36^b) davrining boshlaridan ushbu ulug'vor yo'lda bo'lgan, farishtalar sifatlariga va avliyolik belgilariga ega bo'lgan tabiatlari muborak jismlari bilan zohiriy va botiniy birlikka ega bo'lgan, har doim abadiylikka monand suhbatlari va jannatni bezaguvchi uchrashuvlariga katta ehtiyoj bo'lgan xayrli ishlar asoschisi, ezgu ishlar boshlovchisi, xoqon hukumatining madadkori, Hazrati

¹ Qur'oni karim, «Baqara» surasi, 115-oyat.

sultonning yaqin kishisi, qudratli saltanat ustuni, tinch va farovon mamlakat tayanchi, haq, haqiqat va din ishlarini tartibga soluvchi oliy nasabli, hidoyat nishonli olijanob Nizomiddin Amir Alisher (Alloh taolo undan yogʻiladigan barakalarni doimiy qilsin) hozirgi kunlarda asoslari mustahkam boʻlgan dinimiz rahnamosining keltirgan dalillari hamda «[Alloh] xohlagan kishini toʻgʻri yoʻlga hidoyat etadi»¹ dalilining toʻgʻri yoʻl koʻrsatishi tufayli baxtiyorlar qatoridan joy olib, aniq ishonsa boʻladigan sadodatdan bashorat qiluvchi «[Namozda] yuzingizni Masjidi Harom [Kaʻba] tomonga oʻgiring!»² aniq-ravshan xitobi hamda jahonni bezaguvchi «Kaʻba, yaʼni Bayt ul-Haromni Alloh odamlar uchun [muhim] maqom qilib qoʻydi»³ chaqirigʻi eshilib turgan bir chogʻda oʻsha muqaddas zaminni tavof etishga ruxsat va Ibrohim (alayhissalom) toʻgʻrisidagi barcha narsalarni aniq-ravshan bayon qilib berguvchi oyatlarda sifatleri bayon etilgan va maqtovlari keltirilgan oʻsha muqaddas vodiya borishga ijozat olib, davlatning bardavom hamda uning qudrati va ulugʻligining abadiy boʻlishini duo qilish sharti bilan, oʻsha ilohiy sovgʻaning qadriga yetish yoʻlida qadam tashlashni iltimos qilibdilar. Garchi shu choqqacha bir necha bor shu niyatni oʻz oldilariga maqsad qilib qoʻygan va shu ishga ruxsat berilishini iltimos qilgan, biroq har safar buyuk Yaratguvchining yaratganlari va omonatlari boʻlgan bandalarning manfaatlarini koʻzda tutish bilan bogʻliq boʻlgan maʼlum sabablarga koʻra ushbu iltimosni ijobat qilish imkoniyati boʻlmagan boʻlsa-da, bu safar [ul janobning biz uchun] hamisha hurmatli va aziz boʻlgan fayzli koʻngillari roziligini olish

¹ Qurʼoni karim, «Yunus» surasi, 25-oyat.

² Qurʼoni karim, «Baqara» surasi, 194-oyat.

³ Qurʼoni karim, «Moida» surasi, 97-oyat.

maqsadida, u kishining iltimoslarini bajo keltirishga qaror qildik va (37^a) bajarilishi barcha uchun majburiy bo'lgan quyidagi jahonshumul va quyoshsifat farmon (Alloh uni yer kurrasining sharqida va g'arbida kuchga ega qilsin) chiqarilish va kuchga kirish sharafiga muyassar bo'ldi:

Ul janobi oliy Hijoz tomon yo'lga tushganliklarini nazarda tutgan holda, [ul zot] bu yo'lda joylashgan mamlakatlardan qay biriga borsalar ham, [u yerdagi] hokimlar, a'yonlar, aholi va yo'l xavfsizligi qo'riqchilari u kishiga nisbatan hurmat-ehtirom va izzat-ikrom ko'rsatib, bir daqiqa ham [ul Hazratga] xizmat ko'rsatishni to'xtatib qo'ymasinlar, [o'zlariga tegishli bo'lgan hududdan] u kishi va u kishiga hamroh bo'lgan kishilar va mulozimlarning barchasini sog'-salomat va eson-omon o'tkazib, xavf-xatar mavjud bo'lgan joylardan o'tishlarida qurolli qo'riqchilar bilan ta'minlasinlar, [ul Hazratning] qutlug' qadamlarini aziz va muhtaram bilib, [ul zot tomonidan bildirilgan har qanday] minnatdorchilik va shikoyatni [qonuniy] kuchga ega deb bilsinlar.

Podshohni taxtga chiqargan birodarlar, zafar yo'ldoshi bo'lgan Sohibqironning farzandlari, qudrat falakining davlat tuzuvchi amirlari, dorug'alar, zodagonlar, a'yonlar, turli aholi yashash manzillarida yashovchi barcha kishilar hamda turli tabaqalar va toifalar vakillari e'tiboriga shu ma'lum qilinadiki, bajarilishi majburiy bo'lgan [ushbu] farmon asosida ish tutsinlar, [ushbu] qutlug' farmon mazmuni va qoidalaridan chetga chiqish holatlariga yo'l qo'ymasinlar va [ushbu farmon] ulug' zotning muborak imzosi bilan bezatilgan, ziynatlangan va chiqarilganligi sababli unga ishonch bildirsinlar.

Payg'ambar hijratining 905-yili zulqa'da oyining beshinchi kuni (mil. 1500-yil, 2-iyun) oliy zot (Alloh

taolo uning martabasini baland, nufuzini abadiy va hukmronligini bardavom qilsin) amri bilan yozildi».

Ammo ushbu farmon chiqqan paytida quyosh javzo burjining oxirlaridan joy olgan (*yaʼni, javzo oyining oxirlari kelib qolgan*) boʻlib, havo haroratining judayam koʻtarilib ketganligi sababli koʻzda tutilgan safarni amalga oshirish katta qiyinchilik tugʻdirishi mumkin ekanligidan kelib chiqqan holda, sunbula oyining boshlarida muqaddas haram ehromini kiyishga va tilni (37^b) «Labbay Senga, Allohim, labbay» deyishga ochib, yoʻlga tushishga qaror qilindi.

Shu vaqtda zafar bayroqli Sohibqiron jahon ahli shahzodasi Muhammad Husayn Mirzoning bosh koʻtarganligi sababli Astrobod tomon yoʻl oldi, hidoyat nishonli Amirning mulozimlari esa katta gʻayrat bilan Hijoz safari tayyorgarligini boshlashdi.

Bayt:

*Taqdir naqqoshining parda ortida
Naqshlar chizganidan bexabar holda.*

Shunday qilib, olamni kezuvchi quyosh oʻzining yorqin nurlari bilan Atorud uyini munavvar etib, havoning harorati moʻtadillashgach, ul oliy Hazrat [hijriy-qamariy] 906-yil muharram oyining oxirgi kuni, chorshanbada (milodiy 1500-yilning 26-avgusti) ragʻbat otiga minib yoʻlga tushdilar. Oʻsha safarda Ayn ul-hayot degan joyda qoʻnish qildilar va juma namozidan soʻng Muqaddas Mashhadga yetib olish va u orqali oʻsha muqaddas vodiya yetib borish uchun yoʻlga tushdilar. Biroq yoʻlda tan sogʻligʻiga zarar yetkazadigan holatlarga yoʻliqqanliklari sababli, «Alloh uning shanbasi va payshanbasiga baraka bersin» hadisiga asoslangan holda, nujum ilmi vakillarining

aytishlaricha qutlugʻ va munosib vaqt boʻlgan safar oyining sakkizinchi kunida (milodiy 1500-yilning 3-sentabri) ushbu safarni boshlashni rejalashtirib, muborak uylariga qaytdilar.

Biroq ana shu oyning ikkinchisida, juma kuni namoz ado etilganidan soʻng mashoyixlar, olimlar va irshod ahlidan Shayx Jaloliddin Abusaid Puroniy, millat va dinning qilichi boʻlgan shayxulislom Sayfiddin Ahmad at-Taftazoniy, Shayx Ali, Mavlono Muiniddin al-Farohiy, Mavlono Kamoliddin Husayn (38^a) al-Koshifiy, Mavlono Kamoliddin at-Tabodgoniy va Xoja Imodiddin Abdulaziz Abhariy, sayyidlar va naqiblardan Amir Qavomiddin Husayn Mozandaroniy, Amir Jamoliddin Atoulloh Asiliy, Amir Nizomiddin Abdulqodir, Amir Shamsiddin Muhammad ibn Amir Yusuf Roziy hamda Hirot shahri va uning atrofidagi joylarning zodagonlari, aʼyonlari, rahbarlari va boshqa ulugʻlari ul Hazratning huzurlariga kelib, shunday arz qildilar:

– Sizning barakalar yogʻilib turgan shaxsingiz Xuroson mamlakati viloyatlaridagi tinchlik hamda aholining turli tabaqa va guruhlariga mansub kishilar oʻrtasidagi osoyishtalikka sabab boʻlib turibdi. Hozir bu diyor Sohibqiron Sultonning saxovatli vujudidan xoli boʻlib, agar sizning oʻzidan nurlar sochguvchi vujudingiz quyoshidan ham xoli qolsa, fitnalar yuz berishi, ularni bostirish esa imkoniyat doirasidan tashqarida boʻlib qolishi mumkin. Ayniqsa [hozirgi paytda] oʻzbek podshosi Movarounnahrda hujum qilgan va Amudaryodan [janubga] oʻtishni moʻljallab turgan, Iroq va Shomdagi vaziyat ham oʻta notinch, yoʻllar esa oʻta xatarli boʻlgan bir chogʻda, ulugʻ shariat qonunlariga koʻra ham bunday vaziyatda hajga borish vojib hisoblanmaydi. Bu faqirlarning [sizdan qilmoqchi boʻlgan] iltimosi shuki,

yana bir marta xurosonliklarning joniga oro kirib, bu yil ushbu safarni amalga oshirish fikridan qaytsalar va ushbu ezgu ishning savobini piyoda amalga oshirilgan etmish hajning savobidan ortiq koʻrsalar.

Ul oliy Hazrat [bunga javoban] chiroyli soʻzlar bayon qiluvchi tillari bilan quyidagilarni aytdilar:

– Barchangizga, qolaversa, (38^b) butun olamga va uning ahliga maʼlum va ravshanki, uzoq vaqtdan va anchagina muddatdan buyon ushbu safarni amalga oshirish borasidagi shu oʻy miyadan va ushbu fikr koʻngildan joy olgan edi. Har safar imkoniyatga qarab oʻsha tomonga yoʻl olishga niyat qilinganida tengsiz Sohibqiron monelik qilardilar. Hozir ham oʻta chiroyli bir tarzda [hajga borishimga] ruxsat bergan, [bu borada] muborak yoʻl farmoni ham chiqarib, [ushbu safar uchun] kerakli narsalarni tayyorlash va mulozimlarning xarajatlarini taʼminlash uchun katta miqdordagi mablagʻ sarflangan boʻlsa-da, hozir oʻzimizning istagimizni sizning iltimosingizdan ustun koʻrishning oʻrni emas. Qolaversa, «Moʻminlar qalbiga xursandchilik kiritish butun odamlar va jinlarning qilgan ibodatidan yaxshiroqdir» (*Hadis*), degan hadisga asoslanib, sizning iltimosingizni ijobat etishga loyiq deb topdik va bandalarning manfaatini koʻzlab, bu safar ham ushbu istagimizdan qaytdik.

Bu soʻzlarni eshitgach, barchaning koʻngli gʻoyatda iyib ketib, quvonch va shodlik bilan uylariga qaytdilar, qaytadan shaʼni ulugʻ Amirga boʻlgan ixlos kamarini jon beliga bogʻlab, tillariga [ul Hazrat haqqiga aytiladigan] duolar va madhu sanolarni keltirdilar.

Qisqacha qilib aytganda, yuqorida aytib oʻtilgan sabablarga koʻra ul hazratga Makkai mukarrama va Madinai tayyibaga borish baxti nasib etmagan boʻlsa-da, bir necha martalab ishonchli kishilarga toʻliq xarajatlarini

berib, ul hazrat uchun ham haj ziyoratini ado etishlari uchun hajga jo'natdilar. Bu borada o'sha ulug' maqomdagi ulug'larning nomlari qayd etilgan shahodat hujjatlari (39^a) keltirilgan.

Allohning uzluksiz bergan ne'matlariga shukronalar bo'lsin.

Yettinchi maqsad

MEHRIBONLIK VA RAHMDILLIK HAQIDA

Ko'ngli yorug' oqillarning qalb sahifalariga bayon qalamibilan bitib qo'yilganki, yagona zot bo'lgan Xudovand nazdida eng ulug' xislat mehribonlik va rahmdillikdir. «Albatta rahmatim g'azabimdan ustundir!» hadisi qudsiysi ham bu gapning to'g'riligini tasdiqlaydigan o'ta mustahkam dalildir. Agar rahmdillik va mehribonlikdan ham yaxshiroq xislat bo'lganida edi, pok va ulug' parvardigor Qur'on suralari avvalida o'zining muqaddas zotini [mehribonlik va rahmdillikdan boshqa bo'lgan] o'sha sifatlar bilan maqtagan bo'lardi.

To'g'ri yo'lga boshlovchi [Xudo] hamda mehribon va kechirimli Zotning tanlagani [bo'lgan payg'ambar] ulug' manzilatli ummatni o'zlaridan xuddi shunday xulq-atvorni namoyon etishga burchli qilganlar. Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam shunday deganlar: «Yer yuzidagilarga rahm qilinglar, shunda sizlarga osmonlar ustidagi Zot [Alloh] rahm qiladi».

Boshqa bir hadisda toshyuraklarni o'ziga ergashuvchilar jumlasidan tashqarida deb bilib, shunday deb marhamat qilingan: «Kim kichiklarga rahm-shafqat qilmasa, kattalarga izzat-hurmat ko'rsatmasa, u bizdan emas».

Shunday ekan, insonlarning barcha toifalari boʻyniga va barcha tabaqalari zimmasiga shu burch va majburiyat qoʻyilganki, ular Yaratguvchining rahmatidan mahrum boʻlib qolmasliklari uchun barcha insonlarga ularning tabaqa va toifasidan qatʼi nazar mehribonlik bilan muomala qilishlari, toshyuraklik va toshbagʻirlik kabi yomon illatdan oʻzlarini olib qochishlari va saqlanishlari lozim.

Bayt:

*Koʻngil, tingla mendan bu yaxshi soʻzni,
(39^b) Donolardan qulogʻimda qolgan oʻgitni:
Kimki bagʻritoshlik qilichin tortsa,
Halok boʻlar bagʻritoshlar qilichidan.*

Ushbu maʼnolardan taralayotgan nur rahmdil va kechirguvchi boʻlgan Zot marhamatlari jilvagohi va hazrati sultonning yaqin kishisiga kunday ravshan boʻlganligi sababli, har doim rahmdillik va mehribonlik xislatini oʻzlariga odat qilib olgan edilar va hamisha mehribonlik va yumshoqkoʻngillilik qanotini olam ahlining turli toifalari va tabaqalari uzra yoyib, bechoralarning dillaridagi oʻtni taskin sharbati bilan oʻchirardilar va mazlumlar koʻkrigidagi jarohatni oʻzlarining rahmdillik va ichkuyarlik malhami bilan davolardilar.

Aytilgan ushbu gaplarga misol keltirish va ushbu daʼvoni isbotlash uchun qutlugʻ bayonli qalam bir necha hikoyatni bayon etishga kirishib, ushbu risola sahifalarini dunyo ulugʻlari va buyuklarining tayanchi boʻlgan bu zotning maqtovga sazovor yaxshi ishlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar bilan bezaydi.

Xudoning oʻzi ishimizga madad va omad bersin.

Hikoyat

Sulton Sa'id Mirzo Sulton Abusa'id zamonida Sohibqiron Sulton lashkarlari ba'zida zamon taqozosiga ko'ra Xuroson viloyatlari va tumanlariga hujumlar uyushtirib turardilar. Bir gal ulardan ikki nafari Amir Ahmad Hoji [odamlari] tomonidan qo'lga olindi. U o'ylab o'tirmasdan, bularning har ikkalasi qatl etilsin va boshlari Samarqand voliyisi Sulton Ahmad Mirzoning oldiga olib borilsin, deya hukm chiqardi.

O'sha paytda Ahmad Hojining qo'shinida bo'lgan, Hazrati sultonning yaqin kishisi hisoblangan ul oliy hazrat ushbu hukm to'g'risida eshitib, o'sha ikki asirning holiga rahmlari (40^a) keldi va amir janoblariga:

– Bu ikki kishini tiriklay Sulton Ahmad Mirzoning oldiga yuborish kerak, toki uning o'zi bevosita ulardan Mirzo Sulton Husaynning ahvoli qanday ekanligini bilib olsin va bular to'g'risida o'zi ma'qul topgan hukmni chiqarsin, – dedilar.

Amir Ahmad Hojiga bu so'zlar juda ma'qul tushib, ul Hazratni olqishladi va asirlarni o'z podshohi oldiga jo'natdi. Sulton Ahmad Mirzo ulardan Sohibqiron Sultonning qanday ahvolda ekanligini bilib olgach, har ikkalasini qamoqqa tashladi.

Oradan bir qancha vaqt o'tgach, ushbu azizlardan biri [qamoqdan] ozod bo'lib, dono Amirning [xizmatiga kirish uchun uning] huzuriga shoshildi. Uning xizmatida bo'lish majburiyatini bo'yniga olib, bir umr [ul Hazrat] mulozimlari qatoridan joy olib, uning duoi jonini qilishga mashg'ul bo'ldi.

Hikoyat

Bir safar Sulton Saʼid amirlaridan bir guruhi Chahchah yaqinidagi jangdan soʻng Sohibqiron Sulton lashkarlaridan bir toʻdasini asir olib, ularni qatl etish va soʻngra boshlarini oʻz podshohlariga joʻnatish uchun boʻlib olishdi. [Bu paytda] Hazrati sultonning yaqin kishisi boʻlgan ul oliy hazrat oʻsha oʻrdugohda Amir Sulton Hasan Arhangiyning oʻgʻli Mirzobek bilan birga edilar.

Shunday qilib, oʻsha asirlardan ikkitasi Amir Sulton Hasanga tegdi. Ushbu amirning oʻzi boʻlmagan, ammo ul Hazrat Mirzobek bilan birga turgan bir joyga tavochi oʻsha ikki asirni olib keldi-da, (40^b) darhol bularning har ikkalasini ham qatl etib, boshlarini [podshoh huzuriga] yuboring, dedi. Oliyjanob Amir bu holatni koʻrib tashvishga tushdi va Mirzobekka qarab:

– Men jang maydonining falon joyida bir jasadni koʻrdim. Bir-ikki tanga jallodga bersangiz, uning kallasini olib kelsa va [oʻsha kallani qoʻlga tushgan asirlardan birining kallasini, deb podshohning oldiga joʻnatsangizu] asirlardan birini oʻldirmasdan qoʻyib yuborsak, degan umidda edim, – dedi.

Mirzobek ul Hazratning aytganini qildi va shu tariqa olijanob Amir bir kishining hayotini saqlab qoldilar.

[Ul Hazrat asirlardan] ikkinchisining hayotini qay yoʻl bilan saqlab qolsak ekan, deb oʻylab turganlarida, tavochi yetib kelib, bittadan ortiq asirni oʻldirmang, bitta kalla yetadi, deb qoldi. Shunday qilib, jang maydonidan olib kelingan kallani [unga] berib, [asirlikka tushgan] har ikkala kishini qoʻyib yubordilar.

Hikoyat

Bir safar Sohibqiron Sultonning muborak ko'ngliga Xorazm viloyatini obod qilish fikri kelib, Xuroson aholisidan uch ming oilani u yerga ko'chirish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan farmon chiqardi. [Bu farmonga ko'ra ushbu uch ming oila o'sha viloyatda] joylashib, [u yerni] obod etish va dehqonchilik qilishga kuch-g'ayrat sarflamoqliklari lozim edi.

Hamisha unga omad va g'alaba yor bo'lgan Amirning nurlu nazari bu holatga tushgach, [Xorazm viloyatiga jo'natilishi kerak bo'lgan] odamlarning ahvoliga rahmi kelib, [Sohibqiron Sultonga] shunday arz qildi:

– A'lo hazratning bu ishdan ko'zda tutgan maqsadlari islom mamlakatini obod qilish hamda insonlarning turli toifalari moddiy farovonligini oshirish bo'lsa-da, ammo hozir o'rganib qolgan vatan va odatlanib qolgan maskandan ayrilish musulmonlarga parokandalik va sargardonlik ko'rinishidagi ko'p qiyinchiliklar olib keladi. Bundan tashqari [u yerga] ushbu guruh odamlarining borib yashay boshlashi bilangina (41^a) u viloyatning obod bo'lish-bo'lmasligi ma'lum emas. [A'lo hazratning] shohlarga xos bo'lgan yumshoqko'ngilliklari va mehribonchiliklaridan qilingan umid shuki, ushbu fikrdan qaytsalar. Chunki azaliy zot bo'lgan Xudo Xorazmning obod bo'lishini istaydigan bo'lsa, [u viloyat] biror kishi o'z vatanidan uzoqlashib, sarson-sargardon bo'lmasa ham obod bo'lave-radi.

Sohibqiron Sulton boshida bu so'zlarni ma'qullash qulog'i bilan tinglamadi. Rahmdillikni o'ziga odat qilib olgan bu Amir bu so'zlarini o'n marta takrorlab, uni bu fikrdan qaytishini qattiq turib so'ragan bo'lsa-da, foyda bermadi. Biroq boshqa bir safar jur'at qilib, shunday dedi:

– [Aʻlo Hazratning chiqargan] muborak farmoniga muvofiq kamina har bir muhim masala borasidagi oʻz vaqtida bildiriladigan fikrimni toʻqqiz martagacha [qayta-qayta] aytishga haqli boʻlganligimdan kelib chiqqan holda, xalqni Xorazmgaga koʻchirish masalasi toʻgʻrisidagi fikrimni toʻqqiz marta maʼlum qildim, biroq natija bermadi. Hatto undan oshirib, oʻninch marta ham bu ishning oldini olish uchun sizga bosh ogʻrigʻi boʻldim, lekin iltimosimning bajarilishiga erisholmadim. Endi iltimosimni yana bir marta takrorlayman va umid qilamanki, bu gal bu iltimosni bajo keltirasiz.

Adolat yoʻlidan yuruvchi podshoh shunday javob berdi:

– Men sizning kundan-kunga qudrati oshib borayotgan davlatning manfaatlarini oʻylab, bu masalada qattiq turib olganingizni bilaman. Biroq saltanat tongi yorishmasidan oldin oʻsha oʻlkaning obodonligi uchun saʼy-harakat va kuch-gʻayrat sarflashni oʻz oldingma maqsad qilib qoʻyganligim sababli bu ishni amalga oshirish fikridan butunlay voz kecholmayman. Endi sizning maʼqullashingiz bilan oʻsha uch ming oilaning uchdan ikki qismiga tegmaslik, (41^b) ularning uchdan bir qismidan ortigʻiga u tomonga koʻchish majburiyatini qoʻymaslik [yaʼni oldin aytilgan oʻsha uch ming oiladan faqat uchdan birini Xorazmgaga koʻchirish] toʻgʻrisida farmon berdim.

Qitʼa:

*Qanday ajoyib donokim, shoh oldida
Qahr chogʻida yaxshi narsalardan soʻzlaydi.
Suv kabi yoqimli va mayin soʻzlar aytadi,
Shohning [qahr] oloviga suv sepadi.*

Hikoyat

Bir yili qish faslida adolatli Sohibqiron Marvda qishlagan, olam ulug'larining pushti panohi bo'lmish ul Hazrat esa uning osmon bilan bo'ylashgan qarorgohida xizmatda bo'lgan chog'ida bir musicha bir necha marta ul hazratning chodiriga uchib kirdi va hech kim unga tegmaganidan keyin o'sha yerda in qurib, tuxum qo'ydi.

Sayyoralar podshohi hut qishxonasidan o'zining buyuklik va ulug'lik manzili tomon harakat qilgach, Sohibqiron Sulton saltanat poytaxti Hirotga qarab yo'l oldi. Biroq bu paytda o'sha musicha qo'ygan tuxumlar hali ochilmagan edi.

Shu sababli ul oliy hazratning tabiatida mavjud bo'lgan rahmdillik va undagi tug'ma xislat bo'lgan yumshoqko'ngillik o'sha musicha jo'ja ochib, bolalarini katta qilmaguniga qadar ushbu chodirni yig'masdan shunday qoldirishni taqozo qilib qoldi. Shunga ko'ra [ul hazrat] Xoja Hasan Baxtiyorga ushbu chodirga ko'z-quloq bo'lib turishni, musicha bolalarini uchirganidan keyingina uni o'zining xizmat haqi sifatida o'zi bilan birga olib ketishini buyurdilar.

Xoja Hasan Baxtiyor bu buyruqni bosh ustiga qabul qilib, musicha bolalarini katta qilib olguniga qadar o'sha jonivorga ko'z-quloq bo'lib turdi va shundan keyingina u chodirni yig'ib oldi.

Hikoyat

Bir kuni hidoyat nasabli Amir (42^a) asr namozini o'qigandan so'ng har kunlik odatiga xilof ravishda, jamoat namoziga kelmagan kishilarni surishtirishga kirishmasdan, shosha-pisha o'zlarining shaxsiy bog'chalari tomon yo'l

oldilar va unchalik vaqt oʻtmasdan, tezda qaytib keldilar. Bundan ul Hazratning xizmatida boʻlgan mulozimlardan ayrimlari hayron boʻldilar. Ul hazrat bu holatni tushunib, oʻzidan gavharlar sochuvchi tillari bilan quyidagi soʻzlarni aytdilar:

– Masjidga kelayotgan chogʻimda falon joyda toʻxtab, tahorat qilgan edim. [Namoz chogʻida] jamoat [boʻlib namoz oʻquvchilar] safida turganimda yelkamga yopishib olgan bir chumolini koʻrdim. Bildimki, tahorat qilgan joyimda menga ilashib olgan ekan. Agar yelkamdan tushib ketib, unga biror ozor yetsa va uyiga boradigan yoʻlni topolmay qolsa, uvoliga qolamanmi, deb qoʻrqdim. Shuning uchun ham namoz tugaganidan soʻng shoshapisha oʻsha tahorat qilgan joyimga bordim-da, uni oʻz uyasi oldiga qoʻyib yubordim va koʻnglimni [oʻzim bilmagan holda Xudoning bir jonivoriga] jabr-zulm qilib qoʻyish xavotiridan xalos qildim.

Ul hazratning xizmatkorlari bu hikoyatni eshitib, uning benihoya rahmdilligidan hayrat dengiziga gʻarq boʻlishdi hamda tillariga [ul Hazratning haqlariga] duoyu hamdu sanolar keltirishdi.

Sakkizinchi maqsad

KAMTARLIKNING FAZILATI HAQIDA

«Albatta, kamtarinlik bandaga faqatgina martabasini koʻpaytiradi. Bas, kamtarin boʻlinglar, shunda Alloh sizlarning martabalarigizni koʻtaradi» deb aytilgan toʻgʻri rivoyatga muvofiq, olam ahlining qiladigan amallari orasida eng yaxshisi hamda odam bolalarining qiladigan ishlari orasida eng toʻgʻrisi (42^b) kamtarlik va kamsuqumlik kabi ezgu xislatni oʻzining doimiy odatiga aylantirishdan iborat

bo‘lib, bu narsa Xudoning cheksiz inoyatiga erishishga hamda ulug‘likning yuksak bayrog‘ini nilufar osmonning eng yuqori nuqtasiga tikishga sabab bo‘ladi. Shuningdek, «Qalbida zarra miqdoricha kibr bo‘lgan odam jannatga kirmaydi» muborak so‘ziga muvofiq, islom yo‘llarining yo‘lovchilari va Xayr ul-anom ummati bilimlarining bilimdonlari yo‘lidan yurishga eng loyiq bo‘lgan kishilarning xususiyatlari shunday bo‘ladiki, ular do‘zax o‘ti va ulkan azobdan qutulish hamda «[Alloh] xohlagan kishini to‘g‘ri yo‘lga hidoyat etadi»¹ dalili boshlagan to‘g‘ri yo‘lga kirish uchun hamisha o‘zlarini manmanlik va kibr kabi yomon illatlardan uzoq tutib yurishadi.

Qit‘a:

*Hech tutma boshingda kibr havasin,
Kibrdan hech narsa topmadi hech kim.
Go‘zallar zulfidek egilib tursang,
Har lahza ming dilni ovlaysan betin.*

Hikoyat

O‘zidan fazilat tarqatuvchi bilimdon fozillarning ko‘pchiligi bayon qalami bilan shuni ma‘lum qilganlarki, buyuk xalifa, ya‘ni [Hazrati] Odamning vujudga kelishi nog‘orasining ovozi quyi olam ahlining aql qulog‘iga yetib borgach, o‘zlaridagi manmanlik va kibr kabi odatlari bilan mashhur bo‘lgan ayrim unsurlar, biz o‘sha xulq-atvorning xamirturushi va o‘sha jismning birlamchi moddasi bo‘lishimiz kerak, deya o‘zlariga majburiyat yukladilar.

Bu to‘g‘rida aytmoqchi bo‘lganlarimiz shundan iboratki, «Eslang, [ey, Muhammad!] Rabbingiz farishtalarga:

¹ Qur‘oni karim, «Yunus» surasi, 25-oyat.

«Men Yerda xalifa [Odam] yaratmoqchiman», – dedi»¹ oyatini eshitishdan olov unsurining mijozida issiqlik paydo boʻlib, bugʻ kabi bir narsa uning dimogʻi saroyi tomon oʻrladi va koʻngil qoʻrida istak oʻti alanganib, tilini lof-qofga ochganicha shunday dedi:

– Men (43^a) falak bilan sirdosh va farishta bilan fikr-doshman. Tiriklik moddasi boʻlgan oʻsha ichki haroratning alanganishi mening belgilarimdan biri boʻlib, «Mijozni issiqlarning uzoq umr koʻrishini bashorat bering» hadisiga muvofiq, toshbagʻir temir borligʻinning urinish qoʻrasida erib ketadi, sof oltin esa mening haybatimdan eritish idishida yoqut kabi quyiladigan boʻlib qoladi.

U yerda hozir boʻlganlar bu kabi gaplarni eshitib, umid koʻzlaridan bandalariga sovgʻalar ato qiluvchi Zotning xalifasi (*yerdagi oʻrinbosari*) bilan uchrashishga boʻlgan ishtiyoq yoshlarini toʻkdilar va bir ovozdan muborak olov gavharidan boshqa narsa bunday oliy martaba va maqomga loyiq emas, bizning zamonimizda mavjud boʻlgan narsalardan boshqa birortasi shunday oʻyni koʻngliga keltirsa, behuda ishni havas qilgan boʻladi, dedilar.

Ushbu xabar shabbodasining epkini shamolning dimogʻiga etib borgach, bu aytilgan gaplardan shamolning hissiyotlari junbushga kelib, oʻsha joyga yetib bordi va olovga qarata shunday dedi:

– Hozir eshitdimki, miyangdagi telbalik va mijozingdagi quruqlik gʻolib kelib, azaliy iroda yaratishga mayl qilgan Xudoga xalifalik (*yerdagi oʻrinbosarlik*) bogʻining birinchi mevasi boʻlging kelib qolibdi. Biroq shuni bilmabsanki, tabiatningda gʻolib boʻlgan zararlilik xususiyati tufayli bu ishni bajarish qobiliyatiga ega emassan. Kimning tanasi va ruhi sogʻlomroq boʻlsa, u xalifalik mansabiga loyiqroq boʻladi. [Jismga jon bagʻishlaydigan] tiriklik ruhining sogʻlomligi,

¹ Qurʼoni karim, «Baqara» surasi, 30-oyat.

shuningdek, uning o‘tkinchi va yo‘qlikka mahkum bo‘lgan tanadan farqli ravishda boqiy qolishi ham mening xosiyatim tufaylidir.

Bayt:

*Havoning mo‘tadilligidan tirik mavjudotga aylanar
Qalam uchi bilan biror shakl chizsalar.*

Agar «Bas, uning ichiga O‘z [dargohimdagi] ruhimdan kiritdim»¹ so‘zining mazmuni to‘g‘risida chuqur o‘ylab ko‘rsang, boshqa bunaqa bema‘ni da‘voni qilmaysan. Agar (43^b) «Sur [nay] chalingach, ularning barchalarini to‘playmiz»² mazmuniga imon keltirsang, ehtiyojsizlik shamoli xavfidan omon qolishing mumkin.

Shamol hali tilini jimlik tanglayiga tortib ulgurmagan ham ediki, u yerda turganlarning qulog‘iga zilol va jonbaxsh suvning [sharqirab oqqanicha] shu tomonga kelayotganining ovozi eshitildi. Olov bilan suv bir-biriga zid narsalar bo‘lganligi sababli, olov boshqa tomonga qarab yo‘l olish bayrog‘ini ko‘tardi. Suv esa jo‘sh urib, hayqirib, ular turgan vohaga tushib keldi va yoqimli so‘zlar bayon qiluvchi tilidan quyidagi so‘zlarni to‘kdi:

– Hozirgina eshitib qoldimki, olov bilan shamolning har ikkalasi ko‘ngillar lavhiga, yagona bo‘lgan Zotning yerdagi o‘rinbosari mendan yaratiladi, degan bir tushuncha yozib qo‘yilgan emish. Hayhot, hayhot! Bu qanday surbetlikki, savdoyi bo‘lib qolgan har bir havasmand o‘ziga bino qo‘yib, kallasida shu xayolni pishiradi. Bu qanday bezbetlikki, har bir xomtama kaltabinlik qilib, ushbu savdo havasini kallasiga joylaydi.

¹ Qur‘oni karim, «Hijr» surasi, 29-oyat.

² Qur‘oni karim, «Kahf» surasi, 99-oyat.

Misra:

Bu qanday botil tasavvur, bu qandayin xom xayol.

Aslida «U osmondan suv [yomgʻir] yogʻdirib, u bilan goʻzal bogʻlarni oʻstirgan zotdir!»¹ oyatiga muvofiq, har xil daraxtlar hamda turli-tuman xushboʻy giyohlar va gullar saxovat taratuvchi vujudi sharofati bilan koʻkarib yashnagan, shuningdek, «Biz barcha tirik mavjudotni suvdan [paydo] qildik!»² muborak kalomiga muvofiq, olam va undagi mavjudotlarning tirikligiga hamda turli oʻsimliklar va jonivorlarning tirik qolishiga sabab boʻlgan va boshqalarga foyda yetkazish uning xislatiga aylangan kishigina xalifalik mansabiga loyiq hisoblanadi (44^a).

Nazm:

*Tiriklikning totli labiga jon bagʻishlagan menman,
Mingta ovora oshiqni jahonga bergan menman.*

Shu payt oʻsha yerda boʻlganlardan biri pokiza tuproqdan, [nega] sen bu toʻgʻrida hech narsa demaysan va boshqalarga oʻxshab oʻzingning oliy maqsadingga erishishga urinmaysan, deb soʻrab qoldi. Tuproq hol tili bilan shunday javob berdi:

– Bizning zamonimizda mavjud boʻlganlardan har biri oʻzlarining ezgu xislatlari va faxrlanishga arziydigan jihatlaridan bir ozginasi toʻgʻrisida soʻzlab berishdi.

Misra:

Men oʻzi kimmanki, kimdir men toʻgʻrimda gapirsa?

Mening yoʻlim oʻtkinchilik va yoʻqlik, mening xulq-atvorim esa kamtarlik va xokisorlikdir. Shu sababdan ham

¹ Qurʻoni karim, «Naml» surasi, 60-oyat.

² Qurʻoni karim, «Anbiyo» surasi, 30-oyat.

o‘zimni bu ulug‘ mansabga loyiq va bu yuqori darajaga chiqishga munosib deb bilmayman.

[Bu to‘g‘rida] bunchalik batafsil so‘z yuritishimizdan ko‘zlangan maqsad shuki, tuproq kamtarlik va xokisorlikdan so‘z ochgach, ushbu bo‘lim boshida keltirilgan hadisga muvofiq, barcha mavjudotlarni yaratuvchi Zot ushbu unsurlar orasidan tuproqqa e‘tibor nazari bilan boqib, uni Odam alayhissalomning tabiati xamirini qorish uchun [xamirturush sifatida] tanlab oldi va Odamning tabiati xamirini qorish ulug‘ligi bilan «Odamning loyini qirq tong pishitib qo‘ydim» (*Hadis*) deya ulug‘ladi.

Bayt:

*Tuproq bo‘lgin tuproq, toki unsin gul,
Tuproqdan o‘zga yo‘q borliq timsoli.*

Hikoyat

[Payg‘ambar alayhissalomdagi] xulq-atvorlar to‘g‘risida yozilgan kitoblar matnlarida quyidagi xabar ko‘p marotaba keltirilgan:

Adiy ibn Hotam degan kishi Hazrati Xotam ul-anbiyo bilan uchrashish maqsadida Madinai mukarramaga keldi. Ul Hazrat uni bir xos hujraga kirgizib, to‘la izzat-ikrom bilan o‘zining aziz o‘rniga o‘tirg‘izdi (44^b) va odob bilan tiz cho‘kkanicha uning qarshisida o‘tirdi. Shundan so‘ng mo‘jizalar bayon etuvchi tili bilan uni yorug‘lik ummati safiga qo‘shilishga chaqirdi.

Hotam o‘g‘li shuni tushunib yetdiki, bunchalik darajadagi kamtarlik va go‘zal xulq payg‘ambarlik to‘nini kiyishga musharraf bo‘lmagan kishida bo‘lmaydi. Shu sababli o‘sha zahotiy oq islom ahli yo‘liga kirdi.

«Agar sen bo‘lmaganingda Men falaklarni yaratmagan

boʻlardim» (*Hadis*) chaqirigʻini eshitgan va «Albatta, Biz Sizni haq bilan (Qurʻon, tavhid, Islom bilan) xushxabar beruvchi va ogohlantiruvchi qilib yubordik»¹ [oyati] bilan ulugʻlangan kishi shu yoʻsinda maqtovga erishib, ana shu martabaga yetishgan, shuningdek, «Men ham sizlar kabi insonman» hadisiga muvofiq har doim oʻzini musulmonlarning miskinlari va qashshoqlari bilan teng tutgan bir holda, boshqalar nima sababdan shunday goʻzal xislatlarga ega boʻlishga urinishmaydi hamda manmanlik va kibr kabi nomaʼqul xususiyatlarni oʻzlariga odat qilib, engilariga kiyim kabi kiyib olishadi.

Masnaviy:

*Bahorda hech boʻlmadi tosh yashil rang,
Tuproq boʻl, to gul koʻkarsin rang-barang.
Necha yillar tosh eding dilni tilar,
Sinamoqqa tuproq boʻlgin bir safar.*

* * *

Ulugʻ Parvardigorga shukrlar va undan bizga minnatlar boʻlsinki, maʼnaviy yetuklik timsoli va Hazrati sultonning yaqin kishisi boʻlgan sof koʻngilli, salobatli va tadbirli Amir kuchi yetganicha va qoʻlidan kelganicha ushbu goʻzal xislat va maʼqul odatni oʻzida namoyon qilishga intilar, imkoni va iloji boricha manmanlik va kibr kabi nomaʼqul odatlardan oʻzini tiyishga va uzoq tutishga harakat qilardi. Kamtarlik uning muborak zotining odati, yumshoqkoʻngillik esa uning yumshoq tabiatining xususiyati edi.

[Davlat ishidagi] mansabdorlik va yuqori martabali rahbarlik davrining ilk kunlarida (45^a) hamda omad va baxt kulib boqqan zamonning boshlaridanoq hidoyat yoʻlini tut-

¹ Qurʻoni karim, «Baqara» surasi, 119-oyat.

gan Amirning salobat va nufuz bayrog‘i yuqorilab borgani sayin, undagi kamtarlik va xushfe‘llik xislati ham shunchalik ortib borar, hukmdorlik belgilariga ega bo‘lgan ushbu saodatmandning shavkat va qudrat niholi o‘sib borgan sayin, nafsni tiyishga va foniylikka yuz tutishga bo‘lgan urinishlari ham shunchalik kuchayib borib, kamtarlik va yo‘qlik belgilarini o‘zida namoyon qilardi.

Katta qudrat egasi bo‘lgan Sohibqirondan o‘ziga nisbatan bo‘lgan inoyat va mehribonchiliklarning kundankunga ortib borayotganini ko‘rganida xilvat bir joyga borar, boshyalang bo‘lib, muborak boshining tepasidan biroz tuproq sochar va nafis tanasiga qarata shunday derdi:

– Bu dunyodagi yuqori mansab va martabalar hech qanday kuch va e‘tiborga ega emas. Hech qachon bu mansab va martabalarga yetishganingdan manmanlik va kibrga berilib ketmagin. O‘zingni yo‘ldagi bir tuproq bilib, imkoni boricha faqirlar va miskinlarning ehtiyojlarini qondirish va ularga yordam berishga harakat qilgin.

Ruboiy:

*Seni sir ahlining panohi qilishganda,
Bechoralarning boshini silovchi va chora
topuvchi qilishganda,
Boshingni tut tuproq bilan tenglarga,
Seni ezgu xislatli qilganlari shukriga.*

Hikoyat

Saltanat tongi yorisha boshlagan paytlarda Sohibqiron Sulton shohlik belgilariga ega bo‘lgan Amirni amirlik devonida muhr bosuvchilik lavozimiga taklif qildilar. Ul Hazrat o‘zlarining nurli ko‘ngillarida ushbu mansabda ishlashga mayl yo‘qligi sababli shunday dedilar:

– Men hozirda sizning noiblaringiz va ichkilaringiz jumlasidan hisoblanaman. Udumga (45^b) rioya qilmasdan barcha amirlardan toʻrda oʻtirmaman. Agar amirlik lavozimini qabul qilib oladigan boʻlsam, Toʻra qoidalariga koʻra, barlos urugʻining kattalari mendan toʻrga oʻtib ketishlariga toʻgʻri keladi. Shu jihatdan ushbu mansab mening mavqeimdan past hisoblanadi. Marhamat koʻrgizib meni muhr bosuvchilik lavozimidan qutqarishingizni umid qilaman. Tokim koʻngilni xotirjam qilib, oʻz xizmatimni ado etishda davom etsam.

Doʻstlarni ardoqlovchi Sohibqiron shunday javob berdi:

– Sizning qobiliyatingiz qomatini amirlik toʻni bilan bezamasligim mumkin emas. Ushbu lavozimni qabul qilib oladigan boʻlsam, barlos urugʻining amirlari mendan toʻrga oʻtib ketishadi, degan gapingiz esa haqiqatga toʻgʻri kelmaydi. Chunki men, Sulton Badiuzzamon Mirzodan tashqari, amirlardan biror kishining sizdan toʻrda oʻtirmasligi toʻgʻrisida farmon chiqaraman. Faqatgina, agar xohlasangiz, siz bilan yaqinlik va doʻstlik munosabatida boʻlganlikdan gapiruvchi Amir Muzaffar Barlosga sizdan oldin muhr bosishiga ruxsat bersangiz. Yanayam ixtiyor oʻzingizda.

Shunday qilib, Hazrati Sultonning yaqin kishisi boʻlgan ul oliy hazrat jahondorlik binosi quruvchisining iltimosini qabul qilganlaridan soʻng, ul hazrat bilan Amir Sayyid Hasan Ardasher bir kunda jubba va kulohi navroʻziy kiyib, muhrdorlik ishiga kirishishlari toʻgʻrisida qaror qilindi.

Barchaning xayolida, muborak farmonga muvofiq tadbirli va dono Amir barcha amirlardan yuqoriga muhr bosadi, degan oʻy aylanardi. Biroq oʻsha kuni odatga koʻra ul hazratning oldilariga qutlugʻ lahzada muhr

bostirish uchun (46^a) bir farmonni olib keldilar. [Ul hazrat] farmonni o'zlaridan oldin muhr bosishi uchun avval Amir Sayyid Hasan Ardasherga berishlarini buyurdilar. Amir Sayyid Hasan ham [o'zining ul Hazratga bo'lgan] hurmatini izhor etish ma'nosida farmonni yana qaytadan shoh sifatli Amirning oldiga yubordi. Shunda ul hazrat qog'ozni olib, o'ta kamtarlik va xokisorlik yuzasidan shunday bir joyga muhr bosdilarki, biror kishi undan quyiroqqa muhr bosa olmasdi. Amir Sayyid Hasan bu holatni ko'rib xijolatda qoldi, boshqalar esa amirlik yig'inlarining to'rida o'tiruvchi bu zotning bunchalik kamtarligidan hayrat dengiziga g'arq bo'ldilar va quyidagi so'zlar orqali bayon etilgan ma'noning mohiyatini kuylashga tushdilar.

Bayt:

*Minglab tasvir solsa-da taqdir, biroq ko'rinmas
Birortasi bizlarning tasavvur ko'zgumizda.*

Hikoyat

Bir kuni yuqori mansabli Amir ko'pgina saroy amirlari huzurida arz qilib kelgan kishilarning arzlarini tinglab o'tirganlarida, to'satdan sadrlik kabi oliy mansabga yetishgan Mavlono Qutbiddin Xavofiy kelib qoldi va o'ta bezovta bir holda, arz qilib kelgan kishilar orasidan joy oldi-da, oldin mening arzimga quloq soling, dedi.

Ul oliy Hazrat hol-ahvol so'rash va mehribonchilik ko'rsatish orqali janobi Mavlaviyning g'azabini so'ndirishga urindilar hamda uni o'z yonlariga o'tirg'izib, nimadan shikoyat qilib kelganini so'radilar. U shunday javob berdi:

– Xoja Husayn Kirangiy meni qattiq haqorat qildi.

U menga, sen ilgari Mavlono Muhammad Muammoiy navkarlaridan biri eding, dedi.

Ul Hazrat bu gapni eshitib, ajablandilar va kulgan holda muborak tillariga quyidagi soʻzlarni keltirdilar:

– Bu gapdan achchiqlanish va daʼvolashishning nima keragi bor!? Agar oʻsha Xojani (46^b) bu yerga chaqirib, ushbu daʼvoni koʻrib chiqadigan boʻlsak, uning aytganlari toʻgʻri boʻlib chiqadi. Toʻgʻri gapdan xafa boʻlish esa aqlga toʻgʻri kelmaydigan ishdir.

Shundan soʻng ul hazratning oʻzlari ham Sulton Saʼid Mirzo Sulton Abusaʼid hukmronligi zamonida Amir Sulton Hasan Arhangiy bilan birga boʻlganliklari sababli shunday dedilar:

– Ilgari Amir Sulton Hasanning navkari boʻlgan men endilikda amirlik kabi muhim mansabga erishganligimga va noiblik kabi yuqori lavozimga yetishganligimga qaramasdan, hali ham u kishining xizmatida boʻlishdan or qilmayman, balki agar imkoni boʻlsa, [u kishiga] oldingidan ham koʻproq xizmat qilib, oʻzimni u kishining qullari jumlasidan hisoblayman.

U yerda hozir boʻlganlar bu gaplarni eshitib, ul hazratning benihoya kamtarligi va xushfeʼlligidan hayratga tushdilar. Oʻsha yerda boʻlgan Amir Sulton Hasan xijolatda qoldi, janobi Mavlaviy esa uyaliq qolib, oʻsha bemaʼni daʼvosidan kechdi.

Bayt:

*Tuproqdek boʻl har holatda chidamli,
Toki havoying kabi barcha kishiga kuch-qudrat yetsin.
Suv kabi har bir kishiga foyda yetkazgin,
Toki oloving kabi olamdan ustunlik kelsin.*

To‘qqizinchi maqsad

OCHIQQO‘LLIK VA SAXIYLIKNING ULUG‘LIGI HAQIDA

«Saxiy, garchi fosiq bo‘lsa ham, do‘zaxga kirmaydi. Baxil, garchi obid bo‘lsa ham, jannatga kirmaydi», deb aytilgan sahii hadisga muvofiq, eng go‘zal xulq va eng yaxshi odob saxiylik va ochiqqo‘llik kabi maqtalغان xislat bo‘lib,

Misra:

Mavjud bo‘lgan narsalarning barchasi saxovat soyasidadir.

oqil va g‘ofil, (47^a) olim va johil, savodsiz va fozil, baxtsiz va baxtli kishilar nazdida ushbu maqtalغان xislat sevimli va marg‘ubdir. Nazm ahlining mo‘jizali qalami va nasr ahlining sehrli xomasi daftarlarning ichlari va sahifalarning yuzlarini ushbu ezgu xislat ta‘rifi bilan bezaydi. Olam ahlining kamchilik va nuqsonlari bag‘rikenglik va ochiqqo‘llik tufayli odamlar ko‘zidan yashirin bo‘lib qolsa, odam bolalarining yutuq va fazilatlarini qizg‘anchilik va past himmatlilik tufayli ko‘zga nuqsondek bo‘lib ko‘rinadi.

Ruboiy:

*Olam ahli kamchiligini yopuvchi saxovatdir,
Barcha uchun maqtovli bo‘lgan narsa ham saxovatdir,
Zotida yuz hunar mavjud bo‘lgan kishida
Saxovat bo‘lmasa, u aniq kerakmasdir.*

Haqiqatlar panohi bo‘lgan Hazrati Maxdumiy (Alloh uning qabrini nurga to‘ldirsin) «Bahoriston» asarida durlar sochuvchi qalamlari bilan yozib qo‘yganlarki, saxovat biror bir maqsad ko‘zlamasdan va evaziga biror

narsa soʻramasdan turib, garchi koʻzlanadigan bu maqsad va soʻraladigan bu narsa munosib maqtov va katta savob boʻlsa-da, biror narsani [biror kishiga] sovgʻa qilishdir.

Qitʼa:

*Saxiy kimdir, udir mukofot olmay
Har saxovat kelar qoʻlidan uning.
Maqtov, savob uchun qilingan ishni
Xayru saxovatmas, oldi-sotdi bil.*

Ulugʻ Parvardigorga shukrlar va undan bizga minnatlar boʻlsinki, maqtalgan xislatlarga ega boʻlgan Amirning muborak xulq-atvorlari xuddi shunday boʻlib, [ul zotning] cheksiz yaxshiliklari bu borliq olamda shuhrat topish yoki abadiy olamda katta savobga erishish uchun qilingan emasdi. Chunki bu dunyo va undagi narsalar ul zotning himmat nazarida bir somon xasichalik qimmatga ega emasdi.

Ammo cheksiz ochiqqoʻllik va saxiylik xislatiga ega boʻlishiga qaramasdan, hech qachon hech kimga bir arpa donichalik ham minnat qilmasdi. Uning inʼom bulutlari har doim olimlar va fozillarning (47^b) orzu-umid bogʻlariga koʻm-koʻklik va yashillik bagʻishlar, yaxshiliklari va ulugʻlamlari bulutlari tomchilari hamisha mashoyixlar va sayyidlarning omonlik ekinzorini yam-yashil qilar va suvga toʻydirardi.

Qitʼa:

*Qoʻli saxovat manbaidir, oʻsha qoʻldan oʻqirlar,
Yetti koʻk dengizining saromadi aylanar.
Gʻunchaning koʻnglidan uning qoʻli toʻgʻrisidagi oʻy oʻtdi,
Shundan koʻnglidagi nozik hislar oltinga aylandi.*

Dunyoning turli tomonlari va go‘shalaridan g‘ariblar va musofirlar [ul Hazratning] hidoyatga oshyon bo‘lgan ostonasiga kelib, xayru ehson dasturxonidan eng yaxshi ulushlar olib, lazzat va bahra olardilar. Eron va Turonning eng uzoq nuqtalaridan qashshoqlar va muhtojlar [ul Hazratning] odamlarga panoh beruvchi dargohiga iltijo keltirib, sadaqa va ehson dasturxonidan ko‘p bahra olar va rizq-ro‘z topar edilar.

Masnaviy:

*Hech bir tilanchi quvonganida ham, achchiqlanganida ham
Qovog‘ining solinganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan.
Tilanchilar bezovta bo‘lmasin deb
Hamisha tilanmasidan oldinoq, ol, deb aytardi.*

Hikoyat

Aytishlariga qaraganda, kunlardan bir kuni yuqori martabali ushbu Amir gavharlar sochuvchi tillari bilan shunday dedilar:

– Sulton Sa‘id Mirzo Sulton Abusa‘id [podshohligi] zamonida, juma kunlarining birida Hirot shahri ichidagi jome masjidida namozni o‘qigandan so‘ng xiyobonga borish xayoli bilan yo‘lga tushdim. Masrax ko‘chasiga yetishimga yaqin qolganida ko‘rdimki, aftodahol va bechora bir tilanchi o‘tirib olganicha:

– Oilali kishiman, bir necha och va yalang‘och bolam bor. Ertalabdan (48^a) shu yerda o‘tirib tilanchilik qilyapman, biroq haligacha biror kishi menga bir chaqa ham sadaqa qilmadi, – der edi.

Ul Hazrat [o‘z so‘zlarida davom etib] shunday dedilar:

– Oʻsha vaqt yonimda bir tangagina pulim boʻlib, bundan boshqa bu dunyoning qoʻlga kiritish mumkin boʻlgan boyliklaridan bir donchalik ham narsam yoʻq edi. Shunda oʻzimga oʻzim: – Eng kichik zarradan to eng yirik narsalargacha boʻlgan mavjudotlarning Yaratguvchisiga tavakkal qilib, ana shu tangani shu tilanchiga bergin. U bugun [shu pul bilan] ayoli va bolalariga yegulik olsa, ertaga pok va ulugʻ Parvardigor boshqa biror joydan senga rizq yetkazadi, – dedim. Shundan soʻng tangani unga berib, oʻtib ketdim va shom namozigacha xiyobonda sayr qilib yurdim.

[Biroq] qaytib kelayotganda oʻsha tilanchining oʻsha joyda oʻtirib, aynan oʻsha soʻzlarni aytib tilanchilik qilayotganini koʻrdim. Uning tilanchilikdagi oʻta yolgʻonchiligidan va haddan tashqari ochkoʻzligidan hayratga tushdim. Ammo bu narsani bilib qolganligimni unga bildirmadim.

* * *

Shu oʻrinda aytib oʻtish lozimki, ushbu hikoyat oliy manzilatli ushbu Amirning oʻta bagʻrikengligi va saxiyligidan dalolat beradi. Chunki [ul Hazrat] oʻshanda oʻzida borini oʻsha tilanchiga beradi, [buning ustiga] koʻrgan narsasini ham koʻrmaganlikka oladi.

Aytilgan bu gaplarning isboti hamda chiqarilgan ushbu xulosaning tasdigʻi sifatida haqiqatlar panohi boʻlgan Hazrati Maxdumiy (Alloh uning qabrini nurga toʻldirsin) «Bahoriston» asarida keltirgan quyidagi hikoyatni eslatish mumkin.

Hotamdan:

– Shu choqqacha oʻzingdan ham saxiyroq kishini koʻrganmisan? – deb soʻrashganida shunday javob berdi:

– Ha [ko‘rganman]. Kunlardan bir kuni bir yigitning uyida mehmon bo‘ldim. Uning uyida bir necha bosh qo‘yi bor ekan. (48^b) U o‘sha zahotiyoyq ulardan birini so‘yib, pishirdi-da, oldimga olib keldi. Undan bir parchasi menga judayam yoqib tushdi. Uni tanovul qila turib, «Xudo haqqi, mana shu joyi judayam mazali ekan», dedim.

O‘sha mezbon tashqariga chiqib ketdi-da, birin-ketin [qolgan] qo‘ylarini [ham] so‘yib, [menga yoqib qolgan] o‘sha joyini pishirib olib kelar, men esa bundan bexabar edim.

Otga minib, ketish uchun tashqariga chiqqanimda, hovlida judayam ko‘p qon to‘kilganligini ko‘rdim.

– Bu ne hol? – deb so‘raganimda, – u barcha qo‘ylarini so‘ydi, – deb aytishdi.

Uni bu qilgan ishi uchun koyidim. U esa:

– Subhonalloh, senga bir narsa yoqib qolsa-yu o‘sha narsa menda bo‘la turib, uni sendan qizg‘ansam, judayam xunuk ish bo‘lgan bo‘lardi, – deb javob berdi.

Shundan so‘ng Hotamdan:

– Sen buning evaziga [unga] nima berding? – deb so‘radilar.

– Uch yuz bosh qizil yungli tuya va besh yuz bosh qo‘y, – deb javob berdi.

– Unda sen undan ham saxiyroq ekansan-da, – deb aytishdi.

– Qanaqasiga! – dedi Hotam. – [Axir] u [menga] o‘zida bor bo‘lgan barcha narsasini berdi. Men esa o‘zimdagi judayam ko‘p narsadan birozginasini berdim, xolos.

Nazm:

*Yarimta noni bor tilanchi
Barchasin bersa o‘z uyidan,
Ko‘proqdir u jahon shohining
Bergan yarim xazinasidan.*

Hikoyat

Zafar bayroqli Sohibqiron tomonidan Astrobod viloyati hokimligi Sulton Badiuzzamon Mirzoga topshirilgan zamonda, kunlardan bir kuni saodat nishonli shahzoda maqtalgan xislatlarga ega Amirning mulklaridan hisoblangan qishloqlardan biri boʻlgan Xayrobod qishlogʻini aylanib yurib, oʻsha qishloq aholisining xulq-atvorini yoqtirib qoldi va orzu qilib, shunday dedi:

– Yo Rab! Qaniydi biror kishi oʻrtaga tushib, bu qishloqni (49^a) Hazrati sultonning yaqin kishisidan bizga sotib olib bersa.

Shu chogʻ oʻsha yerda boʻlgan qullar olami amirining xizmatkorlari jumlasiga kiruvchi aslzodalarning sarasi Xoja Gʻiyosiddin Muhammad Dehdor bu gapni eshitib, shunday dedi:

– Mening oʻz xoʻjayinim va valineʼmatimga boʻlgan oʻrinbosarligim va yaqinligim shu darajadaki, ul hazratga tegishli boʻlgan mol-mulkni istaganimcha tasarruf qilishim mumkin. Shunga koʻra ul hazrat tomonidan ushbu qishloqni jahon ahli shahzodasiga tortiq qildim.

Sulton Badiuzzamon Mirzo nihoyatda quvonib ketib, hazil tariqasida Xoja Gʻiyosiddin Muhammad Dehdorning qarshisida tiz choʻkib berdi.

Bu toʻgʻrida oliy nasabli Amirning qulogʻiga yetib borgach, [ul zot] Xoja Gʻiyosiddinga tahsinlar aytdi va xizmatkorlik vazifasini yaxshi bajarganligi uchun yaxshi bir toʻn hamda bir otning bahosi boʻlgan ming kepakiy miqdoridagi pulni Astrobodga joʻnatdi.

Masnaviy:

Dengiz uning uzluksiz saxovatini koʻrdi,

Uning dastidan yuziga xijolat koʻpigini sochdi.

Dengiz koʻpigiga qarata: daʼvo qilib oʻtirmagin, dedi.

Chunki uning qoʻlida shamoldan boshqa hech narsa yoʻq edi.

Hikoyat

[Hijriy-qamariy] 905(mil. 1499/1500)-yili saodat nishonli shahzoda Muhammad Muhsin Mirzo mamlakatning ayrim ehtiyojlari uchun Sabzavor qal'asiga ma'lum miqdor g'alla zaxira qilishga qaror qildi. Biroq u viloyatda g'alla kam edi. Shunda amirlar va noiblardan bir guruhi shunday dedilar:

– Bu shaharda Hazrati sultonning yaqin kishisining juda ko'p g'allasi bor. Umidimiz shuki, agar oliy farmon chiqarilib, o'sha g'alladan zarur bo'lgan miqdorini qarz olib (49^b) zaxira qilsak-da, imkoni bo'lganda ushbu qarzni ul janobning vakillariga qaytarsak.

Go'zal xulqli shahzoda ularga shunday javob berdi:

– Amir janoblarining g'allalaridan biror qismini olish u yoqda tursin, hatto unga hech kim to'g'ridan-to'g'ri ko'z tashlay olmaydi.

Bu to'g'rida oliy nasabli Amirning qulog'iga yetib borgach, shahzoda haqqiga duolar qilib, Sabzavorda qancha g'allasi bo'lsa, hammasini o'sha janobga tortiq qildi. [Ul Hazrat] bu to'g'rida noiblaridan biriga maktub [ham] yozib, unda quyidagi so'zlarni keltirdilar:

«Xudoga qasam ichib aytamanki, agar har bir bug'doy doni o'rniga bir donadan marvarid bo'lganida edi, u kishidan ayamagan va ularning hammasini tortiq qilib, o'z shahzodamning qalbiga mehr va muhabbat urug'ini ekkan bo'lardim».

Misra:

Shunday qilar ulug'lar, shunday ish tutmoq kerak.

Hikoyat

Bir gal bedorlik va ogohlik ahlining yoʻlboshchisi boʻlgan Xoja Nosiriddin Ubaydulloh (Alloh uning qabrini tabarruk qilsin) farzandlaridan biri hajga borganida muborak Makka shahrida Movarounnahrغا safar qilish niyatida boʻlgan bir savdogardan oʻn besh ming dinor kepakiy miqdorida pul qarz oldi. [Biroq u yerdan] qaytish chogʻida Halab shahriga yetganlarida u savdogar Movarounnahrغا safar qilish rejasini bekor qildi va oldin mendan olgan pulni qaytarasan, shundan keyingina oʻz yurtingga ketasan, deb xojazodaning ham yurtiga qaytishiga yoʻl bermadi. Xojazoda majbur boʻlib oʻsha yurtda qoldi va odamlaridan birini oʻsha pulni toʻplab, Halabga olib kelib berishi uchun Samarqandga joʻnatdi.

U kishi tomonidan yuborilgan bu odam shavkatli Hirot shahriga yetib kelganida tasodifan dunyo ulugʻlarining tayanchi va pushti panohi boʻlgan ul hazratning muborak yigʻinida (50^a) qatnashib qoldi va xojazodaning Halab shahrida toʻxtalib qolganining sababi toʻgʻrisida gapirib berdi. Shunda ul hazrat: – Arzimas miqdordagi bu pul Movarounnahrغا borib uni toʻplashingga va xoʻjayiningni [Halabda] shunchalik kuttirib qoʻyishingga arzimaydi, – dedilar-da, oʻsha pulni oʻzlarining yonlaridan bir ishonchli kishiga topshirib, uni Halabga joʻnatdilar. Natijada xojazoda tutqunlikdan xalos boʻlib, oʻz ona vataniga qarab yoʻl oldi.

Masnaviy:

*Ne deyinki, bu nomdorning axloqi,
Yetmagaydir unga inson idroki.
Saxovatin soʻylashga til ojizdir,
Ajablanma bundan, Xudo qodirdir.*

Hikoyat

Bir kuni maqtalغان xislatlar sohibi bo'lgan bu Amir aqlni peshlash maqsadida Mavlono Fasihiddin Sohib bilan shohmot o'ynab o'tirardilar. Shu payt to'satdan naqiblarning pushti panohi bo'lgan janobi Amir Burhoniddin Atoullloh shu joyga kirib keldilar. Ul hazrat izzat-ikrom va hurmat-eh-tirom bajo keltirib, mehribonlik va yumshoqlik bilan:

– Qayerlardan kelyapsiz va qanday muhim ishlarning ketidan yuribsiz? – deb so'radilar.

Naqiblarning pushti panohi bo'lgan bu zot shunday javob berdilar:

– Ancha paytdan va uzoq vaqtdan buyon, har kuni shahardan bu joyga kelib-ketib yurmaslik uchun, «Ixlosiya» madrasasi yaqinidan bir hovli sotib olib, o'sha joyda yashay boshlashni niyat qilib kelardim. Hozir esa shunday bir hovli topdim va uni uch ming kepakiyga sotib olmoqchiman. Biroq [shu o'rtada bu uyga xaridor bo'lgan] bir amaldor kishi paydo bo'lib, [men taklif qilayotgan] ushbu narx ustiga yana bir oz qo'shmoqda, sotuvchi esa hovlini o'sha odamga sotmoqchi. (50^b) Sizdan iltimosim shuki, mulozimlaringiz [menga] rahmlari kelib, u odamga ushbu oldi-sotdi fikridan qaytishini va menga o'sha hovlini sotib olishga imkon berishini so'rab bir maktub yozsalar.

Keng fe'lli Amir bu so'zlarga javob bermasdan, ikki o'rtada boshlangan shohmot o'yinini o'ynashda davom etdilar. Ul janob bundan tashvishga tushib, mening iltimosim ul hazratning ko'ngillariga og'ir botganga o'xshaydi, degan gumonga bordi.

Shunday qilib, shohmot o'yini tugagach, saxovat va karam manbai bo'lgan ul hazrat naqiblarning pushti panohi bo'lgan ul janobga qarata shunday dedilar:

– Faqirlardan biri maydonining kengligi va xonalarining koʻpligi, havosining musaffoligi va suvining shirinligi bilan ajralib turadigan, buning ustiga madrasaga yaqin boʻlgan bir hovlini sizga tortiq qilgani yaxshimi yoki [oʻzingiz aytgan] oʻsha hovlini sizga olib berishga harakat qilgani maʼqulmi?

Ulugʻ nasabli janob bu soʻzlarni eshitib, oʻzlarining xursand va shod boʻlganliklarini bildirdilar va [unga tortiq qilinishi aytilgan oʻsha hovlini olishga] umid bogʻladilar.

Shundan soʻng yuqori mansabli Amir ul Hazratning devoniga tegishli hisoblangan va haqiqatdan ham koʻngilni yayratuvchi bir joy boʻlgan Mavlono Muhammad Muinning hovlisini ul janobga inʼom qilib, u kishini omadli kishiga aylantirdilar.

Bayt:

*Gulning hidi xulqingga qarindosh boʻlgani sababli
Bulbullari yuzta til bilan maqtaydi.*

Shuningdek, salobat va viqorga ega boʻlgan bu Amir gʻam-qaygʻularni ketkazuvchi son-sanoqsiz bogʻlar va quvonchga quvonch qoʻshuvchi koʻplab makonlarni sayyidlar, olimlar va fozillarga inʼom qilganlar. Shuningdek, bir qancha yaxshigina ekinzorlar va qulay (51^a) korizlarni aʼlo hazratlari, shahzodalar hamda iffat chodirining pokizalik chimildiqlarida oʻtirganlarga hadya etganlarki, xayol hisobchisi ularning sonini sanashga ojiz ekanligini tan oladi.

Har gal oliy darajali Sohibqiron biror joyga safarga chiqishni ixtiyor etganlarida bu saxovatli Amir katta miqdordagi pulni ul Hazrati oliylari va shahzodalarga nazr sifatida tortiq qilar, shuningdek, amirlar, vazirlar, sadrlar va ichkilardan tortib [Sohibqiron Sultonga hamroh

bo‘lgan] mulozimlar va qo‘shinlar karvonidagi barcha xizmatchilargacha bo‘lgan kishilarni o‘zlarining in‘om va ehson dasturxonidan bahramand etardilar.

Hazrati oliylarining yurishdan qaytgan chog‘larida ham xuddi shu tarzda nazr-niyozu ehsonlar ko‘rsatardilar. Masalan, oliy manzilatli Sohibqiron Balx safaridan qaytib, Qandahor tomon yo‘l olgan chog‘larida [ul Hazrat] tortiq qilgan narsalar quyidagilardan iborat bo‘ldi: yigirma besh tuman kumush pul, ming man ipak, ming xarvor g‘alla. [Ul Hazrat] shu safar qariyb ming dinor miqdoridagi pulni haram ahliga va shahzodalarga tuhfa hamda amirlar va davlat ustunlariga hadya etdilar.

Shuningdek, do‘stlarni siylovchi Sohibqiron har gal xayru ehson dengizi bo‘lgan bu Amirning uyiga tashrif buyurganida hisobsiz pul, ko‘kka sapchiydigan otlar, nafis buyumlar va tabarruk narsalardan shunchalik ko‘p hadya qilar edilarki, uni ta‘riflashga til ojizlik qiladi.

Shunday holatlar ham ko‘plab yuz berganki, Sohibqiron Sulton saroyi amaldorlari ayrim zaruriy xarajatlar uchun katta miqdordagi pulni [soliqlar sifatida to‘lash uchun] xalq zimmasiga yuklashmoqchi bo‘lishganida, qalbi dengizday keng bo‘lgan bu Amir xalq (51^b) qiynalib qolmasligi va bu narsa saltanat qasri poydevorining larzaga kelishiga sabab bo‘lmasligi uchun o‘sha pulni o‘z xazinalaridan to‘lab yuborardilar.

Jumladan, ushbu satrlar muallifiga ma‘lum bo‘lishicha, hijriy-qamariy 906 yilning boshlarida (milodiy 1500 yilning iyul-avgust oylari) Sohibqiron Sulton Mozandaron viloyatiga tashrif buyurganlarida hukmronlikning pushti panohi bo‘lgan Amir Muboriziddin Muhammad Valibek (Alloh uni sog‘-salomat asrasin) nomiga zarur xarajatlar uchun Hirot shahri va uning atroflaridagi qishloqlar

aholisidan yuz ming dinor miqdoridagi pul undirilsin, degan muborak farmon keldi.

Ul janob ushbu puldan ellik ming dinorini [Hirot atrofidagi] qishloqlardagi yer egalari hamda boylardan undirib, toʻpladi, qolganini esa Hirot shahri aholisidan kishi jon boshiga yoki qullar soniga qarab undirib chiqishga qaror qildi.

Biroq biror bir ishga ushbu saodatli Amir bilan maslahatlashmasdan kirishmasliklari sababli ul hazratning noiblaridan birini chaqirib, [maslahat soʻrash maqsadida] ushbu rejani maʼlum qildi.

[Ul Hazrat bunga] javoban:

– Shu paytda xalqqa oʻrinsiz soliq solinishini oliy manzilatli Sohibqiron saltanati uchun munosib ish deb bilmayman, – dedilar-da, oʻsha pulni oʻz yonlaridan toʻlab yubordilar.

Judayam koʻp kishilar ul hazratning haqlariga duolar qilib, ul zotga sanolar aytishdi.

Masnaviy:

*Dengizu konni ham hadyalar etding,
Dengizu kondan ham sen ustun kelding.
Kon sening dastingdan toshga koʻmildi,
Dastingdan dengiz ham yuzlarin yuldi.*

Oʻninchi maqsad

TOPQIRLIKLAR VA HAZIL-MUTOYIBALAR BAYONI

«Men zukkoman», deguvchi shirin tilli toʻti va «men soʻzga chechanman», deguvchi xushovoz bulbul (Muhammad (s.a.v.) paygʻambar) (ularga eng goʻzal salavotlar va eng ulugʻ salomlar boʻlsin), moʻmin (52^a)

hazilkash va shirinsoʻz, munofiq esa xoʻmrangan va achchiq tilli boʻladi, deb aytadi. Amir al-moʻminin Ali alayhissalomning oʻzidan gavharlar sochuvchi hikmatlaridan birida shunday deyiladi: «Biror kishi badaxloqlik va badqovoqlik doirasidan chiqib ketishga sabab boʻladigan darajada hazil-mutoyiba qilsa, buning yomon joyi yoʻq».

Shunga koʻra, baʼzida din ulugʻlari va yaqin yoʻlidan yuruvchi soliklar ham hazil-mutoyiba qilishar va latifalar durrini bayon ipiga tizishardi. Hatto Hazrati rasuldan ham koʻplab hazilomuz gaplar naql qilingan boʻlib, ular odamlar orasida ogʻizdan-ogʻizga oʻtib, tillarda doston boʻlib ketgan.

Haqiqatan ham bir mudom tund boʻlib yurish koʻngil koʻzgisini xiralashtirib qoʻyadi va hazilomuz soʻzlar sayqalidan boshqa biror narsa uni tiniqlashtira olmaydi. Haqiqatlar panohi boʻlgan Hazrati Maxdumiy (Alloh uning qabrini nurga toʻldirsin) bu toʻgʻrida nazm yoʻli bilan shunday deganlar:

Qitʼa:

*Bir baxtli gar hazil qilsa uni ayblama,
Aqlu dinning ahkomida bu ishdir joiz.
Koʻngil koʻzgu, tundlik esa koʻzgudagi zang,
Tozalamoq mahol ushbu zangni hazilsiz.*

Ushbu muqaddimani keltirish orqali aytmoqchi boʻlganimiz shuki, Hazrati sultonning yaqin kishisi boʻlgan ul oliy Hazrat (*Alisher Navoiy*) (Alloh ul zotning qabrlarini tabarruk qilsin) baʼzida shirin va yoqimli soʻzlar chiquvchi tillariga hazil-mutoyibalar keltirib, oʻrinli boʻlgan holatlarda latifasifat soʻzlarni bayon ipiga terardilar. Bunday soʻzlar ul hazratning nozik zehni va

muborak tabʻining oʻtkirigidan dalolat berganligi sababli ulardan ayrimlarini keltirishga jurʻat qilinadi. Xudoning oʻzi ishimizga madad bersin.

Topqirlik

Sulton Saʻid [hukmronligi] zamonida kunlardan bir kuni Xudo yor boʻlgan ushbu Amir Pahlavon Muhammad Abu Saʻid bilan «Bogʻi safed»da sayr qilib yurgan edilar. Shu payt Pahlavon Muhammadning tanishlaridan boʻlgan Yusuf degan bir kishi uchrab qoldi. U ayrim (52^b) vazirlardan shikoyat qilib, shunday dedi:

– Ular mening suvimni tortib oldilar. Men bu toʻgʻrida Mirzoga arz qilgani kelgan edim. Biroq yasovullar meni ichkariga kiritishmadi. Vaholanki mening nochorligim shu darajaga yetganki, har kuni ovqatlanish paytida undan-bundan biroz non tilab olib, oʻsha bilan kun oʻtkazmoqdaman.

Shunda ul Hazrat quyidagi baytni unga oʻqib berdilar.

Bayt:

*Shoh eshigidan non tilagan tilanchi
oʻz suvi bilan qoʻlini yuvib qoʻltigʻiga urmogʻi kerak.*

Topqirlik

Samarqandda chiroy va husnda tengsiz Bobur ismli bir yosh tikuvchi boʻlib, u bir gal ushbu saodatli Amir uchun uning mulozimlari oldida kiyim bichdi. Shu asnoda ul Hazratdan, menga biror muammo oʻrgating, deb iltimos qildi. [Shunda] ul Hazrat «Bobur» nomli quyidagi muammoni unga oʻqib berdilar.

Bayt:

*Taqdirning o'zi sening qadding uchun qabo tikadi,
ey yigit, qofdan qofgacha (butun dunyoda) nom chiqargin.*

Topqirlik

Zolim kishilardan bo'lgan va bir qancha vaqt a'lo hazrat saroyida vazirlik kabi yuqori darajaga yetishgan Mavlono Sone'iy boshiga katta salla o'rab yurardi. Kunlardan bir kuni uning noma'qul ishlari olam Sohibqironining quyoshdek nur sochuvchi ko'ngliga ma'lum bo'lgach, undan g'azablanib, uning boshidan sallasini olib tashlashlarini buyurdilar. Shunda o'sha yerda bo'lgan tengsiz Amir iqboli baland podshohga yuzlanib, quyidagi misrani tilga oldilar:

Misra:

Boshidagi yukni yengillatgan ekansan, endi bo'ynidagi yukni ham yengillatgin, *(ya'ni sallasini olib tashladingmi, endi kallasini ham olib tashla).*

Topqirlik

Bir paytlar mashhur kishilardan birini mazhabdan chiqib ketganlik va e'tiqodini buzganlikda ayblab, bu masalani tekshirib ko'rish va aniqlash maqsadida uni oliy taxt poyiga olib kelgan edilar. (53^a) Shu sababli ham o'sha kishi e'tiqodi pok bo'lgan Amirdan o'zini olib qochib yurar, ul zot bilan bir joyda bo'lib qolishdan saqlanardi.

Ittifoqo, kunlardan bir kuni ul Hazrat Amir Sayyid Ibrohim Qumiyning uyiga borib, u erda o'sha kishini ko'rib qoldilar. Shunda Sayyid Ibrohim omad kulib boquvchi Amirning oldida o'sha kishiga qarata hazil yo'sinida shunday dedi:

– Oʻz eʼtiqodingizni tuzatishga urinsangiz va ahli sunna va-l-jamoa mazhabida mustahkam boʻlsangiz yaxshi boʻlar edi. Shunda hamma sizga nisbatan doʻstona munosabatda boʻlib, mehr-muhabbat bilan muomala qilgan boʻlard.

U kishi bunga javoban:

– Men sizning mazhabingizdan boshqa mazhabda emasman, mening eʼtiqodim ham sizning eʼtiqodingizga toʻgʻri keladi, – deb aytdi.

Ul Hazrat esa bu gapni eshitishlari bilan darhol quyidagi oyatni oʻqidilar: «Ibrohim yahudiy ham, nasroniy ham boʻlmagan, balki toʻgʻri yoʻldan toymagan [hanif] musulmon boʻlgan»¹.

Topqirlik

Bir safar Farangdan Hirotga bir soat qutisi olib kelganlarida oliymakon Amir dargohining mulozimlari jumlasidan boʻlgan Mavlono Hoji Muhammad Naqqosh ham xuddi shunday bir quti yasashga daʼvo qildi. Shunga koʻra unga yordam berish uchun bir temirchi ham tayinlashdi. Kunlardan bir kuni oʻziga yetgan har bir zararni [qoʻshimcha] foyda qilish orqali qoplashga odat qilgan bozorчилarning yoʻrigʻini qilib, oliy nasabli Amirning huzurida shunday deb qoldi:

– Soat qutisini yasashga yordam berib yurgan kunlarimda koʻplab qiyinchilik va musibatlar boshimga tushdi. Jumladan, qizim Xudoning rahmatiga yetishdi (53^b).

Ul Hazrat [uning bu gapiga javoban] darhol unga quyidagi oyatni oʻqidilar: «Ajallari yetganda, biror soat kechiktira olmaydilar ham, oldinga ham sura olmaydilar».

¹ Qurʼoni karim, «Oli Imron» surasi, 67-oyat.

² Qurʼoni karim, «Yunus» surasi, 49-oyat.

Mutoyiba

Bir kuni yuqori mansabli Amir [murojaat qilib kelganlarning] arzlari va shikoyatlarini tinglab o'tirganlarida, bir ayol kelib, devon xizmatchilari jumlasidan bo'lgan Sayyid Miron dan shikoyat qilib qoldi. Ul Hazratning buyrug'iga binoan Sayyid Mironni bu yerga chaqirib keldilar va o'sha zaifaning yoniga o'tirg'izdilar.

Amirlar va davlat ustunlari Sayyid Miron ga har doim hazil-mutoyiba qilib yurishardi, buning ustiga o'sha ayol o'ta xunuk edi. Shundan kelib chiqib, amirlardan biri hazillashib:

– Bu ayol Sayyid Mironning ma'shuqasi bo'lsa ajab emas, – deb qoldi.

Ul oliy hazrat bu gapni eshitib jilmaydilar. Sayyid Miron ul Hazratning kayfiyatlari yaxshi ekanligini ko'rgach, javobgarlikni o'z bo'ynidan soqit qilish uchun ba'zi so'zlarni aytishga kirishdi. Jumladan, Amir Sorbon Ali bizning aloqamizdan xabardorlar, dedi. Ul Hazrat [uning bu gapiga javoban] quyidagi baytni o'qidi.

Bayt:

*Oshiq bilan ma'shuq o'rtasida bir sir bo'lib,
Uni tuyaboqar bo'lgan kishi (ya'ni, sorbon) biladi.*

Mutoyiba

Oliy sha'nli Amirning tanishlaridan bo'lgan bir kampir bir tegirmon borasidagi da'vo yuzasidan tinimsiz devonga kelib-ketar va janjal qilardi. Ul hazrat unga nasihat qilib:

– Bunday ishlar uchun ering kelib-ketgani ma'qul, – dedilar.

U [kampir] bunga javoban:

– Tirikchiligidimizning oʻtishi ana shu tegirmonning tasarrufimizga oʻtishiga bogʻliq, shu sababdan men erim bilan birgalikda bu ishning orqasidan yuguramiz, – dedi.

Ul hazrat yana bir marta, ayollarning bunday ishlar ketidan yugurib yurishi munosib ish emas, dedilar-da, quyidagi baytni (54^a) chiroyli soʻzlar jaranglovchi tillariga keltirdilar.

Bayt:

Erkakning tez yurgani, ayolning esa sekin harakat qilgani yaxshidir. Agar [tegirmondagi] toshning har ikkalasi ham [baravariga] aylansa, un chiqmaydi.

Topqirlik

Bir paytlar Mirzo Ibrohim Turkmon husnu jamolda zamonasida yagona boʻlib, ul oliy hazrat (Alloh ul zotning qabr(lar)ini tabarruk qilsin) unga nisbatan iltifot va inoyat koʻrsatardi(lar).

Bir kuni shahzodaning ayrim beboshlarga qoʻshilib, ichkilikbozlikka berilib ketganligi toʻgʻrisidagi gap ul Hazratning quloqlariga yetib keldi. Shundan soʻng kunlardan bir kuni unga [bunday yomon odatni tashlashi zarurligi toʻgʻrisida] nasihat qildilar.

Mirzo Ibrohim qattiq xijolatdan boshini egib qoldi va yerdan mayda toshlarni olib, har tomonga ota boshladi. Toʻsatdan oʻsha toshlardan biri olijanob Amirning oldida turgan gulob shishasiga kelib tegdi-da, chil-chil sindirdi. Ul Hazrat darhol tillariga quyidagi baytni keltirdilar.

Bayt:

*Barcha toshbagʻirlar bilan gul rangidagi mayni ichasan.
Bizning aybimiz nimaki, shishamizga tosh otasan.*

Topqirlik

«Havzi mohiyon» («Baliqlar hovuzi») majmuasi oliy-makon Amirning e'tibori tufayli ishlanib tugallanish bezagi va qurilib bitkazilish ziynatiga ega bo'lgach, bir darveshga o'sha yerda istiqomat qilib, ushbu hovuzga qarab turish vazifasini topshirdilar. Shu chog' ul Hazratning mulozimlaridan biri:

– «Havzi mohiyon» majmuasi qorovulining maoshini bir yilda bir martadan to'lab turaylikmi yoki bir oyda bir martadan? – deb so'rab qoldi.

Yuqori mansabli Amir [bunga quyidagi misra bilan] javob berdi.

Misra:

Unga «mohiyona» (oylik ish haqi) belgilayman.

Mutoyiba

Shirinso'zligi va go'zal axloqi bilan o'z toifasidagi boshqa kishilardan butunlay ajralib turadigan Mir Sarbarahna Sohirqiron Sulton mulozimlari tomonidan (54^a) Xoja Husayn Kirangiy bilan birgalikda sadrlik lavozimiga tayinlanish sharafiga muyassar bo'lgach, hidoyat nishonli Amirning huzuriga kelib, shunday arz qildi:

– Mening sayyid degan nomim, yoshimning ulug'ligi hamda sizning mulozimlaringizdan ekanligimga qaramasdan, Xoja Husayn mendan ustunroq bo'lishni istaydi. Biroq siz oliy hazratning muborak e'tiborlari tufayli o'zining bu maqsadiga yeta olmaydi, deb umid qilaman.

Shu chog' buyuklikka intiluvchi bu janobning yoshlik chog'larida qilgan tilanchiliklari ul hazratning eslariga tushib, quyidagi baytni unga o'qib berdilar.

Bayt:

Sadrlik lavozimini tilanchilarga topshirishgan ekan, mansabda hammadan ham yuqoriroq boʻlsang kerak, deb umid qilaman.

Topqirlik

Mirzo Ibrohim hukmronligi davrida uning oʻgʻli Alouddavla chiroyli va koʻrkam yigit edi. Kunlarning birida ul oliy hazrat (Alloh ul zotning qabrlarini tabarruk qilsin) bir joyda bir guruh sheʼriyat ahli bilan birga oʻtirganlarida toʻsatdan shahzoda kirib keldi. Shu payt husnu jamolda oʻz davrining Yusufi boʻlgan muhrdor Amir Sulton Mahmud Tagʻoiy ham [ul hazratning] huzuriga kelib qoldi. Shunda oʻsha yerda oʻtirgan sheʼriyat ahllaridan biri shahzodaga atab quyidagi matlaʼni oʻqidi.

Bayt:

Butun olamning shirinligi u bilan boʻlgan oʻsha boʻgʻ-doyrang [goʻzal yigit], qip-qizil lab, kulib turgan yuz va shodon dil ham unga xosdir.

Ul Hazrat shartta [shahzoda bilan ketma-ket kirib kelgan] Amir Sulton Mahmudga bagʻishlab ushbu gʻazalning ikkinchi baytini tilga oldilar.

Bayt:

Shirinsoʻzlar podshohlar boʻlsalar-da, ammo u shu zamon Sulaymoni boʻlib, muhr ham undadir. (55^a)

Topqirlik

Bir gal ul oliy Hazrat (Alloh ul zotning qabrlarini tabarruk qilsin) Amir Nizomiddin Shayx Ahmad Suhayliy

va Amir Hoji bilan birgalikda sayr qilib yurar edilar. Bir joyga yetganlarida havo isib ketganligi tufayli Amir Ahmad Hojining shaxsiy soqchilaridan biri bo'lgan, go'zal yuz va kelishgan qomatga ega bo'lgan va egniga yashil kiyim kiyib olgan Muhammad nomli yigit unga soya qilishni boshladi. Shunda ushbu yosh yigitga mehr qo'ygan Amir Nizomiddin Shayx sekingina:

– Dunyoning mansabi va obro'-e'tibori qiziq narsa ekan. Shu tufayli shunday bir go'zal oy tik turganicha bu odamga soya qilib turibdi, – dedi.

Ul Hazrat [uning bu gapiga] javob tariqasida quyidagi baytni o'qidilar.

Nazm:

*Kimki tik qomatli o'sha sarvning soyasida bo'lsa,
Joyi Muhammadning yashil bayrog'i ostida bo'ladi.*

Topqirlik

Oliy martabali ushbu Amir Jom mashoyixlaridan biridan:

– Shayxulislom Ahmad Jom Jandapil (Xudo uning aziz qabrini tabarruk qilsin) maqbarasi ayvonining balandligi taxminan necha zar', – deb so'radilar.

– Qirq olti [zar'], – deb javob berdi u.

Ul hazrat darhol quyidagi misrani o'qidilar.

Misra:

Sochdan qurilgan toq jahonda yagona bo'lgay.

Shuni aytib o'tish lozimki, «mo'» (soch) so'zi jumal hisobida qirq olti sonini anglatadi.

Mutoyiba

Bir kuni sof koʻngilli Amir qutlugʻ soʻzlarni bayon etuvchi tili bilan soʻzga chechanlik va zukkolik borasida zamona shoirlari va zakiylarining saromadi boʻlgan Xoja Osafiyga nasihat qilib:

– Men senga hayron qolaman. (55^b) Isteʼdodingning yuqoriligi va zehningning oʻtkiriligiga qaramasdan, sheʼr yozish bilan kam shugʻullanasan, barcha vaqtingni keraksiz ishlarga sarflab yurasan, – deb qoldilar.

[Biroq u] bunga javoban:

– Shu paytlarda borgan sayin koʻproq sheʼr yozishga mashgʻul boʻlyapman. Masalan, kecha kechasi ikki aqchalik sham yonib bitguncha ikki yuz bayt sheʼr yozdim, – dedi.

[Shunda] ul hazrat [hazillashib]:

– Unda yozgan sheʼrlaringizning har yuz bayti bir aqcha ekan-da, – dedi.

Topqirlik

Musiqa va maqomlar fanida oʻz davrining yagonasi boʻlgan Mavlono Alishoh Bu bir kuni ul oliy Hazratga (Alloh ul zotning qabrlarini tabarruk qilsin) arz qilib:

– Sizning behad iltifotingiz va marhamatingizdan umidim shuki, har oy [maoshimni olay deb] mulozimlarga bosh ogʻrigʻi boʻlib yurmasligim uchun, vaqf ishlarini boshqaruvchilarning olti oylik maoshimni biratoʻla [oldidan] berishlari toʻgʻrisida buyruq chiqarsangiz, degandim, – dedi.

– Mavlono, – dedi [ul Hazrat] bunga javoban, – umrimizdan [olti oyi tugul] olti kuni qolganmi, yoʻqmi, bizga maʼlum emas. Shunday ekan, nima sababdan bizga

omonat berilgan bu hayotga bunchalik ishonib, birato‘la olti oylik maoshingizni berishlarini so‘rayapsiz?

[Ammo] Mavlaviy janoblari:

– Siz o‘sha pullarni menga berishlari to‘g‘risida buyruqni beravering, bordi-yu [olti oy ichida] o‘lib qoladigan bo‘lsam, go‘r-kafanimga yarab qolar, – dedi.

[Shunda] ul hazrat:

– Obbo, o‘ligiyam bir balo, tirigiyam bir balo, deganlari siz ekansiz-da, – deb javob berdi.

Topqirlik

Astrobod viloyati asli va negizini ezgulik tashkil etuvchi Amirning adolati soyasida obod va farovon bo‘lgan davrdagi kunlardan bir kuni havo bir necha marta o‘zgardi. Ul Hazrat uning huzurida bo‘lgan o‘sha viloyat a‘yonlariga qarata:

– Ajabo, bugunning o‘zida havo bir necha marta o‘zgardi, – dedilar. (56^a)

Ulardan biri bunga javoban shunday dedi:

– Shahrimizning yaxshi jihatlaridan biri ham shundaki, bir kunning o‘zida [bir yildagi] to‘rt faslning havosi namoyon bo‘ladi.

Shunda [ona shahri Hirotni sog‘inib yurgan] ul oliy Hazrat shunday dedilar:

– Ha, to‘g‘ri [aytasiz], bu shaharning bir kuni bir yilga teng ekan.

Mutoyiba

Bir safar saxovat maydonining chavandozi [bo‘lgan bu zot] o‘zining g‘aroyib gavda tuzilishi va ajoyib so‘zlari bilan oldingi so‘z ustalari orasida ajralib turadigan

Mavlono Shahobiddin Mudavvinga marhamat nazari bilan boqib, unga egar-jabduqli bir ot inʼom etdilar. Shundan soʻng janobi Mavlaviy oʻziga koʻrsatilgan bu iltifot sababli oʻzini ul Hazratning yaqin kishilari jumlasidan hisoblab, [ul Hazratga boʻlgan] xizmatkorlik va mulozimlikni haddidan oshirib yubordi.

Jumladan, qachonki [ul Hazrat] otga minib, biror joyga boradigan boʻlsalar, doimo u kishi bilan birga borar va yonlarida xizmatda boʻlar, [qaytib kelib, otdan] tushganlaridan soʻng ham bir lahza boʻlsa-da eshiklari oldidan ketmasdi.

Nihoyat lutf va karam manbai boʻlgan bu zot uning bu qiliqlaridan judayam bezor boʻlib, sabr kosalari toʻldi. Biroq ul hazratning oliy xulq-atvori uning koʻnglini ranjitib, unga ochiqchasiga, bundan keyin mening xizmatkorligim va mulozimligimni qilma, deyishga yoʻl bermas edi. Shu sababli ul Hazratning buyrugʻiga koʻra, mulozimlaridan biri yoʻlda choparlarga oʻxshab uning yoʻlidan chiqib, [maʼlum masofagacha foydalanish sharti bilan] undan otni oldi-da, soʻngra tezda bozorga olib borib sotib yubordi.

Janobi Mavlaviy uni haqiqatdan ham chopar boʻlsa kerak, deb oʻylab, [maʼlum masofadan keyin otini olishni moʻljallab] katta mashaqqat bilan bir-ikki tosh yoʻlni piyoda bosib oʻtdi. Biroq [shuncha masofadan keyin ham] otidan biror nishon topmagach, uni oʻta qiyin va tang ahvolga solib qoʻygan bu hodisadan hayronu sarson boʻlganicha saxovat dengizi boʻlgan Amirning huzuriga shoshildi.

[Janobi Mavlaviy] boshiga tushgan bu sargardonlik toʻgʻrisida gapirib bergach, ul hazrat:

– Biz otingning pulini senga beramiz. (56^b) Faqat shu

shart bilanki, bundan keyin o‘zingda ot saqlamaysan va biror joyga borayotgan chog‘imizda bizga bosh og‘rig‘i bo‘lmaysan, – dedi.

[Janobi Mavlaviy:]

– Bo‘pti, roziman, – deb javob berganidan so‘ng, ul Hazrat:

– O‘sha belgilangan pulni Mavlonoga beringlar, – deb buyurdi.

Shundan so‘ng o‘sha soxta chopar unga to‘qson to‘rt tanga sanab berdi. Janobi Mavlaviy bundan ajablanib:

– Menga in‘om qilinadigan pul yuz tanga bo‘lishi kerak edi, nega olti tanga kam berilmoqda? – deb so‘radi.

Shunda o‘sha yerda turganlardan biri javob berdi:

– Otingizni [bozorda] undan yuqoriroq narxga olishmadi.

Mutoyiba

Ezgulik binolariga asos soluvchi bu zot [hijriy-qamariy] 904 yilda Hirot jome masjidi (Alloh taolo uni o‘z qutlug‘ barakotlari bilan mustahkam qilsin) binosini yangilash va bezatishga qattiq kirishgan chog‘larida o‘sha tabarruk makonning [ta‘mirlash ishlari] loyihasini tuzishni ulug‘lik belgilariga ega bo‘lgan, Xoja Mirak Naqqosh laqabi bilan tanilgan Sayyid Ruhulloh degan kishiga topshirishdi.

Biroq bu janob bu ishda e‘tiborsizlik va sustkashlikka yo‘l qo‘yib, [tegishli chizmalarni chizishda] qalam va qog‘ozga kechroq qo‘l urdi. Natijada koshinkorlar (ishni boshlayolmasdan) kutib qoldilar.

Bu ahvol davom etib, ish haddan ortiq cho‘zilib ketganidan, buning ustiga [ishni tezlashtirish maqsadida unga berilgan] nasihatlar va [unga qilingan] do‘q-po‘pisalar

ham foyda bermaganidan keyin, sof koʻngilli Amir [bu ishni tezroq bitkazish maqsadida] qiziq bir hiyla oʻylab topdi. Xoja Mirak Hirot atrofidagi qishloqlardan biri boʻlgan «Sapedravon» qishlogʻiga borib, dam olayotgan chogʻida Xoja Jaloliddin Muhammadga, Xoja Mirak oliy devondan olgan ozuqa uchun besh ming dinor kepakiyni qaytarishi toʻgʻrisida toʻlov talabnomasi yozib berishini buyurdilar.

[Xoja Jaloliddin Muhammad ul Hazratning buyrugʻiga koʻra, toʻlov talabnomasini yozdi va] bu hujjatni ushbu sayyid (57^a) tanimaydigan ikki nafar mulozimning qoʻliga berib, mana shu qishloqqa borib, Xoja Mirakni topishlarini, uni qattiq siquvga olib, undan ushbu pulni undirib olishga harakat qilishlarini, oʻzlarini olam ahli shahzodasi Faridun Husayn Mirzoning navkarlari deb tanishtirishlarini buyurdi.

Bu ikki kishi darhol oʻsha qishloq tomon ot solib, Xoja Mirakni topdilar hamda unga nisbatan doʻq-poʻpisa va zoʻravonlik qoʻllab, aytilgan pulni darhol topib, toʻlashini buyurdilar.

Ulugʻlik belgilariga ega boʻlgan bu zot bu holatni koʻrib hayratga tusharkan:

– Meni shaharga olib boringlar, ushbu toʻlov talabnomasini bekor qildiray yoki ushbu pulni toʻplashga kirishay, – dedi.

Shundan soʻng ular uni oʻz uylariga olib ketdilar va bir kechasi oʻsha yerda saqladilar. Ertasi kuni ulugʻlar pushti panohi boʻlgan bu zot qattiq yalinib-yolvorgan va zorlangan holda ushbu soxta qarz undiruvchilardan:

– Meni Jome masjidiga olib boring, shoyad Amir hazratlari mening holimga rahmlari kelib, amirlar va devon xodimlari oldiga oʻz odamlarini yuborsalar, shunda siz olib kelgan toʻlov talabnomasini boshqa biror joyga oʻtkazib, bu pulni toʻlash masʼuliyatini mening zimmamdan olib tashlasalar, – deb soʻradi.

Ular bu iltimosni qabul qilib, Xoja Mirakni masjidga olib keldilar. Ushbu janob ul oliy hazratning huzurlariga borib, ko‘zlariga yosh olib, shunday dedi:

– Qashshoqlikdan o‘ta qiynalib turgan bir paytimda mening nomimga besh ming dinor kepakiy miqdoridagi mablag‘ yozishibdi. Inoyat qilib, biror chorasini topsangizu bu to‘lov talabnomasini qaytarsalar, umid qilamanki, mening ulug‘ ajdodlarim sizdan uzr so‘rash rasmini bajo keltirishadi.

Ul Hazrat shunday javob berdilar:

– Bu to‘lov talabnomasini qaytarish anchagina qiyin ish. Shunga qaramasdan imkoni boricha [uni qaytarishga] harakat qilib ko‘ramiz. (57^b) Faqat shartimiz shuki, siz o‘n besh kun muddat ichida bizning ko‘nglimizni ushbu tabarruk makonning [ta‘mirlash ishlari] loyihasini tuzish tashvishidan qutqarasiz.

Xoja Mirak butaklifniboshustiga qabul qilib, buto‘g‘rida quyidagi mazmunda bir tilxat ham yozib berdi: «Agar va‘da qilingan muhlatdan bir kun ham o‘tsa, aytilgan mablag‘-ni to‘lash borasidagi javobgarlikni so‘zsiz bo‘yningma olaman».

Shundan so‘ng ul Hazrat Amir Kamoliddin Sulton Husaynga:

– Xoja Mirakni olib kelgan qarz undiruvchilar bilan birga devonga borib, qanday yo‘l bilan bo‘lsa-da, ushbu to‘lov talabnomasini bekor qildiring, – deb buyurdi.

Sayyid janoblari esa quvonib ketganicha o‘z uyi tomon otildi va [ta‘mirlash ishlari] loyihasini tuzishga kirishib, [to‘lov hujjatidan bo‘lgan] katta vahima va qo‘rquv tufayli o‘sha ishni tugatmaguniga qadar o‘z uyidan tashqariga chiqmadi.

XOTIMA

AYRIM GʻAROYIB HOLATLAR VA AJOYIB HIKOYATLAR BAYONI

Oliyimakon xoqon Shohrux Sulton vafotidan soʻng Xuroson viloyatlari va shaharlarida tartibsizliklar va boshboshdoqliklar boshlanib ketgach, oliy martabali ushbu Amirning ulugʻ otasi oʻzining aziz bola-chaqalarini olib Sherozga ketdi. U yerda bir necha yil yashaganlaridan soʻng, ona yurt muhabbati taqozosi bilan Yazd choʻli orqali Xuroson tomon yoʻl oldilar.

Tunda yoʻl yurib ketayotgan chogʻlarida barchada uyqu gʻolib kelib, u paytlarda hali yosh bola boʻlgan ul oliy Hazratni qoʻriqlab borish eslaridan chiqib qoldi. Ul Hazrat ham uyquga ketib, ot [ular ketayotgan] yoʻldan adashdi va boshqa tomonga ketib qoldi. Bir oz yoʻl yurilganidan soʻng [ul Hazrat] egardan yerga agʻnab tushdilar. Biroq yoʻlda judayam toliqqanliklari va qattiq uyquga ketganliklari sababli uygʻonmadilar. Ot ham horiganligidan oʻsha yerda toʻxtab qoldi.

Turgʻun va sayyor osmon jismlarining sarvari (*yaʼni, quyosh*) choʻl va dashtning barcha tomonlarini (58^a) koʻngil nuri bilan munavvar aylagach (*yaʼni, tong otgach*), kichik yoshli [boʻlsa-da] tirishqoq va koʻp narsani biluvchi [boʻlgan ul Hazrat] uyqudan koʻz ochib, bu bepoyon choʻlda oʻzlaridan boshqa hech kim yoʻq ekanligini koʻrdilar. Shundan soʻng [ul Hazratni] qoʻrqub bosdi. Biroq oʻtkir aqllari va kuchli irodalariga tayangan holda, oʻzlaricha «hozir dod-faryod qilishdan foyda yoʻq, [undan koʻra] Xuroson tomonga olib boradigan yoʻlni topishga [va unga tushib olishga] harakat qilish kerak», deb oʻyladilar.

Shundan so'ng omad otiga minib, o'tkir aql-zakovatlarini ishga solganlaricha [Xuroson tomonga olib boradigan] yo'lni topdilar va oldinga qarab yo'l oldilar.

Bir oz yo'l yurib, [issiq] harorat havoning qoq yuragini ham ishg'ol etgach (*ya'ni, havo qizib ketgach*), ilohiy fayzlar tushadigan makon bo'lgan ul hazratda chanqoqlik g'olib kelib, holdan toyib qolishlariga oz qoldi.

Shu chog' uzoqdan gumbaz kattaligidagi bir qora ko'zga tashlandi. [O'sha narsaga qarab] bir oz yo'l yurgach, o'sha narsaning oldingidan ham kichikroq bo'lib ko'rinayotganligini sezidilar. U biror otliq bo'lsa kerak, deb o'yladilar. Shunday qilib, [o'sha narsaga] qanchalik yaqinroq borsalar, u shunchalik kichrayib borardi. Endi uni dubulg'aning g'ilofi bo'lsa kerak, deb o'ylay boshladilar.

[Shuni aytib o'tish lozimki,] cho'llarda sezgi a'zolarining yanglishishi sababli uzoqdagi narsalar judayam katta bo'lib ko'rinadi. Nihoyat o'sha narsaning oldiga yetib borganlarida uning suv to'la oftoba ekanligini ko'rdilar. O'sha suvdan ichib, [g'oyibdan] bandalariga sovg'alar berguvchi Zotga shukrlar aytdilar. Hammasidan ham hayratlanarlisi shu ediki, Yazddan yo'lga chiqqanlaridan buyon chuchuk suv topmagan edilar. Bu suv esa judayam shirin edi.

Masnaviy:

*Unga omad kulib boqqan kishining
Yo'lida band qolmas hargiz ishining.
Ishiga minglarcha tugun tushsa ham,
Osongina yechar yaratgan egam.*

(58^b) Biroq oxiratda maqtaluvchi kishilardan bo'ladigan bu farzandning otasi va aka-ukalari bir manzilda to'xtaganlaridan so'ng ul Hazratning oralarida yo'q

ekanliklarini bilib qolgach, qaygʻu va iztirob karvonlari ularning qalblarini egallab oldi. Saodatli farzandlarini qancha izlamasinlar, uni hech joydan topolmasdilar.

Axiyri mulozimlardan birini ul Hazratdan biror nishon topish uchun Yazd tomonga qaytarib joʻnatdilar. U kishi biroz masofani bosib oʻtgach, oʻz xojasining oʻgʻliga duch keldi.

Shunday qilib, ul Hazrat oʻz otasi va aka-ukalari oldiga yetib kelib, ularga suvsiz qolib ketib, qattiq chanqoqlikka yoʻliqqanliklari, soʻngra suv topib olganliklari voqeasini soʻzlab berdilar. Barchalari bu soʻzlarni eshitib hayrat dengiziga gʻarq boʻldilar va oʻsha shirin suvdan ichib koʻrish lazzatidan bahramand boʻlib, ilohiy ehsonning shukriga ogʻiz juftladilar.

Hikoyat

Sulton Saʻid (Abusaʻid Mirzo) podshohligi zamonida ilohiy omad sohibi boʻlgan bu Amir bir muddat Samarqandda istiqomat qildilar. Oʻsha zamonda kunlardan bir kuni ertalab ul hazrat oʻzlarining mulozimlaridan boʻlgan Mavlono Pir Ahmadni chaqirib, unga shunday dedilar:

– Kecha tushimda Mirzo Ahmad Xorazmshoh bilan birga bir toqqa chiqqan emishmiz. Shu orada yoʻl oʻrtasida katta bir tosh yotgan bir joyga yetib boribmiz. Oldin Mirzo Ahmad oʻsha toshning ustiga chiqibdi, soʻngra qoʻlimdan tortib meni ham uning ustiga chiqarib olibdi.

Ittifoqo [ul Hazrat] oʻsha kuni yuqorida nomi eslatilgan oʻsha Mirzo bilan uchrashib qoldilar. U suhbat orasida ul Hazratga qarata shunday dedi:

– Kecha tushimda siz bilan birga bir toqqa chiqqan emishmiz. Nogoh yoʻl oʻrtasida yotgan katta bir toshning

oldiga yetib boribmiz. Men o'sha toshning ustiga chiqibman-da, so'ngra sizni ham qo'lingizdan tortib uning ustiga chiqarib olibman.

Shunda ul oliy hazrat (59^a) unga:

– Mavlono Pir Ahmadni chaqirib, men ertalab unga nima deganligimni so'rang, – dedilar.

Mirzo Ahmad o'sha odamni chaqirib, bu to'g'rida so'rab-surishtirdi. U [Mirzo Ahmad ko'rgan] o'sha tushni aynan o'zini aytib berdi. U yerda turganlar bu g'aroyib voqeadan hayratga tushdilar.

Hikoyat

Samarqand shahri muborak sifatli Amirning nuroniy chehrasi yog'dusidan jannat bog'iga o'xshab qolgan o'sha zamonda Amir Nizomiddin Shayx Ahmad Suhayliy [degan shoir Samarqand hokimi] Mirzo Sulton Ahmad madhida bir qasida yozib, tahrir qilish va kerakli tuzatishlar kiritish uchun ul Hazratga taqdim etdi. Ul Hazrat mazkur qasidaning baytlarini o'qib chiqib, shunday dedilar:

– Madh etilayotgan kishining ismi bilan ziynatlangan baytdan keyin, gap bir-biriga bog'lanishi uchun, yana bir bayt yozilmog'i kerak.

Amirlik namunasi bo'lgan ul janob:

– O'zim ham shundan xavotirlanib turgandim, – dedi.
– Iltimosim shuki, o'sha baytni siz yozib bersangiz.

Ul Hazrat:

– Unda men ham o'ylab ko'ray, siz ham biror narsa o'ylab topishga harakat qiling, – dedilar-da, quyidagi misrani o'qidilar:

Ko'raylik-chi, falakning o'zi parda ortidan nimani chiqarib ko'rsatar ekan.

Shundan soʻng har birlari oldilariga dovot, qalam va bir parchadan qogʻoz qoʻyib, oʻy dengiziga choʻmdilar. Soʻngra ikkovlari ham birdaniga boshlarini koʻtarib, bittadan bayt yozdilar va bir-birlariga uzatdilar. Tasodifan tavorud yuz berib, ikkovlari ham aynan bir baytni yozishgan va ulardagi biror harf ham farq qilmas edi. U bayt quyidagichadir:

Bayt:

*Yoshlik bogʻining bahori, adolat gulshanining niholi,
Saxovat bogʻining guli, ulugʻvorlik arigʻi boʻyidagi sarv.*

Hikoyat

[Bir paytlar] oxiratda maqtaluvchi kishilardan boʻladigan bu Amirning kutubxonasida [Xoja] Yoqut [degan xattot] xati bilan koʻchirilgan va [oʻrtalaridan] bir necha varagʻi yoʻqolgan Qurʻon boʻlardi. Bir gal ul Hazratning muborak koʻngillariga ushbu nafis tuhfani takomillashtirish fikri kelib, Xoja Hofiz Muhammad Xattotga (59^b) oʻsha tushib qolgan varaqlarni [qaytadan koʻchirib chiqib] tiklashni buyurdilar.

Xoja Hofiz bir necha kun koʻchirilishi kerak boʻlgan varaqlarni Qurʻonning boshqa varaqlariga toʻla muvofiq keladigan, [tushib qolgan varaqlar hajmidan] kam ham, ortiq ham boʻlmaydigan bir darajada koʻchirib tayyorlash imkoni bormikan, degan oʻy bilan yurdi.

Shu asnoda ul Hazratning qoʻliga Mavlono Shams Maʼruf degan xattot tomonidan koʻchirilgan Qurʻon [nusxasi] tushib qoldi. [Ul Hazrat] ushbu nusxaning koʻchirilish usulining [Yoqut al-Mustaʼsimiy tomonidan koʻchirilgan] oʻsha Qurʻon nusxasining koʻchirilish

usuliga yaqin ekanligini ko‘rib, o‘sha [tushib qolgan varaqlarni] mana shu nusxaga qarab ko‘chirsangiz, shoyad [Qur‘onning boshqa varaqlariga] muvofiq kelib qolar, deya uni Xoja Hofizga yubordilar.

Ittifoqo, Mavlono Shams Ma‘ruf ushbu Qur‘onni Xoja Yoqut tomonidan ko‘chirilgan o‘sha Qur‘ondan sahifama-sahifa, qatorma-qator ko‘chirgan va [ushbu ikki nusxadagi] birorta harfning joylashishi ham bir-biridan farq qilmas ekan. Shunday qilib o‘sha [tushib qolgan] varaqlarni qayta ko‘chirish osonlik bilan amalga oshdi.

Hikoyat

[Hijriy-qamariy] 905(mil. 1499/1500)-yilda Movarounnahr tomondan bedorlik va ogohlik ahlining yo‘lboshchisi bo‘lgan Xoja Nosiriddin Ubaydullohning o‘g‘li Xoja Yahyo o‘ta dabdabali va serhasham tarzda hayot kechirmoqda, Sulton Ali Mirzo esa uning maslahatisiz biror ishga qo‘l urmas ekan, qolaversa, har kuni uning oldida bo‘larkan, degan xabarlar paydar-pay kelib turardi.

Xullas, o‘sha yilning oxirlarida kunlardan bir kuni ul olijanob Amir Sayyid Yusuf O‘g‘loqchiga qarata Xudo ko‘ngillariga solgan narsalarni so‘zlovchi tillariga shu so‘zlarni keltirdilar:

– Xoja Yahyo tanlagan bunday turmush tarzi so‘fiylarning xulq-atvoriga munosib emas. Shunisi aniqki, kimki o‘z ota-bobolarining xulq-atvorlari yo‘riqlaridan chetga chiqib ketsa va uzoqlashsa, unga judayam katta ziyon-zahmat yetadi. Bunga Amir Husayn zamonida Samarqand aholisini o‘z tomonlariga og‘dirib, urush bayrog‘ini ko‘targan (60a) va mo‘g‘ul lashkari bilan jangga kirishib, shaharni Amir Husayn va Hazrati Sohirqiron (Amir Temur) uchun o‘z qo‘llarida ushlab

turgan Mavlono Xurdak Buxoriy va Abu Bakr Naddofning boshlariga tushgan balolar misol boʻla oladi. Ulardan biri Amir Husayn tomonidan qatl etilgan boʻlsa, ikkinchisi oʻzbek ulusiga qarashli oʻlkalarda sarson-sargardon boʻldi. «Zafarnoma» asarida bu toʻgʻrida batafsil hikoya qilingan.

Amir Yusuf bunga javoban:

– Men «Zafarnoma»ni oʻqiganman, ammo bu toʻgʻrida hikoya qilingan qismi esimda yoʻq ekan, – dedi.

Oʻsha kuni sof koʻngilli Amir «Zafarnoma»dan oʻsha qissani topib, ushbu satrlar muallifi orqali oʻsha amirning oldiga yubordilar. Men («Zafarnoma»ning oʻsha joyini) unga oʻqib berdim.

Ushbu suhbatdan bir oz muddat oʻtganidan soʻng Samarqand tomondan oʻzbek [ulusi] podshosi Shohbaxt (*yaʼni, Muhammad Shayboniyxon*)ning Movarounnahrga hujum qilganligi, u mamlakatda oʻz hukmronligini oʻrnatganidan soʻng Xoja Yahyoni ikki oʻgʻli bilan birga shahid qilganligi toʻgʻrisidagi xabar yetib keldi.

* * *

Aytib oʻtish lozimki, eng yaxshi xislatlarni oʻzida namoyon qilgan bu zotning boshidan oʻtgan ajoyib holatlar va gʻaroyib voqealar judayam koʻp boʻlib, ularning ichida eng hayratlanarlisi ul Hazratning kasal boʻlishlari va vafot etishlari voqeasidir. Quyida shu toʻgʻrida hikoya qilinadi.

HAZRATI SULTONNING YAQIN KISHISI BOʻLGAN UL OLIY JANOBNING OʻTKINCHI DUNYODAN ABADIY DUNYOGA SAFAR QILISHLARI BAYONIDA

Aytdimki, ogʻir bir qissani yozsam,

Va firoq dardidan hissani yozsam.

Dil qani, u bilan gʻamni sharhlasam?

Qoʻl-chi, u bilan dil dardini yozsam?

Barcha oqillarga shu narsa ma'lumki, zolim va makkor zamona mudom jahon ahliga jafu ozuqasini tutadi hamda fozillar toifasidan bo'lgan kishilarga ayonki, adovat va xusumatni o'ziga kasb qilib olgan falak do'stlik va muhabbat ahlining tinch va osuda umrguzaronligiga monelik etadi.

Nazm:

*Quyoshin sevmadi hech kim tongdayin,
(60^b) Kuymadi shafaqdek shomlari g'amgin.*

Yetti Opa-Singillar kabi bir narsa ikki hamnafas o'rtasida muhabbat va visol tarhini chizmagan edi, ammo ularni Tobut Qizlari kabi tarqatib [ham] yubormadi.

Bayt:

*G'amidan hech kim bir dam bo'lsa-da qayg'uga
botmasdan qolmadi,
Bu shunday g'amki, butun umr motam tutishga sabab bo'ladi.*

Ofat maydoni va xavf makonini ruh va osudalik maskani deb bo'lmaydi, poydevori mustahkam bo'lmagan bu o'tkinchi xaroboddagi osudalik uyi joylashgan makonga esa ishonch bildirib bo'lmaydi.

Bayt:

*Dunyo zavol in qurgan makondir,
Rohat-farog'at unda maholdir.
Motamxonadir qorong'u va tor,
Unda vafodan na bir nishon bor.*

Tinimsiz ravishda harakatda va evrilishda boʻlgan jonsiz va jonli mavjudotlarning oʻzgarmasdan turgʻun holatda turgani va yoʻqolmasdan boqiy qolganini kim koʻribdi? Har biri har joyga qarab intiladigan toʻrt unurning doimiy mavjud boʻlishi va abadiy saqlanib qolishidan umid qilish qattiq yanglishish va katta xatodir.

Bayt:

*Dunyoning boshlanishi yoʻqligu oxiri fanodir,
U toʻgʻrida turgʻunligu boqiylikni oʻylash xatodir.
Toʻrt unurning qaymogʻi hisoblangan odam
Doimo bu toʻrt ajdahoni parvarishlash bilan band.*

Bu voqeadan xabardor boʻlgan kishi bu soʻzlarni eshitib, gap nimadaligini tushunib yetgan hamda ushbu muqaddimani keltirishdan koʻzda tutilgan maqsad kimning [umr] quyoshi botganligini maʼlum qilish ekanligini bilgan boʻlsa-da, quyida voqeaning toʻliq tafsilotini keltirishga qaror qildik.

[Hijriy-qamariy] 906-yil jumodi ul-avval oyining oxirlarida (mil. 1500-yil, 20–22-noyabr) adolatli Sohibqironning qutlugʻ bayrogʻi Astrobod yurishidan saltanat taxtining qarorgohi tomon yuzlangan, bu quvonchli xabar esa ketma-ket va toʻxtovsiz ravishda saltanat poytaxti Hirot aholisiga yetib kelayotgandi. Xoqon davlatining suyanchigʻi va Hazrati sultonning yaqin kishisi boʻlgan hidoyat nishonli va ulugʻ manzilatli oliy hazrat (61^a) [oʻsha yili] jumodi ul-oxir oyining yettinchisida, seshanba kuni (milodiy 1500-yilning 29-dekabrida) [Sohibqironni] kutib olish uchun Koʻsaviya qasabasi tomon yoʻl olib, Pariyon rabotini [oʻzlarining] muborak chehralari nuri bilan jannat bogʻining rashkini keltiradigan darajadagi goʻzal maskanga aylantirdilar.

[Ul Hazrat] o'sha kechasi shu yerda tunadilar. Chorshanba kuni ertalab biror bir aniq sababsiz turli kishilar tomonidan u rabotning eshik va devorlariga yozib ketilgan baytlarni o'qish uchun uning shiftli ayvonlaridan biriga kirganlarida ul Hazratning muborak ko'zlari birinchi bo'lib quyidagi qit'aga tushdi.

Qit'a:

*Bu paytda barcha tabiblar ojiz qoldilar,
Odam Tangri qazosiga qarshi nima ham qila olardi.
[Daraxtning] tomir shoxlari tanadagi harakatdan uzilganda
Aflotunning oyog'i ojizlik loyiga botib ketdi.
Sog'lik yomonlashish tomon yuz burganda
Abu Alining qo'lidagi «Qonun» ham yordam berolmadi.*

[Ul Hazrat bu baytlarni o'qiganlaridan] keyin, achinish va qayg'urish hissi bilan Xudo ko'ngillariga solgan narsalarni so'zlovchi tillari bilan:

– Ha, to'g'ri, har bir kishi [bir kuni] u dunyoga ravona bo'ladi. Yaratguvchining tiriklik va o'lim borasida belgilagan taqdirini hech kim o'zgartira olmaydi, – dedilar.

Shundan so'ng u yerdan chiqib, Poyob rabotiga qarab yo'l oldilar. Payshanba kuni kechasi Mavlono Vays muborak o'rdugohdan bu yerga yetib kelib, a'lo Hazrat shu kechasi Amirshoh rabotiga qo'nganlar, [ertaga] ertalab u yerdan jo'naydilar, degan xabarni yetkazdi.

Shundan so'ng,

*Vasl manzili yaqinlashgach
Shavq o'ti balandroq yona boshlaydi,*

baytiga muvofiq, to'rt unsur xususiyatlarini o'zida mujassam etgan bu zot [tez orada] maqtalgan xislatlarga ega bo'lgan Sohirqironni ko'rish baxtiga erishishi mumkinligi

munosabati bilan koʻzlaridan sogʻinch yoshlarini toʻkdilar va bomdod namozini ertaroq ado etdilar-da, oʻsha zahotiyoq otga minib, Amirshoh (61^b) raboti tomon yoʻl oldilar.

Yoʻlda ketayotgan chogʻda hidoyat yor boʻlgan Amirning yorugʻ peshonasidan quvonch va shodlik nurlari porlar, [ul Hazratning oldiga] oliy nasabli podshohning mulozimlaridan qay biri etib kelsa ham, [ul zot tomonidan ularga] cheksiz izzat-ikrom va mulozamat koʻrsatilardi.

Bir toshga yaqin masofa bosib oʻtilgach, istiqbolli Sohirqironning ulugʻlik va hashamat bilan bezangan taxtiravoni koʻzga tashlandi. Ayni shu chogʻda olamlar Rabbining qazosiga muvofiq ahli yaqinning peshvosi boʻlgan ul zotning muborak boshlari aylanib ketdida, amirlikning namunasi boʻlgan ul olijanob Xoja Shahobiddin Abdullohni oldilariga chaqirib:

– Menga koʻz-quloq boʻlib turing, holim yomonlashmoqda, – dedilar.

Shundan soʻng aʻlo hazratlarining istiqbollari chiqib, muborak qoʻllarini oʻpish maqsadida otdan tushdilar. Biroq bu kasallik shiddat bilan zoʻrayib, tanadan quvvat ketganligi va yurishga hol qolmaganligidan oʻsha amir va Mavlono Jaloliddin Qosim oliy martabali Amirning qoʻltiqlaridan tutib oldilar. Shunda [ul Hazrat] ilgari yurib, boshlarini yuqori mavqeli podshohning koʻksiga qoʻydilar.

Aʻlo hazratlari ulugʻlik va hashamat doirasining markazi boʻlgan ul hazrat sogʻliqlarining yomonlashganini koʻrib, benihoya gʻam-qaygʻuga botdilar. [Bunday payt] toʻxtab oʻtirishning oʻrni boʻlmaganligi sababli, hol-ahvol soʻrashish va oʻzaro izzat-ikrom koʻrsatishdan soʻng, u yerdan joʻnadilar.

Shu chogʻ [ul Hazrat chalingan] oʻsha kasallik falajga aylanib, oliy nasabli Amir harakatdan va tildan qoldi.

Xizmatkorlar va mulozimlar [ul Hazratning] huzurlarida bo‘lish saodatiga erishgan ulug‘lar bilan birga ul hazratni taxtiravonga (62^a) yotqizib, shaharga qaytdilar.

Masnaviy:

*Vaqt bo‘ldi, umr so‘ngiga yetar,
Balo selobi eshikdan kirar.
Vaqt bo‘ldi, yulduzlar mingan otlar
Ham taqa va ham tuyuq tashlarlar.
Vaqt bo‘ldi, bu to‘rt hammol
Oy va yilning taxtiravonini qo‘yadilar.*

Yo‘lda ketayotgan chog‘larida Mavlono Nizomiddin Abdulhay va Mavlono Shamsiddin Muhammad Giloniyning donishmandlarcha maslahatlari bilan pok Parvardigorning rahmatlari jilvagohi bo‘lgan ul Hazratning tomirlaridan qiynalmaydigan bir usulda yarim man miqdorda qon olishdi. Biroq bu ish hech qanday foyda bermadi.

Misra:

Urinma, ey tabib, bu ishning vaqti o‘tdi.

Shundan so‘ng mulozimlar dillari g‘am-anduhga to‘lib va ko‘zlaridan ko‘zyoshlar to‘kib, ul Hazrat yotgan taxtiravon o‘rnatilgan tuyani oldinga haydadilar hamda qayg‘u va hasrat karvonlari bilan birga shaharga tomon yo‘l oldilar. Har bir harakatning eng yuqori nuqtasi to‘xtalishdir, har bir yaratiluvchi narsaning oxiri esa yo‘qolishdir.

Qit‘a:

*Ey ko‘ngil, to‘ntarilgan falak zotida to‘xtalish yo‘q ekan,
Odam qanday qilib unda to‘xtab tura oladi.*

Shunday qilib, juma kechasi yarim tunda ezgulik binolari quruvchisini oʻzlarining muborak uylariga yetkazdilar. Ertalab esa Hirot shahrining aksariyat tabiblarini ul hazratning boshlariga toʻpladilar. Biroq ushbu tabiblar [ul Hazratni] davolash va muolaja qilishga qanchalik urinmasinlar va kuch-gʻayrat sarflamasinlar, qanchalik kerakli dorilar va sharbatlar bermasinlar, [ul Hazrat ahvolidagi] yaxshilanish va tuzalish yuz bermadi, balki lahzada sayin kasallik zoʻraygandan zoʻrayib, ogʻirlashgandan ogʻirlashib borardi.

Misra:

Ajal kelgach, davolashdan ne foyda.

Oʻsha kuni Sohibqiron Sulton shaharga yetib kelib, ul Hazratga boʻlgan cheksiz muhabbatlari tufayli, «Bogʻi jahonoroy»ga bormasdan oldin ulugʻvorlik va shukuh namunasi boʻlgan Amirni (62^b) koʻrgani keldilar. Ul Hazratning kasalliklari benihoya darajada zoʻraygani va ahvollari oʻta ogʻirlashganini koʻrgach, oʻpkalari toʻlib ketib, koʻzlariga yosh keldi-da, bir olam gʻam-qaygʻuga choʻmgan holda boqqa tomon yoʻl oldilar. Biroq har lahzada odam joʻnatib, [ul Hazratning] ahvollarini soʻrab turar, qaygʻu va iztirobning zoʻrligidan bir lahzada boʻlsa-da bemalol istirohat toʻshagida orom olmasdi.

Shanba kuni ham maqtalgan xislatlarga ega boʻlgan bu Amirning ahvolidagi [tuzalishga tomon] oʻzgarish yuz bermadi, balki vaqt oʻtgan sayin [tanadagi] darmonsizlik kuchayib, kasallik zoʻrayib borardi.

Nihoyat ushbu oyning oʻn ikkinchisida, yakshanba kuni (milodiy 1501-yilning 3-yanvari) ertalab Haqning «Qaytgin» degan chaqiruviga «Amringga boʻysunaman»

deb javob berib¹, boqiylik negizini jon oluvchining qo‘liga topshirdi va tiriklik gulshani bulbulini yuqori olam bog‘lariga jo‘natdi.

Bayt:

*Toki dunyo bor ekan, shunday bo‘ladi,
Barchaning ishi oxirida ana shunday bo‘ladi.*

[Bu kun] mahshar kuni tongidagi dod-faryod hamda qiyomat kunidagi qo‘rquv va dahshatga to‘la nola-fig‘on quyi olamda namoyon bo‘ldi. Amirlar va vazirlarning yig‘i-sig‘isi, kattayu kichikning nolayu fig‘oni osmonning eng yuqori nuqtasi va Kayvon ayvonidan ham o‘tib ketdi.

Sohibqiron Sulton va podshohlikning haram aholidan bir nechasi o‘sha kuni ul hazratning muborak uylariga tashrif buyurib, ulug‘lik kursisidan motam gilamiga o‘tirdilar-da, yig‘i-sig‘i va nola-fig‘on boshladilar va dafn marosimini Sayyid ul-mursalin sunnatiga muvofiq o‘tkazdilar. Zafar yor bo‘lgan Sohibqiron, shukuh va hashamat namunasi bo‘lgan amirlar, islom mashoyixlari, ulug‘ sayyidlar, olimlar, fozillar va barcha xalq mag‘firat yor bo‘lgan ul zot [jasadi] bilan birgalikda xiyobon tomon yurdilar. (63^a) Barchaning o‘tli ohi endigina davlatga erishgan xasislarning manmanlik va kibr bayrog‘i kabi osmonga yetdi. Yurakning [g‘am va qayg‘udan] suv bo‘lgan qoni ko‘z orqali baxtiqaro yetimlarning ko‘z yoshlaridek dam-badam tuproqqa yumalab tushardi.

Masnaviy:

*Kiprikdan dam-badam qonli yosh to‘kardi,
Qonli yosh dema, haqiqiy qon to‘kardi.
O‘sha kuni faryod shunchalik baland ko‘tarilganidan
Bu ovozlari moviy osmon gumbazigacha yetib bordi.*

¹ Qur‘oni karimning «Fajr» surasi 28-oyatiga ishora.

Shu payt havoning koʻzlari shohu gadoning koʻngli-dagilarga muvofiq ravishda yosh tomchilarini yogʻdiradi. Goʻzallik va xushboʻylik buluti tomchilari esa arsh barobar ulugʻlikka ega boʻlgan ul zot jasadining u yer-bu yeriga tushib turardi.

Ruboiy:

*Osmon koʻzidan shafaq qoni toʻkildi,
Oy yuzini yuldi va Zuhra kokilin kesdi.
Tun bu motamda qora kiyim kiydi va tong
Sovuq nafas chiqarib, yoqasini yirtdi.*

Hirotda yidgohida oʻzidan barakalar sochuvchi boʻlgan ul zotning janoza namozlari oʻqildi. Soʻngra oʻzlarining jome masjidlari yonida shu maqsadda qurilgan gumbaz ostiga olib kelib, dafn qildilar.

Misra:

Ey tuproq, bagʻringda nima borligini qayerdan ham bilarding.

Oʻsha kechasi koʻplab ulugʻ sayyidlar va olimlar [ul Hazratning] fayzli qabrlari boshida bedor oʻtirib chiqishdi, ilohiy kalom hofizlari tonggacha tilovat bilan mashgʻul boʻlib, bir lahza ham mijja qoqmadilar.

Ertasi kuni quyosh podshohi azadorlar kabi osmonning koʻk kiyimini kiyib, yulduzlar toʻdasi odamlarning koʻz yoshi kabi toʻkilib ketgach (*yaʼni, tong oʻtgach*), vafodor Sohibqiron ham magʻfirat yoʻlida boʻlgan Amirning uyida azadorlik oʻrnini egalladi. Saltanat poytaxti Hirotning ulugʻlari va asilzodalari ul zotning (63^b) huzurlariga kelib, koʻngil soʻrash rasmini bajo keltirdilar.

Oʻsha kuni Hirotda shahrining aksariyat masjidlarida aho-

lining turli tabaqalari va toifalari vakillari motam gilamiga o'tirib, ul oliymaqom zotning ruhlari tinch bo'lishi uchun barcha narsani bilguvchi Zotning kalomini xatm qildilar.

Qit'a:

*Uning o'limidan tushdi har uyga motam,
Vafotidan ko'tarildi har burchdan fig'on.
Bu og'ir musibatu bu og'ir o'limdan
Olov tushdi har toshu har temir diliga.*

Sohibqiron Sulton uchinchi kungacha ko'ngil ahli peshvosi bo'lgan ul zotning uyida turib, [ko'ngil so'rab kelganlarga] taomlar tortish hamda buyuklik va ezgulik Sohibining kalomini xatm etishni buyurdilar. Shundan so'ng [ul Hazratning] o'zidan nur taratib turuvchi qabri boshiga kelib, ziyorat rasm-rusumlarini ado etdilar. So'ngra oliy nasabli Amirning akasi Nizomiddin Shayx Bahlul va ul janobning maqtoqli xulq-atvorga ega bo'lgan o'g'li Amir Kamoliddin Sulton Husayn hamda ul Hazratning boshqa qarindoshlari va mulozimlariga mehribonlik ko'rsatdilar.

Shuningdek, shu kuni Sohibqiron Sultonning amriga binoan bahodirligi kundan-kunga oshib borayotgan oliy sha'nli Amir Muboriziddin Muhammad Bahodir, amirlikning namunasi bo'lgan janob Xoja Fazliddin Muhammad va saroy amirlarining sarasi hamda millat va dinning uchar yulduzi bo'lgan Xoja Shahobiddin Abdulloh mag'firatga panoh bo'lgan ul hazratning uylariga Hirot shahrining mashoyxlari, sayyidlari, olimlari va fozillarini chorlab, ularni ko'pdan-ko'p taomlar bilan mehmon qilishga bel bog'ladilar. Ushbu ma'rakada qorilar ham ishtirok etib, Qur'oni majidni xatm qilishga kirishdilar.

Biroq saodatli Sohibqironning baland himmati bu ehson dasturxonining oʻzi bilan qanoatlanib qolmadi va [ul zotning] nurli koʻngillariga judayam katta bir maʼraka oʻtkazish fikri keldi. Buyuk amirlar ushbu yigʻin uchun kerak boʻladigan narsalarni (64^a) tayyorlashga kirishdilar. Jumladan, [ular ushbu yigʻin uchun] ikki yuz ellik bosh qoʻy hamda yetmish bosh ot va mol soʻydilar.

Ushbu oyning yigirma uchinchisida, payshanba kuni (milodiy 1501 yilning 14 yanvari kuni) buyuk mashoyixlar, oliy maqomli sayyidlar, olimlar, fozillar, ulugʻlar, aʼyonlar, asilzodalar va jamoalar boshliqlari Sarixiyobon dalasiga taklif etildi. Sohibqiron Sultonning oʻzlari ham tashrif buyurib, ushbu yigʻinni oʻzlarining nurli ishtiroklari bilan munavvar ayladilar.

Behisob taomlar tortilib, kechirimli Zotning kalomidan tilovatlar qilingach, oliy shaʼnli podshohning mulozimlari jannat bogʻidan joy oladigan ul hazratning barcha qarindoshlari, yaqin doʻstlari va mulozimlariga qimmatbaho toʻnlar kiygizib, ularni azadorlik kiyimidan chiqardilar. Shundan soʻng [Sohibqiron Sultonning oʻzlari] ularni oʻz oldilariga chorlab, podshohona iltifotlar va shohona inoyatlarga umidvor qildilar.

Ulugʻlik va buyuklik doirasining markazi boʻlgan ul Hazratning vafotidan qirq kun oʻtgach, oliy nasabli Sohibqiron Sultonning nurli koʻnglidan yana bir osh berish fikri oʻtdi. Amir Kamoliddin Sulton Husayn bilan Xoja Jaloliddin Muhammad ushbu marosim uchun kerakli narsalarni tayyorlashga kirishib, yuz boshga yaqin qoʻy va oʻn sakkiz bosh ot soʻydilar va ul hazratning muborak uylarida tasavvur qilinishi mumkin boʻlgan darajadan ham ortiqroq qilib turli-tuman taomlar tayyorladilar.

Rajab oyining yigirma toʻqqizinchisida, payshanba kuni (milodiy 1501 yilning 18 fevralida) vafodor Sohibqiron

(podshohlilari dunyo turguncha davom etsin) u yerga tashrif buyurib, yana bir marta ulug'lar va asilzodalar bir joyga yig'ildilar. Buyuk amirlar taomlar tortishga kirishib, kalom hofizlari barcha narsalarni aniq-ravshan bayon qilib berguvchi oyatlardan qiroat qilishga tushdilar.

(64^b) Shundan so'ng «Mahdi Ulyo» («Oliy beshik»), «Satri Uzmo» («Ulug' yopinchiq»), «Bilqisi zamona» («O'z zamonining Bilqisi») hamda «Xadijat ul-ahdi va-l-avon» («O'z davronining Xadichasi») (Alloh taolo uning ulug'vorligi va hashamatidan tushadigan soyani qiyomatga qadar abadiy qilsin) mulozimlari musibat egalaridan bir necha kishiga qimmatbaho kiyimlar kiygizdilar.

Qirq yilga yaqin vaqt davomida ul oliy hazrat (Alloh ul zotning qabrini tabarruk qilsin) bilan birga bo'lgan, ul hazrat o'z zamonasining aksariyat bilimlarini uning huzurida o'qib-o'rgangan va ul janobni «muallim» deb ta'riflagan foydali bilimlar panohi, millat va dinning so'zga chechan notig'i olijanob Muhammad an-Nizomiy (Alloh uning fazilatlarini soyasini boshimizda abadiy qilsin) ushbu qayg'uli voqea munosabati bilan quyidagi ruboiyni nazm ipiga teribdilar.

Ruboiy:

Zamona qutbi dunyodan o'tgach, «qutblarning qutbi ketdi» uning [vafoti] sanasi bo'ldi.

Amirlik namunasi bo'lgan, oliyhimmatli kiyimini kiygan va mehr-muhabbat yo'lini tutgan oliy mansab egasi Amir Kamoliddin Sulton Husayn (Alloh uning iqbolini abadiy qilsin) ul Hazratga tug'ishgan o'g'il o'rnida edi. [U kishi ul Hazratning vafoti munosabati bilan quyidagi qit'ani] yozibdi:

Qitʼa:

*Ul magʻfirat panohi boʻlgan zot tuproq olamidani ketgach,
muqaddas bogʻda ahvoli yaxshi boʻldi. Bu yetuklikka hayot
chogʻi qilgan xayrli ishlari tufayli erishganligi sababli ham
uning vafoti sanasi «xayrun kamoluhu» boʻldi.*

Ul Hazratning mulozimlari orasida tabʼining nozikligi bilan ajralib turish sharafiga muyassar boʻlgan soʻzga chechanlik namunasi va soʻz sanʼati sohibi boʻlmish janob Mavlono Fasihiddin Sohibdoro [bu toʻgʻrida] shunday degan:

Qitʼa:

*Afsuski qadr-qimmatini osmon qadar baland boʻlgan
Amirning umr niholi ildizidan qoʻporildi. Uning motamida
koʻzdan qon oqqani sababli, «xunreziyi diyda» (koʻzdan
qon oqishi) uning vafoti sanasi boʻldi.*

Ul Hazrat mansub boʻlgan toifadagi kishilar orasida oʻzining [ul zotga] oʻta yaqinligi bilan ajralib turadigan tabiblar sarasi Mavlono Darveshali [bu borada quyidagi ruboiyni] nazm etibdi:

Ruboiy:

*Haqqa yetishganlar peshvosining motamida shohdan tortib
gadogacha boʻlgan barcha zamondoshlar gʻam-qaygʻuga bot-
dilar. Ul qavm ulugʻi paygʻambarning oldiga hijrat qildi, uning
vafoti sanasi ham «hijrat ba rasul» (paygʻambarning oldiga
hijrat qilish) boʻldi.*

Mir Munshiy laqabi bilan mashhur boʻlgan fozillar peshvosi Sayyid Rahmatulloh ezgulik binolari quruvchisining yashagan yoshi miqdorida oltmish ikki sheʼriy parchada ul Hazratning vafotlari sanasini koʻrsatib bergan. Quyidagi misra shular jumlasidandir:

Misra:

Shohni ko'rdi-yu jon berdi.

Shuningdek, [ushbu] soʻzlarni yozuvchining oʻjiz koʻngliga [ul Hazratning vafotlari sanasi borasida] quyidagi qitʼa keldi:

Qitʼa:

[Bu] hidoyatga panoʻh boʻlgan bir Amir boʻlib, undan rahmat belgilari namoyon boʻldi. [Ul zot] dunyo tikanzoridan rahmat gulzori gullab-yashnab turgan bogʻ tomon yoʻl oldi. Uning ruhiga rahmat nurlari yogʻilgan ekan, vafot etgan yilini ham «rahmat nurlari»dan izlagin.

Shuniyam aytib oʻtish lozimki, zamon fozillari va shoirlari ul oliy Hazratlarining vafot etgan sanalari borasida hamda ul zot[ning vafotlari]ga bagʻishlangan marsiya sifatida koʻplab qitʼalar va qasidalar yozganlar. Biroq bu faqir gap choʻzilib ketishining oldini olish maqsadida, mana shularning oʻzinigina keltirish bilan kifoyalanib, tilni orzumandning orzusiga yetishini soʻrab, duo qilishga ochdi.

Qitʼa:

*Umid qilamanki, azal fazlining fayzi
Omadli shohga omad berguvchi boʻlsa.
Uning davlati boʻyini toʻn bilan bezasa,
Etaging cheti abadiy podshohlik boʻlsa.*

[Hijriy-qamariy] 965-yilning ramazon oyida (milodiy 1558-yilning 17-iyuni bilan 16-iyuli oraligʻida) kaminai kamtarin Muhammad ibn Hamza al-Husayniy (Alloh uni to abad avf etsin) tomonidan koʻchirildi.

XONDAMIRNING HAYOTI VA IJODI

Xondamir mo'tabar va sermahsul tarixchi hamda yaxshigina yozuvchi va shoir bo'lib, o'zining «Habib us-siyar fi axbori afrod al-bashar» («Insonlar qissalaridan eng yaxshi tarjimai hollar»), «Dastur ul-vuzaro» («Vazirlar uchun qo'llanma») va «Makorim ul-axloq» («Olijanob xulqlar») asarlarida aytishicha, Xondamir taxallusi bilan mashhur bo'lgan G'iyosiddin ibn Humomiddindir.

Otasi Xoja Humomiddin ibn Xoja Jaloliddin Muhammad ibn Burhoniddin Hiraviy Badaxshon hokimi Mahmud ibn Sulton Abusaid Temuriyning vaziri bo'lgan.

Onasi o'z zamonasining taniqli tarixchisi va mashhur kitob «Ravzat us-safo fi siyar al-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafo» («Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalar tarjimai hollarining yam-yashil bog'i»)ning muallifi Mirxondning qizi bo'lib, hijriy-qamariy 903-yil zulqa'da oyining ikkinchi kunida (milodiy 1498-yilning 22-iyunida) oltmish olti yoshida Hirotda vafot etgan va Shayx Bahouddin Umar qabrining yoniga dafn etilgan. Xondamir shu sababdan ham o'zini ushbu tarixchining o'g'li o'rnida, uni esa o'zining otasi o'rnida bilardi. Bu esa ba'zilarining Xondamirni Mirxondning to'g'ridan-to'g'ri o'g'li, deb xato xulosa chiqarishlariga olib kelgan. Vaholanki, uning o'zi «Habib us-siyar»da «Ravzat us-safo» muallifi bo'lgan Mirxondning otasi Sayyid Burhoniddin Xovandshohning tarjimai holiga to'xtalib, o'zining bu shaxsga qanday qarindosh ekanligini tushuntiradi. Jumladan u shunday deb yozadi:

«Sayyid Burhoniddin Xovandshohdan uchta o'g'il

qolgan. Ulardan biri «Ravzat us-safo»ning muallifi Amir Xond Muhammad boʻlib, ushbu satrlarni qogʻozga tushiruvchi kishi onasining padari buzrukvori boʻladi. Sayyid Burhoniddin Xovandshohning ikkinchi oʻgʻli Sayyid Nizomiddin Sulton Ahmad boʻlib, Sulton Badiuzzamon xizmatida sadrlik lavozimini egallagan edi. Uchinchisi Sayyid Neʼmatulloh tugʻma nogiron boʻlib, xotirasi yoʻqolib qolish kasalligi bor edi».

Xondamir Mirxondning tarjimai holi toʻgʻrisida shunday deydi:

«Ushbu soʻzlarni yozuvchi oʻzini ul hazratga nisbatan farzanddek tutadi va surbetlik tili bilan oʻzini ul zotning shogirdlari qatorida koʻradi.

*Zarrani quyosh bilan qiyoslab boʻlarmi,
Gavhar shodasidan dona tusharmi.
Agar obroʻyim boʻlishini istasam,
Men uning shogirdiman, deb aytaman.
Shogirdmasman, notavon bir gʻulomman,
Uning xirmoni atrofidan boshoq terguvchiman.*

Maxdum otamiz hayotlarining oxirgi davrlarida uzlat va goʻshanishinlikka mayl bildirdilar».

Xondamir taxminan hijriy-qamariy 880(milodiy 1475/ 1476)-yili Hirotda tavallud topadi. Bolaligidan ona tomondan bobosi Mirxond tarbiyasida boʻladi. Bolalik va oʻsmirlik chogʻlarini oʻsha davrda keng tarqalgan bilimlar: tafsir, adabiyot, til va tarixni oʻqib-oʻrganish bilan oʻtkazadi.

Xondamir Sulton Husayn Boyqaroning saroyiga, jumladan uning vaziri Amir Alisher Navoiyning huzuriga yoʻl topadi va ushbu ilmparvar vazirning homiyligi va ragʻbatlantirishi bilan oʻzining «Maosir ul-muluk» («Podshohlarning ulugʻ ishlari») kitobini yozadi. Amir

Alisher bu yosh yigitdagi yaxshigina isteʼdodni koʻrib, oʻsha zamonda Xurosondagi eng boy kitob xazinalaridan boʻlgan oʻzining katta kutubxonasini Xondamirning ixtiyoriga topshiradi. Uning oʻzi boshqa bir asari «Xulosat ul-axbor fi bayon al-ahvol al-axyor» («Yaxshi kishilarning hayotlari toʻgʻrisida qisqacha maʼlumotlar») muqaddimasida shunday deb yozadi:

«Hayotimning tongi boʻlgan yoshlik davrimning boshlaridan ulugʻ kishilarning hayotlari tarixini oʻrganish va tadqiq etishga qattiq qiziqib, esimni tanigan chogʻlarimdan boshlab aziz umrimni kitoblar oʻqishga sarfladim va har doim ajdodlar hayot yoʻllari sahifalariga hamda avlodlarning ular toʻgʻrisidagi qiziqarli rivoyatlariga koʻz tashlab keldim.

Olam toʻgʻrisidagi bilimlardan xabardor boʻlib, ummatlarning hayotlari va qilgan ishlari toʻgʻrisida bir ozgina maʼlumotga ega boʻlgach, shuningdek, Hazrati Amir Alisherning adolat va inoyat nurlari ushbu notavonning yuziga tushib, bu holat kun sayin kuchayib, lahza sayin takomillashgach, hijratning 904-yili (milodiy 1498/1499-yilda) donishmand vazir va fozil sadr Nizomiddin Alisher oʻz kitoblari xazinasini mening ixtiyoriga topshirib, meni ushbu nafis kutubxonadan foydalanish sharafiga muyassar qildilar. [Ul Hazrat] oʻzlarining kutubxonalarida boʻlgan tarix va rivoyatlarga bagʻishlangan har qanday kitobni mendek bir notavonga taqdim etib, meni ushbu asarlarni oʻqib-oʻrganishga ragʻbatlantirdilar».

Xondamir Navoiy vafot etgan hijriy-qamariy 906 (milodiy 1501) yilgacha uning xizmatida boʻlib, buyuk shoir jon berayotgan chogʻda ham uning yonida edi. U oʻsha yili oʻz xojasining xulq-atvori toʻgʻrisidagi «Makorim ul-axloq» kitobini yozdi.

Ushbu sanadan soʻng u bilan yaqin aloqada va unga

nisbatan yaxshi munosabatda bo'lgan Sulton Husayn Boyqaroning katta o'g'li shahzoda Badiuzzamon Mirzoning xizmatiga kirib, uning vaziri sifatida faoliyat ko'rsatdi. Xondamir shahzoda umrining oxirigacha uning barcha safarlari va yurishlarida hamrohlik qildi.

Badiuzzamon Mirzo ham o'zining donishmand vazirini hurmat qilar, hatto o'z sirdoshi kabi munosabatda bo'lardi. Jumladan, bu shahzoda o'zining janglari, yurishlari, ba'zida esa mag'lubiyatlari to'g'risida unga so'zlab berar, bu borada kamdan-kam narsalarnigina undan sir tutardi.

Badiuzzamon Mirzo eng qiyin topshiriqlarni unga topshirardi. U Xondamirga o'zining eng birinchi topshirig'ini hijriy-qamariy 909(milodiy 1503/1504)-yilda Muhammad Shayboniyxon qo'shinlari Xuroson yerlariga hujum qilgan bir paytda beradi.

Badiuzzamon Mirzo shayboniylar xavf solib turgan vaziyatda otasidan yordam so'raydi. Biroq o'rtalariga tushgan sovuqchilik tufayli otasi uning bu so'roviga e'tiborsiz qaragach, shahzodaning o'zi himoya choralari izlashga kirishadi. Muhammad Shayboniyxonning hujumiga qarshi turish uchun Qunduzdan yordam olish maqsadida Xondamirni elchilar hay'ati bilan birgalikda Qunduz hokimi Amir Xusravshoh saroyiga jo'natadi. Ammo Amir Xusravshohning o'zi Muhammad Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sulton qo'shinlari hujumiga duch kelganligi sababli Badiuzzamon Mirzoga yordam berolmasdi. Shu sababli Xondamir va elchilar hay'ati biror natijaga erisholmasdan orqasiga qaytadi.

Hijriy-qamariy 911-yil zulhijja oyining o'n birinchisida, dushanba kuni (milodiy 1506-yilning 4-mayida) Husayn Boyqaro vafot etadi. Uning vasiyatiga ko'ra, unga tobe bo'lgan yerlar Badiuzzamon va Muzaffar Husayn o'rtasida bo'lib olinadi. Ularning har ikkalasi o'zlariga vazir tayinlashga kirishadi. Badiuzzamon yana Xondamirni o'ziga vazir qilib oladi.

Sulton Husayn Mirzo vafotidan soʻng vujudga kelgan qulay vaziyatda Muhammad Shayboniyxon asosiy diqqat-eʼtiborini Xurosonga qaratadi. Badiuzzamon hijriy-qamariy 912(milodiy 1506/1507)-yili Xondamirni yordam soʻrash uchun Qandahor hokimi Amir Shujoʻbek huzuriga joʻnatadi. Biroq Xondamir Hirotga yetib kelgan chogʻida Badiuzzamonning qizi Chuchukbegim vafot etganligi tufayli Qandahorga bora olmaydi.

Nihoyat, Muhammad Shayboniyxon hijriy-qamariy 913 (milodiy 1507/1508) yilda Hirotga hujum qiladi. Xurosonning temuriy shahzodalari ushbu hujumga dosh berolmaydi. Natijada Hirot Shayboniyxonning tasarrufiga oʻtadi.

Xondamir hijriy-qamariy 916(milodiy 1510/1511)-yilga qadar Hirotga qolib, oʻsha notinch va algʻov-dalgʻov davrning voqealarini tarix sahifalariga muhrlab bordi. U, hatto, oʻzining «Habib us-siyar» asarida ushbu davr voqealarini batafsil yozib borgan.

Hijriy-qamariy 916(milodiy 1510/1511)-yilda Eron hukmdori Shoh Ismoil Safaviy Xurosonga lashkar tortadi. Shundan soʻng Xondamir temuriy shahzoda Badiuzzamon Mirzoning oʻgʻli Muhammad Zamon Mirzo bilan birgalikda Gʻarchistonda yashaydi. Hijriy-qamariy 921(milodiy 1515/1516)-yil ular Balxga borib, shohning xos maslahatchisi sifatida faoliyat koʻrsatadi.

Xondamir ushbu safarlar, muhojirlik va jangu jadallar davomida barcha oʻrinlarda «maxdumzoda» (“xojamning oʻgʻli”) deb eslatgan ushbu temuriy shahzoda – Muhammad Zamon Mirzo bilan birga boʻladi. Biroq hijriy-qamariy 923(milodiy 1517/1518)-yilda Muhammad Zamon Mirzo Qandahorga ketadi va Xondamir maxdumzodasining ijozati bilan Gʻarchistonda yashab qoladi.

Oradan bir qancha vaqt oʻtgach, Xondamir Hirotga qaytib, tarixni oʻrganish va tadqiq qilish bilan shugʻullanadi.

Hijriy-qamariy 927(milodiy 1520/1521)-yilda Hirot hokimi Amir G'iyosiddin Muhammad al-Husayniy al-Gozi uni tarixiy asar yozishga undaydi.

Xondamir uning ko'rsatmasi bilan «Habib us-siyar»ning birinchi jildini yozadi. Biroq o'sha yili uni mazkur kitobni yozishga undagan va ilhomlantirgan Amir G'iyosiddin Hirotida Xuroson hukmdori Amir Sultonning buyrug'iga binoan qatl etiladi. Bu davrdagi notinch vaziyat uni tadqiqot va ijodini davom ettirishiga yo'l qo'ymaydi.

Hirotidagi qaltis vaziyat Karimiddin Habibulloh Sovajiy hokimligi zamonida barqarorlashadi. Ushbu hokim Xondamirga nisbatan katta hurmat va qiziqish bildirib, unga iltifot ko'rsatadi hamda umidsizlik va ko'ngli sovuganlikdan kitob yozishni to'xtatib qo'ygan ushbu tarixchini boshlab qo'ygan ishini davom ettirishga undaydi. Xondamir hijriy-qamariy 930(milodiy 1523/1524)-yilda o'z kitobini ushbu shaxsga bag'ishlab yozib tugallaydi.

Shundan so'ng hijriy-qamariy 932-yil shavvol oyining o'rtalarida (milodiy 1526-yil iyul oyining oxirlarida) Hirotidan Qandahorga yo'l oladi. Xondamir ushbu shaharda «Habib us-siyar» asarini qaytadan ko'rib chiqishga kirishadi. Lekin hali bu asarning bir qismini ham ko'rib chiqishga ulgurmasdan, hijriy-qamariy 934-yil jumodi us-soniy oyining o'ninchi kunida (milodiy 1528-yilning 2-martida) Hindiston tomon yo'l oladi. Ammo yo'ldagi vaziyatning yomonligi bois ushbu safar yetti oyga cho'zilib, nihoyat hijriy-qamariy 935-yil muharram oyining to'rtinchi kuni (milodiy 1528-yilning 18-sentabrida) Agra shahriga yetib boradi.

Hijriy-qamariy 935-yil rabi' ul-avval oyining sakkizinchi kuni (milodiy 1528-yilning 20-noyabr kuni) Bobur bir oz muddat davom etgan kasallikdan shifo topganidan keyin

«Hasht behisht» bogʻida boʻlgan bir toʻyda ishtirok etadi. U yerda Xondamir Hindiston podshohi Zahiriddin Muhammad Bobur bilan uchrashadi.

Xondamir oʻsha yili Boburning Bengaliya va Gang daryosi sohillari boʻylab qilgan yurishida unga hamrohlik qiladi. Hijriy-qamariy 937(milodiy 1530)-yilda Bobur vafot etganidan soʻng uning oʻgʻli Humoyun saroyida xizmat qila boshlaydi. Bu davrda Xondamir unga bagʻishlangan «Qonuni Humoyuniy» («Humoyun qonuni») asarini yozadi va «Amir ul-muarrixin» («Tarixchilar amiri») degan sharafli nom qozonadi.

Xondamirni «Tarixi farishta» asarining muallifi hijriy-qamariy 941(milodiy 1534/1535)-yilda vafot etganligini qayd etgan. Vaholanki, Xondamir hijriy-qamariy 942(milodiy 1535/1536)-yilni Mavlono Shahobiddin Muammoiyning vafoti tarixi qilib belgilagan va oʻzi ham shu yili olamdan oʻtgan. Bundan tashqari, «Shohidi sodiq» («Toʻgʻri dalil») tazkirasining muallifi ham uning vafoti sanasini hijriy-qamariy 942(milodiy 1535/1536)-yil deb koʻrsatgan.

Xondamirning vasiyatiga koʻra, uni Dehlidagi Nizomiddin Avliyo va Amir Xusrav Dehlaviylarning qabrlari yoniga dafn etishgan. Buyuk muarrix oltmish ikki yilga yaqin umr koʻrgan edi.

Xondamirdan ikki oʻgʻil qolgan. Britaniya muzeyida saqlanayotgan qoʻlyozmalar katalogi muallifi Charlz Re «Xulosat ul-axbor» asari toʻgʻrisida maʼlumot berarkan, Xondamirning oʻgʻli Saʼid Abdullohxonning qisqacha tarjimai holi bayonida shunday yozadi:

«Xondamirning oʻgʻli Akbarning zamondoshi boʻlib, uning saroyida xizmat qilgan. Akbar unga «Xoniy» taxallusini bergan. U Sayyid Abdullohxon nomi bilan

mashhur bo'lgan va hijriy-qamariy 996(milodiy 1557/1588)-yili Kashmir viloyatida vafot etgan».

Marhum Said Nafisiy «Dastur ul-vuzaro» so'zboshisida Xondamirning ikkinchi o'g'li to'g'risida quyidagilarni qayd etgan:

«Xondamirning Mir Mahmud degan o'g'li bo'lib, yo otasining vafotidan so'ng Hindistondan Hirotda qaytib kelgan, yoki umuman otasi bilan Hindistonga bormagan. Nima bo'lgan taqdirda ham Hirotda yashagan. Xondamirning bu o'g'li to'g'risidagi bor-yo'q ma'lumot shundan iboratki, u Eron hukmdorlari Shoh Ismoil va Shoh Tahmosblarning hayoti va faoliyati tarixi to'g'risidagi kitobning muallifi bo'lib, ushbu asarni yozishni hijriy-qamariy 950(milodiy 1543/1544)-yilda Eronda hukmron bo'lgan safaviylar saroyi amirlaridan Muhammadxon Sharafiddin o'g'li Takluga bag'ishlab boshlagan va hijriy-qamariy 957(milodiy 1550/1551)-yilda yozib tugatgan. Bu kitobdan ma'lum bo'lishicha, u otasining vafotidan o'n besh yil keyin ham hayot bo'lgan».

XONDAMIRNING YOZGAN ASARLARI

Xondamir oʻzining «Habib us-siyar» asariga yozgan muqaddimasida oʻzining yozgan asarlari toʻgʻrisida ham eslatib oʻtgan. Quyida uning «Makorim ul-axloq»dan boshqa asarlari toʻgʻrisida maʼlumotlar keltiramiz.

1. «**Maosir ul-muluk**» («Podshohlarning ulugʻ ishlari»).

Podshohlar va donishmandlarning ulugʻ ishlari toʻgʻrisida hikoya qiluvchi bu kitob Mir Alisher Navoiyning ragʻbatlantirishlari bilan hijriy-qamariy 904(milodiy 1498/1499)-yildan oldin yozilgan boʻlib, muallifning ilk asaridir. Uning oʻzi bu asar muqaddimasida ushbu kitobni yozayotgan chogʻida ona tomondan bobosi boʻlgan «Ravzatus-safo»ning muallifi, hijriy-qamariy 903(milodiy 1497/1498)-yilda vafot etgan Mirxond hali hayot boʻlganligini eslatib oʻtgan.

Ushbu kitob quyidagi uch bobdan iborat:

Birinchi bob: Kayumarsdan Anushervongacha boʻlgan qadimgi ajam shohlarining qilgan ulugʻ ishlari.

Ikkinchi bob: Odam alayhissalomdan tortib Buzurgmehrgacha boʻlgan hakimlar va donishmandlarning qilgan buyuk ishlari.

Uchinchi bob: Hazrati Rasul va pokiza imomlarning qilgan katta xizmatlari.

Ushbu boblardan keyin ummaviylar va abbosiylar sulolalari xalifalari, tohiriylar sulolasi hokimlari, somoniylar sulolasi amirlari, gʻaznaviylar sulolasi sultonlari va kurtlar sulolasi hokimlarining qilgan ulugʻ ishlari toʻgʻrisidagi boʻlimlar keltiriladi. Bu asarning

soʻnggi boʻlimi turk xoqonlarining qilgan ulugʻ ishlari bayoniga bagʻishlangan.

Bu kitobning yagona nusxasi Britaniya muzeyida 29-raqam bilan saqlanayotgan boʻlib, Britaniya muzeyida saqlanayotgan qoʻlyozmalar katalogi muallifi Charlz Re ushbu roʻyxatning uchinchi jildi 18-betida bu asar toʻgʻrisida eslatib oʻtgan.

Ushbu asar 1993-yilda Mirhoshim Muhaddis tomonidan Tehronda nashr etildi.

2. **«Xulosat ul-axbor fi bayon al-ahvol al-axyor»** («Yaxshi kishilarning hayotlari toʻgʻrisida qisqacha maʼlumotlar»).

Hijriy-qamariy 905(milodiy 1499)-yilda yozilgan umumiy tarix kitobi boʻlib, bir muqaddima va paygʻambarlar, podshohlar, ilm-fan, adabiyot va siyosat arboblarning hayotlari va faoliyatlari toʻgʻrisidagi oʻn maqolani oʻz ichiga oladi.

Muallif kitob muqaddimasida shunday deb yozadi:

«Amir Alisher Navoiy hijriy-qamariy 904-yilda (milodiy 1498/1499-yilda) oʻz kutubxonasini mening ixtiyoringa topshirdi. Olti oylik oʻqib-oʻrganish va izlanishlardan soʻng ushbu kitobni (yozib) ul Hazratga taqdim etdim».

Bu asarning qoʻlyozma nusxalari Kalkutta, Kobul, Toshkent va Istambulda saqlanadi.

Bu kitobning bir bobi Sarvar Goʻyo Eʼtimodiy tomonidan nashrga tayyorlanib, Kobulda chop etilgan.

Ushbu kitob fransuz va ingliz tillariga tarjima qilinib, nashr etilgan.

3. **«Dastur ul-vuzaro»** («Vazirlar uchun qoʻllanma»).

Islom davrining boshlanishidan to hijriy-qamariy 915(milodiy 1509/1510)-yilgacha boʻlgan davrda yashab, faoliyat koʻrsatgan mashhur vazirlarning hayotlari

toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni oʻz ichiga oluvchi bu asar hijriy-qamariy 906(milodiy 1500/1501)-yilda Sulton Husayn Mirzo Boyqaro va Kamoliddin Mahmudga bagʻishlab yozilgan. Muallif ushbu asarni hijriy-qamariy 914(milodiy 1508/1509)-yilda qaytadan koʻrib chiqib, takomillashtirgan.

Bu kitobning bir necha qoʻlyozma nusxasi Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi kutubxonalarda saqlanmoqda.

Ushbu asar 1938-yili Saʼid Nafisiy tomonidan Tehrona nashr etilgan.

4. «**Nomai nomiyy**» («Atoqli kitob»). Yozuvchilik sanʼati va uning turli yoʻnalishlari toʻgʻrisida hikoya qiluvchi bu asar katta tarixiy ahamiyatga ham ega boʻlib, «Devoni hind» kutubxonasida saqlanayotgan qoʻlyozma asarlar roʻyxatidan joy olgan.

Xondamir ushbu asarini yozishni hijriy-qamariy 926(milodiy 1519/1520)-yilda boshlab, hijriy-qamariy 929(milodiy 1522/1523)-yilda tugatgan.

Ushbu kitobning turli qoʻlyozma nusxalari Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi respublikalaridagi kutubxonalarda ham mavjud.

5. «**Habib us-siyar fi axbori afrod al-bashar**» («Insonlar qissalaridan eng yaxshi tarjimai hollar»).

Umumiy tarixga bagʻishlangan faktlarga boy oʻta muhim asar boʻlib, Xondamir hijriy-qamariy 927(milodiy 1520/1521)-yilda uni yozishga kirishgan. Toʻrt jilddan iborat boʻlgan bu asar uch yilu sakkiz oydan soʻng hijriy-qamariy 930-yilning rabiʼ ul-avval (milodiy 1524-yilning yanvar) oyida hokimlardan biri Karimiddin Habibulloh Sovajiy va Xurosonning hukmron vaziri Durmishxonga bagʻishlangan holda yozib tugallangan.

Katta hajmdagi maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan «Habib us-siyar» fors tilida yozilgan tarix kitoblari orasida durdona

asar hisoblanadi. Ayniqsa, ushbu asardagi aksariyat bo‘limlarning oxirida keltiriladigan ilm-fan, adabiyot, san’at va tasavvuf arboblarning hayot va faoliyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar alohida ahamiyatga ega.

Undan so‘ng «Olamoro» va «Ahsan ut-tavorix» asarlarining mualliflari va boshqa bir qator tarixchilar ham Xondamirning tarixnavislikdagi ushbu uslubiga ergashganlar.

Xondamir sodda va ravon yozishda ona tomondan bobosi bo‘lgan «Ravzat us-safo» muallifi Mirxondning uslubiga xos ijod qilgan.

«Habib us-siyar» Odam alayhissalomdan islomgacha bo‘lgan davr to‘g‘risidagi tarixiy rivoyatlarning qisqacha xulosasi hamda islom paydo bo‘lishidan hijriy-qamariy 930(milodiy 1523/1524)-yilgacha bo‘lgan vaqt hamda o‘zi yashagan davr tarixi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan.

Shu o‘rinda alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, tarixning hijriy-qamariy 873(milodiy 1468/1569)-yilgacha bo‘lgan davri voqealari to‘g‘risidagi ma’lumotlar Xondamirning bobosi Mirxondning «Ravzat us-safo» asarida keltirilgan bo‘lib, undan keyin o‘tgan ellik yetti yil davomida yuz bergan muhim voqealar to‘g‘risidagi ma’lumotlar Xondamir tomonidan «Habib us-siyar»da keltirilgan. Jaloliddin Humoiy tomonidan «Habib us-siyar»ning Tehron nashriga yozilgan so‘zboshida aytilishicha, «Habib us-siyar»ning boshqa tarix kitoblaridan farqli jihati ham ana shudir.

6. «Ravzat us-safo fi siyar al-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafo» («Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalar tarjimai hollarining yam-yashil bog‘i») asarining yettinchi jildi.

Ayrim tadqiqotchilar, jumladan, Hidoyat Husayn («Qonuni Humoyuniy»ning Hindiston nashri so‘zboshi-

sida) «Ravzat us-safo»ning yettinchi jildini ham Xondamir yozgan asarlar sirasiga kiritgan. Biroq Xondamirning qalamiga mansub ekanligiga shubha boʻlmagan mazkur yettinchi jild aslida «Habib us-siyar» asari toʻrtinchi jildining bir qismi boʻlib, unda Husayn Boyqaro va uning avlodlari haqida maʼlumotlar keltirilgan. Biz ushbu qismni «Habib us-siyar» asari Tehron nashrining toʻrtinchi jildining 110-betidan keyin topishimiz mumkin¹.

7. «**Qonuni Humoyuniy**» («Humoyun qonuni»).

Xondamir bu kitobni Hindistonga koʻchib borganidan keyin hijriy-qamariy 937(milodiy 1530/1531)-yili Boburning oʻgʻli, Hindistonning temuriylar sulolasidan boʻlgan shohi Humoyunga bagʻishlab yozgan. Ushbu kitob shohlik davlatini idora qilish qonunlari hamda Humoyunning davlatni boshqarish ishlariga kiritgan yangiliklari toʻgʻrisida boʻlib, Xondamir yozgan asarlar orasida eng oxirgisidir.

Bu kitobning yagona qoʻlyozma nusxasi Britaniya muzeyida saqlanadi.

«Qonuni Humoyuniy» 1940-yili Hidoyat Husayn tomonidan mazkur qoʻlyozma nusxa asosida inglizcha soʻzboshi bilan Hindistonda, 1993-yili esa Mirhoshim Muhaddis tomonidan Tehronda nashr etildi.

Bulardan tashqari, Xondamir yana bir necha asar yozgan boʻlib, ularning qoʻlyozmalari haligacha topilmagan. Quyida uning ana shu asarlarini sanab oʻtamiz:

1. «**Axbor ul-axyor**» («Xayrli ishlar qiluvchilar toʻgʻrisida qissalar»). Xondamir oʻzining «Habib us-siyar» asariga yozgan muqaddimasida yozishicha, bu asar oriflarning tarjimai hollari va hayot yoʻllari toʻgʻrisida yozilgan.

¹ Habib us-siyar. 4-jild. Uchinchi qism. Tehron. 1954. 110-b.

2. «**Muntaxabi tarixi Vassof**» («Vassofning tarix kitobidan saylanma»). Xondamir «Habib us-siyar» asariga yozgan muqaddimasida bu kitobni ham o'zining yozgan asarlari jumlasiga kiritgan.

3. «**G'aroyib ul-asror**» («G'aroyib sirlar»).

4. «**Javohir ul-axbor**» («Eng muhim ma'lumotlar»).

Bu ikki asar U. Eliotning «Hindiston tarixi to'g'risida yozilgan qo'lyozma asarlar ro'yxati»da Xondamirning qalamiga mansub bo'lgan asarlar sifatida keltirib o'tilgan.

Xondamirning she'riyatda ham qalam tebratib, bu borada o'zini sinab ko'rganligi ma'lum. Biroq uning asosiy ishi tarixnavislik bo'lib, she'r yozish uning ikkinchi mashg'uloti hisoblangan. Mazkur o'rinda «Habib us-siyar»dan foydalangan holda, turli munosabatlar bilan yozgan she'rlaridan bir necha parchani keltiramiz:

«Ushbu so'zlarni yozuvchining ko'ngliga ushbu og'ir musibat sanasi borasida quyidagi qit'a keldi:

[Bu] hidoyatga panoh bo'lgan bir Amir bo'lib, undan rahmat belgilari namoyon bo'ldi. [Ul zot] dunyo tikanzoridan rahmat gulzori gullab-yashnab turgan bog' tomon yo'l oldi. Uning ruhiga rahmat nurlari yog'ilgan ekan, vafot etgan yilini ham «rahmat nurlari»dan izlagin».

Shuningdek, Xondamir Muhammad Shayboniyxon qo'shinlarining hijriy-qamariy 909(milodiy 1503/1504)-yilda Balx va uning atrofidagi yerlarga hujumining sanasi hamda ushbu hujum oqibatida yuz bergan vayronagarchiliklar va xalqning boshiga tushgan qiyinchiliklar borasida quyidagi qit'ani yozgan:

Muhammadxon [Shayboniy] Amudaryodan o'tgach, Balx xalqining aysh sharobi achchiq bo'ldi. Butun shahar urush natijasida vayron bo'ldi. Shu sababdan ham [bu voqealarning] yuz bergan sanasi «vayroniyi Balx» («Balxning vayron bo'lishi») bo'ldi.

Oʻz davrining halol qozilaridan boʻlgan Qozi Nizomiddin Muhammad Farohiy hijriy-qamariy 900-yilning muharram (milodiy 1494-yilning oktyabr) oyida vafot etadi. Xondamir uning vafoti sanasi toʻgʻrisida quyidagi ruboiyni yozgan:

*Shariat u tufayli tartibga solingan oʻsha kishining umr
daftari taqdirning hukmi bilan oʻqib boʻlindi. Nizom nomi
koʻngil sahifasidan oʻchgach, «foniy kay shud» («qachon
bu dunyodan oʻtdi», yaʼni qachon bu dunyodan oʻtganligi)
toʻgʻrisida izoh berildi.*

«MAKORIM UL-AXLOQ» ASARI TO‘G‘RISIDA

«Makorim ul-axloq» asarining qo‘lyozma nusxasi

«Makorim ul-axloq» asarining yagona qo‘lyozma nusxasi Sulton Muhammad Faxriy Hiraviyning «Latoyifnoma» asari qo‘lyozmasi bilan bir jildda joylashgan bo‘lib, Britaniya muzeyida Add.7669 raqami ostida saqlanmoqda. Qo‘lyozmaning o‘lchami bo‘yiga 24 sm. va eniga 13,38 sm. bo‘lib, uning har sahifasida 7,65 sm. uzunlikdagi 14 satrdan iborat matn yozilgan. Bir jildda joylashgan ushbu ikki asarning umumiy hajmi 185 varaqdan iborat bo‘lib, uning 1-varag‘idan 120-varag‘igacha «Latoyifnoma», 121-varag‘idan 185-varag‘igacha esa «Makorim ul-axloq» asari joylashgan¹. Har ikkala qo‘lyozma hijriy-qamariy 965-yilning ramazon oyida (milodiy 1558-yilning 17 iyuni bilan 16-iyuli oralig‘ida). Muhammad ibn Hamza al-Husayniy nomli xattot tomonidan nasta‘liq yozuvida aniq va chiroyli bir tarzda ko‘chirilgan.

«Makorim ul-axloq» asarining yozilish sabablari

«Makorim ul-axloq» asari Xondamirning o‘z xojasi Amir Alisher Navoiyning hayoti to‘g‘risidadir. «Makorim ul-axloq» muqaddimasida quyidagilarni o‘qiyimiz:

«... oliy hazrat Nizom ul-haq va-l-haqiqat va-d-dunyo va-d-din Amir Alisher ... ning inoyat nuri va mehr-muhabbat quyoshi faqir banda va kichik zarra bo‘lmish

¹ Britaniya muzeyi kutubxonasidagi forsiy qo‘lyozmalar katalogi, 1-jild. London. 1879. 365–367 b.

Xondamir taxallusi bilan mashhur boʻlgan kamina Gʻiyosiddin ibn Humomiddin ... boshida toblandi. [Bu faqir bandaning] mavjudlik niholi bolalik chogʻlaridan yigitlik davrining oxirlariga qadar ul hazratning lutf va ehson arigʻi yoqasida unib-oʻsdi. «Neʼmat berguvchiga shukr qilmoq vojibdir», degan naqldan kelib chiqqan holda, uning bergan cheksiz neʼmatlaridan ayrimlarining shukrini ado qilishning uddasidan chiqish uchun qanday xizmatga bel bogʻlasam ekan, degan fikr hamisha koʻngildan oʻtar va xayolda charx urardi. Axiyri aql murshidi ruh qulogʻiga aytdiki, ezgu ishlarni qiluvchi bu Amirning katta ishlari va qahramonliklari, shuhrati, xizmatlari va sharafli ishlari ovozasini butun dunyoga tarqalgan, barcha yurtlar va goʻshalargacha borib yetgan, turli xalqlar orasida tildan tilga koʻchib, ogʻizdan ogʻizga oʻtib aylanib yurgan ... boʻlsa-da, biroq bu omadli va saodatli Amirning fazilatlarini, yaxshi xulqlari va chiroyli odoblaridan birozginasini oʻz ichiga oladigan bir necha bob yozilsa va unda uning ajoyib siyratlari, maqtovgacha sazovor xulq-atvorlari, boshqalarda kam uchraydigan holatlari va kayfiyatlari, qiziq va gʻaroyib ishlari, sehrli isteʼdodi xususiyatlari va nozik iboralarni qogʻozga tushiradigan qalami hosilalari sharhlansa, [qilingan] yaxshiliklarni bilish, qadrlash va uning haqqini ado etish kabi vojib amalning bir daqiqasini boʻlsa-da, bajara olgan hamda toʻgʻri yoʻl koʻrsatuvchi oliy hazrat tomonidan berilgan neʼmatlarga shukr qilishning ozgina boʻlsa-da, uddasidan chiqa olgan boʻlarding. Shundan kelib chiqqan holda, sanʼat ulugʻligi osmoni quyoshiga sano oʻqishdan boshqa hunarim boʻlmagan men banda ... koʻnglimdagilarni yozishga kirishdim va yozganlarimni muqaddima, oʻn maqsad va xotima shaklida tartib berib, uni «Makorim ul-axloq» deb atadim».

Xondamir shundan soʻng davom etib yozgan qaydlariga

qaraganda, hali bu ishini oxiriga yetkazib ulgurmasidan xojasi olamdan o'tganligi, ammo «kishini og'ir ahvolga solib qo'yadigan bu voqea qayg'usi ... hayrat vodiysida sargardon bo'lgan» uning «ko'rar ko'zlarini xira» qilganligiga qaramasdan, «o'zidan barakatlar sochguvchi ul zotning qanday kasal bo'lganliklari va qay holatda vafot etganliklarini bayon lavhiga bitish»ga qaror qilgan.

Demak, muqaddimadan ma'lum bo'ladiki, ushbu asar Alisher Navoiyning vafotidan oldin yozila boshlangan. Navoiy olamdan o'tganidan so'ng bu asarni yanada takomillashtirgan. Ilm-fan, madaniyat va adabiyotning yirik namoyandasi hamda mashhur davlat arbobi bo'lgan ushbu buyuk donishmand shaxsning so'nggi kunlari, dafn marosimi, zamona shoirlarining uning vafotiga atab yozgan marsiyalari va boshqa ma'lumotlar «Makorim ul-axloq»ning oxirida keltirilgan.

Xondamirning mazkur asari Amir Alisher Navoiyning buyuk shaxsiyati, oliy insoniy fazilatlarini, yozgan asarlari, el-yurtga qilgan muhim xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlari bilan mo'tabar manba hisoblanadi.

«Makorim ul-axloq» asarining qo'lyozma nusxasining ilk tadqiqotchilaridan biri hind olimi Sayyid Muhammad Abdullohdir. U Alisher Navoiyning hayoti va ijodi to'g'risida maqola yozib, Haydarobodda chiqadigan «Oriental Collage Magazine» jurnalining 36-sonida chop ettiradi.

Bu maqola afg'on olimi Go'yo E'timodiy tomonidan tarjima qilinib, «Majallai Kobul» («Kobul jurnali») ning hijriy-shamsiy 1331(milodiy 1952)-yil 11-sonida nashr etiladi. Muhammad Ya'qub Vohidiy Juzjoniy sa'y-harakatlari bilan Tarix jamiyati tomonidan 1967-yili Nizomiddin Amir Alisher Navoiy tavalludining 525-yilligi munosabati bilan ushbu tarjima qaytadan chop ettiriladi.

Sayyid Muhammad Abdulloh ushbu maqolada

«Makorim ul-axloq» asari qoʻlyozma nusxasining bir necha jihati umumiy tarzda toʻxtalib oʻtgan. Jumladan, u Alisher Navoiy tomonidan qurilgan yoki taʼmirlangan koʻpriklar, rabotlar, hovuzlar, hammomlar va masjidlarning sonini keltirish bilan cheklanib, maqola oxirida uning vafoti toʻgʻrisida ham qisqacha maʼlumot bergan.

«Makorim ul-axloq»ning oʻzbek tiliga qilingan tarjimalari ham mavjud. Bu asar oʻzbek navoiyshunoslari M.Faxriddinov va P.Shamsievlar tomonidan qisqartirilgan holda oʻzbek tiliga tarjima qilinib, Toshkentda 1941-yilda ilk bora nashr etiladi. «Makorim ul-axloq»ning ushbu oʻzbekcha tarjimasini keyinchalik 1948 va 1967-yillarda ikki marta qayta nashr etiladi. Uning qayta ishlangan va toʻldirilgan uchinchi nashri nisbatan mukammalroq nashr hisoblanadi.

ILOVALAR

ASARDA NOMLARI KELTIRILGAN SHAXSLAR

Sulton Husayn Mirzo Boyqaro. Sulton Abulgʻoziy Husayn ibn Mansur bin Boyqaro temuriy shahzodalardan boʻlib, dastlab Mirzo Ulugʻbek himoyasi ostida boʻlgan. Mirzo Ulugʻbek va uning oʻgʻli Abdullatif qatl etilganlaridan soʻng Sulton Abusaʼid uni hibsga oladi. Sulton Husayn qamoqdan qochib, Abulqosim Boburga qoʻshiladi. 1458-yili Astrobodni egallab, u yerdagi hokimiyatni oʻz qoʻliga oladi. Sulton Abusaʼid vafotidan soʻng Hirotni egallaydi va 1468-yili podshohlik taxtiga oʻtiradi.

Sulton Husayn Boyqaro ilm-fan va madaniyatning rivojini qoʻllab-quvvatlagan shohlardan boʻlib, uning hukmronlik davri adabiyot rivojida muhim oʻrin tutadi. Uning Hirotdagi saroyi oʻz davrining ilm va adabiyot markaziga aylangan boʻlib, koʻplab yozuvchi va shoirlarni oʻz atrofiga toʻplagan edi. Uning ilmparvar vaziri Amir Alisher Navoiy oʻz davrining ilm va adabiyot ahlini qoʻllab-quvvatlar va ragʻbatlantirardi.

Sulton Husaynning oʻzi ham ilm va adabiyotga katta qiziqish bilan qarar, turkiy tilda bitgan sheʼrlaridan devon ham tuzgan edi. Uning ushbu turkiy devoni shu choqqacha bir necha bor chop etilgan boʻlib, uning eng soʻnggi moʻtabar nashri 1967-yilda Muhammad Yaʼqub Vohidiy tomonidan Kobulda amalga oshirildi.

(*Manba*: Said Nafisiy. Eronda nazm va nasr tarixi. 2 jildlik. 2-jild. Tehron, 1955.)

Shohrux Mirzo. Amir Temurning oʻgʻillaridan boʻlib, ilm va adabiyotni sevgan. Ayniqsa uning tarix faniga boʻlgan qiziqishi yuqori boʻlib, koʻpgina tarixchilarni tarixiy asarlar yozishga undagan.

Otasidan keyin saltanat taxtiga oʻtiradi. Amir Temur vafotidan soʻng hijriy-qamariy 807–850 (milodiy 1405–1447) yillar 42 yil davomida podshohlik qiladi. Poytaxti Hirot edi. Mashhur tarixchi Abdurrazzoq Samarqandiy uning davlati hududini Sinddan to Qazvin va Tabrizgacha boʻlgan yerlarni oʻz ichiga olgan Xuroson mamlakati, deb eslatadi.

Sheʼr yozishga alohida kirishmagan boʻlsa-da, ayrim goʻzal baytlar va maʼnoli hikmatlar aytganligi toʻgʻrisida maʼlumotlar yetib kelgan. Jumladan, bir gal topshirilgan binoni oʻz vaqtida qurib bitkazmagan meʼmor Qavomiddindan ranjib, uni bir yil muddatga saroydagi xizmatdan chetlatadi. Bu meʼmor yana oʻzini shohga yaxshi koʻrsatib, uning xizmatiga kirib olish uchun yangi yilning boshida osmondagi yulduzlarning yil davomidagi harakati jadvalini tuzib, uning oldiga olib keladi. Shunda Shohrux Mirzo unga qarata quyidagi baytni aytadi:

*Sen yerdagi ishni qoyillatib qoʻyganmidingki,
Osmon bilan ham shugʻullansang?*

(*Manba*: Temuriylar davrida sanʼat va uning turli sohalari. 35-b. Majolis un-nafois. Forscha tarjima. Tehron, 1944. 197-b.)

Hasanbek Turkmon. Uzun Hasan nomi bilan ham mashhur boʻlgan Amir Hasanbek Turkmon hijriy-qamariy 809(milodiy 1406/1407)-yilda tugʻilgan. Donishmand,

qudratli, shavkatli va o'ta xalqparvar sultonlardan bo'lib, fozillar, olimlar va mashoyixlarga katta hurmat bilan munosabatda bo'lgan. O'n bir yildan ortiqroq hukmronlik qilgach, hijriy-qamariy 882(milodiy 1477/1478)-yilda Tabrizda vafot etgan.

Amir Hasanbekning yettita o'g'li bo'lib, ularning nomlari quyidagicha bo'lgan: O'g'urli Muhammad, Sulton Xalil, Ya'qub Mirzo, Masih Mirzo, Yusuf Mirzo, Maqsudbek, Zaynalbek [usmonlilar davlati bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan].

Mirzo Abusa'id Ko'ragon. Shohrux Mirzodan keyingi Movarounnahrning hukmdori bo'lib, doimo Xurosonni o'z tasarrufiga olishni ko'zlab yurgan. Mirzo Abulqosim Boburning vafotidan so'ng Xurosonga hujum qilib, hijriy-qamariy 863(milodiy 1458/1459)-yilda Hirotni to'la o'z tasarrufiga kirgizadi va katta bir davlat tuzgan. O'n ikki yil davomida Movarounnahr va Xurosonning mutlaq hukmdori bo'lgan. Hijriy-qamariy 873(milodiy 1468/1469)-yilda Ozarboyjonda Uzun Hasanning buyrug'i bilan qatl etilgan.

Xoja Fazlulloh Abullays. Samarqand ulug'laridan hamda Abullays faqih avlodlaridan bo'lgan. Fiqhda uni «Ikkinchi Abu Hanifa», arab tili va adabiyotida esa «Ibn Hojibning o'xshashi» deb atashardi. Amir Sayyid Yusufning shogirdi edi.

Sayyid Sharifning shogirdi edi. Sayyid shaxsan uning madrasalarda dars berishi uchun ijozatnomalar yozib bergan.

Alisher Navoiy ikki yil uning huzurida ilm olgan. Navoiyga nisbatan iltifoti kuchliligidan uni «farzand» deb atagan.

Samarqand ulamolarining rahnamosi boʻlganligiga qaramasdan, sheʼr va muammo yozishga moyil edi. Quyidagi matlaʼ uning qalamiga mansubdir:

*Sening sarv kabi qadding mening jonim, hatto ruhimdir.
Ey sarv, men tomonga ravon boʻl, senga jonimni fido aylay.*

Xoja Fazlulloh Abullaysiy Samarqandda vafot etgan va oʻz xonaqohida dafn etilgan.

(*Manba*: Amir Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Forscha tarjima. // Faxriy Hirotiy tarjimasi // Tehron. 1944. 27-b)

Fasih ul-millat va-d-din Muhammad an-Nizomiy.

Husni oliy nasablik belgilari hamda aqliy va naqliy fanlardagi chuqur bilimi bilan oro topgan boʻlib, riyoziyot va falsafa fanlarida oʻz davri olimlarining sarasi edi. Sogʻlom tafakkuri ilgari oʻtgan olimlar asarlaridagi yashirin sirlarni ochguvchi, oʻtkir zehni esa zamondosh fozillar asarlari xazinasining timsoli edi.

Oʻz zamonasining aksariyat bilimlarini Mavlono Fasihiddin huzurida oʻqib-oʻrgangan Alisher Navoiy uni «muallim» deb taʼriflagan va unga nisbatan hurmati juda yuqori boʻlgan. Navoiy bir necha bor Ixlosiya, Gʻiyosiya va Badiiya madrasalarida dars berishni oʻzining ana shu ustoziga topshirgandi.

Fasihiddin Muhammad Nizomiy hijriy-qamariy 919(milodiy 1513/1514)-yili Hirotdan Balxga ketadi va bir necha vaqt bu viloyatda kuyovi Mir Sadriddin Yunusnikida yashaydi. Oradan bir necha vaqt oʻtgandan soʻng olamdan oʻtadi.

Fasihiddin Muhammad Nizomiyning «Hoshiyai Sharhi Hidoyai hikmat» («Hikmat hidoyati») asari sharhiga yozilgan izohlar), «Hoshiyai Sharhi arbaʼin»

(«Qirq hadis sharhi» kitobiga yozgan izohlar), «Sharhi «Mi'at ul-omil» («Yuz omil» asariga yozilgan sharh), «Hoshiyai Muxtasar» («Muxtasar» asariga izohlar) va boshqa asarlari avvaldan ilm ahli o'rtasida mashhur bo'lib, o'quvchiga boy ilmiy ma'lumotlar berardi.

(*Manba*: Xondamir. Habib us-siyar. 4-jild // Ustod Jaloliddin Humoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1954. 302-303-b.)

Qozi Ixtiyoriddin Hasan Turbatiy. Qozi G'iyosiddin Turbatiyning o'g'li bo'lib, oliy fazilatlari va yuqori bilimi bilan boshqa qozilardan ajralib turardi.

U yoshlik chog'larida Zova viloyatidan Xuroson poytaxti Hirotda kelib, diniy bilimlarni o'rganishga kirishgan. Qisqa muddatda bu sohadagi bilimlarni puxta egallab olganidan keyin, fatvo yozish, qozilik hukmi, mulk hujjati va to'lov hujjatlarini chiqarish huquqini qo'lga kiritgan. Yozuvchilik va shoirlik san'atini ham yaxshi o'zlashtirib olgan.

G'olib xoqon [Boyqaro] podshohligi zamonining oxirlarida qozilik mansabiga erishgan.

Chuqur bilimi, o'tkir zehni, yuksak qobiliyati hamda insof va diyonat qoidalariga qattiq rioya qilishi bilan saltanat poytaxti Hirotdagi barcha qozilar orasida eng yuksak martaba, eng katta vakolat hamda eng yuqori obro'-e'tiborga ega bo'lgan.

O'zining ushbu qobiliyatlari va fazilatlari bilan Xuroson podshohi Sulton Husayn Boyqaroning e'tibori va hurmatini qozongan Qozi Ixtiyoriddin Hasan Turbatiy Abulfath Muhammad Shayboniyxon Hirotni o'z tasarrufiga olganidan keyin ham ana shu mansabda qolgan. Shayboniyxonning o'limidan keyin esa o'zining tug'ilib o'sgan joyiga qaytib, dehqonchilik bilan shug'ullangan.

Qozi Ixtiyoriddin Hasan Turbatiy hijriy-qamariy 920(milodiy 1514/1515)-yili kasallikka chalinib, olamdan oʻtgan va Turbat qishlogʻida oʻz ota-bobolari maqbarasida dafn etilgan.

Qozi Ixtiyoriddin Hasan Turbatiyning chiroyli soʻz namunalarini yozuvchi qalami mahsullari jumlasidan boʻlgan «Iqtibosot» («Iqtiboslar») va «Muxtor ul-ixtiyor» asarlari oʻsha zamon ilm ahli orasida mashhur boʻlgan.

Uning Hirot jome masjidida Amir Alisher Navoiy tomonidan marmartoshdan qurdirilgan minbarning qurilishi sanasi toʻgʻrisida yozgan quyidagi qitʻasi mashhurdir:

*Katta saʼy-harakat tufayli mukammal bir minbar qurildi.
Oʻta balandligidan arshga boʻy choʻzgan edi. Haligacha
hech kim marmardan yasalgan minbarni koʻrmagandi. Uning
qurilgan yili ham haligacha hech kim koʻrmagan oʻsha narsa
boʻldi.*

(*Manba: Xondamir. Habib us-siyar. 4-jild // Ustod Jaloliddin Humoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1954. 306–355-b.*)

Amir Burhoniddin Atulloh Nishoburiy. Xondamir oʻzining «Habib us-siyar» asarida Amir Burhoniddin Atulloh Nishopuriy toʻgʻrisida shunday maʼlumot bergan:

Yoshlik chogʻlarining boshlarida tugʻilib oʻsgan shahri Nishopurdan saltanat poytaxti Hirotga kelib, tahsil olishga kirishgan va qisqa muddatda aksariyat fanlarni oʻzlashtirib, oʻzi bilan birga tahsil oladigan talabalardan anchagina oldinga oʻtib ketgan. Aruz ilmi hamda turli sheʼriy sanʼatlar boʻyicha katta mahorat kasb etgan.

Bir necha yillar davomida ulugʻ ilm maskanlari hisoblangan “Sultoniya” va “Ixlosiya” madrasalarida dars berish bilan shugʻullangan.

Yozgan asarlaridan «Risolai qofiya va sanoe' va ba-doe'i she'riy» («She'r badiiyati va san'atlari hamda qofiya to'g'risida risola») asari ilm va adabiyot ahli orasida mashhurdir.

Hayotining oxirgi yillarida Amir Burhoniddin Atoulloh Nishoburiyning zohiriy ko'zlari [o'tkinchi dunyodagi] narsalarni ko'rishdan mahrum bo'ldi va shavkatli Hirot shahridan Razaviyaning muqaddas Mashhadiga ketib, (hijriy-qamariy) 919-yil shavvol oyining o'rtalarida (milodiy 1513-yil dekabr oyining o'rtalarida) olamdan o'tdi.

Amir Murtoz. Xondamir o'zining «Habib us-siyar» asarida Amir Murtoz to'g'risida shunday yozadi:

«Falsafa va riyoziyot ilmida o'xshashi va tengi yo'q bo'lib, boshqa ilmlar sohalarida ham o'z zamonasining ko'pchilik olimlaridan ustun edi. Har doim ro'za tutar, to-at-ibodat shartlarini to'liq bajarardi.

Mansur Xoqon zamonida Ixlosiya madrasasida dars berish bilan shug'ullandi. Muhammad Shayboniyxon hukmronligi davrida esa Sultoniya madrasasida ilm toliblarini o'z ilmlaridan bahramand etdi.

Shohlikning saodatli namunasining oltin rangli bayrog'idagi yarim oy yana bir bor Xuroson viloyatlariga visol yog'dusini sochgach, Amir Murtoz sunniylik mazhabiga qattiq rioya qilganlikdan Hirotdan Qandahorga ketdi va o'sha viloyatda vafot etdi».

(*Manba:* Xondamir. Rijoli Habib us-siyar (Habib us-siyar arboblari) // Abdulhusayn Navoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1945.)

Amir Sadriddin Ibrohim Mashhadiy. Xondamir o'zining «Habib us-siyar» asarida Amir Sadriddin Ibrohim Mashhadiy to'g'risida shunday yozadi:

«Zamona olimlarining eng ulugʻi va fazilat belgilariga ega boʻlgan sayyidlarning rahnamosi edi. Sulton Husayn Boyqaro davrida uzoq yillar Sultoniya va Badiiya madrasalari hamda Ixlosiya xonaqohida [talabalarga] dars berish va ilm ulashish bilan mashgʻul boʻlgan. Hijriy-qamariy 919(milodiy 1513/1514)-yili oxirat olamiga safar bayrogʻini koʻtardi.

Oʻzidan Amir Muhammad Amin va Amir Muhammad Husayn nomli muborak xislatlarga ega boʻlgan ikki oʻgʻil qoldirgan. Fazilat belgilariga ega boʻlgan bu ikki oʻgʻil oʻzlarining solihliklari va taqvodorliklari bilan mashhur boʻlib, hamisha oʻzgalarga yordam berish va foyda yetkazish ishiga kamarbasta boʻlib yurishadi.

Amir Muhammad Amin Ixlosiya madrasasida dars berishga mashgʻul boʻlsa, Amir Muhammad Husayn Jamoliya madrasasida [ilm toliblariga] foydali ilmlar ulashish bilan shugʻullanadi.

Amir Sadridin Ibrohim Mashhadiyning ukasi Amir Abduljalil ham olimlar sarasidan boʻlib, Mansur Xoqon [Sulton Husayn Boyqaro] va Muhammad Shayboniyxon zamonlarida muhtasiblik vazifasida faoliyat koʻrsatgan».

(*Manba*: Xondamir. Rijoli Habib us-siyar // Abdulhusayn Navoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1945.)

Amir Jamoliddin Atoullloh Asiliy. «Ul Hazrat oʻzinning ulugʻvor amakim Amir Sayyid Asiliddin kabi hadis ilmida dunyoda tengi yoʻq olimlardan boʻlib, diniy ilmlarning boshqa sohalari va irfoniy ilmlarning turli yoʻnalishlarida eng kuchli va taniqli mutaxassislardan ham ilgarilab ketgandi.

Bir necha yil davomida Sultoniya madrasasidagi hozir u yerda Mansur Xoqonning qabri joylashgan gumbaz ostida, shuningdek Ixlosiya xonaqohida [talabalarga] dars

berish va ilm ulashish bilan mashgʻul boʻlgan. Haftada bir marta saltanat poytaxti Hirot Jomeʼ masjidida azal hidoyati qalami bilan [Hirot] ulugʻlari va akobirlari koʻngil lavhlariga irshod va nasihat naqshini chizardilar.

Biroq hozirgi paytda uzlatga chekinganliklari va goʻshanishinlikni odat qilganliklari sababidan bunday ishlar bilan shugʻullanmaydilar va muborak vaqtlarining hammasini toat va ibodatlar qilishga bagʻishlab, oxiratlik savoblarni zaxira qilish bilan mashgʻullar.

Mamlakatlar sultonlari va islom yurtlari hokimlari ul Hazratga irodat va xizmat qilishni oʻzlariga vazifa deb bilib, ul zotning oliy maqom xodimlarining moddiy ahvollari va yashash sharoitlarini yaxshilash uchun qoʻllaridan kelganicha yordamlashadilar.

Naqiblar yoʻlboshchisi boʻlgan ul Hazratning soʻz sanʼatining buyuk namunalari sarasiga kiruvchi asarlaridan hisoblangan «Ravzat ul-ahbob fi siyrat an-nabiy va-l-ol va-l-ashob» («Paygʻambar, uning avlodlari va sahobalari toʻgʻrisidagi «Doʻstlar bogʻi») kitobining shuhrati dunyoning turli mamlakatlari va goʻshalarigacha tarqalgan boʻlib, oʻtkir aql bunday foydali kitobning oʻxshashini topishni tasavvurdan tashqari ish deb biladi».

(*Manba*: Xondamir. Habib us-siyar. 4-jild // Ustod Jaloliddin Humoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1954. 359-b.)

Xoja Imodiddin Abdulaziz Abhariy. Yetuk olim edi. Hanafiylik va shofeiylilik fiqhi va hadis boʻyicha katta bilimga ega edi. Mansur Xoqon zamonida Amir Nizomiddin Alisher Navoiyga bagʻishlab «Sharhi Mishkot» («Mishkot sharhi») kitobini yozdi. Biroq bu kitob shuhrat topib ulgurmasidan zamona ul hazratning umr kitobini yopdi.

Xoja Imodiddin Abdulaziz Abhariy uzoq yillar davomida baxtli xoqon Shohrux Mirzo madrasasi, Sultoniya madrasasi va Ixlosiya xonaqohida [talabalarga] dars berish va ilm ulashish bilan mashgʻul boʻldi.

Amir Murtoz Hirotdan Qandahorga ketgan yili Xoja Imodiddin Abdulaziz Abhariy ham Hindiston tomon yoʻl oldi. Shundan soʻng u boshqa qaytib kelmadi va Sind viloyatida olamdan koʻz yumdi.

Mirzo Ahmad Sulton. Alisher Navoiy oʻzining «Majolis un-nafois» asarida Mirzo Ahmad Sulton toʻgʻrisida shunday yozadi:

«Mirzo Kichik laqabi bilan mashhur boʻlgan Mirzo Ahmad Sulton xushxulq boʻlib, goʻzal xislatlarga va maʼqul feʼl-atvorga ega edi. Kibrga berilmagan, boshqalarga zulm qilishdan tiyilgan odam edi.

Mirzo Ahmad Sulton qisqa muddatda ilm va hunar oʻrganib, zuhd va solihlikda, taqvo va toʻgʻrisoʻzlikda namunaga aylandi. Makkani ziyorat qilish sharafiga ham muyassar boʻldi.

Quyidagi ruboiy uning qalamiga mansubdir:

Oʻzimni umr boʻyi solihlik bilan maqtardim, oʻzimni taqvodorlik yoʻliga solardim. Ishq kelgach, na taqvodorlik qoldi va na solihlik. Xudoga shukrki, oʻzimni sinadim.

Baʼzilarning aytishlariga qaraganda, (Mirzo Ahmad Sulton qalamiga mansub) ushbu ruboiy Hazrati Maxdumiy Nuran (tomonidan yozilgan boshqa bir ruboiy) bilan tavorud boʻlibdi. Agar shunday ham boʻlsa, bu katta baxtdir».

(*Manba:* Amir Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Forscha tarjima. // Faxriy Hirotiy tarjimasi // Tehron, 1944. 127 va 315-b.)

Ahmad Taftazoniy. Xondamir oʻzining «Habib us-siyar» asarida Ahmad Taftazoniy toʻgʻrisida shunday yozadi:

«Olam maydonining allomasi va odam farzandlarining pushti panohi bo‘lib, o‘zining o‘ta dindorligi va halolligi bilan tanilgan hamda o‘ta diyonatliligi va noma‘qul narsalardan o‘zini qattiq tiyishi bilan mashhur edi. Tafsir, hadis va fiqh ilmlarida tengsiz, boshqa aqliy va naqliy fanlarda esa zamonaning aksariyat olimlaridan ustun edi.

Ul janob padari buzrukvori Mavlono Qutbiddin Yahyo ibn Mavlono Sa‘diddin Mas‘ud at-Taftazoniy vafotidan so‘ng shayx ul-islomlik vazifasini bajarishga kirishdi va qariyb o‘ttiz yilga yaqin muddat davomida Xuroson mamlakatida pok shariat poydevorlarini mustahkamlash ishi bilan shug‘ullandi.

Ahmad Taftazoniy (hijriy-qamariy) 916-yilning ramazon (milodiy 1510-yilning dekabr) oyida unga g‘arazi bo‘lgan kishilarning chaquvi bilan shohlikning saodatli namunasining ul janobni jazolash va ishdan chetlatish to‘g‘risidagi muborak farmoni chiqdi. Ul hazrat o‘sha kunlari taqdir podshohining amri bilan oxirat olamiga safar qildi.

Hiroat shahri jome masjidida, Xalifaton darvozasi atrofida joylashgan madrasa janobi shayx ul-islom tomonidan qurilgan binolar jumlasiga kiradi.

Ul janob tomonidan yozilgan ba‘zi risolalar va turli ilm sohalariga oid asarlarga bitilgan izohlar ilm toliblari orasida mashhur, ushbu risolalarda bayon etilgan mavzular esa ko‘ngillar lavhlariga naqshlangandir».

(*Manba*: Xondamir. Habib us-siyar. 4-jild // Ustod Jaloliddin Humoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1954. 343-b.)

Mavlono Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy. Ismi Husayn ibn Ali Bayhaqiy Hiraviy, taxallusi Koshifiy bo‘lib, Voiz Koshifiy nomi bilan mashhur. Asli sabzavorlik bo‘lib,

oʻsha diyorda voizlik va xatiblik qilardi. Keyinchalik Hirotda kelib, shu yerda yashab qolgan.

Voiz Koshifiy (hijriy-qamariy) IX (milodiy XV) asrda Hirotda yashab ijod qilgan buyuk va zabardast fozillar, yozuvchilar, shoirlar va mufassirlarning biri, mashhur voiz va xatib boʻlib, turli yigʻinlar va anjumanlarda vaʼz va xitob qilardi.

Mullo Husayn naqshbandiylik tariqatiga kirib, ushbu suluk soliklari qatoridan joy oldi.

Voiz Koshifiy ham oʻsha davrning boshqa fozillari kabi Amir Alisher Navoiy tomonidan qoʻllab-quvvatlanib, uning yordamlaridan bahramand boʻldi va Sulton Husayn Boyqaro saroyiga yaqin kishilar qatoridan joy oldi.

Voiz Koshifiy forsiy adabiyotning yuksak namunalari boʻladigan qimmatli asarlar, fors va arab tillarida astronomiya, falsafa, tafsir, etika, hadis, tasavvuf, matematika, fiqh, tarix va boshqa sohalarga oid kitoblar yozdi. U sheʼriyatda ham katta mahoratga ega shoirlardan edi. Uning yozgan asarlari oʻttiz jilddan iborat kitobdan joy olgan.

Mullo Husayn Voiz Koshifiy hijriy-qamariy 910(milodiy 1504/1505)-yili Hirotda hayot bilan vidolashdi.

(*Manba:* Afgʻoniston jugʻrofiy ensiklopediyasi. 237-238-b.)

Mavlonoh Ahliy Sheroziy. Ismi Muhammad boʻlib, (hijriy-qamariy) 858(milodiy 1454)-yilda Sherozda tugʻilib, 84 yil umr koʻrgach, (hijriy-qamariy) 942(milodiy 1535/1536)-yilda vafot etgan. Xoja Shamsiddin Hofiz Sheroziy qabrining oʻng tomonida dafn etilgan.

Ahliy Sheroziy sheʼriyatning barcha turlari va janrlarida qalam tebratgan shoirdir. Uning oʻzi sheʼr toʻgʻrisida shunday deydi:

She'r agar kiyim bo'lsa, yor go'zal ma'nodir. Unday bo'lmasa, oqil qachon ham she'r bilan faxrlanardi. Rangli she'r takallufdan tasvir va ariq suvi kabidir. Dengizga yuzlangin, gavhar zaxiralar dengizini olib keladi.

U ta'sirchan va ko'ngilga o'tiruvchi So'zga tahsinlar aytib, yaxshi shoirni farishtadan yaxshiroq, yomon shoirlarni esa itlar bilan barobar deb biladi.

Ahliy Sheroziy o'zining ilk masnu' qasidasini Amir Alisher Navoiyga bag'ishlab yozgan va uni Hirotga yuborgan.

Ahliydan uch masnu' qasida qolgan. Ulardan birinchisi, aytib o'tilganidek, Amir Alisher Navoiy madhida yozilgan. Ushbu qasida 149 baytdan iborat bo'lib, undan taxminan 91 bayt chiqarib olingan. Ikkinchi qasida Sulton Ya'qub madhida yozilgan bo'lib, undagi 154 baytdan 120 bayt chiqarib olingan. Shoir ushbu qasidaga «Qonuni fikrat» (Tafakkur qonuni) deb ham nom bergan bo'lib, abjad hisobida 907 sonini ko'rsatuvchi bu ibora mazkur asarning yozilgan sanasini, ya'ni hijriy-qamariy 907(milodiy 1501/1502)-yilni anglatadi.

Uning uchinchi qasidasi Shoh Ismoil Safaviy madhida bitilgan. Undagi 160 baytdan 120 ta bayt chiqarib olingan. Shoir o'zining bu asariga «Xiradnoma» (Oqillik to'g'risida asar) deb nom bergan bo'lib, abjad hisobida 912 sonini ko'rsatuvchi bu ibora ham mazkur asarning yozilgan yilini, ya'ni hijriy-qamariy 912(milodiy 1506/1507)-yilni bildiradi.

Ushbu qasidalardan har biriga muallif tomonidan nasriy debochalar yozilgan bo'lib, ularda o'n to'qqiztalik bahrlar, turli zihoflar, oltitalik doiralar, badiiy san'atlar va qofiya ilmi istilohlari namuna sifatida keltirilgan.

Nima boʻlgan taqdirda ham Ahliy oʻzining ilk qasidasini Salmon Sovajiyga ergashib yozgan.

(*Manba*: Mavlono Ahliy Sheroziy. Kulliyot. Homid Rabboniy tomonidan tayyorlangan. Tehron: Sanoiy kutubxonasi nashriyoti, 1964)

Mavlono Shamsiddin Muhammad Badaxshiy. Chiroyli soʻzlari va goʻzal sheʼrlari bilan mashhur edi. Doimo chuqur va goʻzal maʼnolarni nazm ipiga tizishga va ushbu sanʼat qoidalari toʻgʻrisida asarlar yozishga kuch-gʻayrat sarflardi.

Oʻttiz yilga yaqin Amir Nizomiddin Alisher xizmatida boʻldi.

Fasohat belgilariga ega boʻlgan qalami bilan muammo sanʼati toʻgʻrisida bir necha risola yozgan.

Quyida ul janobning qalamiga mansub boʻlgan «Habib» nomli muammoni keltiramiz:

*Sening kulib turgan lablaringga uchuq toshibdi,
Bir don tiriklik suvi tomon uchib ketibdi.*

(*Manba*: Xondamir. Habib us-siyar. 4-jild // Ustod Jaloliddin Humoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1954. 347-b.)

Mavlono Fasihiddin Sohob Doro. «Habib us-siyar»da keltirilishicha, Astrobod fozillarining sarasi boʻlgan. Amir Alisherning vafotidan soʻng Sulton Husayn Mirzo saroyida xizmatga kirib, ushbu saroyning muborak kutubxonasi dorugʻasi etib tayinlandi.

Hazrati Sultonning yaqin kishisi vafotiga bagʻishlab yozilgan marsiya Mavlono Fasihiddin Sohob Doro qalamiga mansub eng yaxshi sheʼrlardan hisoblanadi. Ushbu marsiyaning barcha baytlaridagi birinchi

misralarning birinchi harflari jumal hisobida Amir Alisherning tug‘ilgan yilini, ikkinchi misralarining birinchi harflari esa ul hazratning vafot etgan yilini anglatadi. Shunga qaramasdan, bu narsa she’r mazmuniga va unda ma’noning ifoda etilishiga umuman xalaqit bermagan.

Mavlono Fasihiddin Sohib Doro (hijriy-qamariy) 917(milodiy 1511/1512)-yilda Astrobod viloyatida olamdan o‘tdi.

«Habib» deb nomlangan quyidagi ruboiy-muammo ushbu shoir qalamiga mansub:

Yuzi quyoshdek va qaddi paridek bo‘lgan u go‘zal ishva qilib bizning ko‘nglimizni talamoqni ko‘zlaydir. Qaragin, u ayyor bizning vayron ko‘nglimizni don ichra yashirdi-yu, yana o‘z joyiga olib kelib qo‘ydi.

(*Manba*: Xondamir. Habib us-siyar. 4-jild // Ustod Jaloliddin Humoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1954.)

Xoja Shahobiddin Abdulloh. Alisher Navoiy «Majolis un-nafois»da u to‘g‘rida shunday yozadi:

«Xoja Abdulloh Sadr Xoja Muhammad Marvorid o‘g‘li bo‘lib, bir muddat vazirlik devonida muhr bosuvchi bo‘lib ishladi. So‘ngra o‘z ixtiyori bilan ushbu vazifadan bo‘shab, zohidlikni ixtiyor etdi.

Bu toifaga mansub bo‘lgan kishilar orasida u erishgan fazilatlarga erishgan kishilar ozdir. Yoshlik chog‘laridayoq ilm o‘rganib, maqom va musiqa ilmida hamda xattotlik sohasida benazir bo‘ldi. Haligacha biror kishining qonunni uning darajasida chala olganligi ma’lum emas.

Shuningdek, podshoh xizmatida oliy mansablarga erishdi. U egallagan mansablardan biri sadrlik lavozimidir.

Bundan tashqari yozuvchilik san’atini ham kamolga yetkazdi.

Oʻzi yaxshi muomalali, goʻzal xulqli va yaxshi suhbatli yigitdir. Gʻaflat va beparvolikdan oʻzga aybi yoʻqdir. Hali yosh yigit boʻlganligidan [ushbu kamchiliklarini ham] bartaraf qilishga umid bor».

Xoja Shahobiddin Abdulloh (hijriy-qamariy) 922(milodiy 1516/1517)-yili vafot etdi.

Uning yozgan asarlaridan qasidalar, gʻazallar devoni, «Xusrav va Shirin» dostoni, «Munis ul-ahbob» (Doʻstlar munisi) deb nomlangan ruboiylar majmuasi, «Tarassul» nomli hukmronlarning farmonlar, fathnoma, davlat maktublari, shaxslarning xatlari jamlangan toʻplami maʼlum va mashhur boʻlgan.

(*Manba*: Amir Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Forscha tarjima. // Faxriy Hirotiy tarjimasi // Tehron. 1944; Xondamir. «Xulosat ul-axbor» asaridan bir boʻlim // Goʻyo Eʼtimodiy nashrga tayyorlagan // Kobul, 1966. 52, 109-110-b.)

Mavlono Kamoliddin Abdulvoseʼ an-Nizomiy. Xondamir oʻzining «Habib us-siyar» asarida u toʻgʻrisida shunday deb yozadi:

«(Mavlono Kamoliddin Abdulvoseʼ an-Nizomiy) Mirzo Yodgor Muhammad voqeasi yuz bergan sana toʻgʻrisida shunday deb yozadi:

Safar oyida shahid boʻldi. Buning ustiga «safar oyi» uning shahid boʻlgan yilini anglatadi.

Mavlono Jaloliddin Mutahhar Boxarziyning oʻgʻli edi. Yoshlik yillarining katta qismini ilm oʻrganish bilan oʻtkazib, yozuvchilik, xatlar va hujjatlar tuzish ishida katta mahoratga ega boʻldi.

Xondamirning yozganlaridan maʼlum boʻlishicha, Mavlono Abdulvoseʼ Sulton Husayn Mirzo Boyqaroning

farmoniga asosan ushbu sultonning podshohlik zamoni tarixi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plab, kitob holiga keltirishi kerak edi. Biroq, Xondamirning yozishicha, Mavlononing tarix yozish uslubi sultonga yoqmagani va bu ishini boshqa bir tarixnavisga topshirgan.

Ammo Mavlono Abdulvose'ning o'zi Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiyning maqomotlariga bag'ishlab yozgan kitobida o'zining Sulton Husayn Mirzo Boyqaroning hukmronlik zamoni tarixiga oid «Jome' ul-badoe'» (Nodir voqealar to'plami) nomli kitob yozganligini aniq eslatib o'tgan. Bundan tashqari «Ravzot ul-jannot» (Jannat bog'lari) asari muallifi Muiniddin Isfizoriy ham Mavlono Abdulvose'ning ushbu kitobini «Jome' ul-badoe'i Sultoniy» (Sulton bilan bog'liq bo'lgan nodir voqealar to'plami) nomi bilan eslatib o'tadi.

«Maqomoti Jomiy» kitobining uchta qo'lyozma nusxasi O'zbekiston va Tojikiston kutubxonalarida saqlanmoqda.

(*Manba*: Xondamir. Habib us-siyar. 4-jild // Ustod Jaloliddin Humoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1954.)

Mirxond. (Hijriy-qamariy) IX (milodiy XV) asrning mashhur tarixchilaridan hisoblangan Mirxond Sulton Husayn Mirzo Boyqaro va uning donishmand vaziri Amir Alisher Navoiyning zamondoshi bo'lgan.

Otasi Sayyid Burhoniddin Xovandshoh Balxdan Hirotga ko'chib kelgan. Biroq umrining oxirlarida yana qaytib Balxga ketgan va o'sha yerda vafot etgan. Balxdagi Shayx Sulton Ahmad Xuzraviya maqbarasida dafn etilgan.

Mirxond fazlu hunar, naqliy va aqliy ilmlar hamda tarixnavislikda yuksak darajalarga yetgan bo'lib, olti jildidan iborat bo'lgan «Ravzat us-safo» uning qalamiga

mansubdir. Tarixchi ushbu asarini Amir Alisher Navoiyning iltimosiga binoan yozgan, biroq oʻz asarini oxiriga yetkazishga ulgurmagan.

Xondamirning yozishicha, Mirxond «Ravzat ussafo»ning oltinchi jildini yozayotgan chogʻida, (hijriy-qamariy) 902-yilning ramazon (milodiy 1497-yilning may) oyida kasallikka chalingan. U mazkur asarning oltinchi jildini kasal holida yozib tugatgan. Hali uning yettinchi jildini boshlashga ulgurmasdan turib, (hijriy-qamariy) 903-yil zulhijja oyining ikkinchi (milodiy 1498-yil iyul oyining yigirma ikkinchi) kunida dunyodan koʻz yumgan.

Fikriy Saljuqiy Mirxondning dafn etilgan joyi toʻgʻrisida: «Shayx Bahouddin Umar Chagʻora» maqbarasiga dafn etilgan. Xoki Shayx Umarning qabri yonida», deb yozadi.

(*Manba: Xondamir. Habib us-siyar. 4-jild // Ustod Jaloliddin Humoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1954. 105, 341-342-b.*)

Mavlono Shamsiddin Muhammad Tabodgoniy. Shayx Zayniddin Xavofiy shogirdlaridan boʻlib, hamisha toat va ibodat shartlarini bajarishga qattiq kirishardi. Zuhd va taqvo yoʻlining soliklari hamda irshod va hidoyat yoʻli toliblari ul janobga nisbatan katta irodat va eʼtiqod koʻrsatib, muborak botini quyoshidan taralayotgan saodat nurlaridan bahramand boʻlishar, ul zotning oliy maqom xodimlari amrlari va nahylarini eshitishardi.

Mavlono Shamsiddin Muhammad Tabodgoniy yozgan fayzli asarlar orasida «Burda» qasidasiga bagʻishlangan muhammas hamda «Sharhi manozil us-soyirin» («Sayr etuvchilar manzillari») asariga yozilgan sharhlar) asari mashhurdir. Uning hidoyat belgilariga ega boʻlgan baytlaridan quyidagi matlaʼ «Majolis un-nafois»da keltirilgan:

Sening sarv qomatingdan boshqa narsaga qarovchilarning hammasi, rostini aytsak, uzoqni ko'ra olmaydigan kishilardir.

Mavlono Shamsiddin Muhammad (hijriy-qamariy) 891(milodiy 1486)-yili vafot etgan va Hirot xiyobonida dafn etilgan.

(*Manba*: Xondamir. Rijoli Habib us-siyar // Abdulhusayn Navoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1945.171-b;

Mavlono Nizomiddin Abdulhay Tabib. Xondamir «Xulosat ul-axbor» asarida (bu shaxs to'g'risida shunday deb) yozadi:

«Boshida hidoyat belgilariga ega bo'lgan Amirning shifoxonasida kasallarni davolashga mashg'ul bo'lgan. Valiylkning panohi bo'lmish Xoja Nosiriddin Ubaydulloh kasallikka chalinganligi sababli o'z odamlaridan birini Hirotga yuborib, Hazrati sultonning yaqin kishisi bo'lmish ul hazratdan tajribali bir tabibni uning oldiga jo'natishlarini so'raganida, tabobat xazinasini bo'lmish ul janob olijanob Amirning buyrug'iga ko'ra Samarqandga bordi. Zimmasiga yuklatilgan vazifani a'lo darajada bajarib, yorug' yuz bilan Hirotga qaytib kelgach, yanada ko'proq e'tiborga tushib, yanada kattaroq inoyatlarga erishdi.

Kun sayin mavqe va darajasi yanada oshib, lahza sayin baxt va tole yulduzi yanada yorug'roq charaqlay boshladi. Nihoyat maqtalgan sifatlariga ega bo'lgan Sohibqiron Sultonning iltifotli nazariga tushdi. Saroyda ham kattalar va kichiklarning sirdoshiga aylandi.

Hozirgi vaqtda mansab va martaba bosqichlarining eng yuqori darajalariga erishgan vaqti bo'lib, aksariyat vaqtini a'lo hazratlarining xizmatida o'tkazadi».

(*Manba*: Xondamir. «Xulosat ul-axbor» asaridan bir bo'lim // Go'yo E'timodiy nashrga tayyorlagan // Kobul, 1966; Xondamir. Rijoli Habib us-siyar // Abdulhusayn Navoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1945.. 57-58-b.)

Xoja Abdurahmon. Xondamir «Xulosat ul-axbor» asarida Xoja Abdurahmon to'g'risida shunday deb yozadi:

«Buyuk fozillar jumlasidan hisoblanadi. Olimlikda yuksak darajalarga erishganligiga qaramasdan, she'r yozish bilan ham shug'ullanadi. Oliy beshikning mag'firat uyidagi ayvonlardan birida hamda Amir G'iyosiddin Muhammad madrasasida dars beradi.

Quyidagi matla' uning iste'dodi mahsuli hisoblanadi:

Boshingdagi yulduz qo'shilgan ikki qoshingdek egilganча yuzingga qaraydi.

(*Manba*: Xondamir. «Xulosat ul-axbor» asaridan bir bo'lim // Go'yo E'timodiy nashrga tayyorlagan // Kobul, 1966)

Amir Sayyid Hasan Ardasherbek. Amir Alisher Navoiy o'zining «Majolis un-nafois» asarida Sayyid Hasan Ardasher to'g'risida shunday yozadi:

«Bu faqirga [kaminaga] ota o'rnida edi. Xuddi shuningdek, Mirzobek ham unga, ham faqirga farzand o'rnida edi. Bu faqir turklar va sortlar orasida undan yetukroq kishini ko'rmaganman.

Yigitlik chog'ida zohiriy ilmlarni o'rgangan edi. Ammo faqr sulukidan yurishga mayli kuchli edi. Tasavvufda tab'i yaxshi edi.

Sultonlar unga ehsonlar qilib, katta vazifalar bermoqlikka qanchalik urinmasinlar, u o'zini olib qochdi. Biroq Sohibqiron Sulton cheksiz iltifotlar bilan uni [saroy] xizmatiga kirgizdi va unga katta ehsonlar berdi.

Biroq uning faqr sulukidan yurishga bo'lgan mayli g'olib keldi va oxir-oqibat ushbu yo'lni tutdi. Yuqorida nomi eslatib o'tilgan zamon murshidi hazrat Mavloni Muhammad Tabodgoniy (Alloh uning qabrini tabarruk qilsin) xizmatida suluk yo'lini tutib, chillada o'tirdi va yuksak ma'naviy maqomlarga erishdi.

Ba'zi-ba'zida ikki tilda ham she'r yozib turardi. Rindligi chog'ida uning uyi rindlar va xarobotiylar to'planadigan makon edi. Rindlikda hech kim undan o'tolmadi. [Sayyid Hasan Ardasher] o'sha chog'larda quyidagi qit'ani yozgan edi:

*Dilorom bilan tong paytida to'la qadaxlarni sipqorishdan,
g'uncha singari har ikkimiz tor bir ko'ylak ichida chirmashib
quchushmog'imizdan yoqimliroq nima bor?!*

Shuningdek, taqvo va zuhd chog'ida aytilgan quyidagi turkcha bayt ham uning qalamiga mansubdir:

*Ilohiy, nuri irfondin ko'ngulga bir safo bergil,
Ki isyon zulmati ichra xarob ahvolu hayrondur.*

Muborak qabri Gozurgoh yo'lidagi ikki ariq orasida, o'z otasi maqbarasi ichidagi gumbaz ostida edi. Ulug' kishilar hazirasiga dafn etildi».

(*Manba*: Amir Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Forscha tarjima. // Faxriy Hirotiy tarjimasi // Tehron, 1944. 54-55-b)

Xoja Husayn Kirangiy. Amir Alisher Navoiy o'zining «Majolis un-nafois» asarida Xoja Husayn Kirangiy to'g'risida shunday yozadi:

«Xoja Husayn Kirangiy Abivard viloyatidan bo'lib, Xoja Abu Nasr Mehnaning opasining o'g'lidir. Otasi Xoja Qanbar Xurosonning katta obro'-e'tibor va nufuzga ega

arboblaridan boʻlgan. Uning oʻzi yaxshi sheʼrlar yozuvchi, qatʼiyatli va toʻgʻrisoʻz kishilardandir.

Birnechayillardavomidayuqori mansablardan boʻlgan sadrlik lavozimida ishladi. Podshohning unga nisbatan boʻlgan inoyati yuqori darajada edi. Uning bunday yuksak eʼtiborga erishganligining sababi shunda ediki, baʼzida podshohning manfaati uchun faqat toʻgʻri gapni aytardi. Natijada uni podshohning koʻziga shunchalik yomon koʻrsatib qoʻydilarki, faqatgina Tangrining oʻzi podshohning muborak koʻngliga solmasa, biror kishi bu holatni toʻgʻrilash imkoniga ega emasdir.

Xojaning yaxshi tabʼi bor. Quyidagi bayt uning yozgan baytlari jumlasiga kiradi:

*Sening yodingdan boshqa hech bir oh yurakdan chiqmaydi.
Sening xayolingdan boshqa hech bir surat koʻzga koʻrinmaydi.*

(*Manba: Amir Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Forscha tarjima. // Faxriy Hirotiy tarjimasi // Tehron, 1944. 280-281-b*)

Mavlono Muhammad Muammoiy. Amir Alisher Navoiy oʻzining «Majolis un-nafois» asarida Mavlono Muhammad Muammoiy toʻgʻrisida shunday yozadi:

«...yumshoq tabiatli va sunniy mazhab kishi edi. Koʻp ulugʻlar xizmatiga erishib, ularning nazarlariga tushgan edi. Bobur Mirzo zamonida katta sadr boʻldi, undan soʻng ham sultonlar yigʻinlarining hurmatli va aziz mehmoni edi.

Katta boylik va davlatga ega boʻlgan chogʻlarida Sheroz shahridagi hazrati Xoja Hofiz qabri boshida gumbaz qurdi va Bobur Mirzoni oʻsha yerga taklif qilib, ziyofat berdi.

Sherozning shoʻxtaʼb shoirlaridan biri [Bobur] Mirzo-ning koʻzi tushadigan bir joyda, devor yuzasiga quyidagi baytni bitgandi:

*Shaharning barcha vaqflarini butunlay sovurgan bo'lsa-da,
Xudo xayrini bersinki, shu binoni qurdi.*

Mirzo [Bobur bu baytni] o'qidi. Bu to'g'rida hazillar bo'ldi. Kamina bu gapni uning o'zidan eshitganman.

[Aksar vaqtini] kamina bilan o'tkazar, menga ko'p iltifotlar qilar edi. Hayotining oxirlarida Kichik Mirzo bila haj ziyoratiga borish sharafiga ham musharraf bo'ldi va o'sha yerda olam bilan vidolashdi.

«Darvesh» nomli quyidagi muammo uning qalamiga mansubdir:

*Sevgilining dashnomidan yuz o'girsam,
Olam uning dashnomiga jur'at qilgay.*

Amir Xusrav Dehlaviyning she'rlari, risolalari va boshqa asarlarini hech kim undan yaxshiroq qilib to'play olmagan.

U o'sha paytlarda shahar yoshlarining piri edi. Xalq uni muammo ilmida «piri muammoyi» (muammo piri) deb atardi.

Qabri Hirot shahrida».

(*Manba: Amir Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Forscha tarjima. // Faxriy Hirotiy tarjimasi // Tehron, 1944*)

Amir Sayyid Ibrohim Qumiy. Xondamir o'zining «Habib us-siyar» asarida Amir Sayyid Ibrohim Qumiy to'g'risida shunday yozadi:

«Saodatga erishgan ulug' sayyidlar jumlasidan bo'lib, Sulton Sa'id Mirzo Abusa'id bilan munosabati juda yaqin edi va hamisha u bilan birga bo'lardi.

Aytishlaricha, Sulton Sa'id Mirzo Muiziddin Sanjarni qatl etishga farmon bergan kuni Amir Sayyid Ibrohim Qumiy saltanat taxti poyiga bosh urib, podshohdan Mirzo Muiziddin Sanjarning qonidan kechishini va qatl hukmini

bekor qilishini soʻraydi. Biroq Sulton Saʼid unga qarab baqirganicha, uning ushbu iltimosini rad etadi.

Ammo ertasi kuni Sulton Saʼid Amir Sayyid Ibrohim Qumiyni xilvat bir joyga chaqirib, undan uzr soʻrab, shunday deydi:

– Mirzo Muiziddin Sanjar lashkar toʻplab, boshqa bir necha dushmanlarimiz bilan birgalikda bizning iqbol niholimizni ildizidan qoʻporish payida boʻlishgan ekan. Lekin Tangri taoloning irodasi bilan u bizning qoʻlimizga tushdi. Aks holda uning xatti-harakatlari fitna va buzgʻunchilikka sabab boʻlardi. Shunga koʻra kecha sizning iltimosingizni bajo keltirolmadim.

Sulton Saʼid Mirzo Abusaʼiddan koʻngli ogʻringan Amir Sayyid Ibrohim Qumiy shunday javob berdi:

– Mirzo Muiziddin Sanjarning qatl etilish sababi maʼlum boʻldiku-ya, ammo bilmadim qarib qolgan kampir Gavharshod Ogʻoning nima gunohi bor ediki, uni muborak ramazon oyida qatl etdilar?

Sulton Saʼid Mirzo Abusaʼid bu kinoyali gaplarni eshitib taʼsirlanganidan nima deyishini bilmay qoldi va oʻrnidan turdi-da u yerdan ravona boʻldi.

Amir Sayyid Ibrohim Qumiy gʻolib podshoh Sulton Husayn Mirzo hukmronligi davrining boshlarida olamdan oʻtdi».

(Manba: Xondamir. Habib us-siyar. 4-jild // Ustod Jaloliddin Humoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1954. 106-b.)

Mavlono Hoji Muhammad Naqqosh. Xondamir oʻzining «Habib us-siyar» asarida Mavlono Hoji Muhammad Naqqosh toʻgʻrisida shunday yozadi:

«Oʻz davrining mohir va yetuk hunarmandlaridan boʻlib, tafakkur qalami bilan zamon sahifalariga gʻaroyib naqshlar va ajoyib tasvirlar solardi. Rassomchilik va bezatish sanʼatida yuksak mahorat egasi edi.

Ma'lum muddat xitoy chinnisini mana shu yerning o'zida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida shunday chinni yasashga kirishdi. Ancha mehnat va mashaqqatlardan so'ng u yasagan idishlar va boshqa buyumlar chinniga judayam o'xshash ko'rinish oldi. Biroq rangi va tiniqligi kerakli darajada emasdi.

Mavlono Hoji Muhammad Naqqoshning ixtirolaridan biri Amir Nizomiddin Alisher Navoiy kutubxonasida o'rnatilgan soat-quti edi. Ushbu qutida qo'lida tayog'i bo'lgan bir shakl ishlangan bo'lib, kundan bir soat vaqt o'tganda qo'lidagi tayog'ini bir marta oldida turgan nog'oraga urardi. Kunning ikkinchi soati o'tganda ham shu holat takrorlanardi. Shunday qilib soat-qutidagi mazkur shakl har bir soatda bir marta tayog'ini nog'oraga urar, bu bilan navbatdagi soat o'tganini bildirardi.

Bir necha vaqt Amir Alisher Navoiy kutubxonasining mudiri bo'lib ishladi. Ammo oradan bir qancha vaqt o'tgach ul janobdan ranjib, Mirzo Badiuzzamon Hirot shahrini qamal qilgan (hijriy-qamariy) 904(milodiy 1498/1499)-yili uning oldiga qochib o'tdi va Mirzo Badiuzzamon saroyida ham o'sha mansabga tayinlandi.

Mavlono Hoji Muhammad Naqqosh Abulfath Muhammad Shayboniyxon istilosining boshlarida olamdan o'tdi».

(Manba: Xondamir. Rijoli Habib us-siyar // Abdulhusayn Navoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1945. 196-b.)

Amir Nizomiddin Shayxam. Xondamir o'zining «Habib us-siyar» asarida Amir Nizomiddin Shayxam to'g'risida shunday yozadi:

«Olim va fozillar jumlasidan bo'lib, nasl-nasabi ulug' va asilzoda shaxslarga borib yetadi. Hozirda qutlug' Nasriya madrasasida [talabalarga] dars berish va ilm ulashish bilan mashg'uldir. O'z vazifasi shartlarini to'liq bajaradi».

(*Manba*: Xondamir. Rijoli Habib us-siyar (Habib us-siyar arbovlari) // Abdulhusayn Navoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1945. 251-b.)

Ahmad Jom Jandapil. Ahmad Jom Jandapil laqabi bilan mashhur boʻlgan shayx ul-islom Abu Nasr Ahmad ibn Abdulhusayn Nomiqiy Jomiy (hijriy-qamariy) 441 (milodiy 1049/1050) yilda tugʻilgan va (hijriy-qamariy) 536(milodiy 1141/1142)-yilda vafot etgan. (Hijriy-qamariy) V asr oxirlari – VI asr boshlari (milodiy XI oxirlari – XII asr boshlari)da yashab oʻtgan buyuk islom mashoyixlaridan boʻlgan.

Ahmad Jomiy shayx ul-islom martabasiga koʻtarilgan, uning «Anis ut-tolibin» (Toliblar doʻsti), «Kunuz ul-hikmat» (Hikmat xazinalari), «Bihor ul-haqiqat» (Haqiqat dengizlari), «Siroj us-soyirin» (Sayr qiluvchilar chirogʻi), «Miftoh un-najot» (Najot kaliti) va boshqa asarlari maʼlum.

Ahmad Jomiyning oshiqona va orifona gʻazallari devoni ham bor boʻlib, xalq orasida keng tarqalgan. «Sabzpariyu Zardpariy» nomli qissani va XVII asr shoiri Jomiy Garmiyning «Varqa va Gulshoh» asarini ham xato tarzda Ahmad Jomiyga nisbat berishadi. Aftidan bu asarlar tarkibida shoir sheʼrlari koʻplab uchrasa kerak.

Navoiy «Lison ut-tayr»da gʻoyat insondoʻstlik va oliyhimmatlik gʻoyasi bilan yoʻgʻrilgan bir hikoyatni keltiradi.

(*Manba*: Ravzat ul-muzannabin. Tehron)

Xoja Osafiy. Xoja Osafiy Xoja Sulton Abusaʼid Mirzoning vaziri Naimiddin Neʼmatulloh Qahistoniyning oʻgʻli edi. Hirotdan Balxga ketib, oʻsha yerda yashab qoldi va Badiuzzamon Mirzoning nadimi boʻldi.

Oradan bir qancha vaqt oʻtgach yana qaytib Hirotda koʻchib keldi va (hijriy-qamariy) 923-yil shaʼbon oyining

ikkinchi kunida (milodiy 1517-yilning 20-avgustida) vafot etdi. Qabri Xoja Ansor qabrining janub tomonidadir.

Qabrtoshi yuzasiga o'yib yozilgan quyidagi baytni uning o'zi o'limidan bir kun oldin yozgan:

Osaftiy yetmishga yuzlangan yili, yetmishdan o'tdi-yu oyoqdan yiqildi. Shu bosqichdan o'tdi-yu, «boqiylikka yo'lni yetmish qadam bilan bosib o'tdi» uning vafoti sanasi bo'ldi.

(*Manba: Xondamir. «Xulosat ul-axbor» asaridan bir bo'lim // Go'yo E'timodiy nashrga tayyorlagan // Kobul, 1966; Amir Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Forscha tarjima. // Faxriy Hirotiy tarjimasi // Tehron, 1944.*)

Xoja Hofiz Muhammad Xattot. Xondamir o'zining «Xulosat ul-axbor» asarida Xoja Hofiz Muhammad Xattot to'g'risida shunday yozadi:

«Hiroat ul-olam» asarida keltirilishicha, Xoja Hofiz Muhammad Xattot katta bilim va hunarga ega bo'lib, nasta'liq yozuvidan boshqa «yettiqalam» yozuvlarini ifodalash san'atini eng yuqori darajalarga yetkazdi.

Amir Alisherning yaqin kishilaridan bo'lib, Buyuk Amirning jome masjididagi imomlik va xatiblik lavozimi uning zimmasida edi. Quyidagi matla' uning ijodidan bir namunadir:

Qoshingning yarim oy kabi shakli namlangan ko'zdan ketmadi, baliq bir dam bo'lsa-da dengiz ko'zidan quruqlik tomon bormadi.

(*Manba: Xondamir. «Xulosat ul-axbor» asaridan bir bo'lim // Go'yo E'timodiy nashrga tayyorlagan // Kobul, 1966*)

Amir Kamoliddin Sulton Husayn. Xondamir o'zining «Xulosat ul-axbor» asarida Amir Kamoliddin Sulton Husayn to'g'risida shunday yozadi:

«Tab'ining sog'lomligi-yu zehning o'tkirligi, asl-nasabining ulug'ligi-yu o'z mehnati bilan erishgan

darajalarining buyukligi, nafsga berilmaganligi-yu goʻzal xulqi bilan mashhur edi.

Muloyimtabiat, mulozimatli va shirinsoʻz kishi boʻlib, hamisha xulq-atvor va yurish-turishda Amir Alisher Navoiyga taqlid qilardi.

Baʼzida qasida va gʻazallar ham yozib turardi. Quyidagi matlaʼ uning ijodi mahsulidir:

*Men ham himmatim tufayli oʻzimni chetga olgan kishiman.
Ovora-yu sarson boʻlib hayrat vodiysiga qadam qoʻydim.*

(*Manba: Xondamir. «Xulosat ul-axbor» asaridan bir boʻlim // Goʻyo Eʼtimodiy nashrga tayyorlagan // Kobul, 1966*)

Mavlonο Darvesh Ali (Tabib). Xondamir oʻzining «Xulosat ul-axbor» asarida Mavlonο Darvesh Ali Tabib toʻgʻrisida shunday maʼlumot beradi:

«Kasalliklarning davosini topish va kasallikka chalingan gʻariblarni davolashda katta gʻayratlar koʻrsatgan boʻlib, haqiqatdan ham tabobat ilmida yuksak choʻqqilarga erishgan.

Har doim oliy hazratning shifoxonasida kasallarni davolashga mashgʻuldir. Oʻsha maskanga tegishli boʻlgan vaqf mulklardan katta foyda oladi».

Navoiy oʻzining «Majolis un-nafois» asarida Mavlonο Darvesh Ali Tabib toʻgʻrisida shunday yozadi:

«Otasi sham quyuvchi edi, biroq oʻzi tabobatga mashgʻul boʻldi. Bu ishda mahoratga ega boʻlgan tabiblar uni judayam maqtashadi. Tabʼi ham yaxshi boʻlib, muammoga eʼtibori kattadir».

(*Manba: Xondamir. «Xulosat ul-axbor» asaridan bir boʻlim // Goʻyo Eʼtimodiy nashrga tayyorlagan // Kobul, 1966; Amir Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Forscha tarjima. // Faxriy Hirotiy tarjimasi // Tehron, 1944.*)

Mavlono Lutfiy. Sulton Boysung'ur Mirzo saroyida shakllangan adabiy muhit vakillaridan. Alisher Navoiy o'zining «Majolis un-nafois» asarida Mavlono Lutfiy to'g'risida shunday yozadi:

«...o'z zamonining malikul-kalomi edi. Forsiy va turkiyda [she'r yozishda] o'xshashi va tengi yo'q edi, ammo turkiyda shuhrati ko'proq edi. Uning turkcha devoni ham mashhurdir va ularga javob yozish qiyin bo'lgan matla'lari bor...

... To'qson to'qqiz yil yashadi va umrining oxirlarida «oftob» radifli she'r yozdi. Zamon shoirlarining barchasi unga tatabbu' qildilar, biroq ularning hech biri matla'ni uning darajasida ayta olmadilar. Quyida o'sha matla'ni keltiramiz:

Tunga o'xshash zulfingdan quyosh [yuzing] soyada qolib ketgandir. Zulfing shomida oy o'rniga quyosh chiqqandir.

... Mavlono yigitlik chog'larida zohiriy ilmlarni mukammal o'rganib olganidan so'ng, Mavlono Shihobiddin Xiyoboniy alayhirrahma huzurida sufiylik tariqatida ham suluk qilgandir...

...Mavloning qabri [Hirot] shahri atrofidagi Dehi Kanordadir...».

Mavlono Lutfiy qabriga o'rnatilgan qabrtosh Fikriy Saljuqiy tomonidan topilib, «Hirot qabristonlari» risolasida u to'g'rida ma'lumot keltirilgan.

Chig'atoy turkchasida bitilgan g'azallar, qasidalar va tuyuqlardan iborat bo'lgan she'riy devoni mashhur bo'lib, zamonamizda nashr ham etilgan.

(Manba: Amir Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Forscha tarjima. // Faxriy Hirotiy tarjimasi // Tehron. 1944.)

Mavlono To'tiy Shoir. Shirinso'z shoir bo'lib, uning asl kelib chiqishi Turshizdandir. Buyuk sulton Abulqosim

Bobur Bahodir podshohligi zamonida adabiyot maydoniga qadam qoʻyib, katta shuhrat topdi.

Qasida yozishda katta mahoratga ega boʻlib, Sulton Abulqosim Bobur madhida gʻoyatda goʻzal bir qasida yozgan. Xoqoniyga javob tariqasida ham bir qasida yozgan boʻlib, uning matlaʼi quyidagichadir:

Tun yana ufqqa shafaqdan qizil yoqut toʻkdi, osmon yulduzlardan tovoqqa yarqiroq marvarid toʻkdi.

Fozillar uning qasidalarini boshqa qasidanavis shoirlar qasidalaridan yaxshiroq deb biladilar.

Mavlono Toʻtiy goʻzal xulqqa va yaxshi fazilatlarga ega kishi boʻlgan boʻlib, shoirligiga qaramasdan, boshqa ilmlarni ham yaxshi oʻzlashtirgandi. Tibbiyotga oid kitoblarga sharhlar ham yozgan.

Quyidagi baytni Mavlono Badihiy Buxoriyga bagʻishlab yozgan:

*Burningning har solinchagi, shubhasiz, bir gʻordir.
Men toʻtiman, biroq senda ajab bir tumshuq bordir.*

Taxminan (hijriy-qamariy) 867(milodiy 1462/1463)-yilda saltanat poytaxti Hirotda Mavlono Toʻtiyning ruh toʻtisi bu dunyo qafasi asirligidan ulugʻlik osmonining eng yuqori nuqtasiga parvoz qildi.

Ikki-uch kunlik bu omonat hayotda, bu mashaqqatlar dunyosida, bir-biriga zid narsalarning oʻzaro talashib-tortishishida yashamoqlik, oxir-oqibatda esa ajal soqiysi quyib bergan sharbatdan ichmoqlik qanaqasiga ham lazzat boʻlsin?! Haqiqatan ham malakut bogʻining qushi boʻlgan ruh toʻtisi uchun bu dunyo bir qafas boʻlib, umr esa donolarning nazdida bir nafasdir.

*Malakut bogʻining qushiman, tuproq olamidan emasman.
Tanamdan ikki-uch kunlik qafas yasashgan.*

(*Manba*: Davlatshoh Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro. // Muhammad Ramazoniy tomonidan nashrga tayyorlangan // Tehron, 1959; Xondamir. Habib us-siyar. 4-jild // Ustod Jaloliddin Humoiy nashrga tayyorlangan // Tehron, 1954.)

Pahlavon Muhammad Abu Sa'id. Alisher Navoiy o'zining «Majolis un-nafois» asarida Pahlavon Muhammad Abu Sa'id to'g'risida shunday yozadi:

«... turli va ko'pdan-ko'p bilimlar va hunarlarni egallagan. Kurash san'atida katta mahoratga ega bo'lib, haligacha biror kishining bu sohada undan kuchliroq va yaxshiroq ekani ma'lum bo'lmagan. Boshqa sohalardagi bilim va mahoratlari uning bu hunaridan quyiroqda turadi. Musiqa va maqom ilmida o'z davrining benazir san'atkoridir. U yetgan maqom va daraja kundek ravshan bo'lganligi sababli, bu to'g'rida batafsil so'zlab o'tirishning hojati yo'q. Kamina Astroboddan quyidagi ruboiyni yozib, Pahlavon huzuriga jo'natgan edim:

Ka'ba va dayrda sening irshoding bilanmiz (ya'ni sen bizning murshidimiz – pirimizsan), savma'a va mayxonada sening yoding bilanmiz. Saharda zikring, shomda esa sening duolaring bilanmiz. Ya'ni, Ne'matoboding yetimlarimiz.

Pahlavon javob tariqasida quyidagi ruboiyni bitibdi:

Ey Amir, sen pirimizsan, biz sening irshoding bilanmiz. Doim duogo'yingmiz va sening yoding bilanmiz. Bu shahr senga yoqimli-yu, biz sen bilan xushvaqtmiz. Biz o'lganmiz, Astroboding [yo'lida] xarob bo'lganlarmiz.

Quyidagi matla' Pahlavonning qalamiga mansub bo'lib, bu baytni aytganida podshoh unga ming oltin tanga in'om qilib yubordi:

Unga: «sening ishqing olamida ishim g'amdan iborat bo'ldi», deganimda, u kulgi aralash miyig'ida: «bu g'am emas, balki olamning ishidir», dedi.

Shu o'rinda eslatib o'tish lozimki, Amir Alisher Navoiy Pahlavon Muhammad Abu Sa'idga bo'lgan alohida irodati va hurmati yuzasidan hamda ko'pgina vaqtlarini u bilan birga o'tkazganligi sababli, unga bag'ishlab alohida bir risola yozgan.

(*Manba*: Amir Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Forscha tarjima. // Faxriy Hirotiy tarjimasi // Tehron, 1944.)

Sulton Husaynning farzandlari. Sulton Husayn Mirzo Boyqaroning o'n to'rtta o'g'li va o'n bitta qizi bo'lib, Xondamir o'zining «Habib us-siyar» asarida uning o'g'illari va qizlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Quyida Sulton Husayn Mirzo Boyqaroning o'g'illari nomlarini keltirib o'tamiz.

1. Sulton Badiuzamon Mirzo.
2. Haydar Muhammad Mirzo.
3. Shoh G'arib Mirzo.
4. Muzaffar Husayn Mirzo.
5. Abulhasan Mirzo.
6. Muhammad Muhsin Mirzo.
7. Farrux Husayn Mirzo.
8. Muhammad Ma'sum Mirzo.
9. Ibrohim Husayn Mirzo.
10. Ibn Husayn Mirzo.
11. Muhammad Qosim Mirzo.
12. Abu Turob Mirzo.
13. Muhammad Husayn Mirzo.
14. Faridun Husayn Mirzo.

(*Manba*: Xondamir. Habib us-siyar. 4-jild // Ustod Jaloliddin Humoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1954.)

Xoja G'iyosiddin Muhammad Dehdor. Xondamir o'zining «Habib us-siyar» asarida Xoja G'iyosiddin Muhammad Dehdor to'g'risida shunday yozadi:

«...Xoja G'iyosiddin Muhammad Dehdor o'ta donishmandigi-yu oqilligi, o'tkir aqli-yu zakovati bilan o'z zamonasida yagona bo'lib, hamisha muborak ko'ngil ko'zgasidagi zangni hazilomiz so'zlar va kishining kayfiyatini ko'taruvchi va unga quvonch ulashuvchi mutoyibalar bilan sayqallashga harakat qilardi...».

(*Manba*: Xondamir. Habib us-siyar. 4-jild // Ustod Jaloliddin Humoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1954.)

Mir Sarbarahna. Xondamir o'zining «Habib us-siyar» asarida Mir Sarbarahna to'g'risida shunday yozadi:

«Mir Sarbarahna laqabi bilan mashhur bo'lgan Sayyid Shamsiddin Muhammad Andijoniyning bunday laqab olishining sababi shuki, yoshlik chog'larida bir kungur [darvesh] yigitga bo'lgan muhabbatni ko'ngil shahristoniga joylab, ushbu yigitning rahnamoligi ostidagi qalandarlar to'dasiga kiradi va ba'zida boshyalang bo'lib, o'sha to'da bilan birgalikda ko'cha va bozorlarni aylanib yuradi. Axiyri ularning imomligini ham o'z zimmasiga oladi. Ruboiylar ham yozgan bo'lib, quyida ulardan birini keltiramiz:

Quyosh va oyga topinuvchilar sening ko'zingdan (o'zlari tomon) bir qarash bo'lishini orzu qiladilar. Agar kungur deganlari men ko'rib turgan shu narsa bo'lsa, boshqa go'zallar ...

Mir Sarbarahna go'zal xulqi, shirinso'zligi, zehning o'tkirligi va iste'dodining yuksakligi bilan zamon fozillari va davr so'z ustalari orasida alohida ajralib turar, har doim chiroyli so'zlar va mazmunli hikoyatlar, hazilomuz so'zlar va mutoyibaga to'la gaplarni aytib yurardi.

Hayotining qolgan qismini biror bir mansabga o'tirmasdan, Amir Nizomiddin Alisherning xizmatida o'tkazdi va (hijriy-qamariy) 898(milodiy 1492/1493)-yilda kasallikka chalinib, oxirat olamidanda makon topdi.

(*Manba*: Xondamir. Habib us-siyar. 4-jild // Ustod Jaloliddin Humoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1954.)

Mavlono Soneʻiy. Xondamir oʻzining «Habib us-siyar» asarida Mavlono Soneʻiy toʻgʻrisida quyidagi maʼlumotlarni keltiradi:

«Xoja Alouddin Ali as-Soneʻiy Boxarz viloyatining aslzodalari jumlasidan boʻlib, doimon nasabi barmakiylarga borib taqalishi bilan faxrlanib yurardi. Yuksak isteʼdodi, sheʼr yozishdagi mahorati va saxiyligi bilan mashhur edi.

Sulton Husayn Mirzo Boyqaro saltanatining boshlarida xoqonning iltifot nazariga tushib, vazir etib tayinlandi. U oʻzi istagan mansabiga erishib boʻlganidan soʻng oddiy xalq va bechora kishilarga zulm qila boshladi. Shuningdek, har doim boshqa vazirlar toʻgʻrisida yolgʻondan boʻlmagʻur gaplar gapirib, ularni xoqonga yomon koʻrsatishga harakat qila boshladi.

Hazrati sultonning yaqin kishisi boʻlgan Amir Alisherning muborak koʻngli uning bu xatti-harakatlaridan ranjidi. Kunlardan bir kuni, hazillashibmi yoki chindanmi, Xoja Soneʻiy quyidagi baytni yozdi:

*Ertaga jang boʻlib, qilich zarba berishga tushsa,
Alisher bilagining kuchi maʼlum boʻladi.*

Bu esa oʻrtadagi xusumatning yanada kuchayishiga olib keldi.

Kunlardan bir kuni ertalab Xoja Soneʻiy oliy taxt etagida turgan chogʻida, yasovullardan biri podshohning bajarilishi vojib boʻlgan amriga muvofiq uning boshidagi katta sallasini olib tashladi. Shunda Amir Alisher xoqonga yuzlanib, quyidagi misrani aytdi:

*Boshidagi yukni yengillatgan ekansan, endi boʻynidagi
yukni ham yengillatgin, yaʼni, sallasini olib tashladingmi, endi
kallasini ham olib tashla.*

Shunday qilib, oʻsha kuni Xoja Soneʻiy ni mansabidan chetlatish va jazolash toʻgʻrisida farmon chiqdi. U qan-

chalik yalinib-yolvorib, tavba-tazarru qilmasin, zindoning yuqori tabaqasida qamoq jazosini o'tashga mahkum qilindi. Uning qamoq muddati olti yilga cho'zildi. Mahbuslik chog'larida chiroyli bir g'azal yozib, hazrati sultonning yaqin kishisiga jo'natdi. O'sha g'azalning matla'i quyidagicha:

*Qulog'ing hecham eshitmagan narsa mening faryodimdir,
shuningdek, sening xotiringga hecham kelmagan narsa mening
yodimdir.*

Biroq bu maktubdan biror bir foyda bo'lmadi. Amir Alisher uni jazodan ozod qilishga ko'nmadi.

Xoja Sone'iy qamoqdalik paytida aksariyat vaqtini ilm o'rganishga sarfladi, Kalomullohni yod oldi, shu zamonda keng tarqalgan fanlarni o'qib-o'rgandi. Xoja Salmon Sovajiy qasidasiga tatabbu' bag'ishladi va unda she'riy san'atlarning aksariyatini qo'lladi».

(*Manba: Xondamir. Habib us-siyar. 4-jild // Ustod Jaloliddin Humoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1954.*)

Mavlono Shams Ma'ruf. «Ahsan ut-tavorix» asarining muallifi Hasan Rumlu Mavlono Shams Ma'ruf to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni keltirgan:

«... bu Mavlono Ma'ruf yaxshi xislatlarga ega bo'lib, shirinso'z va xushsuhat edi. Kigizdan tikilgan to'q sariq rangli kiyim, boshiga esa kigizdan tikilgan baland uchli qalpoq kiyib yurardi. Hirot yoshlari u bilan birga bo'lishardi. Biroq doimo qovog'ini uyib, xo'mrayib yurardi.

Mavlono Shams Ma'ruf Sulton Ahmad Jaloyirdan qochib, Isfahonga Iskandar Mirzoning oldiga boradi. Uning kutubxonasida joylashib, bir kunda o'ta go'zal bo'lgan bir yarim ming bayt she'r yozadi.

Mirzo Boysunqur men uchun Nizomiy «Xamsa»sini ko'chirib berasan, deya unga kerakli miqdorda qog'oz

beradi. Mavlono bu qogʻozlarni bir yildan ortiqroq vaqt oʻzida saqlab turadi, biroq unga (Nizomiy «Xamsa»sini) koʻchirib yozmasdan, Mirzo Boysunqurning oldiga qaytarib joʻnatib yuboradi. Bundan gʻazablangan Mirzo Boysunqur uni jazolashga ahd qilib, bir necha bor dorning ostiga olib keladi, ammo osmaydi. Mavlono Shams Maʼruf axiyri Ixtiyoriddin qalʼasiga zindonband etiladi...».

(*Manba:* Hasan Rumlu. Ahsan ut-tavorix (Eng yaxshi tarixlar). Izohlar va ilovalar // Abdulhusayn Navoiy tomonidan nashrga tayyorlangan // Tehron, 1970; Ali Ahmad Naʼimiy. Temuriylar davri Hirotda musavvirlari va xattotlari. Kobul, 1949.)

Mirak Naqqosh. Xondamir oʻzining «Habib us-siyar» asarida Mirak Naqqosh toʻgʻrisida shunday yozadi:

«Rassomchilik va bezatish ilmida tengi yoʻq boʻlib, [binolar peshtoqlari, devorlar va boshqa joylarga] bitiklar bitishda mislsizlik bayrogʻini baland koʻtargan edi. Hirotdagi binolar peshtoqlari va devorlariga bitilgan bitiklarning aksariyati uning mahorati hosilalaridir. Muhammad Shayboniyxon Hirotni bosib olgan zamonda vafot etdi».

(*Manba:* Xondamir. Habib us-siyar. 4-jild // Ustod Jaloliddin Humoiy nashrga tayyorlagan // Tehron, 1954. 348-b.)

ASARDA NOMLARI KELITIRILGAN JOYLAR

Bog'i Zog'on. Kurtlar sulolasi hukmronligi zamonidan yodgorlik sifatida qolgan bog' va binolar majmuasi bo'lib, temuriylar davrida ham undan foydalanilgan.

Raboti Sari Xiyobon. Raboti Sari Xiyobon raboti ham sayru suluk ahlining tayanchi bo'lgan ul hazrat [Amir Alisher Navoiy] tomonidan qurilgan binolar jumlasiga kiradi.

(*Manba:* «Risolai mazoroti Hirot» (Hirot qabristonlari to'g'risida risola) asari.)

Raboti Tirpul. Hirotning G'uriyon tumanidan sakson besh chaqirim janubi-sharqda, 61 daraja, 14 daqiqa, 50 soniya sharqiy uzunlik va 34 daraja, 35 daqiqa, 37 soniya shimoliy kenglikda joylashgan. Bartold uning binosini chiroyli va mustahkam deb ta'riflar ekan, bir ozgina ta'mirga muhtoj, deb yozadi.

(*Manba:* Afg'oniston jug'rofiy ensiklopediyasi. 237-238-b.)

Raboti Sangbast. Mashhad shahridan o'ttiz yetti kilometr uzoqlikda joylashgan Sangbast degan joyda gumbazi va minorasi bor bir bino ko'zga tashlanadi. Ushbu binoni Sulton Mahmud G'aznaviyning zamondoshi bo'lgan Tus hokimi Arslon Jozibning maqbarasi, deb aytadilar.

Ushbu binoda to'rtburchak shakldagi bir xona bo'lib, ilgari uning ichki devorlari pishiq g'ishtdan qilingan bezaklar bilan bezatilgan hamda asil bo'yoqlar bilan bo'yalgan bo'lgan. Uning hoshiyador devorining yuqori

qismida gullarning tasvirlari bilan bezatilgan fonda oq rang bilan kufiy yozuvida bitilgan bitik koʻzga tashlanadi.

Balandligi unchalik katta boʻlmagan gumbazi sakkiz burchakli qurilma ustida joylashgan boʻlib, uning ichki qismi pishiq gʻishtdan qilingan naqshlar bilan bezatilgan.

Bino tirgaklari orasida yarim oy shaklidagi tuynuklar ochilgan boʻlib, ularning har biri ostida eshik qoʻyilgan.

Minora gumbazdan bir necha metr masofada joylashgan. Ushbu gʻishtin baland minora qoʻsh gʻishtlarni bir-birining ustiga terish orqali qurilgan boʻlib, uning yuqori qismida kirish eshigi ochilgan.

Uning bezakli gʻishtlari ostida gʻishtlarni terish orqali kufiy yozuvida yozilgan bitik mavjud. Mazkur bitikning yuqorisi va atroflarida gʻaznaviylar davri bezaklari saqlanib qolgan.

Ushbu binoning tarixiy ahamiyati ham shundaki, u bugungi Eron hududida gʻaznaviylar davridan saqlanib qolgan, qolaversa hozirgacha oʻz mustahkamligi va pishiqligini qoʻldan bermagan yagona meʼmoriy obidadir.

Ushbu gumbaz va minorahijriy-qamariy 389–421 (milodiy 999 – 1030)-yillar oraligʻida Arslon Jozib tomonidan qurilgan katta va hashamatli rabot binosining bir qismi boʻlgan.

Biroq Davlatshohning yozishicha, keyinchalik ushbu binoning raboti buzilgan va Amir Alisher Navoiy uning yonidan yangi bir rabot qurgan. Davlatshoh Amir Alisher Navoiy tomonidan qurilgan ushbu rabotning chiroyliligi va kattaligi toʻgʻrisida shunday yozadi: «Olam koʻzi haligacha bunday imoratni koʻrmagan ...».

Xondamir oʻzining «Makorim ul-axloq» asarida buni tasdiqlab, Sangbast rabotini Amir Alisher Navoiy tomonidan qurilgan rabotlar jumlasidan sanab oʻtadi.

(*Manba*: Davlatshoh Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro. Tehron, 1970. 101-102-b.)

Raboti Ishq. Bo'jnurd tumani Isfaroyin tegrasidagi bir qishloq bo'lib, bu hududning suv ta'minoti yer osti sug'orish inshootlari – korizlar orqali amalga oshiriladi. Aholisi asosan g'alla yetishtirish bilan shug'ullanadi.

(Manba: Eron jug'rofiy lug'ati. 8-jild.)

Raboti Ohuvon. Ohuvon qasaba nomi bo'lib, Semnon shahrining sharq tomonida undan yetti farsax uzoqlikda, Semnondan Domg'onga boradigan yo'l o'rtasidagi tog'ning yuqori qismida joylashgan.

Bu makon qadim zamonlardan Xurosondan Rayga olib boradigan yo'ldagi yo'lovchilar qo'nadigan manzil bo'lgan. Hozirgi kunda u yerda qadimgi davrlarda karvonlar yo'lovchilarining dam olishlari uchun qurilgan bir necha rabot va karvonsaroyning qoldiqlari ko'zga tashlanadi.

Hijriy-qamariy VIII (milodiy XIV) asrning tarixchisi va geografi Hamidulloh Mustavfiy o'z kitoblarida Ohuvon va Semnon to'g'risida eslatib, shunday yozgan:

«Semnon va Domg'on o'rtasidagi bir shaharcha bo'lib, u erda ko'plab ulug' kishilarning qabrlari bor. Bug'doyi va mevalaridan yaxshi hosil olinadi».

Ohuvon qasabasi mustahkam qal'alariga ega bo'lib, ular hozirgi Mutarru yo'lidan yarim farsang quyiroqda, ya'ni janub tomonda joylashgan bo'lgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Ohuvon qal'alari mo'g'ul istilosi davrida xarobaga aylanib, u yerda yashovchi aholi boshqa joylarga ko'chib ketgan. Ispaniya qiroli tomonidan Amir Temur saroyiga elchi qilib jo'natilgan Klavixo hijriy-qamariy 806 (milodiy 1403)-yilda bu hududdan ham o'tgan va Ohuvon to'g'risida quyidagilarni yozib qoldirgan:

«Ohuvondaryo bo'yida joylashgan bir qishloq bo'lib, ilgarilari mudofaa maqsadlarida qurilgan ikki qal'asi bo'lgan, biroq keyinchalik har ikkalasi buzib tashlangan.»

(*Manba*: Klavixo sayohatnomasi. Masʻud Rajabniyo tarjimasi. Tehron: Kitob tarjimasi va nashri muassasasi, 1965.)

Masjidi Puli Injil. Fikriy Saljuqiy tomonidan nashrga tayyorlangan Oxundzoda Mullo Muhammad Siddiq Hiraviyning Hirot qabristonlariga bagʻishlangan risolasida ushbu masjid toʻgʻrisida bir qancha maʼlumotlar keltirilgan.

Juzjonon koʻprigi. Bu koʻprik toʻgʻrisida xalq ogʻzaki ijodi namunalarida maʼlumotlar keltirilgan boʻlib, odamlar uni besh yuz yil oldin qurilgan, uning atrofidagi chinorlarni esa Mavlono Jomiy ekan, deb taxmin qilardilar.

«Makorim ul-axloq» asarining yagona qoʻlyozma nusxasini oʻrganish bu masalaga aniqlik kiritilishiga yordam berdi. Chunki bu asarda Juzjonon koʻprigi Amir Alisher Navoiy tomonidan qurilgan inshootlar jumlasidan sanab oʻtilgan.

Bu koʻprik bugungi Afgʻoniston mamlakatining Juzjon viloyati Saripul tumanidagi Obi safed deb nomlangan daryo ustiga qurilgan boʻlib, hozirgacha saqlanib qolgan. Engil va ogʻir transport vositalari hech bir qiyinchiliksiz uning ustidan oʻta oladilar.

Pariyon raboti. Hirotidan olti chaqirim shimoli-gʻarbdagi Pariyon qishlogʻida, 61 daraja, 75 daqiqa, 8 soniya sharqiy uzunlik va 34 daraja, 24 daqiqa, 12 soniya shimoliy kenglikda joylashgan.

(*Manba*: Afgʻoniston jugʻrofiy ensiklopediyasi. 237-238-b.)

Toʻgʻuz rabot. Hofiz Abroʻ oʻzining «Jugʻrofiya» asarida Toʻgʻuz rabotni Parvona va Havodashtak tumanidagi qishloqlardan biri sifatida eslatib, shunday deb yozadi:

«Toʻgʻuz rabot Parvona va Havodashtak tumanidagi

qishloqlardan biri bo'lib, uni Sulton Sanjar bin Malikshoh Saljuqiy hukmronligi zamonda Hakim Anvari tomonidan madh etilgan Xoja Mavdud Ismiy bino etgan. Hirot shahridan To'g'uz rabotgacha ikki farsax yo'ldir.

[Ushbu qishloqda qurilgan hamda] binosining balandligi va hududining kengligi bilan mashhur bo'lgan To'g'uz rabot ul hazrat [Amir Alisher Navoiy] tomonidan ta'mirlangan imoratlar jumlasiga kiradi.

Fikriy Saljuqiy To'g'uz rabotni Chug'ur rabot nomi bilan ham esga oladi.

(*Manba:* «Risolai mazoroti Hirot» (Hirot qabristonlari to'g'risida risola), «Ravzat ul-jannot» (Jannat bog'lari) asarlari.)

Filuriy. Yevropa tillarida «florin» («florin») deb ataluvchi filuriy oltin tanganing nomi bo'lib, qiymati to'qqiz shilling va bir necha pensga barobardir. Bu tanganing nomi «gul» ma'nosini anglatuvchi «flore» so'zidan kelib chiqqan «florino» so'zidan yasalgan. Chunki Florensiyada zarb etilgan ilk filuriy tangalar yuzasiga cho'qintiruvchi Yahyo bilan birgalikda gulning tasviri ham naqshlangan edi.

Filuriy ilk bora milodiy o'n uchinchi asrda (1252-yilda) Florensiyada vujudga kelgan bo'lib, uni zarb etishda ishlatiladigan oltinning oliy sifati va boshqa yuksak xususiyatlari tufayli qisqa vaqtda katta shuhrat topib, butun o'rta asrlar dunyosidagi eng mo'tabar pul birligiga aylangan.

Filuriy o'zining ushbu mavqei va nufuzini milodiy o'n beshinchi asrning oxirlariga qadar saqladi. Keyin esa jahon bozoridagi o'z o'rnini Venetsiyada zarb etiladigan «doka» nomli oltin tangaga bo'shatib berdi.

Filuriy o'rta asrlarda Florensiyadan boshqa joylarda, jumladan Evropaning boshqa mamlakatlarida ham zarb etila boshlagan. Hatto yaqin vaqtlargacha ham Buyuk

Britaniyada vazni 11,31 gr. boʻlgan, Niderlandiyada esa vazni 10 gr. boʻlgan kumush tanga florin deb atalgan.

Fors tilidagi manbalarda «filuriy» shaklida eslatiluvchi bu pul birligi ilk bor «Zafarnoma»da keltirilgan.

(*Manba*: Hasan Rumlu. Ahsan ut-tavorix (Eng yaxshi tarixlar). Izohlar va ilovalar // Abdulhusayn Navoiy tomonidan nashrga tayyorlangan // Tehron, 1970.)

Xavof. Turbati Haydariya tumanidagi besh tegranning biri. Shimoli sharqda Tayyibot tegrasi hamda Eron-Afgʻoniston chegarasi bilan tutashgan, shimoli-gʻarbda Rashxur va janubda Qoyin tegralari bilan chegaradosh.

Bu togʻlik tuman boʻlib, faqatgina daryoning janubiy qirgʻogʻi hamda Afgʻoniston chegarasining atroflari pasttekislikdan iborat.

MUQADDIMA VA IZOHLARDA ISTIFODA QILINGAN MANBALAR

1. Afg'oniston. Kobul: «Oriyono – ensiklopediya» jamiyati nashriyoti, 1955.
2. Afg'oniston jug'rofiy ensiklopediyasi. Kobul: «Oriyono – ensiklopediya» jamiyati nashriyoti. 4 jildlik.
3. Sharqiy xalifalik hududlari tarixiy jug'rofiyasi. Mahmud Irfon tarjimasi. Tehron: 1958.
4. *Bartold V. V.* Eron tarixiy jug'rofiyasi tazkirası. Hamza Dodvar tarjimasi. Tehron: 1929.
5. *Hasan Rumlu.* Ahsan ut-tavorix. Abdulhusayn Navoiy tomonidan nashrga tayyorlangan. Tehron matbaasi.
6. *Sikandarbek Turkmon.* Tarixi olamoroyi Abbosiy. Ikki jildlik. Iraj Afshor tomonidan nashrga tayyorlangan.
7. *Sayyid Asiliddin Abdulloh Voiz Hiraviy.* Maqsad ul-iqboli sultonıya. Moyil Hiraviy tomonidan nashrga tayyorlangan. Tehron: 1972.
8. *Zahroyi Xonlariy.* Fors adabiyoti lug'ati. Tehron: 1969.
9. *G'iyosiddin Xondamir.* Habib us-siyar. To'rt jildlik. Jalol Humoiy tomonidan nashrga tayyorlangan. Tehron: 1954.
10. *Abdulhusayn Navoiy.* *Habib us-siyar arboblari.* Tehron: 1945.
11. *Alisher Navoiy.* Majolis un-nafois. Ali Asg'ar Hikmat tomonidan fors tiliga tarjima qilingan. Tehron: 1944.
12. *Ali Asg'ar Hikmat.* Jomiy. Tehron: 1941.
13. «Suxanvaron» lug'ati. Tabriz: Xayyompur, 1961.
14. *Muhammad Husayn bin Xalaf Tabriziy Burhon.* Burhoni qote'. To'rt jildlik. Muhammad Muin tomonidan nashrga tayyorlangan. Tehron: 1951-1956.
15. *Said Nafisiy.* Erondagi nazm va nasr tarixi. Ikki jildlik. Tehron: 1965.
16. *Muhammad Favoid Abdulboqiy.* Al-mu'jam al-mufah-ris li alfoz al-Qur'on al-karim. Qohira: 1378 h-q.y.

17. Hirot qabristonlari. Fikriy Saljuqiy tomonidan nashrga tayyorlangan. Kobul: 1968.
18. «Oriyono» jurnali (turli sonlari). Afg'oniston tarix jamiyati nashriyoti.
19. *Bartold V. V.* Turkistonnoma. Karim Keshovarz tomonidan fors tiliga tarjima qilingan. Tehron: 1973.
20. *Amir Alisher Navoiy Foni.* Muhammad Ya'qub Vohidiy tomonidan nashrga tayyorlangan. Kobul: Afg'oniston tarix jamiyati nashriyoti, 1967.
21. *G'iyosiddin Xondamir.* Makorim ul-axloq. M. Faxriddinov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Lotin alifbosida. Toshkent: O'zFan. 1941.
22. *G'iyosiddin Xondamir.* Makorim ul-axloq. M. Faxriddinov va P. Shamsiev tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Kirill alifbosida. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1967.
23. *Edvard Braun.* Sa'diydan Jomiygacha. Ali Asg'ar Hikmat tomonidan fors tiliga tarjima qilingan. Tehron: 1960.
24. *G'iyosiddin Xondamir.* «Xulosat ul-axbor» asaridan bir bob. Sarvar Go'yo E'timodiy tomonidan nashrga tayyorlangan. Ikkinchi nashr. Kobul: 1967.
25. *Charlz R'e.* Britaniya muzeyidagi forscha qo'lyozmalar fihristi. 1-jild. London: 1879.
26. *Sarvar Go'yo E'timodiy.* Hirotning go'zal obidalari. Kobul: Afg'oniston tarix jamiyati nashriyoti, 1947.
27. «Vahid» jurnali (turli sonlari). Tehron.
28. *Najm Roziy.* Mirsod ul-ibod. Muhammad Amin Riyohiy tomonidan nashrga tayyorlangan. Tehron: Kitob tarjimasi va nashri muassasasi, 1973.
29. *G'iyosiddin Xondamir.* Dastur ul-vuzaro. Said Nafisiy tahriri ostida. Tehron: Iqbol, 1938.
30. Tarixi farishta. Navalkishvar.
31. *Nusratullo Mishkotiy.* Erondagi tarixiy obidalar va qadimiy yodgorliklar ro'yxati. Tehron: 1970.
32. Matla' us-sa'dayn. Muhammad Shafi' nashri. Lohur: 1949.

33. *Davlatshoh Samarqandiy*. Tazkirat ush-shuaro. Muhammad Rizoiiy tomonidan nashrga tayyorlangan. Tehron: Xovar, 1959.

34. *Alisher Navoiy*. Majolis un-nafois. Suyima G'anieva nashrga tayyorlagan. Toshkent: Fan, 1961.

35. *Abdulhay Habibiy*. Temuriylar davri san'ati va uning sohalari. Tehron: Madaniyat jamg'armasi nashriyoti, 1977.

MUNDARIJA

«Makorim ul-axloq» asarining toʻliq nashri (<i>S.Gʻanieva</i>)	3
Debocha	6
Muqaddima: Olijanob xulqlar fazilati va dunyo ulugʻlari pushti panohining saodatli tugʻilishi haqida	16
Birinch maqsad: Aql va idrokning ulugʻligi hamda yuksak darajasi haqida	22
Ikkinchi maqsad: Ilmning fazilati va olimlarning martabasi haqida	29
Uchinchi maqsad: Sheʼr fazilati va shoirlarning yuksak martabalari haqida	40
Toʻrtinchi maqsad: Yozuvchilikning fazilati va soʻzga zeb beruvchi fozillarning darajalari haqida	58
Beshinchi maqsad: Oxirat uchun zaxira toʻplash hamda bu dunyo va undagi narsalardan yuz oʻgʻirish haqida	65
Oltinchi maqsad: Hazrati Rasul alayhissalom va-t-tahiyat shariati arkonlariga rioya qilish haqida	75
Yettinchi maqsad: Mehrbonlik va rahmdillik haqida	101
Sakkizinchi maqsad: Kamtarlikning fazilati haqida	108
Toʻqqizinchi maqsad: Ochiqqoʻllik va saxiylikning ulugʻligi haqida	119
Oʻninchi maqsad: Topqirliklar va hazil-mutoyibalar bayoni ..	130
Xotima: Ayrim gʻaroyib holatlar va ajoyib hikoyatlar bayoni .	146
Hazrati sultonning yaqin kishisi boʻlgan ul oliy janobning oʻtkinchi dunyodan abadiy dunyoga safar qilishlari bayonida	152
Xondamirning hayoti va ijodi	166
Xondamirning yozgan asarlari	174
«Makorim ul-axloq» asari toʻgʻrisida	181
Ilovalar. Asarda nomlari keltirilgan shaxslar	185
Asarda nomlari keltirilgan joylar	221
Muqaddima va izohlarda istifoda qilingan manbalar	227

Adabiy-badiiy nashr

G'iyosiddin Xondamir

MAKORIM UL-AXLOQ

Muharrir	<i>Oydin Yo'ldosheva</i>
Badiiy muharrir	<i>Oloviddin Sobir o'g'li</i>
Texnik muharrir	<i>Dilmurod Jalilov</i>
Sahifalovchi	<i>Bobur Tuxtarov</i>
Musahhih	<i>Rayxon Ibragimova</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.
2018-yil 15-martda bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$. Times New Roman garniturası.
Ofset bosma. 12,75 shartli bosma toboq. 11,65 nashr tobogʻi.
Adadi 10000 nusxa. raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida

Yoshlar nashriyot uyi. Shayxontohur tumani,
Navoiy koʻchasi, 11-uy.

«ELIZABET PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Yalta koʻchasi, 17-uy.